

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xabarlari

Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal

BOSH MUHARRIR –

SAYFULLAYEV Nodirbek Baxtiyorovich –
Tarix fanlari nomzodi, professor

Bosh muharrir o'rinbosari –

YAKUBOV Baxtiyor Choriyevich –
San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tahrir hay'ati

ISMOILOV Abdurahim Isroilovich –
O'zbekiston san'at arbobi, professor
TULYAXODJAYEVA Muhabbat Turobovna –
San'atshunoslik fanlari doktori, professor
QODIROVA Sarvinov Muhsinovna –
San'atshunoslik fanlari doktori, professor
ALIMASOV Viktor Aleksandrovich –
Falsafa fanlari doktori, professor
UMAROV Absalom Adilovich –
Sotsiologiya fanlari doktori, professor
ABDULLAYEVA Munavvara –
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor
MAXMUDOVA Xamida Axyulovna –
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor
TO'YCHIYEVA Sayyora Suyarqulovna –
Falsafa fanlari doktori, professor v.b.
RIZAYEV Amanulla Zufarovich –
San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor
RASHIDOV Temur Maxmudovich –
San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor
FAYZIYEVA Feruza Xodjimuratovna –
San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor v.b.
XALIKULOVA Go'zal Erkinovna –
San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor v.b.
KOSHELEVA Antonina Fyodorovna –
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
ISMOILOV Hamdam –
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
NISHONBOYEVA Qunduz Vahobovna –
Tarix fanlari nomzodi, dotsent
ISOQOV Ziyodulla Safaraliyevich –
Tarix fanlari nomzodi, dotsent
MAXMUDOV Mirali Xaydarovich –
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
SAFAROV Orolmirzo Abdumannonovich –
O'zbekiston xalq hofizi, professor
NASIMOV Hilol To'liqinovich –
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, dotsent
XUDOYEV G'ani Muhammadovich –
San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor v.b.
DAVLATOV Oybek G'aniyevich –
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
TOSHMATOV O'rozali Gafurovich –
Professor

JAMOATCHILIK KENGASHI

NAZARBEKOV Ozodbek Ahmadovich –
O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri,
O'zbekiston Respublikasi xalq artisti
XASANOV Otabek Abdurashidovich –
Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi direktori,
siyosiy fanlari doktori (DSc)
Sirojiddin SAYYID –
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi,
O'zbekiston xalq shoiri
RIZAYEV Shuhratilla Tursunovich –
O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi
Kinematografiya agentligi direktori,
filologiya fanlari nomzodi, professor,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi
ABDULLAYEV Rustam Abdullayevich –
O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi,
O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi
SAGDIYEV Yodgor Xabibovich –
O'zbek Milliy akademik drama teatri direktori,
O'zbekiston Respublikasi xalq artisti
MUSTAFAYEVA Nodira Abdullayevna –
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ijtimoiy-
gumanitar fanlar bo'limi boshlig'i
MAMATMUSAYEV Toxir Shaydulovich –
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha bosh inspektori,
arxitektura fanlari doktori (DSc), professor
KASIMOV Nodir Ulug'ovich –
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi Yoshlar siyosati va ma'naviy tarbiyaviy ishlar
boshqarmasi boshlig'i
AKILOVA Kamola Boltaboyevna –
O'zbekiston tasviriy san'at galereyasi direktori, O'zBA
akademigi, san'atshunoslik fanlari doktori (DSc), professor,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi
ISMOILOVA Jannat Xamidovna –
O'zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori, tarix fanlari
doktori, professor
TESHABOYEVA Umida Alimddjanovna –
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligining Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy
kutubxonasi direktori

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi
rayosatining 2017-yil 29-noyabrda 245/6-sonli qarori bilan
San'atshunoslik fanlari bo'yicha dissertatsiyalar yuzasidan
asosiy ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan
ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

*Maqolada keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun
muallif mas'uldir.*

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2015-yil 14-dekabrda 0862-raqam bilan ro'yxatga olingan.

MUNDARIJA

I. TEATR VA KINO

1. M.To'rayev. Sahnaviy tasavvur va fantaziya.....	6
2. G.Isakova. Thoughts on the art of ballet.....	8
3. Z.Atabayev. Kino-televideniye san'atida badiiy ta'limning o'rni va ahamiyati.....	10
4. Sh.Xamidova. O'zbek aktyorlik san'ati taraqqiyotida teatr truppalarining o'rni.....	13
5. M.Umarxodjayeva. O'zbekiston an'anaviy teatr san'atida qo'g'irchoq muhim komponent sifatida.....	16

II. MUSIQA SAN'ATI

1. D.Malikova. Vokal-xor ijrochiligidagi o'quvchilar ovozi himoya qilish bilan bog'liq xususiyatlar borasida.....	20
2. S.Malikova. Amir Temur va Temuriylar davrida musiqiy tafakkur.....	24
3. Sh.Jahongir Jo'raqul o'g'li. Maqomlar – yuksak bastakorlik namunalari.....	27
4. B.Boltayev. Buyuk Ipak Yo'lining musiqiy madaniyatimiz hamda millatlararo totuvlik rivojida ahamiyati.....	30

III. SAN'AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

1. G.Xoliqulova. O'zbek she'riyatida aruz vazni rivojlangunga qadar mavjud bo'lgan poetik meroslar.....	33
2. B.Inatullayev. Ko'chmanchi va o'troq xalqlar hayotida akkultursiya hodisasi (Farg'ona vodiysi qirg'izlari misolida).....	40
3. X.Исмоилов, А.Исмоилов. Художественный перевод как искусство.....	43
4. Ш.Жалилова. Художественно-образная интерпретация пластических мотивов, виды и жанры танцевальных композиций в массовых сценических танцах.....	46

IV. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

1. Д.Мамирова. Специфика профессионально-прикладного физического воспитания студентов в вузах искусства и культуры.....	50
2. Д.Исмаилов. Особенности традиции и современности в преподавании предмета сценического движения.....	54
3. О.Останина. Особенности и проблемы воспитания специальных двигательных навыков у студентов отделения "Актер театра кукол".....	57
4. Sh.Omanqulova. Umumta'lim maktablari musiqa darslarida folklor qo'shiqlarini o'rgatish orqali o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash.....	59
5. D.Samatova. Umumta'lim maktablarida sinfdan tashqari musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarni estetik tarbiyalash.....	63

V. MADANIYATSHUNOSLIK

1. V.Alimasov. Ilmiy tadqiqotlarda mavzu tanlash va uning dolzarbligini asoslash metodlari.....	67
2. Q.Nishonboyeva. Madaniyat taraqqiyotida elektronlashayotgan qadriyatlar va mediaogohlik.....	70
3. X.Abdullayeva. Sharq turmush madaniyati va urbanistika modellari.....	76
4. N.Abdunazarova. Yoshlar madaniyatini oshirishda ijtimoiy muhitning o'rni.....	76

VI. KUTUBXONASHUNOSLIK

1. M.Isxakov. Badiiy adabiyotni targ'ib qilishda biblioterapiya usullari.....	79
2. И.Цай. Формирование читательской компетенции будущих библиотечных специалистов.....	82
3. Z.Abduganiyeva. Kutubxona-axborot muassasalarida amalga oshiriladigan virtual muloqot va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	84
4. Л.Муминходжаева. Обеспечение доступа к информации – необходимое условие совершенствования деятельности библиотечно-информационных учреждений.....	88

VII. YOSH TADQIQOTCHI

1. K.Umarov. Xalqaro integratsion jarayonlarning o'zbek teatri rivojida o'rni.....	91
2. N.Xakimova. O'zbek qo'g'irchoq teatri san'atida an'ana va zamonaviylik.....	94
3. H. Zaripova. Amaliy san'at genezisi va turli davrlardagi rivoji.....	97
4. Ш.Каримова. Анализ образа семьи в изобразительном искусстве Узбекистана (исторические аспекты).....	102

VIII. E'TIROF

1. V.Rustamov. Xayrulla Inog'omov – iste'dodli ijodkor va fidoyi rahbar.....	105
2. M.Xodjimatoeva. O'zbek teatri aktyorlarining kino va dublyaj san'atiga qo'shgan hissasi.....	107
3. Sh.Yusupov. Ustozlarning ilmiy merosini o'rganib... ..	110
4. B.To'raboyeva. Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambli: I.Vahobov hamda A.Ismoilovlar ijodi.....	113
5. I.Xomidov. Komediya orqali axloqiy fazilatlarini targ'ib etgan rejissyor.....	116

I BO'LIM

TEATR VA KINO

Ma'mur TO'RAYEV,
O'zDSMI "Musiqali teatr san'ati" kafedrası dotsenti

SAHNAVIY TASAVVUR VA FANTAZIYA

Annotatsiya. Mazkur maqolada, sahnaviy tasavvur va fantaziyaning aktyorlar ijrosidagi o'rni haqida so'z boradi. Aktyorlik mahoratini egallashni maqsad qilgan talabalar tasavvur olamining yeng yuksak cho'qqilarini zabt etishi kerak. Bunda esa ijodiy yondashuv va tafakkur ko'lami chuqur, xayollar olamini barpo qilish va uni rang-barang timsollar bilan boyitishdan iboratdir. Aktyorlik maktabida tahsil olayotgan talaba uchun tasavvur suv va havodek zarur.

Kalit so'zlar: aktyor, talaba, sahna, tomosha, tasavvur, fantaziya, ijodkor, asar, obraz, mohiyat, san'at, xususiyat.

СЦЕНИЧЕСКОЕ ВОООБРАЖЕНИЕ И ФАНТАЗИЯ

Аннотация. В данной статье говорится о сценическом воображении и роли фантазии в игре актеров. Студенты, стремящиеся приобрести актерское мастерство, должны покорить самые высокие вершины мира воображения. В данном случае сфера творческого подхода и мышления заключается в построении глубокого воображаемого мира и обогащении его красочной символикой. Воображение необходимо, как вода и воздух, студенту, обучающемуся в актерской школе.

Ключевые слова: актер, ученик, сцена, спектакль, воображение, фантазия, творец, произведение, образ, сущность, искусство, особенность.

STAGE IMAGINATION AND FANTASY

Abstract. This article talks about stage imagination and the role of fantasy in actors' performances. Students who aim to acquire acting skills must conquer the highest peaks of the world of imagination. In this case, the scope of creative approach and thinking is to build a deep, imaginary world and enrich it with colorful symbols. Imagination is as necessary as water and air for a student studying at an acting school.

Key words: actor, student, stage, performance, imagination, fantasy, creator, work, image, essence, art, feature.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tahsil olayotgan talabalar dars mashg'ulotlarining dastlabki kunlaridan boshlab "Stanislavskiy sistemasi" degan tushuncha bilan to'qnash keladi. Talaba tahsil olish davrida, qolaversa, butun ijodiy faoliyati davomida ham bu sistemaning mohiyatini anglab yetish va unga amal qilish ustida doimiy izlanadi.

Tasavvur aktyor ijodining mohiyatini belgilaydi. Fantaziya va tasavvur ijodkorga juda kerak. Tasavvur hosil qilish ijodda ko'p vaqt, qunt bilan o'rganilishi zarur. Nafaqat aktyor, balki jamiki ijodkorlar uchun tasavvur yuksak shakllangan bo'lishi kerak. San'at badiylikni talab qiladi, badiylik uchun esa ijodiy to'qimani mohirona qo'llay bilish muhim sanaladi. Har qanday asarni real va haqqoniy tasvirlash mumkin, lekin u asar badiiy to'qimalar bilan boyitilmas ekan,

ta'sirchan va qiziqarlilik xususiyatini yo'qotadi. Har doim hayotda bo'lmaydigan narsalar o'ylab topilsa, bu doim qiziqarli va zavqlidir. Tasavvur bu bor va biz bilgan narsa. Fantaziya esa, hayotimizda yo'q narsa va hech qachon bo'lmagan.

Tasavvur ijodkorni doimo yangilikka, yangi topilmalar topish va taassurot olamini rang-barang ijodiy chizgilar bilan rivojlantirib borishga chorlovchi hissiyot. Aktyorlik mahoratini egallashni maqsad qilgan talabalar, tasavvur olamining eng yuqori cho'qqilarini zabt etishi kerak. Bunda esa ijodiy yondashuv va tafakkur zarur. Aktyorlik maktabida tahsil olayotgan talaba uchun tasavvur layoqati suv va havodek zarur. Tasavvursiz aktyor libossiz sahnaga chiqqan bilan barobar, deyishardi ustozlarimiz. Negaki, tasavvur fikrlashni go'zallashtirish bilan birga, unga jon ham ato etadi.

Tasavvur va fikrsiz sahnada obrazlarni gavdalandirish aktyor tanasi va ruhiyatini ko'rimsiz holatga keltiradi. Tasavvur aktyorni har jihatdan ustun qilib tarbiyalaydi. Shu bois ham ijod maktabining poydevorini tasavvur qilish elementlari bilan qurish, ijodiy fantaziya bilan go'zallashtirish kerak. Shu o'rinda, teatr san'ati fanining nazariyasini yaratgan inson K.S.Stanislavskiy o'z sistemasida tasavvurni quyidagi bosqichlarda aniqlab olish kerakligini ta'kidlaydi: *"Ijod protsessida tasavvur boshlovchi hisoblanadi, u artistni o'zi ketidan boshlab boradi"*.

Aktyor tasavvurining boshqalardan farqi shundaki, masalan, rassomlar o'z tasavvurini o'zidan tashqarida amalga oshiradi, aktyor esa tasavvurini ongida va qalbida yaratadi. Qobiliyatli aktyor tasavvuri yosh bolaning tasavvuriga o'xshaydi. Yosh bolani o'yinchoq o'ynab o'tirganini kuzatib ko'ring. O'ynayotgan qo'g'irchoq'iga o'z bolasiday munosabatda bo'ladi. Bola ota-onasida ko'rgan bor oqibatni, mehr-muruvatni, shu qo'g'irchoq bilan bo'lgan munosabatda mujassamlashtiradi. Bolaning tasavvurida qo'g'irchoq uning farzandi, baxti, quvonchi. Uni ovqat yeyishiga, yurishga, uxlashga, o'zi bilgan barcha ishlarga o'rgatadi. Bundan tashqari bola ajoyib boy fantaziya ega. Gilamga qo'g'irchoq bilan o'tirib olib, samolyotda uchadi, o'rindiqni mashina hisoblab minadi. O'z fantaziyasida qandaydir maxluqlarni yaratib, ular bilan suhbatlashadi, kurashadi, g'olib chiqadi. Shu paytda unga xalaqit berib, o'yinchoq'ini olib qo'ying, nima bo'lar ekan? Tasavvur qildingizmi? Bola dod solib, endi maxluq kelib uni yengishini yoki qo'g'irchoq'i kasal bo'lib qolganligini yoki bo'lmasa samolyoti buzilganligini aytib ko'z yosh qiladi. Bola barcha qilayotgan ishiga bor vujudi bilan hayotiy, chin ishonadi.

San'atkorda ham shunday qilishga nima xalaqit beradi? Savodli aktyorga hech narsa xalaqit bermaydi. U ham bola kabi boy tasavvur va fantaziya ega.

Aktyor tasavvuri – bu ehtimolga yaqin, real va haqiqiy muhitdagi turli sharoitlarda aktyor o'zini ko'ra olishi.

Fantaziya – turli g'ayritabiiy, ya'ni irreal sharoitlarda aktyor o'zini ko'ra olish qobiliyati. Noreal bu haqiqiy muhitda mavjud emas (afsonaviy ertaklar olami haqidagi fantastik qarash).

Insonda 5 ta sezgi a'zosi bor:

- sezish;
- his qilish;
- ta'm bilish;
- ko'rish;
- eshitish.

Aktyor bo'laman, degan talabalar uchun bu juda muhim hisoblanadi. Ular aktyorlik mahorati fanida yuqoridagi sezgining besh turini qayerda qanday qo'llashni o'rganishadi. Rassomning ijodiy izlanishi davrida asosan bitta sezgi a'zosi ishlaydi birinchisi bu ko'rish bo'lsa, musiqachida esa eshitishdir. Aktyor ijodiy tasavvuri vaqtida beshta sezgi a'zolarining barchasi ishlaydi.

Aktyor uchun eng asosiy qurol bu uning tanasi, gavdasi. Chunki sahnada shaxsan o'zi xatti-harakat

qiladi: tushuntiradi, ovutadi, qo'rqitadi, sevgi izhor qiladi va yana qanchadan-qancha badiiylashgan vazifalarni bajaradi. Demak, aktyor aql-idrokini, irodasini, fantaziyasini ishga solib, o'z badiiy tasavvurini mushaklarining harakatlari orqali ifoda qiladi.

Tasavvur va fantaziya mashqlarini bajarayotgan vaqtda aktyor, albatta, **"Agarda"** atamasiga duch keladi. **"Agarda"** real hayotdan va real shart-sharoitlardan tasavvurdagi hayotga o'tishdagi shart hamda pyesa muallifi yoki rejissyor tasavvuridagi shart-sharoitga aktyorning haqiqiy hayotdan o'tishi uchun beriladigan javobidir. Stanislavskiy **"Agarda"**ni: *"Ijodga kirish darvozasi"*, deb atagan. Aktyor o'ziga savol beradi: *"Agarda men mana shu shart-sharoitlarda bo'lib qolsam, nima qilgan bo'lar edim?"* Shu savoldan keyin xatti-harakat orqali javobini topa oladi. Sehrli so'z **"Agarda"** – ijod vaqtida aktyorga sahnaviy ijroni hayotiy, tabiiy qilib yaratilishiga, muhimi, ishonchga imkon beradi. Tasavvur, fantaziya yoki orzu qilish bu degani, eng avvalo, qarash, nima haqida o'ylayotgan bo'lsang ana shuni ichki ko'z bilan ko'rishdir. Tasavvur aktyor uchun faqatgina yaratish uchun kerak bo'libgina qolmay, u eskini, yaratilib bo'lingan ishni yangilash uchun ham kerak. Bu yangi ijodiy to'qimalarni kiritish orqali tug'iladi. Har bir qadam sahnada tasavvursiz amalga oshmaydi. Sahnada ishlayotgan aktyorga tasavvur haqiqiy, haqqoniy hayotni yaratilishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, tasavvur va fantaziya talaba ijodining mantiqli va davomli bo'lishini ta'minlovchi omildir. Ularsiz talabaning ijodi jonlanmaydi. Negaki, tafakkurda hosil bo'lgan fikrni tuyish, uni his qilishni tasavvur belgilab bersa, ularni rang-barang xayoliy to'qimalar bilan boyitish, kutilmagan voqea-hodisalarga ergashtirish, cheksiz va ulkan xayolot olamini barpo qilishni talabaning ijodiy fantaziyasi yaratadi. Shuning uchun ham tasavvur va fantaziya talabaning yo'lchi yulduzidir. Bunday yorqin iste'dodga ega bo'lgan ijodkor san'at olamining yuksak pillapoyalarini mardona zabt etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yorbekov E., Muhammadiyev Sh. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: "Navro'z", 2019.
2. Sayfullayev B., Mamatqosimov J. Aktyorlik mahorati. – T.: "Fan va texnologiya", 2012.
3. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. – T.: "Badiiy adabiyot", 2010.
4. Abdullayeva M. Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati. – T.: "Tafakkur qanoti", 2014.

THOUGHTS ON THE ART OF BALLET

Abstract. Ballet is the most attractive form of art with a rich centuries-old history and is characterized by the ability to give the viewer an artistic idea through dance. This article deals with the development and popularization of ballet art, as well as the meaningful and figurative expressions that are expressed about this art form.

Keys words: ballet art, choreographic image, stage work, terms of ballet, foot movement, ballet master.

BALET SAN'ATI HAQIDA MULOHAZALAR

Annotasiya. Balet ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan eng jozibali san'at turi bo'lib, tomoshabinga badiiy g'oyani raqs orqali bera olishi bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada balet san'atining rivojlanishi va ommalashuvi, shuningdek, ushbu san'at turiga oid ma'nodor va obrazli ifodalar borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: balet san'ati, xoreografik obraz, sahna asari, balet terminlari, oyoq harakati, baletmeyster.

РАЗМЫШЛЕНИЕ ОБ ИСКУССТВЕ БАЛЕТА

Аннотация. Балет является наиболее привлекательным видом искусства с богатой многовековой историей и характеризуется способностью через танец дать зрителю художественную идею. В данной статье речь идёт о развитии и популяризации балетного искусства, а также о содержательных и образных выражениях, высказывавшиеся об этом виде искусства.

Ключевые слова: искусство балета, хореографический образ, сценическое произведение, термины балета, движение ног, балетмейстер.

When it comes to art and culture, the country of France comes to mind associatively. It's not in vain, of course. Because the origin and development of many types of art is associated with France. For example, when we talk about cinema, we remember its creators – French directors and actors, the Lumier brothers, who made a great contribution to the development of this art. It is difficult to imagine theatrical art without the tragedies of P.Cornell, J.Racine, and the plays of J.B.Molière.

Below we will consider about ballet, which stands out for its attractiveness among the art forms. It is known from sources that the term ballet was borrowed from Latin (lat. ballare - to play, dance) into Italian (it. balletto), and from it into French (fr. ballet) [Lekhina, 1985:69; Umarov, 2015:23].

In the explanatory dictionary of the Uzbek language, this term is defined as follows: Ballet. A stage work that expresses the content of the work through musical and choreographic images and music written for such a work [O'TIL, vol. 1: 148]. In essence, ballet is a kind of art capable of conveying to the viewer the artistic idea of stage work through dance movements, the content and essence of which are embodied in musical and choreographic images.

In the history of art, it is noted that ballet first appeared in Italy. But its development is connected with the French state. The first ballet in France, "*Ballet Comique de la Reine*", was staged by the Italian choreographer Baltazarini on October 15, 1581, and gradually became popular. During the reign of Louis XIV, ballet improved somewhat and became a favorite pastime of the nobility. The king was very fond of this kind of art and he himself performed it

with love. Louis XIV was nicknamed "*The Sun King*" (Le Roi Soleil) after his role as the "*sun*" in a ballet.

By the end of the 16th century, ballet had become the most popular art form in the country. The strong passion of Louis XIV for the art of ballet is evidenced by the fact that he fully financed this art form from the royal treasury. Also in 1661, he founded the "*Royal Academy of Dance*" (Academie Royale de Danse) in Paris. It was the first ballet school in the world. The composer and choreographer Lully led this school. Jean Baptiste Lully (1632–1687) was the king's favorite dancer. He belonged to the Italian nationality and entered the history of art as the creator of the French national opera. Lully played the main role in the development of ballet in subsequent years.

Thus, this type of art, which developed and improved in France, is spreading to other countries and peoples. Ballet, considered the most elegant and attractive form of art, occupies a worthy place in the hearts of many nations. Nowadays, all nations appreciate and love the art of ballet.

The ballet school, created by the French, without change penetrated into all nations with its terms. All ballet terms of the French language are used without change in all languages. For example, plié, demi plié, battements tendus, battements jetés, ronds de jambe par terre, battements fondus, battements frappés, ronds de jambe en l'air, échappée, assemblé, a takke battements soutenus et petits battements sur le cou-de-pied, developpé, temps levé et changement de pied, sissonne simple, pas de bourrée, balancé, relevé, pas de bourrée suivi, allonge, amboiter, enchainement, arrondie, balancer etc [Yarmolovich, 1986]. In general, it can be stated that the enthusiasm

of the French in the field of art led to the fact that the French language spread throughout the world and began to be studied as a language of culture.

Speaking of the French ballet school, it is worth mentioning the famous choreographers Jean Babilé (1923–2014), Zizi Jeanmer (1824), Elisabeth Platel (1959), Sylvie Guillem (1965), Isabelle Ciaravola (1972), Aurélie Dupont (1973), Marie-Agnes Gillot (1975), Dorothea Gilbert (1983) and others.

Many people, based on their experience, are interested in the many meaningful suggestions and opinions expressed by creative people or industry professionals who have been hugely positively influenced by this type of magical art based on their experience. They reveal the essence of ballet art in a meaningful and figurative form and enrich our speech.

African peoples have a proverb. *La vie est un ballet*; *on ne le danse qu'une fois* (fr.), i.e. Life is a ballet; it can only be played once. It seems that the above proverb refers to human life. But a figurative comparison of life with ballet shows a certain level of it.

The famous Russian writer A.S.Pushkin (1799–1837) said that ballet is a dance performed by the human soul. So ballet is not only a series of movements but also a cry from the heart. Through the choreographic image, the performer penetrates the heart of the viewer.

The words of the Russian satirist Emil Krotzky (1892–1963) about ballet: *“The legs feed the wolf and the ballerina”*. In fact, unlike other types of dance, the main movements in ballet dance are performed with the feet.

The phrase *“Ballet is an opera for the deaf”* in Uzbek sounds like *“ballet – bu gunglar uchun opera”*. Ballet is an art form that can give the audience a work of art through dance moves. Actions enter the soul not by hearing, but by seeing. When we talk about movement, the definition of ballet art given by the Russian writer, philosopher, and poet Boris Krieger (1970) comes to mind: *“Ballet is the art of turning movement into art”*.

It is known that Russian ballet played a big role in popularizing ballet in America. Here it is appropriate to cite the opinion of the English writer and screenwriter Alan Khakin (1924–2009), *“Russia: hundreds of miles of fields and ballet in the evenings”*.

Russian and Israeli writer, humorist, and author of many aphorisms Gennady Malkin (1939) said that *“There is only a corps de ballet better than ballet”*. It is known that the corps de ballet (fr. Corps de ballet) is a group performance of ballet dances [Lekhina, 1985:254]. From this statement, one can understand how much the author appreciates this type of art.

Doctor of Medical Sciences Ilya Shevelev noted that *“Ballet is spiritualized plasticity, the embodiment of thought in motion, the spiritual in the body”*. It seems that not all representatives of the region can describe the experiences in the body of ballet dancers in this way.

The actress Faina Ranevskaya (1896–1984), speaking about ballet, said: *“Ballet is hard labor in flowers”*. It must be remembered that ballet dances are the result of constant training and hard work before they are presented to the audience.

Attracts the attention of industry experts. George Balanchine (1904-1983) is a Georgian choreographer who contributed greatly to the development of American ballet. His opinions, based on his own experience, are actively used by industry representatives. For example, he noted: *“To make a good ballet, you need to love beautiful women”*. These words emphasize the importance of the feeling of love and its impact on the performer for the effective performance of the ballet.

Also, from such words *“Ballet is a women's world in which a man is only an honored guest”*, or *“A man in ballet is an accompaniment to women's dances”*, one can understand that women, who are considered fragile, are considered as the backbone of this graceful stage art.

No one can deny that women have always been magical and mysterious. Nature created them the most gentle, the kindest, and therefore the most powerful, impetuous, and demanding when the time comes.

Here we recall the words of the Russian ballet dancer, ballet teacher, and film actor Maris Liepa (1936–1989): *“When you lift a partner, it's not the weight that is heavy, but the character”*. This means that the taste and character of the ballerinas will be so gentle that no other heaviness or difficulty will be felt in front of them.

Russian ballerina, and choreographer - Maya Plisetskaya (1925–2015) said: *“Japanese cuisine is the ideal food for a ballerina”*. Because it is important for ballet dancers not to increase body weight, but maintain their height and diet.

Hence the conclusion that ballet art has a rich centuries-old history and its heroes, who took an active part in the development and popularization of this art form. From the meaningful and figurative statements about this art form, one can see how deeply it has penetrated into the hearts of people and widely the spheres of its influence.

Used literature:

1. Лехина И.В., Локшиной С.М., Петрова Ф.Н. Словарь иностранных слов. 12-е. изд. – Москва: Русский язык, 1985.
2. Umarov A., Bekmurodov M. Madaniyat va san'at atamalarining izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
3. Ярмолович Я.И. Классические таны. – Ленинград: 1986.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati (1-jild). – T.: “O'zbekiston”, 2006.
5. Larousse. Dictionnaire encyclopédique. – Paris: 1993.

KINO-TELEVIDENIYE SAN'ATIDA BADIY TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada, bugungi kundagi kino-televideeniye san'atining tarixi, birinchi navbatda, televideeniye va kino ta'limini uyg'unlashtirish muammosiga to'xtalamiz. Shuningdek, maqolada kino-televideeniye san'atining mualliflik mazmuni, rejissyorlik o'qish, aktyorlik va musiqiy dizaynni o'z ichiga olishi hamda san'atning kinematik sintezining o'ziga xosligi, kino tasvirining xususiyatlari haqida batafsil so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: kino, televideeniye, san'at, tarix, mualliflik, rejissyor, aktyorlik, musiqiy dizayn, kinematik sintez, kino tasvir, badiiy ta'lim.

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В КИНО И ТЕЛЕВИДЕНИИ ИСКУССТВА

Аннотация. В данной статье мы остановимся на истории современного кино и телеискусства, прежде всего на проблеме совмещения телевидения и кинообразования. Также в ходе статьи кинотелевидение является одним из самых ярких видов искусства, подробно рассматриваются особенности кинообраза, в том числе авторское содержание, режиссура, актерское и музыкальное оформление, уникальность кинематографического синтеза искусства.

Ключевые слова: кино, телевидение, искусство, история, авторство, режиссер, актерское мастерство, музыкальное оформление, кинематографический синтез, кинематография, художественное образование.

THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF ART EDUCATION IN CINEMA AND TELEVISION ARTS

Abstract. In this article, we will focus on the history of today's film and television art, first of all, on the problem of combining television and film education. Also, during the article, the film-television is one of the most vivid types of art, and it is discussed in detail about the features of the film image, including the author's content, director's study, acting and musical design, and the uniqueness of the cinematic synthesis of art.

Key words: cinema, television, art, history, authorship, director, acting, musical design, cinematic synthesis, cinematography, art education.

Bugungi kunda o'zbek milliy kino-televideeniye san'ati davlat va jamiyat ijtimoiy hayotini barqarorlashtirish, mamlakatimizning milliy qadriyat va madaniyatini dunyo maydonlariga olib chiqishga xizmat qilmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mamlakatimiz Prezidenti tashabbuslari bilan O'zbekistonda barcha sohalar qatori milliy kino va televideeniye sohasida ham professionalizm va xalqaro integratsiyaga asoslangan maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bugungi kunda kinoindustriyani yanada rivojlantirish, sohadagi dolzarb muammolarni hal etish maqsadida bir qator chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilmoqda. Shu bilan birga, "O'zbekiston Respublikasida kinematografiya sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident Farmoni hamda "Kinematografiya to'g'risida"gi [1] Qonun loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha idoralararo ishchi guruhi bilan birgalikda keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad bitta –

xalqimizga har jihatdan yetuk kinoasarlarni taqdim etish.

Badiiy ta'lim so'z bilan amalga oshiriladigan ijodning barcha ko'rinishlarini o'z ichiga olgan san'at turi bo'lib, kino-televideeniye san'atining asosiy manbalaridan biridir. Kino-televideeniye san'ati badiiy ta'lim asarlaridan texnika, tasvir, syujet va mavzularni oladi. O'zbekistonda badiiy ta'lim islohotlari (XX asr 50-yillar oxiri 60-yillar boshlari) tufayli kino-televideeniye san'ati rivojlandi. Aynan o'sha paytda kino va televideeniye mustaqil o'quv intizomi sifatida oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga keng kiritildi.

O'zbek kino-televideeniye san'ati badiiy ta'lim yo'lidagi rivojlanish yo'lida bir qancha bosqichlarni bosib o'tdi. Birinchi bosqich 60-yillarning oxiri 70-yillarning boshlarida amalga oshirildi. Oliy ta'limni shakllantirish va mustahkamlash jarayoni asosan badiiy ta'limni amalga oshirish, katta yoshdagi aholi o'rtasida savodsizlik va savodsizlikni bartaraf

etish muammolarini hal qildi. Shu bilan birga badiiy ta'lim (jumladan, kino-televideniye san'ati), mamlakatimizdagi barcha ta'lim sohalari singari 70-yillarning o'rtalariga qadar kuchli mafkuraviy bosim sharoitida rivojlandi.

O'sha vaqtlarda kino-televideniye san'ati o'qituvchilari ommaviy axborot vositalari matnlarini tahlil qilish uchun to'liq vositalarga ega emas edilar. Bu holat media-pedagoglarning, xususan, badiiy ta'lim sohasidagi uslubiy ishlanmalarga bo'lgan murojaatini belgilaydi. Rossiyada kino-televideniye san'ati badiiy ta'limi asoschilaridan biri S.N.Penzin shunday deb yozgan edi: *"Kino-televideniyening o'ziga xosligini topish badiiy ta'lim yordamisiz to'laqonli san'atga aylanishi qiyin bo'lgani kabi biz ham o'z oldimizga qo'ygan vazifalarni uddasidan chiqa olmaymiz"* [2]. Bu, eng avvalo, badiiy asarni ijodiy jarayon sifatida tahlil qilish metodologiyasi, muallif pozitsiyasini idrok etish usullari, o'quvchining birgalikdagi ijodini uyg'otish va faollashtirish, yozuvchining tarjimai holini o'rganish, uning nazariy va adabiy faoliyatini shakllantirish masalalariga taalluqlidir.

Kino-televideniye sa'natida badiiy bilimlarning yetishmasligini to'ldirish kino va televideniye o'rtasidagi munosabatlarni tushunish uchun rossiyalik kinoshunos olim M.Rabinovich mashhur "Kino san'ati" jurnaliga murojaat qilib, rejissyorlar va tanqidchilardan uchta savolga javob berishni so'radi:

1. *Filmga moslashish har doim yo'qotish bo'ladi, degan fikrga qanday qaraysiz va nega biz ularni kino uchun samarali yo'l sifatida ko'rmasligimiz kerak?*

2. *Yirik adabiyot asarlari allaqachon suratga olinganini inobatga olsak, bu janrning taqdiri qanday bo'ldi, deb o'ylaysiz?*

3. *Sizningcha, filmga moslashuvlar yozuvchining kitobiga qiziqish uyg'otishiga hissa qo'shadimi? Kinoga moslashishni televideniye san'atini o'rganishni rag'batlantirish vositalaridan biri, deb hisoblash mumkinmi?*

Televideniyening kino uchun, badiiy ta'lim uchun ahamiyatini tahlil qilar ekan, M.Rabinovich badiiy ta'limning kino-televideniye san'atiga moslashishda asosiy manba rolini yaqqol anglashiga tayangan. Uning fikricha, film tomosha qilishdan oldin badiiy ta'limni o'rganish, tomoshabinning estetik tayyorgarlik darajasini oshirish zaruriyatini tug'dirdi [3]. Ushbu muammo bo'yicha ishlarni ko'rsatadigan dastur qoidalari kino-televideniye san'ati o'qituvchisi tomonidan ishlab chiqilgan tanlovning mazmunida aks ettirilgan:

1. Kino-televideniye san'atining vujudga kelishi. Badiiy talim kino-televideniye manbalaridan biri (mavzular, syujetlar, tasvirlar, texnikalar).

2. "Buyuk soqov". So'zning funksional roli.

3. Kino va televideniye badiiy ta'limning birlamchi elementidir.

4. Zamonaviy filmdagi so'z va obraz. Tasvirning

dominant pozitsiyasi.

5. Televideniye va kinoda montaj.

6. "Inson qalbi dialektikasi"ni, shaxsning ichki dunyosini takrorlashda kinoni badiiy ta'limga yaqinlashtiradigan kinematografiya uslublari.

7. Televideniye va kinematografiya voqelikning bir xil tomonlariga, lekin har xil vositalar bilan murojaat qiladi.

8. Badiiy ta'lim asarlarini kino-televideniyega moslashtirish tamoyillari. Roman, hikoya, hikoyaning ijodiy, kino talqini.

9. Dasturiy asarlarni o'rganishda film moslamalaridan foydalanishning o'ziga xos usullari. Badiiy ta'limni o'rganish bilan bog'liq holda yangi turdagi insholar, adabiyotga oid yozma asarlar ekran tiliga tarjima qilish.

10. Seminarlar, amaliy mashg'ulotlar, televideniye namunalaridan ba'zi muhim kinofilmlarga oid darslar.

11. Kino-televideniye adaptatsiyalari badiiy ta'lim zamonaviy o'qish vositalaridan biri sifatida.

12. Darsda va darsdan tashqari ishlarda badiiy film. Oliy ta'lim muassasalari talabalarini estetik tarbiyalashda adabiyot, kino va televideniyening o'zaro ta'siri.

Bizning nazarimizda kino-televideniye san'atida badiiy ta'limning o'rni va ahamiyatini yuqorida keltirib o'tilgan dasturda televideniye va kinoning o'zaro ta'sirini tahlil qilish orqali talabalarning estetik savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan ishning bir qator ketma-ket bosqichlarini o'z ichiga oladi:

- talabalar ongida televideniye va kino o'rtasidagi o'zaro ta'sirning tarixiy jihatini nazariy rivojlantirish;

- televideniye va kino o'rtasidagi "aloqa nuqtalari"ni o'qituvchi bilan birgalikda qidirish: umumiy usullarni ajratib ko'rsatish;

- badiiy ta'limdagi adabiy asarlarni kino-televideniyega moslashtirishning asosiy tamoyillarini tahlil qilish (muallif mazmuni, rejissyor o'qishi, aktyorlik o'yini, musiqiy dizayn);

- kino-televideniye san'ati nazariyasining elementar tushunchalarini tushunishning fundamental asosi sifatida badiiy ta'lim nazariyasining elementar tushunchalarini o'rganish;

- talabalar bilan filmlarni tomosha qilish va keyinchalik tahlil qilish bilan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish (televideniyedagi hujjatli manbani ko'rib chiqish va filmga moslashtirish kontekstida).

Kino-televideniye san'atida badiiy ta'limning o'rni va ahamiyati borasidagi qarashlarimizni xorijiy tadqiqotlar bilan asoslaymiz. Jumladan, germaniyalik kinoshunos Y.M.Lotman kino-televideniye tilining mazmunini shunday shakllantirgan: *"Ekrandagi har bir tasvir belgi, ya'ni ma'noga ega ma'lumot olib boradi. Biroq bu ma'no ikki xil bo'lishi mumkin. Bir tomondan, ekrandagi tasvirlar real dunyodagi ba'zi obyektlarni takrorlaydi. Ushbu obyektlar va ekrandagi tasvirlar o'rtasida semantik aloqa o'rnatiladi. Obyektlar*

ekranda aks ettirilgan tasvirlarning ma'nosiga aylanadi. Boshqa tomondan, ekrandagi tasvirlar ba'zi qo'shimcha, ba'zan butunlay kutilmagan ma'nolar bilan to'ldirilishi mumkin. Yoritish, tahrirlash, rejalar bilan o'ynash, tezlikni o'zgartirish va hokazolar ekranda aks ettirilgan obyektlarga qo'shimcha ramziy, metaforik, metonimik ma'no berishi mumkin" [4].

Kino-televideniye sa'natida badiiy ta'limning o'rni va ahamiyatini yana ikki xorijlik olimlar I.S.Levshina va Y.N.Usovlar badiiy ta'limni o'qitishning uslubiy kamchiliklari haqidagi fikri adolatli ko'rinadi: *"Badiiy matnga murojaat qilishda quruq taqdimot, badiiy asarlarning hissiy tajribasini o'ldiradigan tahlil haqida; kinematografiyani xuddi shunday xavf kutayotganidan qo'rqish uchun ular uni ta'lim mavzusiga aylantirishga qaror qilishdi. Ba'zilar fikricha, kino-televideniye san'ati haqidagi erkin, beixtiyor muloqot oliy ta'lim muassasalari talabalarini kitoblar, filmlar va rasmlarni baholashda ratsionalizm va quruq didaktikadan himoya qilishi mumkin"* [5].

Bizning nazarimizda talabalarni televideniye va kino tasvirlarini idrok etish jarayonini solishtirish jarayonida, kino-televideniye o'qituvchisi ularni tahlil qilish va sintez qilib quyidagilarga amal qilishi lozim:

- *ma'nolarni aniqlash (so'zlar, ramkalar);*
- *ularni yangi konsepsiyaga birlashtirish (iboralar, film iboralari);*
- *o'qigan va ko'rgan narsalarning xilma-xilligini tushunish;*
- *unga nisbatan munosabatni aniqlash.*

Shuni ta'kidlash kerakki, kino-televideniye san'atida badiiy ta'limning o'rni va ahamiyatini tahlil qilish, ko'pchilik mahalliy nazariyotchilar va amaliyotchilarning tushunishida, har doim ko'rib chiqish usulini o'z ichiga oladi. Taqriz – yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asarni ko'rib chiqish, tahlil qilish va baholashni o'z ichiga olgan original adabiy janr. Filmni ko'rib chiqish usuli adabiyotlardan badiiy ta'lim maqsadlarida foydalanishning yana bir misolidir.

Xulosa qilib aytganda, kino-televideniye san'atida badiiy ta'limning o'rni va ahamiyati vaqt dolzarbligini yanada kuchaytirdi. Intellektual filmlar emas, balki kassayaratish tendensiyasi jamiyatning badiiy ta'limga bo'lgan ehtiyojini yo'qotganligidan dalolat beradi va natijada televideniye-kino san'atiga iste'molchi munosabati paydo bo'ladi (tomoshabinga tayyor film taqdim etilganda). Hozirda tomoshabinning kino-televideniye asarlarining hammuallifi bo'lish qobiliyati keraksizdek va so'nayotgandek tuyulganda, badiiy ta'lim yoshlarda estetik savodxonlikni rivojlantirishga yordam berishi mumkin va kerak. Tomoshabinlarda yuqori darajadagi mavhum, majoziy tafakkurning mavjudligi kino-televideniye san'ati nazariyasining elementar tushunchalarini bilish bilan birga, tanqidiy fikrlash va estetik tuyg'u shakllanishining o'ziga xos kafolatiga aylanishi mumkin. Shundagina bizning kino-televideniye san'atimiz yuksakliklar sari qadam qo'yishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasida kinematografiya sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident Farmoni. "Xalq so'zi" gazetasi, 17-iyun, 2020-yil.
2. Зоркая Н.М. Уникальное и тиражированное: средства массовой информации и репродуцированное искусство. – Москва: «Искусство», 1981 г. С.168.
3. Левшина И.С. Как воспринимается произведение искусства. – М.: «Знание», 1983 г. С.96.
4. Лотман Ю.М. Семиотика кино и проблемы киноэстетики. – Таллин: «Ээсти Раамат», 1973 г. С.138.
5. Пензин С.Н. Кино и эстетическое воспитание: методологические проблемы. – Воронеж: «Воронеж», 1987 г. С.176.
6. Поличко Г.А. Киноязык, объясненный студенту. – М.: «Русское слово», 2006 г. С.200.

O'ZBEK AKTYORLIK SAN'ATI TARAQQIYOTIDA TEATR TRUPPALARINING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, o'zbek aktyorlik san'atining shakllanish jarayonida havaskorlik truppalarining o'rni va ahamiyati haqida so'z ketadi.

Kalit so'zlar: teatr, aktyor, truppa, rejissyor, dramaturg.

РОЛЬ ТЕАТРАЛЬНЫХ ТРУПП В РАЗВИТИИ УЗБЕКСКОГО АКТЕРСКОГО ИСКУССТВА

Аннотация. В данной статье рассказывается о роли и значении самодеятельных трупп в процессе становления узбекского актерского искусства.

Ключевые слова: театр, актер, труппа, режиссёр, драматург.

THE ROLE OF THEATER COMPANIES IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK ACTING

Abstract. This article describes the role and importance of amateur troupes in the process of formation of Uzbek acting.

Key words: theater, actor, troupe, director, playwright.

O'zbek teatri aktyorlik san'ati taraqqiyoti Abdulla Avloniy tomonidan 1913-yil Toshkentda teatr truppasi tashkil qilinishidan boshlandi. "Turon" truppasi Abdulla Avloniy boshchiligidagi 25 ta yosh aktyorlar jamoasi bilan ish boshlar ekan, truppa ijodkorlari 1914-yil 27-fevralda "Kolizey" teatri binosida Aliasqar Asqarov tomonidan sahnalashtirilgan Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi yorqin ijro etdilar. Ushbu tomosha haqida G'ulom Zafariy "O'zgarishchi yoshlar" jurnalida o'z fikrini: *"Bu spektaklni o'ynashda kavkazlik o'rtoqlarimizdan Ali Asqar Asqarovning katta yordami tegib, teatrn o'ynamoq usullarini ko'rsatib, rejissyorlik etdi"*¹, – deb bayon etadi.

Spektakl katta muvaffaqiyat qozonadi. Bu haqida "Oyna" jurnalining 1914-yil 22-mart sonida Fuzoil Jonboyevning "Toshkentda milliy teatr" nomli taqrizi bosilgan. *"Unda boy rolida Abdulla Avloniy, domla – A.Ziyoboyev, ziyoli – Nizomiddin Xo'jayev, Xayrullo Eshonxo'ja Xoniy, Norposhsho Xo'jayeva, Tangriqul – Shoh Inoyatov, boy xotini – Hasan qori Ziyoboyev, boyvachcha Toshmurod – Badriddin A'lamov, pristav – Mirzaxonovlar o'z rollarida yaxshi mahorat ko'rsatdi, ayniqsa, A.Avloniy boy obrazini qanday bo'lishi lozim bo'lsa, uni xuddi*

*shunday mujassam o'laroq ko'z oldimizga keltirib qo'ydi. Avloniyning sahnada ko'rsatgan mahorat va iste'dodiga tashakkur qilmasdan o'tmoqni vijdon qabul etmaydi"*², – deb yozgan edi. Bundan ko'rinib turibdiki, undagi ijrochilar ushbu tomoshaning tomoshabop bo'lishi uchun harakat qilganlar.

Ushbu tomoshadan so'ng truppa yana bir qator asarlarni sahnalashtiradi. Bular 1914-yilda sahnalashtirilgan "To'y", 1915-yil Avloniy tomonidan ozarbayjonchadan tarjima qilinib, uning o'zi tomonidan sahnalashtirilgan "Badbaxt kelin", o'sha yil kuzda sahnaga qo'yilgan A.Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" dramalaridir. Truppaga original asarlar kerakligini his etgan Abdulla Avloniy "Finak", "Advokatlik osonmi?" kabi komediyalar yaratadi. 1916-yil "Advokatlik osonmi?" asariga o'zi rejissyorlik qiladi. Ushbu spektaklda advokat rolini N.Xo'jayev, xizmatkor rolini esa M.Uyg'ur o'ynagan. Ushbu asarlar o'zbek teatri aktyorlik maktabining shakllanishidagi ilk qadamlar bo'lib, havaskor aktyorlar o'z ko'rganlari hamda tasavvurlari orqali ushbu rollarni ijro etganlar. Mazkur ijodkorlarning intilish va izlanishlari natijasida 1915-1916-yillar oralig'ida truppa nafaqat milliy asarlar, balki tarjima asarlarga ham qo'l uradi. Bular Ozarbayjon dramaturgi Muhammad Qulizoda qalamiga mansub "O'liklar" hamda Uzeir Hojibekovning "Layli va Majnun" asarlaridir. Aynan shu spektakllar truppaning shakllanishiga sabab bo'lib, uning kelgusi faoliyati uchun maktab vazifasini bajardi.

¹ "O'zgarishchi yoshlar" jurnali, 1924-yil, 2-son

² Rahmonov M. Hamza (O'zbek davlat akademik drama teatri tarixi). 1-kitob (1914–1960-yillar). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001-y. 11-b.

Bu haqida akademik Mamajon Rahmonov “Hamza” (1-bob) kitobida: *“Truppaning professionallik yo‘lidagi rivojida 1915-1916-yillarda sahnalashtirilgan qator tarjima asarlari katta ijobiy ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, bu masalada Ozarbayjon dramaturgiyasi muhim rol o‘ynagan”*³, – deya fikr bildiradi.

1916-yil Sidqiy Ruhilloning gastrolga kelishi munosabati bilan sahnalashtirilgan “Layli va Majnun” spektakli orqali aynan “Turon” truppasida ilk musiqali asarga qo‘l urildi. Mamajon Rahmonovning ta’kidlashicha: *“Sidqiy Ruhillo o‘zbek yoshlariga musiqa teatri to‘g‘risida juda ko‘p ta’lim bergan. Har bir obrazning yaratilish uslublari gacha, ariya, duet va xorlari gacha, grim va kiyim-kechaklari gacha o‘rgatgan”*⁴. Shu tariqa o‘zbek teatrida nafaqat dramatik teatr, balki musiqali spektakllarda rol ijro etuvchi aktyorlar ham yuzaga kela boshladi.

Aynan 1917-yil Oktyabr inqilobiga qadar o‘zbek aktyorlik san’atida ayollar rollari bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelgan. Sabab, xotin-qizlarning paranjida yurishi ularni sahnaga chiqib rol ijro etishlari uchun imkon bermas edi. Shuning uchun ham erkaklar ayollar rollarini ham ijro etganlar. Bunday spektaklda ayol personajining tomoshabinga ta’siri yuqori bo‘lmadi. Chunki tomoshabin qarshisidagi ijro etuvchining erkak ekanligini sezib turgan. Shu sabab ham o‘zbek sahnasidagi ilk aktrisalari o‘zbek millatiga emas, balki boshqa millatga mansub bo‘lgan. Teatrshunos I.Muxtarovning ta’kidlashicha: *“O‘zbek millatiga oid bo‘lgan ayollar 1926-yildan yuzlarini ochgan holda sahnaga chiqib boshlashdi”*⁵. Bu og‘ir sharoitda sodir bo‘ldi. *“Mana shunday sharoitda Tamaraxonim, Mariya Kuznetsova, Lutfixonim Sarimsoqova, Halima Nosirova, Zamira Hidoyatova, Tursunoy Saidazimova singari talantli xotin-qizlar katta jasorat ko‘rsatib sahnaga chiqdilar. Tursunoy, Nurxon, Hadichaxon kabi yosh talantlar vahshiylarcha o‘ldirildi”*⁶.

Burhon Abdullayev o‘z izlanishlari orqali ilk o‘zbek aktrisalari haqida shunday fikr bildiradi: *“O‘zbek*

*sahnasiga birinchi bo‘lib chiqqan ayol tatar bo‘lgan. Ya’ni aktrisa Ma’sumaxonim shu davrda sahnaga chiqib, “Layli va Majnun” operasida rol ijro etgan. Keyinchalik sahnani tark etib ketgan. Durriya xonim ismli tatar ayol ham o’sha kezlarda sahnaga chiqqan. Shuningdek, yana tatarlardan o‘zbek sahnasiga chiqqan Zuhra xonim ismli bir ayol bo‘lgan”*⁷. Shuhrat Rizayev “Jadid dramasi” kitobida Ma’sumaxonim deb qayd etilgan ayol aktrisa Ma’suma Qoriyeva ekanligini ta’kidlaydi va: *“Ma’lum bo‘lishicha, bu ayol keyinchalik o‘zbek sahnasining mashhur namoyandalariidan bo‘lgan O‘zbekiston xalq artisti Ma’suma Qoriyeva ekan. Demak, Toshkent teatri jamoasi sahnaga ayol aktrisini olib chiqishda ham birinchi bo‘lib tashabbus ko‘rsatgan”*⁸, – deya fikr bildiradi. Shu tariqa o‘zbek aktyorlik san’atiga ayol aktrisalari kirib keldi va yangicha ijro shakllandi.

1919-yil Farg‘onada tashkil etilgan hamda Mannon Uyg‘ur tomonidan qayta tiklangan Toshkentdagi truppalar yarim professional truppalari ichida eng yaxshilaridan edi. Aynan mana shu truppalarda o‘zbek teatrlarining darg‘alari buyuk aktyorlar yetishib chiqdi. Bular Abror Hidoyatov, Yetim Bobojonov, Mariya Kuznetsova, Obid Jalilov, Sayfi Olimov va boshqalardir.

*“O’sha vaqtlarda aktyor va rejissyorlarning professional mahorati hali ancha past edi. Ko‘pchilik aktyorlar o‘z rollarini naturalistik uslubda talqin qilar yoxud gastrolga kelgan tatar va ozarbayjon truppalariining spektakllarida ko‘rgan narsalariga ko‘r-ko‘rona taqlid qilardilar. Rejissyorlar spektaklda bir butun ansambl yaratishda va realistlik obrazlar yaratishda aktyorlarga ijodiy yordam berishga qodir emas edilar”*⁹. Lekin shu bilan birgalikda o‘zbek an’anaviy teatriga xos taqlid san’ati aktyorlarga asqatdi. Aktyorlar personajning xarakter xususiyatlarini, obrazlarning tilini mohirona tasvirlay olganlar. *“Ular o‘zlaridagi taqlid qila olish qobiliyatiga ishongan hamda turmushda ko‘pchilik bilan munosabatda bo‘lib tajriba o‘rttirgan bo‘lganliklaridan o‘zlariga berilgan rolni, ko‘pincha shoshmasdan, muvaffaqiyatli bajarganlar”*¹⁰.

Lekin teatr izlanishlarda to‘xtamas, davrga hamohang bo‘lgan spektakllarni sahnalashtirishda davom etar edi. Mannon Uyg‘ur truppadagi faoliyatini Hamzaning **“Boy ila xizmatchi”** asariga murojaat qilishdan boshlaydi. Ushbu asarni Mannon Uyg‘ur Toshkentga o‘zining trupпасi bilan kelgan Hamza Hakimzoda Niyoziy taqdim etganligini aytadi.

“Spektaklning birinchi pardasida G‘ofir itoatkor, bir gapni ikki qilmaydigan kishi sifatida ko‘zga tashlanadi. Ostona qo‘l qovushtirib, boyni kamsitishlariga, haqoratlariga limmo-lim demay bosh egib turadi. Ikkinchi pardada ham G‘ofir domla, ellikboshi, qoziga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarshi bormaydi. Ulardan rahm-shafqat kutadi. Biroq hech kimdan najot topmagach, Uyg‘ur G‘ofirida g‘azab tug‘ila boshlaydi. “Meni nima qilsalaringiz qilinglar, tegirmonga solib, un qilib

³ Rahmonov M. Hamza (O‘zbek davlat akademik drama teatri tarixi). 1-kitob (1914–1960-yillar). – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001-y. 14-b.

⁴ Rahmonov M. Hamza (O‘zbek davlat akademik drama teatri tarixi). 1-kitob (1914–1960-yillar). – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001-y. 15-b.

⁵ Muxtarov I. “Tursunoy”. “Teatr” jurnali, 2018-yil, №5. 16-bet.

⁶ Abdullayeva S. Tursunxon Ja’farova. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1974-y. 7-b.

⁷ Abdullayev B. Miyon Buzruk – jadid dramaturgiyasi va teatri tadqiqotchisi. – T.: “Fan”, 2009-y. 121-b.

⁸ Rizayev Sh. Jadid dramasi. – T.: “Sharq”, 1997-y. 68-b.

⁹ Hamza nomidagi teatr. – T.: O‘zbekiston SSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1957-y. 11-b.

¹⁰ Abdullayev B. Miyon Buzruk – jadid dramaturgiyasi va teatri tadqiqotchisi. – T.: “Fan”, 2009-y. 120-b.

¹¹ Hamza nomidagi teatr. – T.: O‘zbekiston SSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1957-y. 13-b.

chiqaringlar, yerga qoziq qilib qoqib yuboringlar, men sizlardek shariatfurushlarning so'ziga kirmayman, xotinimni qo'ymayman", – deydi alam bilan. *"Bu so'zlar endi aktyor tomonidan nola ohangida aytilmay, balki sekin-asta kuchayib borayotgan nafrat, qahr-g'azab ohanglari bilan almashadi"*¹¹. Ushbu spektaklda Mannon Uyg'ur nafaqat rejissyor, balki aktyor sifatida ham o'zini namoyon etdi.

Mazkur yillarda teatrdagi ayollar faoliyat olib bormagani sababli, Mannon Uyg'ur Jamila roli uchun aktrisa izlagan. O'sha yillar bog'cha tarbiyachisi Mahsuma Sag'itdinova ismli qiz Jamila roli uchun teatrga taklif etiladi. *"Maxsumaning Jamilasi ayollarga xos xislatlar, muloyimlik, or-nomusli ayol sifatida talqin qilingan. Avval faqat ko'zyoshlari bilan boyning tosh bag'rini yumshatishga harakat qilgan Jamila, endilikda yolvorish bilan ish bitmasligiga tushunadi va qat'iy qarorga keladi, bevafoqlik qilgandan ko'ra poklikcha zahar ichib halok bo'lishni afzal ko'radi"*¹².

Ushbu asar ustida H.H.Niyoziy ham o'z truppasi bilan birga ish olib boradi. H.H.Niyoziy ham, M.Uyg'ur ham spektakl dekoratsiyasi hamda liboslardan shartli ravishda foydalanganlar, lekin bu ikki ijodkor truppa aktyorlaridan ijroda tabiiylikni talab qilganlar. Hamzaning aktyorlar bilan ishlashiga guvoh bo'lgan, uning truppasida aktrisa bo'lib faoliyat yuritgan M.Kuznetsova shunday fikr bildiradi: *"O'sha vaqtlarda buyuk rus teatri reformatorlari K.S.Stanislavskiy va V.I.Nemirovich-Danchenko haqida Hamza bilganmi yoki yo'qmi bilmayman, lekin u biz aktyorlar bilan ishlash jarayonida badiiy obrazga chuqur kirishni, haqiqiy kechinmani, hayotning sahnadagi tabiiy aksini o'rgatgan va ijodiy muloqot ustida ish olib borgan"*¹³.

Mannon Uyg'ur o'zbek teatriga aktyor sifatida kirib kelarkan, birinchi navbatda o'z oldiga obrazlarni his-tuyg'ular asosida jonli ifoda qilishni maqsad qilib qo'ydi. Uning bu maqsadga yetishishi uchun xalq og'zaki ijodini chuqur bilishi, mumtoz adabiyotni mushohada qila olishi katta yordam berdi. Misol tariqasida uning Ozarbayjon dramaturgi Husayn Jovidning Sharq mumtoz adabiyoti Fariddin Attorning **"Mantiq ut-tayr"**, Alisher Navoiyning **"Lison ut-tayr"** asarlaridagi eng nozik ilohiy ishq mavzusi asosida yozilgan **"Shayx San'on"** dramasini sahnalashtirishi Navoiy ijodini yurakdan his qila olganligidan, intellektual darajasining juda kengligidan darak beradi. Aktyorning xotirasi, adabiyotga bo'lgan qiziqishi, nazariy-tahliliy va ijodiy tasavvuri qancha keng bo'lsa, shuncha ijroda, qahramon ruhiyatida yashash oson bo'ladi.

M.Uyg'ur Moskvada o'qib kelarkan, u rus teatri tajribalarini "Turon" truppasidagi avvalgi amaliy jarayonlari bilan uyg'unlashtirib, o'z rejissyorlik faoliyatini ham boshladi. 1-guruh aktyorlari Moskvada tahsil olarkan, ularga o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalari shoir, yozuvchi, dramaturg Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon tarjimon sifatida hammaslak bo'ldi.

Aynan mana shu davr o'zbek teatri aktyorlik maktabida yangi bosqichni boshlab berdi. O'zbek aktyorlik san'atining yorqin vakillari Abror Hidoyatov, Sora Eshonto'rayeva, Mariya Kuznetsova, Maryam Yoqubova kabi san'atkorlar yetishib chiqdi. O'zbek an'anaviy teatrida kechgan jarayonlar keyinchalik Yevropa tipidagi teatrlarning shakllanishida katta maktab bo'lib xizmat qildi. Aynan truppa aktyorlari tomonidan improvizatsiya, rolni tez o'zlashtirib olish kabi xususiyatlar keyingi davr aktyorlik san'atida muhim vosita bo'lib xizmat qildi.

¹² Rahmonov M. Hamza (1-tom). – T.: G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001-y. 22-b.

¹³ San'atshunoslik institutining o'zbek teatri tarixi bo'yicha materiallari. D:93, №218. 5-bet

O'ZBEKISTON AN'ANAVIY TEATR SAN'ATIDA QO'G'IRCHOQ MUHIM KOMPONENT SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada, o'zbek xalqining madaniy hayotida, ayniqsa, yosh avlodning kamol topishida o'z o'rniga ega bo'lgan – qo'g'irchoq teatri sahnasida millatimiz ajdodlarining ibratli hayoti, jahon tamadduniga qo'shgan hisssasi, yaxshilik va yomonlikning tarixiy talqinlari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: qo'g'irchoq, teatr, san'at, sahna, tomoshabin, aktyor, ertak, milliy, an'anaviy, obraz.

В КАЧЕСТВЕ БОЛЕЕ ВАЖНОЙ СОСТАВЛЯЮЩЕЙ В ТРАДИЦИОННОМ ТЕАТРАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье выражено мнение об образцовой жизни предков нашего народа, их вкладе в мировую цивилизацию, а также об исторических трактовках добра и зла на сцене кукольного театра, имеющего свое место в культурной жизни нашей страны. узбекского народа, особенно в развитии молодого поколения.

Ключевые слова: театр, искусство, сцена, зритель, актер, ранний, национальный, традицион -
ный, образ.

AS A MORE IMPORTANT COMPONENT IN THE TRADITIONAL THEATRICAL ART OF UZBEKISTAN

Absrtact. In this article, an opinion is expressed about the exemplary life of the ancestors of our nation, their contribution to world civilization, and the historical interpretations of good and evil on the stage of the puppet theater, which has its place in the cultural life of the Uzbek people, especially in the development of the younger generation.

Key words: theatre, art, stage, audience, actor, early, national, traditional, image.

Qo'g'irchoq teatr jamoalari faqat kichik yoshdagi tomoshabinlar uchun spektakllar sahnalashtirish bilan chegaralanib qolmay, balki yoshlarga, katta yoshdagi tomoshabinlarga mo'ljallangan yirik asarlarni ham sahnalashtirib kelmoqda. O'zbek milliy qo'g'irchoq teatrida (Respublika qo'g'irchoq teatri) *“Alpomish”* dostoni asosida yaratilgan *“Qanotli odamlar”* (N.To'laxo'jayev asari asosida) Navoiy dostoni asosida yuzaga kelgan *“Qush tili”* (H.Rasul), Farg'ona viloyat teatrida Jo'ra Mahmudning *“Alpomish”*, Xorazm viloyat qo'g'irchoq teatrida Shukurjon Safoyevaning *“Jaloliddin tulporlari”*, Andijon viloyat *“Lola”* qo'g'irchoq teatrida N.Mamatovning *“Oygul bilan Baxtiyor”* (H.Olimjon asari asosida) kabi yirik mavzulardagi spektakllar shular jumlasidandir.

Respublika qo'g'irchoq teatri salkam sakson yildan buyon jaiji tomoshabinlarni o'z tomoshalari bilan xursand qilib kelmoqda. Mustaqillik yillarida ushbu teatr rejissurasida an'ana va novatorlik izlanishlari keng ravishda amalga oshirildi. Xususan, I.Lukyanova va D.Yuldasheva ssenariysi asosida rejissyor I.Yakubov tomonidan sahnalashtirilgan *“Karvonsaroy”* spektakli an'anaviy qo'g'irchoq

tomoshalariga uyg'unligi hamda bugungi zamonaviy teatr san'atiga mosligi bilan ajralib turadi. Ushbu tomosha istiqloq yillarida keng tomoshabinlar auditoriyasini jalb qildi va hozirgacha o'z mavqeini yo'qotgani yo'q. Sababi, spektakl milliy o'zlikni anglashga hamda xalqimizga xos bo'lgan an'analarni qadrlashga undaydi.

Rejissyor I.Yakubov talqinidagi ushbu tomosha hozirda unutilayozgan qadimiy xalq tomosha san'atining eng keng tarqalgan ko'rinishlarini bugungi kun tomoshabiniga namoyish etish bilan ahamiyatlidir. Birgina tomoshaning o'zida qo'l-qopli, trosli, marionetka qo'g'irchoqlardan foydalanilgan. Bularning barchasi qadimiy qo'g'irchoq o'yinlarining asosiy ko'rinishlaridan hisoblanadi.

Tomoshada qo'g'irchoqlar bilan birga jonli plan ham ishlatilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Jonli planda o'z ovozi ashulalar aytgan, raqsga tushgan, doira chalgan aktyorlar qo'g'irchoq o'yiniga uyg'unlashib ketgandek bo'ldi. Bundan tashqari aktyor-qo'g'irchoqbozlar bir vaqtning o'zida ikki qo'lga turli qo'g'irchoqlarni kiygizgan holda xarakterlarga mos ravishda ovozlarni o'zgartirib asar qahramonlarini gavdalantirishadi. Shuningdek, aktyorlar tomonidan

sahnaga olib chiqilgan har bir an'anaviy qo'g'irchoq san'ati turlari haqida jazzi tomoshabinlar bilan savol-javob orqali muloqot qilinishida spektaklning o'ziga xos ma'rifiy jihati ko'rinadi. *"Sahnada bo'layotgan jarayon nafaqat bolalarni, balki kattalarni ham o'ziga rom etadi: jozibador g'ayratlilik, aktyorlarning samimiyligi, xursandchilik va teatr mo'jizasiga aloqadorlik hissini uyg'otadi"* [1].

Spektakl milliy madaniyat bilan bog'liq rangdor sahnaviy jihozlar yordamida boyitilgan. Sahnashtiruvchi rassom R.Kamoliddinov tomonidan an'anaviy interyer jihozlari sahnaga ko'chirilganligini ko'rish mumkin. Rang-barang tasvir tushirilgan gilamlar, so'zanalar, va hatto, ijrochilarning egnidagi liboslari ham xalqona – yaktak, do'ppi milliylikimiz ifodasidir.

"Karvonsaroy" nomli *"quvnoq va yorqin tomosha tomoshabinlarni o'zbek xalqining an'anaviy san'ati bilan tanishtiradi"* [2]. Ijodkorlar tomosha ko'rsatish orqali bolalarni zavqlantiradi, ularga o'ziga xos bilim beradi, an'analarimiz haqida hikoya qiladi, targ'ib etadi. Aynan mana shunda rejissyor I.Yakubovning novatorlik izlanishlari namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham ushbu tomosha sahnalashtirilganligiga yigirma yil o'tgan bo'lsa-da, hali-hamon turli yoshdagi va turli millatli muxlislarni o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Respublika qo'g'irchoq teatri rejissurasini yanada rivojlantirish yangi janr va shaklni olib kirishdagi izlanishlar davom etayotganini boshqa spektakllar orqali ham ko'rish mumkin. Ulardan biri rejissyor

D.Yuldashevaning *"Yana Andersen"* spektaklidir. U daniyalik mashhur ertak yozuvchisi G.X.Andersenning *"Gugurt ushlagan qiz"* nomli ertagi asosida sahnalashtirilgan.

Ertakning qo'g'irchoq teatridagi talqini hisoblangan "Yana Andersen" spektaklida ertakchining o'zi ham sahnada gavdalanadi. U sahnaning ortida stol-stulda o'tirgancha qo'lida pyero bilan qog'ozga voqealarni yozayotgan hamda og'zaki sharhlayotgan holda namoyon bo'ladi. Bu orqali spektakldagi voqealar xuddi tomoshabinning ko'zoldida, hozirning o'zida dunyoga kelayotgandek tasavvur uyg'onadi. Dramatik teatrga xos bo'lgan ushbu jihatni rejissyor qo'g'irchoq teatrida spektakl badiiyligiga uyg'un holda ifoda eta olgan. Voqealarda ishtirok etuvchi qo'g'irchoqlarning barchasi planshetlidir.

Parda ochilgach, ikki tomonda tomlarini qor bosgan uylar ko'rinadi. Ularni bolaligidan mahrum etib, bozorga yo'llagan bir uzun ko'priq bog'lab turibdi. Mana shu yerda voqealarning asosiy qismi ro'y beradi. Shu yerda juda yupun kiyingan, qo'lida gugurt ko'tarib yurgan qizaloq ko'rinadi. U sovuqdan qaltiragancha gugurtni ko'chadan o'tayotgan odamlarga sotishga harakat qiladi. Agar gugurtlarni sota olmasa, uni uyda dadasi jazolashini yaxshi biladi. Qizaloq atrofidagi bolalarning shodon qichqirig'i, bir-biri bilan qorbo'ron o'ynashi, shuningdek, ikki tomondagi uylarning eshigi ochilib,

ota-onalar farzandlarini uyga – Yangi yil dasturxoniga chaqirishini jimgina kuzatar ekan, uning qalbida kechayotgan o'y-xayollarni tomoshabin har soniya his etib turadi.

Spektakl davomida qizaloqning tasavvuridagi personajlar va predmetlar tomoshabin ko'z o'ngida jonlanadi hamda u bilan muloqotga kirishadi. Spektaklning so'ngida esa yuqoridan onasining ruhi tushib, qizaloqni o'zi bilan olib ketadi. Qizaloq va uning ortidan tasavvurida namoyon bo'lgan barcha narsalar va jonotlar astalik bilan yuqoriga parvoz qiladi. Ertakda yangi yilning birinchi kuni qizaloqning muzlab qolgan va jon bergan tanasini odamlar topib olishsa, rejissyor D.Yuldasheva spektaklda shoirona yakunni o'ylab topgan. Tragediya janridagi ushbu spektakl bugungi kun uchun dolzarbdir. Sababi, hozirda ham o'z farzandlariga befarq bo'lgan yoki ularni mehribonlik uylariga tashlab ketayotgan ota-onalar mavjudligiga guvoh bo'lmaqdamiz. Shu jihatdan ushbu spektakl tomoshabinni fikrlashga chorlaydi.

Qo'g'irchoq teatri deganda doimo yumorga boy, turli zavqli o'yinlar asosidagi tomoshalar ko'zoldimizga keladi. "Yana Andersen" spektakli esa butunlay boshqa kayfiyat beruvchi asar sifatida sahnalashtirilgan. Boz ustiga spektaklning obrazli yechimiga psixologik yo'l bilan yondashilgan. Aynan shu jihatlar uning turli tanqidlarga uchrashiga sabab bo'lishi, tabiiy. Ammo qo'g'irchoq teatrlarining yirik namoyandasi S.V.Obraztsov faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u boshqargan teatr *"insonning psixologiyasi va yorqin, xarakterli tomonini ifodalashga harakat qilgan"* [3]. Shu jihatdan uning tajribasi Respublika qo'g'irchoq teatrida ham bugungi kun masalalari bilan uyg'unlashtirilgan holda amalga oshirildi, deb aytish mumkin.

Bundan tashqari rejissyorning yuqorida keltirilgan muammolarni aynan teatr uchun yangi bo'lgan tragik kayfiyat bilan berish, bu orqali tomoshabinning qalbiga yaxshiroq ta'sir etish va bolalar uchun mo'ljallangan spektakl orqali bevosita kattalarga murojaat qilish maqsadi yaqqol seziladi. XX asrning yirik teatr islohotchisi B.Brext aytganidek: *"Faqatgina yangi maqsad yangi san'atni dunyoga keltiradi"* [4]. Ushbu spektakl orqali esa rejissyorning maqsadi asarni teatr uchun yangi bo'lgan shakl va ko'rinishda ifodalashga intilishdan iboratligi namoyon bo'ldi. Ta'kidlash lozimki, "Yana Andersen" spektaklida vaqt, makon va harakat birligi kuzatiladi. Bu esa esdan chiqayozgan klassitsizm davriga xos bo'lgan jihatlar sifatida qadrlidir.

Qizaloq qo'g'irchoq'ini o'zining qo'g'irchoqbozlik texnikasi, chiroyli va xarakterli ovozi bilan jonlantirgan aktrisa, sahna ustasi

V.Yusupovanning ijrosida ham rolga psixologik yondashuv kuzatilib, u qizaloqning fojiasini xarakterga mos ravishda ma'yuslik va sokinlik bilan ochib beradi. Unda qo'g'irchoq bilan qandaydir uyg'unlik seziladi. Zero, *"qo'g'irchoq san'atining*

asosiy sehri qo'g'irchoq va insonning o'zaro uzviy bog'liqligidan iborat" [5].

Umuman olganda, O'zbek milliy qo'g'irchoq teatri rejissurasida mustaqillik davrida xalq tomosha san'ati an'analarini qayta tiklanganligi, ularni bugungi kun tomoshabiniga ham ko'rsatish tajribasi amalga oshirilayotganligi namoyon bo'lmoqda. *"Milliy qo'g'irchoq dramaturgiyasi o'zining barcha tematik yo'nalishlarida folklor va mumtoz she'riyatga yondashadi"* [6]. Xuddi shuningdek, bugungi kunda teatr ham milliy o'ziga xoslikni sahnada ifodalashda an'anaviy vositalarga tayanmoqda.

Teatr rejissyrlari talqinida janr rang-barangligi va noodatiy yo'nalishni topishga intilish, qo'g'irchoq teatriining ayrim ifoda vositalarini dramatik teatrga xos bo'lgan jihatlari bilan boyitish, dunyo tajribalaridan kelib chiqqan holda spektakllarda animatsion va multiplikatsion effektlarning uyg'unligiga erishish, bir vaqtning o'zida turli qo'g'irchoqlarni olib chiqish va soya teatri bilan uzviy bog'lash singari novatorlik izlanishlar kuzatilyapti.

Qo'g'irchoq teatrida doimo hayotimiz bizni o'rab turgan olam, atrofigidagi yaxshilik va yomonliklar ro'yrostd va mo'jizaviy ohangda ifodalanishi lozim. Chunki bolalarni aldab bo'lmaydi. Ularga hayot haqiqatini o'rgatib borish lozim. *"Qo'g'irchoq teatri ulug', sehri, maishiy bo'lib boshlanganligidan qat'iy nazar hayotdan unib chiqqan hamda doimo, barcha tarixiy davrlarda u bilan juda ham uzviy bog'liq bo'lgan"* [7]. Teatrning ijodiy faoliyati shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda ham u hayotdan ajralmagan holda rivojlanishda, shakllanishda davom etmoqda [8].

O'zbek xalqining madaniy hayotida, ayniqsa, yosh avlodning kamol topishida o'z o'rniga ega bo'lgan qo'g'irchoq teatri sahnasida millatimiz ajdodlarining ibratli hayoti, jahon tamaddunida qo'shgan hissasi, yaxshilik va yomonlikning tarixiy talqinlari doimo ko'rsatib kelingan. Qo'g'irchoq teatriini tadqiqot sifatida o'rgangan S.Qodirova shunday yozgan: *"Qo'g'irchoqchilar el-yurtga ozor bergan, g'am-kulfat keltirgan zamon zo'ravonlarini tanqid qilish hamda turmushdagi ayrim qoloqliklar, egriliklar ustidan kulish bilan xalq uchun zarur bo'lgan katta ijtimoiy va estetik vazifani bajarib kelganlar"* [9]. Biroq sobiq ittifoq davrida bu san'at turiga ham sinfiylik nuqtayi nazardan talqin qilingan yoki shu kabi talqinlarga e'tibor qaratilgan. Jumladan, tarixiy shaxslardan bo'lgan Qo'qon xoni Xudoyorxon (1845–1851, 1862–1863, 1865–1876) hamda uning sarkardalari Mirzo Ahmad, Iso Avliyo kabi ajdodlarimizni zolim, ayyor shaxs sifatidagi talqinlari, sovetlar tomonidan *"bosmachilar"* deb atalgan istiqloqlarning obrazlari talonchi, qaroqchi sifatida sahnaga olib chiqilgan.

Mustaqillik yillarida esa qo'g'irchoq teatrida tariximizga, buyuk ajdodlarimizga nisbatan o'zgargan siyosat tufayli ularning el orasidagi obro'-hurmati qayta tiklana boshladi. Teatr sahnalaridagi kabi qo'g'irchoq teatri sahnasiga ham Shiroq,

Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarimizning siymolari olib chiqildi.

Mashhur qo'g'irchoq teatri rejissyori Volxovskiy ta'siri bilan aytganda: *"Qo'g'irchoq teatriining ijod pozitsiyasi shundan iboratki, u tomoshabin bilan zamonning dolzarb vazifalari haqida qo'g'irchoq va aktyor mujassamlashtiruvchi yorqin teatr tilida, yuz va harakat, pantomimo va aniq plastika orqali aloqada bo'ladi"*. Demak, qo'g'irchoq teatri zamon bilan birga o'sha zamonning dolzarb masalalari haqida ham birga talqin qilish lozim. Qo'g'irchoq teatri boshqa teatr san'ati turlaridan o'ziga xos obraz yaratish xususiyati bilan farq qiladi. Qo'g'irchoq teatri aktyori, rassom va qo'g'irchoq ustasi hamkorligida yaratgan san'at asariga, ya'ni qo'g'irchoqqa jon kiritadi. Tarixiy mavzularni yoki tarixiy shaxslarni qo'g'irchoqqa sifat berishda ham imkoniyatga ega hisoblanadi. Tarixiy shaxsning yuzi, qomati, ko'rinishi, kiyimlarida tarixiylik aks ettirish imkonini beradi. Ba'zida bu masalada tarixiy asarlarni o'qish bilan birga tarixchilarni o'zidan ham maslahat olinadi. Tarixiy shaxslarni spektaklning borishiga qarab yuz tuzilishi, yoshi o'zgarishiga qarab, qo'g'irchoqlar soni ko'payib borgan. Masalan, 2010-yilda Surxondaryo viloyati qo'g'irchoq teatrida *"Shiroq afsonasi"* nomli asarida Shiroq obrazidagi qo'g'irchoq ikki ko'rinishda bo'lgan. Ya'ni miloddan avvalgi 323-yilda Ahamoniylar hukmdori Doroga qarshi bir o'zi jang qilishga majbur bo'lgan Shiroq hiyla ishlatadi. Uning hiylasi orqali Doroga o'z *"xalqi"*dan jabr ko'rgan holati, ya'ni o'zini o'zi qulog'i, burnini kestigan siymosi va asl holatidagi ko'rinish tufayli ikki qo'g'irchoq yasalgan. Vatan ozodligi yo'lida jonini fido qilgan oddiy cho'pon yigit haqidagi bu qadimiy rivoyat bugungi kunda ham dolzarbligi va vatanparvarlik g'oyalarini ulug'lashi bilan e'tiborni tortgan [10].

Buxoro viloyat qo'g'irchoq teatri 2016-yilda *"Shiroq afsonasi"* spektakli bilan munosib yutuqqa erishgani sir emas. Qo'g'irchoq teatri aktyori qo'g'irchoq orqali to'siqsiz sahnada turib tomoshabiniga ayta olmagan yurak dardini ona vatanga bo'lgan muhabbatini, orzu-umidlarini, shirma orqasidan o'zi ko'rmagan holda izhor qiladi. Ana shunda qo'g'irchoq teatri sahnasida mo'jiza yuz beradi. Oddiy predmet material jonlanadi va u ham inson kabi yashayotganligiga, nafas olayotganiga, umuman borligiga, esda qolganiga tomoshabin ham ishonib, qo'g'irchoq bilan birga yig'laydi, kuladi, qayg'uradi.

Milliy tariximizda yorqin iz qoldirgan allomalarimizdan biri Pahlavon Mahmud (1247–1326) bo'lib, uning hayoti va faoliyati hozirgi yoshlar uchun ibratlidir. Pahlavon Mahmudning badiiyati qo'g'irchoq teatri sahnasiga 1993-yilda tashkil topgan Xorazm viloyati qo'g'irchoq teatri jamoasi olib keldi. Bu spektakl 2000-yilda Samarqand shahrida o'tkazilgan qo'g'irchoq teatrlarining IV an'anaviy festivalida sovrinli o'rinni olgan [11].

2021-yilda Samarqand viloyat qo'g'irchoq teatri jamoasi **“Ulug'bek yulduzi”** spektaklini tomoshabinlarga namoyish etdi. Ushbu spektakl 22-mart Mirzo Ulug'bek bobomiz tavallud topgan kun munosabati bilan jajji tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi. Tarixiy haqiqat nuqtayi nazaridan qaraganda, Mirzo Ulug'bek obrazining qariyb har bir harakati tarixdagi real voqelik bilan tasdiqlanishi darajasiga yetkazilganligi ma'lum. Bu xususiyat faqat bosh qahramon obraziga emas, balki butun tragediyaga tarixiylik baxsh etadi. Mirzo Ulug'bekning jahon ilm-faniga qo'shgan hissasini yetarlicha tasvirlay olish uchun uning asarlarini tushuna olish muhim hisoblanadi. Ba'zida dramaturg va rejissyor bilan birga aktyor ham bu ilm-fandagi kashfiyotni qay darajada muhim ekanligini anglab yetishi lozim. Shundagina u o'zi yaratayotgan buyuk siymo obrazini tomoshabinlarga yetkazib bera oladi. Bu qo'g'irchoq teatrida murakkab masala sifatida qaraladi. Shu bois, tarixiy siymolarga bag'ishlangan spektakllarni yaratailishi bir necha yillarni tashkil etib borgan. Sovetlar davrida Mirzo Ulug'bek siymosini ko'proq tragediya tarzida, ya'ni o'z o'g'li tomonidan o'ldirilishi ko'proq tasvirlangan. Bu tasvir jarayoni teatrlarda ko'proq saqlanib qolganligi bois, Samarqand viloyat qo'g'irchoq teatri jamoasi ana shu an'anadan voz kechib, yosh avlodga Mirzo Ulug'bekning ilmiy kashfiyotlarini yetarlicha ochib berish an'anasiga o'tgan.

2023-yilning 15-may kuni Buxoro viloyat qo'g'irchoq teatrida yosh rejissyor Ravshan Rasulov tomonidan sahnalashtirilgan **“Javohir tabib”** nomli spektakl O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan birlashtirilgan badiiy kengash a'zolariga topshirildi. Munojot Ergasheva muallifligi bilan yozilgan ushbu asarda buyuk ajdodlarimizdan biri bo'lgan Abu Ali Ibn Sinoning bolalik va tibbiyot ilmiga qo'shgan buyuk ishlarini yaqqol ko'rsatib beruvchi voqealar aks etgan. Taqdimotga tashrif buyurgan mutaxassis tomonidan sahna asarining ba'zi juz'iy kamchiliklariga o'zgartirish kiritish kerakligi taklif etildi va shu kamchiliklar bartaraf qilingandan so'ng, tomoshabinlarga ko'rsatish uchun ruxsat berildi.

O'zbek qo'g'irchoq teatridagi qo'g'irchoqlar orasida tatar do'xtir Botirshin qiyofali qo'g'irchoq XX asr boshlarida o'zbek bolalari orasida mashhur bo'lgan. Uning boshida pastakkina kungara oq jun telpak bo'lib, ustida harbiy mundir, belini qizil tasma bilan bog'lab, ustidan zar jiyakli qora kamzul kiyib olgan. Yuzi jigarrang, soqol-mo'ylovi, qoshlari oqargan, yashil ko'z. Unga qarab tutib millatini, mansabini, xarakterini bimalol ajratib olsa bo'ladi: harbiy mansabdor, xarakteriga ko'ra badjahl va sovuqroq, lekin aslida mehribon va zahmatkash odam [12]. Shubhasizki, bu qo'g'irchoq tarixiy shaxsni gavdalandirgan.

1907-yilda R.A. Komarov tomonidan yozilgan qo'g'irchoq ta'rifida do'xtir Botirshin hali hayot

bo'lgan. Demak, o'zi hayotligidayoq qo'g'irchoq teatri personajiga aylangan. Alqissa, Botirshinning tarixiy shaxsligi, vrach ekanligi sir emas. Biroq uning Turkistonga qanday kelib qolganligi va nima sababdan qo'g'irchoq teatri personajiga aylanganligi muammo bo'lib kelayotgan edi. Ana shu muammoni kuchimiz yetganicha yechishga urindik. Tarixiy manbalarda, Muhammad Botirshin (1833–1912) 1858-yilda fligel-adyutant, polkovnik N.Ignatov rahbarligida Xivaga kelgan rus missiyasiga tarjimonlik qilgan, shu bilan birga doktorlik ham qilgan [12]. 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgach, u Toshkentga kelgan hamda tilmochlik va tabiblik faoliyatini davom ettirgan. U mahalliy aholi orasida, ayniqsa, bolalarga mehribon bo'lib, ularni davolashda xizmat qilgan. Shu bois, u o'zbek bolalari orasida mashhur edi.

Xulosa qilib aytganda, qo'g'irchoq teatri sahnasida tarixiy voqelik va tarixiy shaxslarning talqinlarini kam bo'lsa-da, sahnada namoyish qilindi va qilinmoqda. Bu jarayonda tarixiylik tamoyili o'laroq ko'p mehnat, ijodiy tafakkur, tarixiy kompozitsiyalar yaratishga majbur qiladi. Shu vaqtgacha tarixiy siymolardan Shiroq, Abu Ali ibn Sino, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek kabi allomalarimizning qo'g'irchoq teatrida talqinlari an'anaviy tarzda ko'rinish berib kelmoqda. Biroq endigi navbat yangi-yangi tarixiy voqeliklar va tarixiy shaxslarning yangicha talqinlarini yaratish borasida bu teatr jamoalari oldidagi maqsadlardan biri bo'ladi, degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Стародумова А. «Караван радости». Газета «Новый мир», 5 май 2011 г.
2. Шполянская Е. «Премьеры под занавес сезона» Газета «Вечерний Ташкент», 4 сентябрь 1991 год.
3. Смирнова Н.И. Искусство играющих кукол. – Москва: «Искусство», 1983 г. С.111.
4. Брехт Б. Театр. 5 том. – М.: «Искусство», 1965 г. С.46.
5. Юлдашев Т. «Магия движения неживой куклы». Журнал «Санъат», 2002 год, № 4. Стр.41.
6. Кадыров М. «Театр кукол – театр мысли». Журнал «Звезда Востока», 1976 год, № 6. Стр.9.
7. Смирнова Н.И. Искусство играющих кукол. – М.: «Искусство», 1983 г. С.9.
8. Ismoilov A. «Respublika qo'g'irchoq teatri rejissyorlik izlanishlari». «Teatr» jurnali, 2015-yil № 4. 36–39-bet.
9. Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. – T.: «Talqin», 2006-y. 6-b.
10. Qobilov T. «Bolalarga quvonch bag'ishlab...» «Teatr» jurnali, 2010-yil, №4. 25-b.
11. Bayandiyev T., O'rinov E. «Ijodiy kamolot sari». «Teatr» jurnali, 2002-yil, №4. 15-b.
12. Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. – T.: «Talqin», 2006-y. 6-b.



Dilbar MALIKOVA,
O'zDSMI "Vokal" kafedrası professori v.b.

VOKAL-XOR IJROCHILIGIDA O'QUVCHILAR OVOZINI HIMOYA QILISH BILAN BOGLIQ XUSUSIYATLAR BORASIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada, o'quvchilarning vokal-xor ijrochiligi orqali ovozlarni yo'lga qo'yish va jamoada kuylash malakalarini shakllantirish, ularning ovozlarni himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan ba'zi xususiyatlar hamda vokal-xor o'qituvchilarining professional sifatlari borasida so'z ketadi.

Kalit so'zlar: ovoz apparati, nafas, diapazon, registr, tembr, mutatsiya, falset, xormeyster, vibrato, ritm, temp, dinamika, qattiq hujum.

ОБ ОСОБЕННОСТИ ЗАЩИТЫ ГОЛОСА УЧАЩИХСЯ В ВОКАЛЬНО-ХОРОВОМ ИСПОЛНЕНИИ

Аннотация. В данной статье представлены некоторые особенности, связанные с развитием голоса учащихся и формированием навыков пения в коллективе посредством вокально-хорового исполнительства, защиты их голоса, а также профессиональных качеств вокально-хоровых педагогов.

Ключевые слова: голосовой аппарат, дыхание, диапазон, регистр, тембр, мутация, фальцет, хормейстер, vibrato, ритм, темп, динамика, твёрдая атака.

ABOUT THE FEATURES OF PROTECTING STUDENTS' VOICES IN VOCAL AND CHORAL PERFORMANCE

Abstract. This article presents some features related to the development of students' voices and the formation of singing skills in a group through vocal and choral performance, protecting their voices, as well as the professional qualities of vocal and choral teachers.

Key words: vocal apparatus, breathing, range, register, timbre, mutation, falsetto, choirmaster, vibrato, rhythm, tempo, dynamics, solid attack.

Musiqasiz, qo'shiqsiz turmush tarzimizni tasavvur qilish qiyin. Biz bilamizki, kuy, qo'shiq insoniyatning ichki dunyosini boyitib, hayotini go'zallik sari chorlab, insonni estetik shakllanishi va yashashi uchun asosiy ruhiy, ma'naviy omil hisoblanadi. Insonning go'zallik tuyg'usini taraqqiy ettirmay turib, ma'naviy barkamollik haqida gapirib bo'lmaydi. Musiqa ana shu nozik tuyg'ularni shakllantirish va tarbiyalashning qudratli vositalaridan biridir. Haqiqatan ham respublikamizda yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli, yuksak ma'naviyatli, barkamol bo'lib yetishishini ta'minlash yo'lidagi ulkan bunyodkorlik ishlarining muhim jabhalaridan biri ta'lim-tarbiya amaliyotiga yangi, zamon talabiga javob beradigan usul va uslublarni joriy qilish, ular asosida o'qitish samaradorligini oshirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Inson ovozi – tabiatning eng noyob sozidir. Inson ovozi vositasida yaralgan va aynan ovozda ijro etishga mo'ljallangan san'at namunalarning paydo bo'lishi cholg'u musiqasiga nisbatan ancha qadimiy bo'lib, tarixi ibtidoiy zamonlarga borib taqaladi. Uning ovoz apparati o'ziga xos murakkab musiqa asbobi bo'lib, u o'zining rang-barang tembr boyligi, nihoyatda nozik musiqani ifodalash xususiyatlariga egaligi bilan barcha musiqa asboblardan ustun turadi. Shu bois unga bo'lgan cheksiz qiziqish, uni o'rganish ko'plab vokal mutaxassislarini, musiqa nazariyotchilarini, olimlarni o'ziga jalb etib, turli bahs-munozarlarga, ko'plab risolalarning yaratilishiga sabab bo'lmoqda. Har bir insonning o'zi individum, tabiiyki, uning ovoz apparati ham betakror tuzilishga egadir. Tabiatan inson ovozi qanchalik to'g'ri qo'yilgan bo'lmasin, unda

professional vokal ko'nikmalarini hosil qilish zarurdir.

Qo'shiq kuylash inson tanasi uchun murakkab, tizimli jarayon bo'lib, u insonning yuqori asabiylar faoliyati bilan boshqariladi. Vokal-xor jamoalarida ishtirok etadigan o'quvchilarning kuylovchi-xonanda sifatida har tomonlama shakllanishi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning ijro texnikasi bilan qurollanganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ovozni yo'lga qo'yishning asosiy vazifasi bu, o'quvchilar ovozi ilk mashg'ulotlardan boshlab kuylashga moslashtirish va ovoz apparatini bosqichma-bosqich ijodiy jarayonga singdirib borishdan iboratdir. Ovozni yo'lga qo'yish jarayonida har bir o'quvchi bilan individual, ya'ni uning ovoz imkoniyatlaridan kelib chiqqan holatda yakka tarzda ham dars o'tilishi maqsadga muvofiqdir.

Tovush hosil qilishda ishtirok etadigan barcha a'zolar jamlanib, ovoz a'zolarini hosil qiladi. Uning tarkibiga og'iz va burun bo'shlig'i, halqum, tovush paychalari, traxeya, bronx, o'pka, nafas mushaklari bilan ko'krak qafasi va diafragma, qorin sohasi mushagi va boshqalar kiradi. Bulardan tashqari ovoz hosil qilishda asab tizimi, harakatlantiruvchi va ta'sirchan asablar mavjud bo'lgan bosh miyaning tegishli asab markazlari, bu markazlarni yuqorida ko'rsatilgan a'zolar bilan birlashtiruvchi asablar ham ishtirok etadi. Eshitish va ovoz o'rtasidagi aloqa ikki tomonlama bo'ladi. Eshitish ishtirokisiz ovoz shakllanmasligi bilan bir qatorda, eshitish ham ovoz a'zolari ishtirokisiz faoliyat ko'rsata olmaydi. Ovoz a'zolari faoliyati orqali eshitish idroki hosil bo'ladi. Nutq, musiqa bir-ikki qo'shiqni eshitish asnosida ularni ichimizda bir-ikki ovoz chiqarib takrorlaymiz, shundan keyingina ularni idrok etamiz.

*"Vokal ko'nikmalarini shakllanishi va rivojlanishida unda ishtirok etayotgan a'zolarining ishi jilovlanadi. Ortiqcha harakatlar qisqartiriladi, keraklilari mustahkamlanib takomillashtiriladi"*¹, – deb yozadi professor Sh.T.Pirmatov "Vokal texnikasi asoslari" o'quv-uslubiy qo'llanmasida.

Ta'kidlash joizki, so'nggi paytlarda maktab yoshidagi bolalarda ovoz apparatini buzilishi ko'plab uchramoqda. Vokal-xor jamoalarida shug'ullanmoqchi, kuylamoqchi bo'lgan bolalarning ovoz imkoniyatlarini tekshirish jarayonida biz ko'pincha bu qayg'uli haqiqatga duch keliamiz. Buning sababini, ehtimol, nafaqat noto'g'ri kuylatish, balki o'quvchilarning nutq apparati noto'g'ri holatda ishlatilishida ham ko'rishimiz mumkin. Bolalar juda hissiyotli bo'ladilar. Jamoada bir-birlari bilan muloqot qilishda, ochiq o'yinlar va sport musobaqalarida qatnashish jarayonlarida ular tez-tez baqirishib, ovoz kuchini haddan tashqari oshirib yuboradilar.

Bu gaplar, ayniqsa, o'g'il bolalar uchun taalluqlidir. Ovoz apparati inson uchun nihoyatda muhimligi, uni asrab-avaylash kerakligi borasida o'quvchilarga muntazam tushuntirib borish zarur. Ovoz apparati, kuylash va eshitish qobiliyati faqat qulay muhitdagina to'g'ri rivojlanishi mumkin.

O'quvchilarning vokal kuylash malakalari vokal-xor darslari jarayonida ham muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Bolalar musiqa san'ati maktablarida xor guruhlar odatda 7 yoshdan 16-17-yoshgacha bo'lgan o'quvchilardan iborat bo'ladi. Ularni xormeysterlar uchta, ya'ni kichik, o'rta va katta xor guruhlariga ajratadilar. Har bir yoshda o'quvchilarning ovoz rivojlanishi anatomik-fiziologik me'yorlaridan kelib chiqadigan o'ziga xos tovush xususiyatlariga mos keladi.

Ko'p yillik tajribamdan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlab o'tmoqchimanki, boshlang'ich maktab o'quvchilarining ovoz apparati falsetto rejimida qanday ishlasa, ko'krak registri rejimida ham shunday ishlashi mumkin. Bolalar ovozi asosan **soprano** va **alt** guruhlariga ajratiladi. Lekin o'g'il bolalarning yuqori ovozi **diskant** deb ta'riflanib, u yengil va yumshoq jaranglaydi. Biroq bolalar ovozi himoya qilish nuqtayi nazaridan ularni falset va yengil aralashma yo'lida kuylatish maqsadga muvofiqdir. Bunday ovozning shakllanishi bosh rezonatoriga mansub bo'lib, u yengil jilolanadi. Bu yoshdagi bolalarda ovozning kuchi kichik bo'lib, individual tembrlar deyarli ko'rinmaydi. Ovoz diapazoni ham cheklangan, kamdan-kam hollarda oktavadan tashqariga chiqadi.

Bolalarda ovozning jarangi mo'tadil tovush bilan egallanadi. Ovozni qo'shiq ijrosida majburiy kuchaytirish **vibrato**ga salbiy ta'sir qilib, qo'shiq tovushining qimmatli xususiyati, undagi iliqliklikni yo'qotadi. Vibrato musiqiy tovushning zarur va qimmatli xususiyati sifatida vokal musiqasidan instrumental musiqaga ham o'tishi bejiz emas. Ovoz hosil bo'lishining doimiy usuli sifatida **qattiq hujum**dan ko'p foydalanish mutlaqo mumkin emas, chunki bu bosh apparatining kuchlanishiga olib keladi. Qattiq hujum kamdan-kam hollarda metodik usul sifatida ishlatilishi mumkin. Masalan, sekin templi, mayin, kuychan asarlarda. Ovozni kuchaytirmasdan, erkin, hissiy va o'rtacha darajada faol qo'shiq aytish, ovozni himoya qilish nuqtayi nazaridan eng maqbulidir.

Xormeysterning vokal ijrochiligi muammolarini muvaffaqiyatli hal qilishida, metodologiyani eng maqbulini tanlash yordam beradi. Xor bilan ishlashning murakkabligi shundaki, bu umumiy his-tuyg'ular va tovushlarga ega bo'lgan yagona ijodiy jamoa emas, balki turli xil musiqiy va vokal qobiliyatlariga ega bo'lgan shaxslar hamjamiyatidir. O'qituvchi-xormeyster doimiy ravishda ikkita o'zaro bog'liq muammoni hal qiladi: barcha texnik

¹ Pirmatov Sh. Vokal texnikasi asoslari (o'quv-uslubiy qo'llanma). – Toshkent: "Musika", 2011-y. 30-b.

fazilatlarga ega o'ziga xos musiqiy jamoani yaratadi va har bir ishtirokchiga o'z cholg'usini, ya'ni xonandalik ovozi o'zlashtirishga, boshqarishga o'rgatadi. Jamoa ishining dastlabki bosqichida, ayniqsa, ko'plab qiyinchiliklar mavjud.

Bolalar xorda qo'shiq aytishni o'rganishida duch keladigan birinchi qiyinchilik – bu nutqdan qo'shiqqa o'tishdir. Dastlabki bosqichlarda ular go'yo qo'shiq kuylayotgan bo'ladilar. Asarning tessiturasini agar og'zaki nutqdan yuqori bo'lsa, bolalar ovozlari qattiq siqib, qichqirishni boshlaydilar. Nutqdan qo'shiqqa o'tishda bola ovoz paychalarini ishlash rejimini ko'krak tovushidan falset yoki mikst ovozga moslashtira olishi kerak. Xormeyster bolalarga qo'shiq aytish va kuychan so'zlash o'rtasidagi farqni tushuntira bilishi lozim. Xor darsining dastlabki bosqichida tez-tez falset tovushini qo'llash foydalidir, bu tovush hosil bo'lishining nutq uslubidan keskin farq qiladi va bolalarning ovoz tovushlarini to'g'ri shakllanishiga olib keladi.

Birinchi vokal-xor darslarida yangi kelgan o'quvchilar o'zlarining tovushlarini to'liq nazorat qila olmaydilar, chunki qo'shiq aytganda ular o'zlarini emas, balki umumiy xor tovushini eshitadilar. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, hatto, yaxshi musiqiy eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan bolalar ham xorda qo'shiq kuylashni boshlaganlarida ba'zida falsh, ya'ni notalar sozini tiniq kuylay olmaydilar. Bunga ovozlarning ma'lum tembr fazilatlari, ularning xor partiyasida joylashishi, xonaning akustikasi va boshqa bir qator omillar rol o'ynaydi.

Jamoaviy kuylashda turli qiyinchiliklardan tashqari o'ziga xos afzalliklar ham bor. Ular dialektik jihatdan yagona musiqiy organizm sifatida xorning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Yaxshi umumiy ansamblga, ovozga ega bo'lgan jamoaga kelgan bolalar goho individual, ya'ni yakka tarzda o'tiladigan darslarga qaraganda jamoada tezroq to'g'ri qo'shiq aytishni boshlaydilar. Bu atrof-muhit tovushi bolaning ovoz apparatiga, fiziologik rivojlanishiga hamda rivojlanishiga tezroq ta'sir etadi.

Vokal-xor ijrochiligi o'qituvchilari o'quvchilarga kuylash ko'nikmalarini o'zlashtirishda, avval, ovoz apparati tuzilishi haqida tushuncha berib o'tishlari juda muhimdir. Vokal-xor mashg'ulotlari o'quvchilarni ovozi qo'shiq kuylashga tayyorlashdan boshlanadi. Bunda ovoz apparatini qizdirishdan tashqari, ularning vokal-eshitish qobiliyatini sozlash ham ko'zda tutiladi.

Ovoz mashqlarini o'rta registr, qulay tessitura, o'rta dinamika, sekin tempda oddiy mashqlar bilan unisonda boshlab, sekin-asta garmonik (ikki, uch ovoqli) tuzumlarga o'tish maqsadga muvofiqdir.

Ovozlarni qizdirish barcha ishtirokchilar, ya'ni butun xor bilan birga boshlansa, ba'zi mashqlarda alohida ovozlari: pastki ovozlardan boshlab keyin yuqori ovozlari qo'shiladi. Ba'zi asarlardan namunalar ham mashqlarda qo'llanilishi mumkin. Mashqlar fortepiano jo'rligida, jo'rsiz yoki kamerton yordamida kuylanishi mumkin.

Ovoz mashqlari jarayonida vokal-xor texnikasi kuylash malakalari mustahkamlanadi. Bu mashqlar 8-10 daqiqa davom etishi kerak. Ovozni qo'shiq kuylashga tayyorlash mashqlari ma'lum tartibda o'tkazilib, unda ovozni to'g'ri hosil qilishga, to'g'ri nafas olishga, yaxshi ansambl va jarangdorlikka erishiladi. Natijada, o'quvchilarning ovoz imkoniyatlari mustahkamlanadi.

Mashqlar ketma-ketligi har doim bir xil kuylanishi shart emas. Ovoz sozlash mashqlari ustida ishlash jarayonida o'rganiladigan asarlarning jumladan mashq sifatida foydalanish ham mumkin. Ularni mukammal o'rganilganligi asarlarning ijrosi vaqtida yaxshi natija beradi. Bunday yondashuv asardagi ma'lum bir vokal – texnik ijro masalalarini hal etishda ham yordam beradi.

Ovozni kuylashga tayyorlash mashqlari oddiydan murakkabga tartibida olib boriladi. Mashg'ulotlarda to'g'ri ovoz pozitsiyasiga va nafasga, yaxshi ansambl va xor soziga erishiladi. Ayniqsa, artikulyatsiya apparatining aktivligi oshadi. Shu bilan birga ovozni rivojlantirish, uning diapazonini kengaytirish, so'z talaffuzining aniqligiga erishish, garmonik qobiliyatni o'stirish kabi muhim ishlar ko'zda tutiladi.

Ovoz mashqlari borasida amerikalik xormeyster Gordon Lamb *“Choral Techniques”* kitobida shunday yozadi: *“Dirijyor qanday jamoada: o'rta maktab xori, talabalar xori, professional yoki havaskorlar xorida ishlashdan qat'iy nazar har doim ishni xor ovozlari mashqlari bilan boshlashi zarur. Mashq jarayonlarida xor ishtirokchilariga tovush hosil qilish, ovozlarga tazyiq o'tkazmay kuylash talab etiladi. Mashqlar ijrosida xorning ansambliga erishish zarur. Dars jarayonida dirijyor xor ishtirokchilarining ovoz tembrlari, ritmik bir xillik, xor birligi va aniq ijrosiga erishadi”*².

Vokal jarangi ifodaliligi, tovush sifati vokal-texnik ko'nikmalar: nafasni rezonatorlar ishi, talaffuz apparatini egallashga bog'liq. Biroq texnik ko'nikmalarni shakllantirish emotsional yo'nalish va badiiy ifodalilik bilan birga olib borilishi lozim.

Kichik xor guruhlarida ikki ovoqli qo'shiqqa o'tishda o'qituvchi bolalar ovozi zichroq yoki yengilroq ovozi e'tibor berib, ularni birinchi va ikkinchi ovozlarga bo'ladi. Albatta, bu yerda haqiqiy alt ovozlari haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas, garchi ba'zi o'quvchilar, ayniqsa, o'g'il bolalar ko'krak tovushini namoyon etsalar ham. Agar xormeyster tomonidan tanlangan asar qulay tessiturada yozilgan bo'lsa, bolalarning ovozi tabiiy

² Choral Techniques By: Gordon Lamb on n e x i o n s Rice University, Houston, Texas <http://cnx.org/content/col11191/1.1/> 203-204

eshitiladi, bunday qo'shiqni kuylash ularga yoqimli va oson kechadi.

O'quvchilarning ovoz mushaklari asta-sekin rivojlanib, 11-12 yoshga kelib shakllangan bo'ladi. O'rta xor guruhidagi (11-13 yosh) bolalarning ovozlari kuchliroq va to'liqroq bo'lib, diapazonlari kengayadi va tembrlardagi farqlar yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Bu davr bolalar ovozinin gullab-yashnagan vaqti hisoblanadi va ular bu yoshda vokal ko'nikmalarini asosiy malakalarini egallab olgan bo'lishlari kerak, chunki ushbu yoshda ularda mutatsiya ham boshlanishi kuzatiladi. O'quvchilarda xonandalik ovozi rivojlanishining keyingi bosqichi bu mutatsiyadir. Ushbu davrda o'qituvchi o'spirinlarning ovozi gigienasiga, qo'shiqlarning diapazon me'yoriga, ayniqsa ehtiyot bo'lishi kerak. Chunki ularning ovoz apparati qo'shiqlarning haddan tashqari yuklanishiga juda sezgir bo'ladi. Shu sababdan xor rahbari oldida ularning ovozi himoya qilish asosiy masala bo'lib turishi kerak. Biroq mutatsiya davri muvaffaqiyatli o'tishi uchun nafaqat xormeysterlar, balki ota-onalar va shaxsan bolalarning mas'uliyati ham bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Jamoada engil, bosh tovushini saqlab turish va juda asta-sekin to'liqroq tovushga o'tish tavsiya etiladi.

Mutatsiya paytida o'g'il bolalar bilan mashq qilishda yumshoqroq usul qo'llanilishi lozim. Bu davrda qizlarning ovoz apparati ham sezilarli o'zgarishlarga uchraydi. Aslida ovoznin asosiy tabiatii o'zgarmaydi, ammo tovushda xirillash va bo'g'ilish paydo bo'lib, qisqa davr ichida to'liq ovoz paydo bo'lishi mumkin. Amaliy kuzatuvlar va obyektiv ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'smir qizlar bu davrda ikki-uch kun davomida qo'shiq aytishdan ozod qilinishlari kerak bo'ladi. Mutatsiyaning oxirgi bosqichida qizlarda yorqin ovoz paydo bo'ladi, ovoz diapazoni, uning moslashuvchanligi oshadi. Shunga qaramay, ularning ovozi bilan ehtiyotkorlik bilan ishlash kerak, chunki bu davrda qizlarda kattalardek ovoz hali shakllanmagan bo'ladi. Vokal mushaklari rivojlanishda davom etayotgan jarayonda qizlarni vokal qobiliyatini ortiqcha baholab forsirovkaga yo'l qo'yish mumkin emas. Buni xor o'qituvchilari yodda tutishlari kerak, chunki konsert bolalar xorlari ko'p hollarda asosan 13-17 yoshli qizlardan iborat bo'ladi.

Shu o'rinda yuqorida qayd etilgan xorlarning repertuari ustida ham to'xtalsak. Katta yoshdagi xorlarning kontsert repertuarini yuki ham katta bo'ladi. Ularning ovozinin tabiati ko'pincha munozara mavzusi bo'lib xizmat qiladi. Chunki ba'zi xormeysterlar bu yoshdagi xor ishtirokchilarining ovoz imkoniyatlari ancha kuchli bo'ladi, deb asarlarni qiyinrog'ini afzal ko'rishadi va qattiq hujumda, ko'krak rezonansi hamda baland ovozda qo'shiq aytish mumkin, deb hisoblashadi. Aksincha, o'quvchilar xorining haddan tashqari dinamik va tembr imkoniyatlarini bo'rttiraydigan asarlar repertuarini shakllantirish kerak. O'quvchilarning ovoziga mos kelmaydigan xor asarlarini kuylash ularning ovozi keyingi rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Vokal-xor ijrochiligi texnikasidagi ana shu barcha talablarni o'zlashtirib olgandagina jamoalar ishtirokchilari kuylayotgan asarlarini tinglovchilarga ham yuqori musiqiy ijroda, ham mazmunan mohirona yetkazib berishlari mumkin.

Jamoa bo'lib kuylash insonlarni xalq qo'shiqchiligi merosiga, shuningdek, milliy va dunyo musiqa klassik durdonalariga qiziqish tug'dirib, birlashtiradi. Insonlarni ahillik va birdamlikka chaqirish, ularga ma'naviy barkamollikka yetishish va ongini o'sishida yordam beradi.

*"Musika o'qituvchisi va tarbiyachisi – bu o'ziga xos kasbdir", – deb yozadi R.Qodirov "Musika pedagogikasi" kitobida. "Iste'dod, ajoyib musiqiy ijrochilik ko'nikmalari, musiqa san'atiga oid bilimlari, pedagogik mahoratga ega bo'lishdan tashqari, musiqa o'qituvchisi o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini aniqlashga sezgirlik bilan yondashishi va bu qobiliyatlarni samarali rivojlantirish uchun zarur musiqa repertuarini to'g'ri tanlashi kerak"*³.

Xor rahbari jamoasiga asarning musiqaviy tilini, ifoda vositalarini va uning mantiqiy rivojlanishini, umuman, asar mazmunini to'liq tushungan holda ijro etishni o'rgatishi zarur. Bugungi kun vokal-xor o'qituvchisi nafaqat o'z fanining yetakchi mutaxassisi, yana qator cholg'ularni ijro eta bilishi va ilg'or zamonaviy texnologiyalardan ham samarali foydalana bilishi kerak. Bu esa, albatta, xormeyster-o'qituvchilar zimmasiga juda katta vazifalarni yuklaydi.

³ Qodirov R. Musika pedagogikasi. – T.: "Musika", 2014-y. 164-b.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MUSIQIY TAFAKKUR

Annotatsiya. Amir Temur davriga xos bo'lgan ma'naviy ko'tarinkilik musiqa san'atining deyarli barcha jabhalari uchun keng imkoniyatlar tug'dirib berdi: sozandalik va xonandalik, musiqiy ta'lim, bastakorlik ijodi, musiqa ilmi kamol topdi. Bu kasb sohiblarining alohida obro' va nufuzga sazovor bo'lganlari atrofida maxsus ijod, ijro va ilmiy mavqega ega ijodiy maktablar tashkil topgan.

Kalit so'zlar: turkiy qabilalar, mahalliy, sozandalik, xonandalik, musiqiy ta'lim, bastakorlik ijodi, usul, kuy, cholg'uchilik, musiqiy tafakkur.

МУЗЫКАЛЬНАЯ МЫСЛЬ В ПЕРИОД АМИРА ТЕМУРА И ТЕМУРИДЫ

Аннотация. Духовность, присущая эпохе Амира Темура, открыла широкие возможности практически для всех областей искусства: музыковедения и пения, музыкального образования, бастакора, музыковедения. Вокруг обладателей этой профессии созданы творческие школы со специальным творческим, исполнительским и научным статусом.

Ключевые слова: тюркские племена, местное, музыкальное образование, творчество бастакора, техника, мелодия, инструментальное, музыкальное мышление.

MUSICAL THOUGHT IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND THE TEMURIDS

Abstract. The spiritual uplift characteristic of the era of Amir Timur created wide opportunities for almost all aspects of musical art: musicianship and singing, musical education, compositional creativity, and music science matured. Creative schools with special creativity, performance, and scientific status were established around the masters of this profession who have gained special prestige and influence.

Key words: turkic tribes, local, musical education, composer creativity, technique, melody, instrumental, musical thinking.

Amir Temur davriga xos bo'lgan ma'naviy ko'tarinkilik musiqa san'atining deyarli barcha jabhalari uchun keng imkoniyatlar tug'dirib berdi: sozandalik va xonandalik, musiqiy ta'lim, bastakorlik ijodi, musiqa ilmi kamol topdi. O'rta asr an'anasi shahar aholisining kasb-koriga ko'ra jamoa (mahalla) bo'lib yashashni taqozo etgan. Xalq ichida tanilgan san'atkorlar hokimlar farmoniga ko'ra yoki o'ziga qulaylik yaratish maqsadida, kasbdoshlari bilan jamoa bo'lib yashashni afzal ko'rganlar. Shunga binoan "xonadanlar", "sozandalar", "bastakorlar" kabi mahallalarning paydo bo'lishiga va shakllanishiga sabab bo'lgan. Bu kasb sohiblarining alohida obro' va nufuzga sazovor bo'lganlari atrofida maxsus ijod, ijro va ilmiy mavqega ega ijodiy maktablar tashkil topgan.

Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida hikoya qilinishicha, hunarmandlarning san'ati xilmaxil bo'lib, ular o'zida ashula, so'z va raqsni jamlagan. Muallif xalq qo'shiqlari va epik dostonlaridan iborat bo'lgan har xil kuylar borligini ham ta'kidlab o'tadi.

Amir Temur saroyida mashhur musiqachi Xoja Abdulqodir Marog'iy (1340–1435) ijod etgan. Alloma umrining asosiy qismini Amir Temur va Temuriylar saroyida o'tkazadi. Abdulqodir Marog'iyning musiqachi sifatida yuksak qobiliyatidan xabardor bo'lgan Amir Temur 1393-yilda uni Bog'doddan Samarqandga olib keladi. Unga ijod qilish uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi. Sohibqironning vafotidan keyin ham saroyda Shohruh, Xalil Sulton hukmronligi davrida xizmat qiladi. U saroy musiqa shakllari bayon qilingan risolaning muallifidir.

Marog'iy bastakor sifatida 200dan ortiq asarlar yaratgan. Ko'p qismli turkum asarlaridan "**Zarb al-fath**", "**Chohor zarb**", "**Mayatayn**" maqom bo'limlaridan

"**Tasnifi Xoja Abdulqodir**", "**Amali tarona**", "**Amali bo'ston**", "**Amali Guliston**", "**Amali Xoriston**" kabi asarlari shular jumlasidandir. Ming afsuski, bizgacha allomaning asarlarini nomlari yetib kelgan, xolos. Abdulqodir Marog'iyning musiqa nazariyasiga oid "**Gina va alxon**", "**Maqosil al-alxon**", "**Javome' al-alxon**", "**Kana al-alxon**", "**Sharh al-alvor**" va boshqa tadqiqotlari ma'lum va mashhurdir.

Temuriylar zamonida yashab ijod etgan yana bir yirik musiqashunos olim Abdurahmon Jomiydir. U "Risolayi musiqiy"ning muallifi bo'lib, Jomiyning mazkur risolasi nazariy mazmunga ega. Uni quyidagi ikki qismga "Ilmi taklif" hamda "Ilmi iyqo"ga bo'lgan. Asarning birinchi bo'limida an'anaviy ravishda musiqaning kelib chiqishi, "musiqa" so'zining mazmuni, san'atkorlarning burchi kabi muammolar yoritiladi. Jomiyning fikriga ko'ra, "musiqaning tarkibiy qismlarini o'rganish yanada go'zal va nafis san'at yaratish uchun kerakdir". Muallif o'z fikrlarini o'rtaq tashlar ekan, o'zidan oldingi, jumladan, Abu Nasr Forobiy hamda o'z zamondoshlari tajribalariga tayanadi.

Hirotda Amir Temurning vorisi Shohruh Mirzo saroyida, ayniqsa, Samarqandda uning o'g'li Ulug'bek saroyida musiqa san'atiga katta e'tibor berildi. Mirzo Ulug'bek davrida Samarqand ilmiy va madaniy hayot markazlaridan biriga aylantirildi. U doimo shoir va musiqa namoyondalariga homiylik qilib kelgan.

Amir Temur va temuriylar davrida musiqiy ijod va ijro shiddat bilan musiqiy risolanavislikka ham ta'sir etmay qolmadi. Mazkur davrga oid qator risolalar musiqa ilmining yuqori saviyada rivojlanganligidan dalolat beradi. Jumladan, musiqaning muhim timsollari tizimi, o'rganilayotgan davrning musiqa bilan bog'liq

barcha xususiyatlari haqidagi qimmatli ma'lumotlarni aytib o'tish mumkin. Masalan, Zaynulobidin Husayniy *"Qonuni ilmi va amaliy musiqiy"* risolasida xalq cholg'u asbobi – dutorni ilk bor ilmiy ta'riflaydi va uning xotin-qizlar orasida keng tarqalganligini aytib o'tadi.

XV asrga kelib, Hirotda adabiyot va san'at, arxitektura, rassomchilik, milliy musiqiy tafakkurning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Hirotdagi madaniy hayotning gullab-yashnashi Alisher Navoiy nomi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki u shoh Sulton Husayn Boyqaroning do'sti va bosh vaziri bo'lib, shoirlar, musiqachilar, rassomlar va boshqa ijod ahlini rag'batlantirib turgan.

Alisher Navoiy musiqi xalqning ma'naviy hayotiga juda katta ijtimoiy ta'sir etishini yaxshi tushungan. Shuning uchun ham, u musiqi ma'noli, ta'sirli bo'lib, xalq va uning ma'naviy hayoti bilan mustahkam bog'lanishi lozimligini ta'kidlaydi. Navoiy ishq va go'zallikni musiqiy tafakkurning shakllanishi bilan qiyoslaydi. G'azalnavisning asarlari g'oyat darajada musiqiy tafakkur bilan shakllangan bo'lib, shoir xalq qo'shiqlarini yaxshi bilgan va sevgan. O'zining *"Mezon ul-avzon"* risolasida bir qator yangi vazn o'lchovlarini ko'rsatib berganki, bu o'lchovlardan O'rta Osiyo shoirlari xalq qo'shiqlarini yaratishda foydalanganlar.

Milliy mumtoz musiqiy san'atining rivojlanishi ilmfanning gullab-yashnashi hamda badiiy madaniyatning gurkirab rivojlanishi bilan bir vaqtda ro'y bergan. Ilmfan va san'atni bir-biridan ajratish aslo mumkin emas. Musiqiy tafakkur hamisha ilmiy kashfiyotlarning doyasi, ilhomchisi bo'lgan, musiqi tufayli inson sezgilari ijtimoiylashadi, fikr tiniqlashadi, borliqni idrok etish faollashadi. Insondagi mehr-shafqatlilik va hamdardlik singari insoniy fazilatlar milliy musiqiy tafakkur orqali shakllanadi va kamol topadi. Musiqi insonning turli kayfiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Musiqaning ushbu ifodaviy-tasviriy imkoniyatlari O'rta Osiyo mutafakkirlari – Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Bobur, Kavkabi; tasavvuf arboblari – imom G'azzoliy, Kalobodiy, imom al-Buxoriy va boshqalar tomonidan yuqori baholanib, sharhlangan va ilmiy tahlil qilingan.

Musiqi san'atining rivojlanishiga asl Temuriylardan bo'lgan Zahiriddin muhammad Bobur muhim hissa qo'shgan. *"Boburnoma"* ma'lumotlarining o'zi ham XV-XVI asr oralig'ida Movarounnahr va Hurosonda katta badiiy madaniyat – yuksak she'riyat, zarofat, sozanda va go'yanda san'ati, masharabozlik va xilma-xil maydon tomoshalari bo'lganligidan dalolat beradi.

1519-yil Bog'i Vafoda maqomxonlik ruhida o'tgan yig'inda Bobur Mullo Yorakning mohir bastakorligini qayd etadi. Bobur bastakorning *"Panjgoh"* maqomining muhammasi yo'lida ijod qilgan kuyini, *"yaxshi naqsh bog'labdur"*, deb ijobiy baholaydi. Binobarin Bobur, maqomni juda yaxshi bilgan, chuqur tushungan. Uning gaplaridan ilgari musiqi bilan muntazam shug'ullanganligini, harbiy yurishlar sababli necha mahal qo'li tegmaganligini, Mullo Yorakning naqshidan ilhomlanib ketib qo'lga soz olgani va *"chorgoh"* maqomiga bir savt bog'laganini bilib olamiz. Demak, Bobur shunchaki sozanda emas, usta bastakor ham. Mullo Yorak naqshini ilgari bastalagan, Boburga chalib eshittirgan. Bobur esa o'z kuyini o'sha tobda bastalagan, shunday bastalaganki, o'z davrida juda mashhur bo'lib ketgan. Bundan Boburning naqadar

katta musiqi qobiliyatiga ega bo'lganini tasavvur qilish mumkin. Shu bilan birga Bobur musiqi nazariyasi bilan ham maxsus shug'ullangan. *"Boburnoma"*ni ko'chirgan xattot: *"Ul podshoh musiqiy ilmidan ham xabari bor edi"*, deb yozadi. Ayrim manbalarda Bobur *"Risolai musiqi"* asarini yozganligini ko'rsatib o'tishadi. Lekin hozirgacha mazkur asar topilgan emas.

O'sha madaniyatni saqlash va rivojlantirishda turli millatga mansub iste'dodli, mumtoz san'atkorlar favqulotda muhim xizmat qilganlar. Shuni ham qayd etish kerakki, Boburshoh va boburiylar faoliyati, sa'y-harakatlari bilan Movarounnahr va Xurosondan Hindistonga borgan eng sara shoirlar, sozanda va xonandalar, raqqoslar, masxarabozlar, polvonlar, zariflar o'z san'atlarini munosib namoyish etib, mahalliy tab', soz va nag'ma ahlari bilan ijodiy aloqalar o'rnatib, o'sha mamlakatda ham ko'pgina eski va yangi kuy, qo'shiq, o'yin va tomoshalarning keng tarqalib ketishiga sababchi bo'lganlar.

Amir Temur va Temuriylar davri musiqi madaniyatining hayotbaxsh falsafasi, uning yuksak badiiy muvaffaqiyatlari keyingi davrlar musiqiy tafakkurining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Mumtoz musiqi madaniyatiga oid asarlar mazmuniga badiiy g'oyalar umumlashgan holda berilib, musiqali obrazlarning o'zaro munosabatlari taqqoslash, to'qnashuv, rivojlanish jarayonida shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko'ra musiqi mazmuni ham turli epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo'ladi. Musiqi shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qadriyatlarining birligidan iborat bo'lib, bunda mazlum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalari to'g'risidagi umumlashmalar ifoda etiladi. Musiqiy madaniyat har bir davrning ma'naviy-ma'rifiy talablariga javob bergan holda ayni vaqtda inson faoliyatining ko'pgina jabhalari bilan mushtarakdir. Musiqiy tafakkurning inson axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg'ularini rivojlantirish vositasi sifatidagi roli juda muhimdir.

Musiqiy tafakkur inson madaniyati va dunyoqarashi shakllanishi, jamoaviy hayotida o'ziga xos o'ringa ega. U dam olish va ko'ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport mashqlari va mehnat jarayonida o'ziga xos muayyan darajadagi vazifani bajaradi. Shuning uchun musiqi asarlari o'z mazmuniga muvofiq holda bir necha uslub, tur va janrlariga ajratiladi. Alla, zikr, marsiya, sarbozcha, vals, marsh, messa kabi janrlar hayotdagi maishiy va boshqa sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi. Janrlar asosan diniy musiqi, yoshlar musiqasi, maishiy musiqi, ommaviy musiqi, harbiy musiqi, kamer musiqi kabi turlariga birlashadi. Tarixiy, milliy, mahalliy musiqi uslublari ham musiqiy tafakkur tarzi, ohang, ritm, shakl kabi musiqiy unsurlarni o'z ichiga olib, muayyan bir davr yoki milliy madaniyatga mansub bo'lgan turli janrdagi asarlar umumiylikni aks ettiradi.

Musiqiy tafakkur va u orqari dunyoqarashning shakllanish jarayoni asosan uch bosqichda amalga oshiriladi: ijod, ijro va idrok. Har bir bosqichda asarning mazmun va shakli o'zgacha ko'rinishda bo'ladi. Ijod bosqichida badiiy g'oya va shakl muallif ongida mushtarak holda tug'iladi. Ijro jarayonida shakl va

mazmun ijrochi tomonidan uning dunyoqarashi, estetik tasavvurlari, shaxsiy tajriba va mahoratiga mos ravishda o'zgartiriladi. Musiqa ixlosmandlari ham ijro etilayotgan asarni o'zlarining didi, hayotiy va badiiy tajribasi, tinglash vaqtidagi kayfiyatiga asoslanib qabul qilishadi. Shu bois ham musiqa faoliyati hamma bosqichlarda ijodiy tabiatga ega bo'ladi.

O'rta Osiyo IX–XII asrlar musulmon Sharq xalqlari og'zaki an'anadagi musiqasi doston, ya'ni she'riyat va musiqa amaliyoti tizimlari asosida shakllangan. O'rta Osiyo, Eron va arab xalqlari musiqasida muttasil davom etgan o'zaro ta'sir va aloqa jarayonlari natijasida ushbu xalqlar uchun umumiy bo'lgan vokal va cholg'u turlari vujudga kelgan. Mashhur bastakor, xonanda va sozandalar Ibrohim Mavsimiy, Ishoq Mavsimiy, Ziryob, Mansur Zalzal, ibn Surayj va boshqalar O'rta Osiyo musiqa madaniyati nazariyasi hamda ijro uslublari yaratishda muhim rol o'ynaganlar.

Musiqiy dunyoqarashning shakllanishi o'ziga xos an'ana va udumlar asosida paydo bo'lgan.

a) Xalq musiqasida lapar, terma, yalla, qo'shiqlarning turli xillari (marosim, maishiy, mehnat, o'yin, raqs, lirik, nasihatomuz).

b) Og'zaki an'anadagi O'rta Osiyo professional musiqasida esa doston, maqom, cholg'u yo'llari, katta ashula kabi janrlar mavjud.

O'zbek musiqa madaniyati merosida to'rtta asosiy mahalliy uslubni farqlash mumkin. Bular: Buxoro – Samarqand musiqa uslubi, Xorazm musiqa uslubi, Farg'ona – Toshkent musiqa uslubi, Surxondaryo – Qashqadaryo musiqa uslubidir.

O'rta Osiyo va Sharq xalqlari musiqiy dunyoqarash, tafakkur shakllanishining qonun-qoidalari tizimini o'rganuvchi ilmi musiqiy VIII-IX asrlarda Yunus al-Kotib, Halil ibn Ahmad kabi olimlar tomonidan shakl topgan. Ilmi ta'rif, ilmi iyqo va ilmi advordan tarkib topib, musiqa nazariyasi, tarixi, ijodiyoti va ijrochiligi masalalari haqida bahs yuritilgan.

Musiqiy tafakkurning shakllanishida ilmi musiqiy asosan uchta uslubiy yo'nalishni o'z ichiga oladi:

1. *Musiqa ijodiyoti an'analari Yunoniston mantiq ilmi negizida umumlashtirishga asoslangan ilmiy-ratsionalistik yo'nalish.*

2. *Muayyan bir ijodiy uslub, maktab yoki musiqaning ma'lum bir sohasini amaliy o'zlashtirishga mo'ljallangan amaliy-empirik yo'nalish.*

3. *Qur'on, hadislar, shariat arkonlari va tasavvuf g'oyalari nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda musiqiy tafakkurni shakllanishining ma'naviy mohiyati, tarbiyaviy ahamiyati masalalarini o'rganishga bag'ishlangan diniy-ma'naviy yo'nalishdir.*

Musiqiy dunyoqarashning shakllanishini o'rganishning uchinchi yo'nalishida ilmiy musiqiy ko'p hollarda "samo" deb atalgan. Temuriylar davrida ilmiy-ratsionalistik va amaliy-empirik uslublarini o'zaro mujassamlashtirgan ta'limot yo'nalishi vujudga keldi. Bu yo'nalishning asoschilari Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Zaynulobidin al-Husayniy, Kavkabi va boshqalardir.

Musiqa shakllari har bir davrning ma'naviy-ma'rifiy talablariga javob bergan holda ayni vaqtda inson faoliyatining ko'pgina jabhalari bilan mushtarakdir. Musiqaning, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik

didini shakllantirish, hissiy tuyg'ularini hamda musiqiy tafakkurini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish vositasidir.

Musiqaning inson ongi va hissiyotiga ta'sir etishning ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlarga hamohang bo'lgan protsessual muayyan jarayonli tabiati bilan bog'liqdir. Musiqa asarlari mazmunida badiiy g'oyalar umumlashgan holda berilib, musiqali obrazlarning o'zaro munosabatlari (qiyosiy tahlil, to'qnashuv, rivojlanish) jarayonida shakllanadi. Bu esa musiqiy tafakkurning yanada ravnaq topishida xizmat qiladi.

Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko'ra musiqa mazmuni ham turli epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo'lishi mumkin. Bulardan insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlarini ifodalashga moyil bo'lgan lirika musiqaning "botiniy" tabiatiga ancha yaqindir. Musiqaning mazmuni shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo'lib, bunda ma'lum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi.

Ilmi musiqiyning muammolar tizimi musiqaning kelib chiqishi, uning ijtimoiy, ma'naviy, tarbiyaviy ahamiyati, kuy turlari (alhon) va janrlari, nag'ma, bu'd, jins, jam, iyqo, intiloqot, ta'lif, cholg'ushunoslik va boshqa masalalardan tarkib topib, ularni o'rganishda matematika, riyoziyot, fizika, geometriya (handasa), mantiq va boshqa fanlar qonun-qoidalari isbot vositalari keng tatbiq etilgan. XX asrning boshlaridan ilmi musiqiy Yevropa va jahon musiqa madaniyatining ilg'or uslubiy tamoyillari bilan boyitilib, zamonaviy musiqa sharqshunosligining tarixiy, uslubiy negizi va tarkibiy qismi sifatida rivojlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
2. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil, 30-dekabr.
4. Абсалямова Н. Культуре тюрков жить в веках [текст]. // Н.Абсалямова, Э. Джилкибаев // Казахстанская правда. - 2002. - № 020 (23669), 31 январь.
5. Мациевский И.В. Народная инструментальная музыка как феномен культуры [текст]. // И.В.Мациевский; науч. ред. С.И.Утегалиева. – Алматы: «Дайк-пресс», 2007 г. С.520.
6. Xalilova N. O'zbek musiqa adabiyoti. – T.: 2017-y. 107-b.
7. O'zbekiston tarixi fanining predmeti, nazariy-metodologik asos-lari, manbalari va uni o'rganishning ahamiyati. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-280649-1.html>
8. Ibrohimov O. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-f/fargona-toshkent-musiqa-uslubi-uz/>
9. Sharq mumtoz poetikasi Hamidulla Boltaboyev talqinida. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2008-y. 67–426-b.
10. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. www.ziyouz.com
11. Yarashev J. Jadid va ma'rifatparvarlarning san'at va musiqaga munosabati haqida. Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22230>
12. Madrimov B. O'zbek musiqa tarixi. – T.: 2015.
13. Begmatov S. Hofizlik san'ati (o'quv uslubiy qo'llanma). – T.: "Musiq", 2007.
14. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami (20 tomlik). – T.: "Fan", 2002. 357-b.

MAQOMLAR – YUKSAK BASTAKORLIK NAMUNALARI

Annotatsiya. Ohang borki uning yaratuvchisi bo'ladi. Ijodkor o'zining mahorati va dunyoqarashidan, ilmu ziyosidan kelib chiqqan holda kuylar yaratadi. Qadimdan musiqiy asarlarni bastalagan ijodkorlarga alohida hurmat va ehtirom ko'rsatilgan. Bugungi kunda biz e'zozlab kelayotgan maqom asarlarimiz ham qadimda qaysidir bastakorlar tomonidan yaratilgan. Xalq esa yaratilgan yangi asarlarni tinglab baho bergan. Mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan. Sozanda-yu, xonandalar tomonidan ijro etilib, avloddan avlodga o'tib kelgan. Ushbu maqolada, qadimda O'rta Osiyo hududida yashab maqomlar asosida kuylar yaratgan ijodkorlar va ularning ijodi haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: musiqiy asar, musiqiy risola, bastakor, peshrav, saqil, naqsh, amal.

МАКОМЫ – ВЫСОКИЕ ПРИМЕРЫ КОМПОЗИТОРСТВА

Аннотация. Есть мелодия, есть и его создатель. Творец создает мелодии, основываясь на своем мастерстве мировоззрении и уровня интеллекта. С незапамятных времен композиторам, сочинявшим музыкальные произведения, оказывались особые почести и почитания. Макомы, которые мы обожаем сегодня, также были созданы в древности каким-нибудь композитором. А публика слушала и оценивала созданные новые произведения. Также эти произведения были признаны специалистами. Исполнялись певцами и исполнителями, передаваясь из поколения в поколение. В этой статье представлен краткий обзор композиторов и их творчества, которые в древности жили на территории Центральной Азии и создавали мелодии, основанные на макоме.

Ключевые слова: музыкальное произведение, музыкальный трактат, композитор, пешрав, сакыл, накш, амал

MAKOMS – HIGH EXAMPLES OF COMPOSING

Abstract. There is a melody, there is also its creator. The Author creates melodies based on his mastery of the worldview and level of intelligence. Since time immemorial, composers who composed musical works have been given special honors and reverence. The makoms that we adore today were also created in ancient times by some composer. And the audience listened and appreciated the new works created. These works have also been recognized by experts. They were performed by singers and performers, passed down from generation to generation. This article provides a brief overview of the composers and their work, who in ancient times lived in Central Asia and created melodies based on makom.

Key words: musical composition, musical treatise, composer, peshrav, sakyl, naksh, amal.

O'zbek maqomlari bugungi kunda xalqimizning buyuk merosi, bebaho boyligi sifatida qadrlanib, e'zozlanib kelinmoqda. O'zbek maqomlari bir vaqtning o'zida mukammallik, tartib va intizom, betakrorlik, go'zallik va nafosatni jamlagan bo'lib, bu xususiyatlar maqomlarimizning yillar davomida sayqallanib kelganini, eng mohir va iste'dodli bastakorlar tomonidan yaratilganini anglatib turadi.

"XVI–XVIII asrlarda O'rta Osiyo hududida ko'plab iste'dodli sozanda, xonanda, bastakor va musiqa nazariyotchilari yashab ijod etgan bo'lib, ular mumtoz

*musiqa san'atining shakllanishi va rivojlanishiga juda katta hissalarini qo'shganlar"*¹. Bu davrda yaratilgan barcha musiqiy asarlar, xususan, savt, naqsh, saqil, peshravlar maqom qonuniyatlari, ohanglari, usullariga asoslangan. Mavlono Zaynulobiddin Rumiy o'z davrining ilmu ziyoli insonlaridan bo'lgan. U yoshlik davrlaridanoq musiqa san'atiga qiziqqan. Turli maqomlarni kuylab yurganini ko'rgan ustozlarga uning barcha sir-sinoatini o'rgana boshlaydi². Bora-bora chang va ud cholg'ularining mohir sozandasiga ham aylanadi. Mavlono Zaynulobiddin Rumiy bir nechta peshravlarni yaratadi. Shular orasidan uchta juda ham mashhur bo'lib go'zallik va mukammallik jihatidan olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Ulardan birinchisi **"Afsona"** deb nomlanib, Husayniy maqomi asosida yaratilgan. Ikkinchisi, Iroq maqomlari asosida yaratilgan **"Saqil"** va uchinchisi,

¹ Дадаев А.Ш. "Трактат Фароби о музыкальной науке: "Китабу-л-музыка ал-кабир" ("Большая книга о музыке")", "Проблемы современной науки и образования" № 2 (171), 2022 г.

² Матякубов Ш.Б. «Традиции «наставник и ученик» в обучении традиционного исполнительства», «Проблемы педагогики» № 2 (41), 2019 г.

Husayniy maqomi asosida tuzilgan **“Peshravi far”**³.

Ustod Zaytuni G'ijjakiy ham bir qancha peshravlar muallifi sanaladi. Hatto, uning yaratgan bir asari haqida shunday hikoya qilinadi: Bir kuni Ustod Zaytuni G'ijjakiy ukasi Qosim bilan birgalikda bahorning tabiat gullagan bir kunida sayrga chiqadilar. Ular yurib kelayotgan yo'l bir joyga kelib ikkiga ajraladi. Aka-ukalarning har qaysisi turli yo'llar bilan ketaveradilar. Aka-ukalarning biriga yo'lda cho'ponsiz suruv duch keladi. Ikkinchisiga esa suruvsiz cho'pon duch keladi. O'sha vaqtda ular peshrav bastalash bilan band edilar. Cho'ponsiz suruvga duch kelgan aka bastalagan peshraviga **“Rama”** (suruv) deb nom beradi, suruvsiz cho'ponga duch kelgan uka esa bastalagan peshraviga **“Cho'pon”** deb nom beradi. Sayr so'ngida aka-ukalar uchrashadilar va o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashadilar. Ma'lum bo'ladiki, ularning ikkalasi ham Husayniy maqomi ohanglari asosida, saqil usuli bilan peshrav yaratgan emishlar. Shuning uchun ham bu ikkala peshrav **“Cho'ponu rama”** (Cho'pon va suruv) nomini oladi.

O'z zamonasining Aflotuni va Buqroti sanalgan Mavlono Husayn Ohun juda katta ilm sohibi bo'lishiga qaramay, o'ta iste'dodli musiqachi ham bo'lgan. O'z davrining sozandalar va musiqachilari orasida eng iste'dodlisi sanalgan. U 1583–1598-yillarda hukmronlik qilgan Abdullaxon davrida ham yashagan bo'lib, xon Buxorodagi madrasasida musiqiy bellashuv tashkil etadi. Bellashuv so'ngida, g'oliblar aniqlanib bo'lgach, Ustod Ali Do'st o'zi bastalagan **“amal”**ni xon va uning amaldorlari oldida ijro etadi. Tinglovchilar orasida Mavlono Husayn Oxun ham bor edi. Asarni tinglagach, Mavlono Ustod Ali Do'stga savol bilan murojaat etadi: **“Siz bu asarni “amal” sifatida bastaladingizmi yoki “savg” sifatidami?”**. Ali Do'st esa **“amal”** sifatida bastalaganini aytadi. **“Amal mustahallasiz bo'lmaydi, sizning amalingizda esa mustahalla yo'q”**, – deya e'tiroz bildiradi va shu yerning o'zida Ali Do'stning **“amal”**iga mustahalla bastalaydi⁴.

Maxzumzoda Xorazmiy ko'plab savt va naqshlar bastakori sifatida mashhur bo'lgan. U ko'plab mumtoz kuylarga otasi shayx Sayid Husayn Xorazmiyning ijodidan so'zlar qo'ygan. U yaratgan **“Naqshi Maxzumzoda”** asari Buxoroda juda ommalashgan edi. Hofiz Changiy ham bu inson bilan ko'rishishni va unga shogird tushishni istab Samarqandga yo'l oladi, chunki u vaqtlarda Maxzumzoda Samarqandda yashar edi. Tashrifi

chog'ida xonning zafari sharafiga savt bastalaydi va uni xonga taqdim etadi. Hofiz Changiyning ushbu savti xonga ma'qul bo'ladi va evaziga hadyalar beradi. Bu Savt Samarqandda ommalashib ketadi. Hofiz Changiy haqida eshitgan Maxzumzoda Xorazmiy uni huzuriga taklif etadi va yangi savtni ijro etib berishini so'raydi. Maxzumzoda Xorazmiy ham uning ijodini yuksak baholaydi, e'tirof etadi va shunday deydi: **“Otam Ustod Ali Do'stni tarbiyalab ta'lim berdi, men esa senga ustozlik qilaman”**. Shu tariqa Hofiz Changiy Maxzumzoda Xorazmiyning barcha aytganlariga amal qilib, qisqa vaqt ichida o'n yettita peshrav bastalaydi. Bu peshravlarning barchasi maqom ohanglari va usullariga asoslanadi. U yaratgan bu peshravlar nafaqat xalq orasida, balki musiqachilar orasida ham mehr qozonadi. Sozanda va xonandalar bazm, majlis va to'ylarda bu peshravlardan birini, albatta, ijro etganlar.

Bastakorlik bobida benazir ijodkorlardan yana biri Abdulqodir Nayi bo'lgan. U saroydan chetlatilgan kezarida xonga sadoqatini bildirish maqsadida bir yo'l tutadi. U karvondagi tuyalar bo'yniga qo'ng'iroqlar ilib chiqadi. Bu qo'ng'iroqlarni shunday tanlaydiki, tuyalar yurganida ular jaranglab o'ziga xos musiqiy ohang sadolanadi. Abdulqodir esa bu ohangga mos ravishda g'azal o'qiydi. Bu asar xonning qulog'iga yetib boradi va **“Amali tarona”** nomini oladi. Asar Iroq maqomi asosida yaratilgan. Keyinchalik Abdulqodir Nayi Bag'dodga ko'chib ketadi va u yerda musiqa maktabini tashkil qiladi. Bolalarga musiqadan dars beradi. Shu jarayonda zarbul fatx, choxar zarb va miatayn nomli doira usullarini musiqa amaliyotiga tadbiiq etadi.

O'z zamonasining yetuk olimi va musiqashunos Ustod Shodi o'zining ilmi va ijrochilik mahorati bilan xalq orasida tanilgan. Uning bir biridan iqtidorli va xalq tomonidan sevilgan o'n ikki nafar shogirdi bo'lgan⁵. Ustod Shodi Iroq maqomi asosida, kor usulida o'n ikkita naqsh bastalaydi. Va bu asarlarni shogirdlariga o'rgatadi. Qaysi biri qaysi naqshni yaxshiroq kuylasa shu naqshni aynan o'sha shogirdiga taqdim etgan. Masalan, shogirdlaridan Xoja Yusufi Andijoniy **“Sumboli”** naqshini mahorat bilan ijro etadi. So'ng Ustod Shodi bu naqshni unga beradi va asar halq orasida Xoji Yusuf Naqshi nomi bilan ommalashadi. Shu tariqa Ustod Shodi yana bir turk zarbi doira usulida ijro etiladigan **“Mohi Hilol”** naqshini shogirdi G'ulom Ali Shunqorga beradi. **“Naqshi Xanjara”** asarini shogirdi Ali Kardga, yana bir naqshni Alijon G'ijjakiyga taqdim etadi⁶. Shu tariqa Ustod Shodi o'zi yaratgan asarlarning keyingi avlodga o'tishini va xalq orasida yanada ommalashishini ta'minlaydi.

Qadimda shunday sozandalar bo'lganki, ular ijrochilik mahorati ustida tinimsiz ishlaganlar va zamondoshlari orasida tengsiz darajaga yetganlar. Ana shunday ijodkorlardan biri Shoh Kulli G'ijjakiy bo'lgan. U g'ijjak cholg'usida asarlarni shu qadar mahorat bilan ijro qilganki, zamondoshlari **“ijroda tengsiz”**, deya ta'riflaganlar. U ham ko'plab peshravlar muallifi bo'lgan. Yaratgan asarlari

³ Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвиша Али (XVII века). – Тошкент: 1946 г.

⁴ Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвиша Али (XVII века). – Тошкент: 1946 г.

⁵ Матякубов Ш.Б. «Традиции «наставник и ученик» в обучении традиционного исполнительства». «Проблемы педагогики», № 2 (41), 2019 г.

⁶ Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвиша Али (XVII века). – Т.: 1946 г.

orasida muxammas doira usulida ijro etiladi. **“Husayniy”** nomli peshravi shunday murakkab asar ediki, uni Shoh Kulli G'ijjakiyning o'zidan boshqa hech kim ijro etolmasdi.

“Savti Begum”, “Naqshi Begum” kabi musiqiy asarlarni bastalagan Ali Shunqor ham zamonasining iste'dodli va mashhur san'atkorlaridan bo'lgan. Dugoh maqomi ohanglari asosida, turk zarbi doira usulida yaratilgan bu asarlar o'zining ohangdorligi va nafosati bilan tinglovchilarni ham, ijrochilarni ham o'ziga maftun etgan.

Asli marvlik bo'lgan Ustod Ali juda ko'p peshrav va naqshlarni bastalagan. Uning, ayniqsa, ikkita peshravi doim alohida tilga olinadi. Chunki bu asarlari boshqa hech bir ijodkorlarning peshraviga aslo o'xshamaydi. Biri barcha musiqiy cholg'ularda ijro etishga mo'ljallangan Husayniy maqomi ohanglari, turk zarbi doira usulida ijro etiladigan **“Ali – jobb”** peshravidir. Ikkinchisi Hisor peshravi bo'lib, uni **“Naygir”** deb atashgan. Chunki Ustod Ali bu asarni nay cholg'usida ijro etishga ko'p bora uringan, ammo natijaga erisha olmagan. Shundan so'ng chortor (to'rt torli cholg'u)ni qo'lga olib, ikkinchi peshravni aynan unda ijro etgan.

Ustod Shodining shogirdlaridan biri Alijon G'ijjakiy hukmdorlar tomonidan sevilgan ijodkor bo'lgan⁷. Uning g'ijjak cholg'usidagi ijrosi ham, go'zal ovozi ham juda maftunkor bo'lgan. U uzoq vaqt biror asarni ijro etib tura olmagan ekan, chunki uning ijrosini tinglagan inson o'zini unutib, xushidan ketib

qolar ekan. Alijon G'ijjakiy ko'plab savt va naqshlarni bastalagan. Olti ovoza ohangida yaratgan kuylarini birorta sozanda ijro eta olmagan ekan. Shulardan biri turk zarbi doira usulida ijro etiladigan **“Ikki Hilol”** kuyi, Davri Shohi doira usulida ijro etiladigan savt va Dugoh maqomi ohanglarida yaratilgan ohangidir. Alijon G'ijjakiy bu asarlarni ustoz Ustod Shodiga javoban yaratgan ekan⁸.

Bu kabi ijodkorlarning nomlari va ularning hayoti va ijodi bilan bog'liq namunalarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Zero, ular haqida qadimiy musiqiy qo'lyozmalardan bilib olishimiz mumkin. Aytmoqchi bo'lganimiz shuki, biz bugungi kunda e'zozlab kelayotgan va sof holda kelajak avlodga yetkazmoqchi bo'lganimiz maqom asarlari o'z-o'zidan paydo bo'lgan emas. Bu asarlarni yuqorida nomlari tilga olingan ijodkorlar kabi yuksak iste'dod sohiblari, ijrochilikda va mahoratda tengi yo'q sozanda-yu, xonandalar bastakorlik faoliyatidan kelib chiqib yaratganlar. To'g'ri, falon maqom asarini falonchi bastakor yaratgan, deya olmaymiz, ammo bilamizki, bu asarlarni ilm-ma'rifatda ham, yaratuvchanlikda ham, iste'dodda ham tengsiz bo'lgan ota-bobolarimiz bizga qoldirib ketganlar. Bu asarlarda bizning o'zligimiz, tariximiz, ma'naviyatimiz, dunyoqarashimiz va g'ururimiz mujassamlashgan. Uni chuqurroq o'rganishimiz, ilmiy hamda amaliy tadqiqotlar olib borishimiz bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

⁷ Матякубов Ш.Б. «Традиции «наставник и ученик» в обучении традиционного исполнительства». «Проблемы педагогики», № 2 (41), 2019 г.

⁸ Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвиша Али (XVII века). – Т.: 1946 г.

BUYUK IPAK YO'LINING MUSIQIY MADANIYATIMIZ HAMDA MILLATLARARO TOTUVLIK RIVOJIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada, o'rta asrlarda musiqa san'atimizning rivojlanish tarixi hamda sarhadlarimizdan kesib o'tgan Buyuk Ipak yo'lining madaniy-ma'rifiy va shu bilan birga musiqa san'atining qo'shni o'lkalarga tarqalishiga doir qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, musiqaning millatlar o'rtasida totuvlikni shakllantirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: ma'naviyat, madaniyat, qadriyat, milliy ruh, folklor, tolerantlik.

ЗНАЧЕНИЕ ВЕЛИКОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ В РАЗВИТИИ НАШЕЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ И МЕЖНАЦИОНАЛЬНОЙ ГАРМОНИИ

Аннотация. В данной статье представлена ценная информация об истории развития нашего музыкального искусства в средние века, а также о культурно-просветительской деятельности Великого Шелкового пути, пересекшего наши границы, и в то же время о распространении музыкального искусства на соседние страны. Также высказывались мнения о важности музыки в формировании гармонии между народами

Ключевые слова: духовность, культура, обычаи, национальный колорит, фольклор, толерантность.

THE IMPORTANCE OF THE GREAT SILK ROAD IN THE DEVELOPMENT OF OUR MUSICAL CULTURE AND INTERETHNIC HARMONY

Abstract. This article provides valuable information about the history of the development of our musical art in the Middle Ages, as well as about the cultural and educational activities of the Great Silk Road, which crossed our borders, and at the same time about the spread of musical art to neighboring countries. Opinions were also expressed about the importance of music in shaping harmony between peoples

Key words: morale, culture, prise, national spirit, folklore, tolerance.

Ma'lumki, diyorimiz azaldan yuksak madaniyat va ma'naviyat maskani sifatida olamga mashhur. Respublikamiz Mustaqillikka erishgandan so'ng, o'ttiz yildan ko'proq vaqt oraliq'ida bu azaliy qadriyatlarni yana tiklash, boy merosimizning asl manbalarini o'rganish, ular bilan kelajak avlodni oshno qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ma'naviy qadriyatlarimiz qatorida musiqa alohida o'rin tutadi. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan qadimiy kuy va qo'shiqlar ajdodlarimiz ma'naviy hayotidan dalolat beruvchi ruhiy omildir. Ota-bobolarimiz musiqa insonni kamolotga undovchi kuch, deb bilganlar. Eng ta'sirli va eng ommaviy ma'naviy ozuqa vositasi sifatida musiqaga yuksak ijtimoiy maqom berilgan.

Insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyotlaridan biri bo'lgan musiqa san'ati bizning yurtimizda ham shonli va qadimiy tarixga ega. Xalqimizning musiqa madaniyati tarixi shu xalqning umumiy tarixidan kelib chiqib, asrlar suronida toblandi va takomillashib bordi. Shu o'rinda yurtimiz sarhadlaridan kesib o'tgan umumiy uzunligi 12 ming kilometrdan ortiq bo'lgan (Pekin-Madrid) Buyuk Ipak yo'li juda katta ahamiyatga ega [322-b.].

Tarixdan ma'lumki, bobolarimiz sug'diylar ming yildan ortiqroq vaqt davomida qit'alararo Buyuk Ipak yo'lida to'la o'z hukmronliklarini o'rnatganlar. Bu yo'l orqali sug'diylarning hunarmandchilik buyumlari, turli-tuman savdo mahsulotlari, madaniyati va shu bilan birga musiqa madaniyati ham Sharqiy Turkiston, Xitoy, Koreya, va hatto, Yaponiyagacha yetib borgan. Xitoylik olim Sun Syanning yozishicha, V asrdan X asrgacha samarqandlik sug'diylarning qo'shiqlari, raqslari va musiqa asboblari doimiy ravishda Xitoy imperatorlarining saroylari, shahar va qishloqlari, ko'chalari bo'ylab taralib turgan.

Imperator va yuqori mansabdorlarning saroylarida Trans-oksiana (O'rta Osiyo) va Sharqiy Turkistondan kelgan musiqachilarga yuksak san'atlari bois yuqori darajada hurmat ko'rsatilgan. Yaponiyalik olim Kisibe Tan imperiyasi saroyida faoliyat ko'rsatgan g'arblik, ya'ni O'rta Osiyo va Sharqiy turkistonlik o'ttiz bitta musiqachining nomini aniqlagan. Musiqa bilan qo'shiqchilik san'ati doimiy hamroh bo'lgan. IX asr oxirida Choch (Toshkent)dan Xitoyga borgan qo'shiqchi qizning beqiyos ovozidan ilhomlangan xitoylik shoir Bo Tszuy-i "Chochlik qo'shiqchi qiz" degan she'r ham bitganligi tarixdan ma'lum.

Tan imperiyasi davrida 727-yilda Keshdan, 729-yilda Maymurg'dan, 713 va 727-yillarda Samarqanddan Xitoyga yosh yigit va qiz raqqosalar borganlar. Ular qirmizi ko'ylak, qizil charm kovush kiyishib raqs ijro etganlar. Raqqosalarning chiqishlari maxsus sahnalashtirilgan va raqslar asosan ikki turga bo'lingan, birinchi tur raqslar shoirona nozik, gavda va qo'l barmoqlariga alohida e'tibor beriladigan harakatlar orqali nafis ijro etilsa, ikkinchi tur raqslar esa sho'x-shodon, shiddatli va akrobatik usullarda ijro etilgan. Ularning raqslari to'g'risida xitoylik shoirlar Bo Tsyuy-i va Yuang Chjenlar "*Shamoldek charx urayotgan g'arblik qizlar*" degan she'r ham bitganlar. Bu qizlardan xitoylik malikalar Yan va Rokshanlar sug'diy raqslarning bir necha ijro usullarini o'rganganlar [2.16-b.].

Xitoy yilnomalarida keltirilgan bunday ma'lumotlarning to'g'riligini bu o'lkada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Shimoliy Xitoyda olib borilgan arxeologik qazishmalar davrida VI–VII asrlarga oid badavlat sug'diy aslzodaning qabri topilgan bo'lib, bu qabrdan chiqqan marmar toshxatning yuqori qismida sug'diy aslzoda va uning xotini xizmatkorlari qurshovida bazm uyushtirayotganligi sahnasi, pastki planda esa Xitoyga borib o'zlarining san'atlarini namoyish etayotgan sug'dlar musiqa ansambli tasvirlangan. Ansamblda o'ntacha mashshoq ishtirok etgan. Ulardan bir nechta ud, ikkitasi nay, ikkitasi bir qo'li bilan ushlab ikkinchi qo'li bilan urib chalinadigan nog'orasimon asbob ushlab olgan. Bitta sozanda esa arfa chalayapti. Sozandalarning o'rtasida esa raqqos. Raqqosning harakatidan, aniqrog'i qo'llarining tepaga qaratib tik holatda ushlab turishidan uning siltanib raqsga tushayotganligini anglash mumkin. Bunday raqsga tushish ko'proq erkaklar uchun xosligini hisobga olsak, bu yerda erkak raqqos tasvirlanganligi haqiqatga yaqinroq.

Sharqiy Turkiston, Xitoy va Uzoq Sharqqa o'zining noyob musiqa madaniyatini doimiy ravishda "eksport" qilib bu mamlakatlarning musiqa, qo'shiqchilik va raqs san'atining rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Sug'diyona, Baqtriya-Toxariston, Choch, Ustrushona, Xorazm va Farg'onada ham antik va ilk o'rta asrlarda musiqa madaniyati yuqori darajada bo'lganligini bu vohalarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tobora kengroq va chuqurroq namoyon etmoqda.

Sharqning buyuk allomalari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oni, Abu Ali ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Pahlavon Muhammad, Najmiddin Kavkabi, Darvishali Changiy va boshqa ulug' bobokalonlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg'u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun-qoidalariga oid qimmatli ma'lumotlarni bayon etib ketganlar.

Mashhur didaktik asar "Qobusnoma"da ham hofizlik va san'atkorlikning qoidalariga bag'ishlangan alohida bob o'rin olgan. Sharq xalqlarining musiqiy

merosi bo'lmish Maqom, Mo'g'om, Dastgox, Navba, Raga, Kyui kabi ijrochilikning murakkab turkumlari avloddan-avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan. Tarixiy manbalar, bilimdon ustoz san'atkorlarning fikri hamda ilmiy tadqiqotlarga qaraganda, XIII–XVII asrlarda O'rta Osiyo, Xuroson va Ozarbayjon xalqlari musiqasida quyidagi o'n ikki (Duvozdax) maqom: "Ushshoq", "Navo", "Buzalik", "Rost", "Xusayniy", "Hijoz", "Rohaviy", "Zangula", "Iroq", "Isfahon", "Zirofkand", "Buzrug"larning, musiqa asboblaridan: urib chalinadigan (doira, nog'ora, qushnog'ora dovul), torli cholg'ular (arfa, chang, ud, rubob, do'mbira), kamonchali soz (qubuz, gijjak), puflab chalinadigan cholg'u (nay, surnay, karnay, sibizg'ilar) bir-biriga o'xashashligi ham Buyuk Ipak yo'lining naqadar ahamiyatli ekanligidan dalolatdir [1.36-b.].

Ibn Sino zamonida, ayniqsa, ud juda qadrli musiqa sozi bo'lgan va buni rassomlar, shoirlar o'z asarlarida e'tirof etishgan. Yurtimizdagi ud cholg'u sozi arablardan oldin ham ma'lum va mashhur edi. Arablar istilosi davrida esa dunyoning juda ko'p mamlakatlarida mashhur bo'ldi. U arablar orqali Ispaniyaga (chunki Ispaniyani ham arablar bosib olgan), Ispaniya orqali Yevropa mamlakatlariga yoyildi. Keyinchalik yevropaliklar unga o'zgarishlar kiritib, lyuitnya deb atay boshladilar.

Amir Temur va Temuriylarning davrini mubolog'asiz nafaqat o'zbek xalqining, balki butun yaqin va O'rta Sharq xalqlarining musiqa san'atlari uchun jadal rivojlanish, kamolat cho'qqisiga erishish, chianakam uygonish davri bo'lgan, deyish mumkin. Zero, bu xalqlar yagona davlatni tashkil etib, o'zaro samarali madaniy aloqalar yuritibgina qolmay, ayni vaqtda Osiyo va Yevropaning eng yirik mamlakatlari bilan ham ma'naviy bog'lanish imkoniyatlariga ega bo'lganlar. Ayniqsa, Abdulqodir Marog'iyning Shom davlatidan olib kelib, saroy musiqachilarining rahbari etib tayinlanganligi ham uning musiqa san'atiga ixlosmand bo'lganligidan dalolat beradi. XVII asr musiqa tarixchisi Darvishalining ma'lumotiga qaraganda, Xoja Abdulqodir Marog'iy isfahonlik bo'lib, o'sha davr Sharqning buyuk musiqa olimi, bastakor va nazariyotchisi edi. U Samarqandga kelgach, saroy teatri va musiqasiga rahbarlik qildi. Samarqandda o'z maktabini yaratdi, ko'plab shogirdlar tayyorladi va musiqiy taraqqiyotga katta hissa qo'shdi. Uning qalamiga mansub "Zubdatul advor", "Maqosidul ul-alhon" nomli kitoblar yozilganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lib, Darvishali yana "Miatayin" nomli musiqa to'plami yaratgani haqida ma'lumot beradi [1.68-b.].

Temuriylar sulolasi O'rta Osiyo va O'rta Sharqda nisbatan kam (150–160-yil atrofida) hukmronlik qilsada, aslida u 500 yildan ortiqroq davr (Boburiylar sulolasi) davom etdi. Bu davrda xonanda va sozandalar hamda boshqa san'at va madaniyat ahli O'rta Osiyo, xususan, Samarqandda to'plandilar. Ular rasmiy diplomatik, harbiy va boshqa tantanalarning doimiy qatnashchilariga aylanib, xalq tomoshalari, ommaviy bayramlar ularsiz o'tmas edi. Bu esa o'z navbatida, musiqaning boshqa san'atlar qatoridan

muhim o'rin egallashini ta'minladi. Manbalarda keltirilishicha, bu davrda o'zbek xalqi musiqa san'ati qatorida harbiy-rasmiy musiqa turlari mumtoz maqom san'ati, mintaqaning boshqa turkiy hamda ozarbayjon, forsiy zabon xalqlarining musiqaviy folklori rivoj topdi. Eng muhimi, musiqiy cholg'ular jasorati va mardlik timsoliga aylandi. *“Amr qildimki, qaysi bir amir biror mamlakatni fath etsa, yoki g'anim lashkarini yengsa, uni uch narsa bilan mumtoz qilsunlar: (birinchisi) faxrli xitob, tug' va nog'ora berib, uni bahodir, deb atasinlar”*, – deyiladi Temur tuzuklarida [2.22-b.].

Amir Temur davri ma'naviy ko'tarinkilik musiqa san'atining deyarli barcha jabhalari uchun keng imkoniyat tug'dirib berdi, jumladan, sozandalik va xonandalik, musiqa ta'limi, bastakorlik ijodi, musiqa ilmi kamol topdi. Asrlar qa'rida shakllangan an'anaviy, “ustoz-shogird” ta'lim tizimi keng quloch yozdi. Bu uygonish nafaqat poytaxt Samarqandda, balki uning avlodlari davrida Buxoro, Xiva, Kitob, Balx, Qobul, Hirot, Astrobod, Agra, Sultoniya kabi yirik shaharlarda ham qizg'in kechdi. O'rta asrlar an'anasi shaharlarda mahallalar asosan kasb-kor bo'yicha joylashar edi (kulollar mahallasi, bozzozlar mahallasi, degrez mahallasi va hokazo) shunga binoan Xonandalar mavzesi, Sozandalar mahallasi, Bastakorlar ko'chasi joriy etildi. Bu kasb sohiblarining alohida obro' va nufuzga sazovor bo'lganlari atrofida maxsus ijod, ijro va ilmiy mavqega ega ijodiy maktablar shakllandi [1.52–54-b.].

O'rta Osiyo geografik jihatdan Osiyo qit'asining markazi va qulay joyda bo'lganligi sababli, bu xalqlarning boshqa Sharq mamlakatlari, hatto, G'arb mamlakatlari bilan bo'lgan aloqasi ham juda qadimiydir. Bu yurt hududidan o'tgan Buyuk Ipak yo'lining tarixini o'rganish bizning yuqoridagi xulosaga kelishimizga sabab bo'lmoqda. O'rta Osiyo xalqlari musiqa san'atining, qo'shiqchilik va cholg'u sozlarining boshqa Sharq mamlakatlari xalqlari musiqa san'atiga juda o'xshash va yaqin bo'lganligi bu xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalar ildizi juda chuqur va qadimiy ekanligidan dalolat bermoqda. Buni ayniqsa, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Arab mamlakatlari va Xitoyda, shuningdek, Hindixitoy yarim orolida yashovchi xalqlar musiqa madaniyatini o'rganish orqali bilib olmoqdamiz. Biz sanab o'tgan mamlakatlardan tashqari Sibir, Mo'g'uliston, Koreya, Yaponiya, Filippin, Indoneziya xalqlari musiqa madaniyati ham O'rta Osiyo xalqlari musiqa san'ati kabi yakka ovozlilik va ansambl shaklida ekanligi fikrimiz dalilidir. Bu mamlakatlar cholg'u sozlari tuzilishi va ijro etish uslublari O'rta Osiyo cholg'u sozlaridan deyarli farq qilmaydi. Dunyo xalqlarining, ayniqsa, Sharq mamlakatlarining musiqasi hamda cholg'u asboblari bir-biriga o'xshashlik jihatlari yuqoridagi fikrlardan ayon.

Millatlar o'rtasida totuvlik, do'stlik rishtalarini mustahkamlashda musiqa muhim vositalardan biri sanaladi. Go'zal musiqa har qanday millat qalbiga birday ta'sir qiladi. Ma'lumki, bizning diyor azaldan yuksak madaniyat va ma'naviyat maskani sifatida olamga mashhur. Respublikamiz Mustaqillikka

erishgach bu azaliy qadriyatlarni yana tiklash, boy merosimizning asl manbalarini o'rganish, ular bilan kelajak avlodni oshno qilishga intilish kuchayib ketdi [5.48-b.].

Davlat ahamiyatiga molik tarbiya darajasida bo'lgan musiqa doimo diqqat markazda bo'lgan. Odamzod hayotining doimiy hamrohi bo'lgan va uning ma'naviy dunyosini to'ldirib, doimo ezigulik va poklikka chorlagan ilohiy qudrat – musiqa san'ati, o'zbek xalqining buyuk mutafakkir shoiri Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, ko'ngil quvvati, ruh saodatidir [4.28-b.].

Bu abadiy haqiqatni millati, tili va dinidan qat'i nazar, har qaysi ona o'z farzandiga aytadigan alla ohanglariga, inson zotining har qanday holatda – yorug' va quvonchli kunlarda ham, boshiga musibat tushguvchi qayg'uli lahzalarda ham musiqaning mo'jizakor kuchidan madad va taskin topishida ko'rish mumkin. Ayniqsa, xalqlar va madaniyatlar tobora yaqinlashayotgan hozirgi globallashuv davrida, shiddatkor taraqqiyot asrida, shu bilan birga sayyoramizning turli burchaklarida yovuz kuchlar o'z qabih niyatlarini amalga oshirishga urinayotgan bir sharoitda, yer yuzida hayotni asrash, odamlarni ezigulik va bag'rikenglikka da'vat etishga madaniyat va san'at, xususan, musiqa dunyosining ta'siri beqiyos ekani barchamizga ma'lum.

Samarqand shahrining – Registon maydonida 1997-yildan 2019-yilgacha o'tkazilgan “Sharq taronalari” musiqa festivali xalqaro hamkorlik masalalarida zaruriy voqelikka aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festivalida o'tkazilgan konsertlar, ilmiy-ijodiy uchrashuvlar, anjumanlar va tanlovlar turli davlatlardan kelgan musiqashunos olimlar uchun boy va samarali muloqotga aylandi. “Sharq taronalari” musiqa festivali dunyo xalqlari san'atlarini, turli millat vakillarini musiqiy ohang vositalari bilan birlashtiradi. Chunki bu festivalda jahonning ko'plab mamlakatlaridan san'at namoyandalari, mashhur xonanda va sozandalar qatnashadilar. Bu kabi tadbirlarda san'atkorlarning o'zaro tajriba almashuvlari uchun keng imkoniyatlar tug'iladi. Zero, bu jarayon ham Buyuk Ipak yo'li orqali eldan elga, yurtdan yurtga, xalqdan xalqqa ko'chib tinchlik elchisi bo'lib xizmat qilgan san'atimiz rivojlanishining uzviy davomi bo'lib millatlar o'rtasida do'stlik aloqalarini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mannopov S. O'zbek xalq musiqa madaniyati. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2004.
2. Shirinov T., Berdimurodov A., Raimqulov A. Sharq musiqasini ulg'aytirgan yurt. – Samarqand: 2009.
3. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. – T.: 2002.
4. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. – T.: “Yosh gvardiya”, 1979-y. 73-b.
5. Asqarova O'. Milliy g'urur tarbiyasi: Mehribonlik uylari misolida. – T.: “O'qituvchi”, 2003.

III BO‘LIM

SAN‘AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

Go‘zal XOLIQULOVA,
O‘zDSMI professori v.b., san‘atshunoslik fanlari nomzodi

O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA ARUZ VAZNI RIVOJLANGUNGA QADAR MAVJUD BO‘LGAN POETIK MEROSLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada, o‘zbek she‘riyatida aruz vazni rivojlangunga qadar mavjud bo‘lgan poetik meroslar, xususan, X–XII asrda o‘zbek she‘riy tizimlarning takomillashuvi, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk”, Yusuf Xos Hojib va uning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yassaviy va uning yaratgan asarlaridan foydalanishda barmoq vazni asosida bitilganligiga e‘tibor berish lozimligi, Ahmad Yugnakiy va uning “Hibbat ul-haqoyiq” asari va o‘zbek poetik meroslarining talqini va ulardan so‘z ijrochiligi foydalanish to‘g‘risida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek she‘riyati, aruz vazni, barmoq vazni, she‘r tuzilishi, ruboiy, g‘azal, bayt, til, sahna nutqi, badiiy o‘qish.

ПОЭТИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ, СУЩЕСТВОВАВШЕЕ В УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ ДО ПОЯВЛЕНИЯ СИСТЕМЫ АРУЗ

Аннотация. В этой статье освещается поэтическое наследие, существовавшее в узбекской поэзии до развития системы аруз, в частности совершенствование узбекских поэтических систем в X–XII веках, «Словарь девони-тюрк» Махмуда Кошгари, Юсуф Хос Хаджиб и его произведение «Кутадгу билиг», Ахмад Яссави и его произведения, созданные системой бармоқ, Ахмад Югнаки и его произведение «Хиббат уль-хакойик», а также интерпретация узбекского поэтического наследия и его использование в устном исполнении.

Ключевые слова: узбекская поэзия, система аруз, система бармак, структура стихотворения, рубои, газель, байт, язык, сценическая речь, художественное чтение.

THE POETIC HERITAGE THAT EXISTED IN UZBEK POETRY BEFORE THE ADVENT OF THE ARUZ SYSTEM

Abstract. This article highlights the poetic heritage that existed in Uzbek poetry before the development of the Aruz system, in particular the improvement of Uzbek poetic systems in the 10th-12th centuries, the "Devoni-Turkic Dictionary" by Mahmoud Koshgari, Yusuf Khos Hadjib and his work "Kutadgu bilig", Ahmad Yassavi and his works created by the barmok system, Ahmad Yugnaki and his work "Hibbat ul-khakoyik", as well as the interpretation of the Uzbek poetic heritage and its use in oral performance.

Key words: uzbek poetry, the aruz system, the barmok system, the structure of the poem, ruboi, gazelle, byte, language, stage speech, artistic reading.

She‘r tuzilishi dastlabki davrlarda she‘r tizimlariga ajratilmagan edi. She‘r tuzilishining bu shakli **“folklor tipi”**, deb yuritiladi. Yozma poeziya vujudga kelgach, uni she‘r tizimlariga ajratish ehtiyoji paydo bo‘ldi. Mana shu ehtiyoj tufayli adabiyotshunoslikda alohida soha – she‘rshunoslik vujudga keldi.

O‘zbek aruzining evolyusiyasi she‘r tuzilishi va she‘rshunoslikning vujudga kelishi bilan

bog‘liq masalalar ustida ilmiy-tadqiqot olib borgan, aruzning jahon she‘r tizimlari tasnifidagi o‘rnini ko‘rsatib bergan, o‘tgan asrning 80-yillarida teatr va rassomchilik institutida aktyorlarga aruz vazni, aruzda yozilgan ruboiy, g‘azallarni o‘qish bo‘yicha dars bergan, aruz nazariyasiga ritm, musiqiylik, ritmik pauza, she‘riy shakl va mazmun, she‘riy nutq tushunchalarini kiritgan olim, adabiyotchi,

nazariyotchi Ummat To'ychiyev o'zining *"O'zbek poeziyasida aruz sistemasi"*¹ nomli asarining yaratilishi sahna ijodkorlari uchun katta dasturlamal bo'lgan.

U.To'ychiyev bu qimmatbaho adabiyotni yaratish jarayonida o'zbek she'riyati borasida ilmiy-tadqiqotlar olib borgan o'zbek, rus olimlari tomonidan yaratilgan juda ko'p manbalarni o'rgangan va fikrlarni bir-biri bilan solishtirib, mukammal xulosalarga kelgan. O'zbek poeziyasi evolyusiyasidan tortib, aruz tizimidagi she'rlarning rivojlanish bosqichlarigacha, o'zbek aruzining osongina bilib olish mumkin bo'lgan talqinlarigacha bo'lgan qimmatli fikrlarni bayon qilgan. Hattoki, o'zbek aruzining musiqiylik va bu musiqiylikni yaratishda qatnashuvchi yordamchi elementlarni ham batafsil tushuntirib bergan. Kitobda keltirilgan 15ta ilovada VI asrdan X asrning ikkinchi choragigacha bo'lgan davrdagi, hatto, undan oldingi davrlardagi qadimgi o'zbek poeziyasidagi aruz metrikasi va keyingi davrlarda aruzning rivojlanish pallasidagi, ya'ni XV asrdagi aruz metrikasini ham ko'rsatib bergan.

Qadimgi turkiy tilli adabiyot VI asrdan X asrning ikkinchi choragigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, deb yozadi muallif. Bu davrga taalluqli bo'lgan poeziya barcha turkiy tilli xalqlar, shu jumladan, o'zbek xalqining ham qadimgi poeziyasi hisoblanadi. Unga o'rxun-yenisey yozuvlari va **Mahmud Koshg'ariy**ning *"Devon"*idagi she'rlar kiradi². *"Devon"*dagi she'riy parchalar olimning aytishicha, yozma va og'zaki poeziya namunalari qamrab oladi. Koshg'ariy keltirgan she'rlar qadimgi turkiy tilli poeziya namunasi, deb tan olinadi va u she'rlarga o'zbek poeziyasining qadimgi namunasi tarzida qaraladi.

Mahmud Koshg'ariyning *"Devonu lug'ati-t-turk"*, Yusuf Xos Hojibning *"Qutadg'u bilig"*, **Ahmad** Yugnakiyning *"Hibbat ul-haqoyiq"* asarlari, shuningdek, Ahmad Yassaviy va Sulaymon Baqirg'oni yaratgan so'fiyona asarlar haqidagi ma'lumotlardan ham xabardor bo'lish sahna va ekran ijodkorlari uchun zarurligini ko'rsatadi. Sababi, O'rta asr Sharq allomalarining ma'naviy, ijodiy va ilmiy merosini o'rganish mustaqilligimizning xalqimizga bergan eng katta imkoniyati ekanligini his qilgan holda yangi asarlar va tarixiy shaxs obrazlarini yaratishda muhimdir. Qolaversa, turkiy tildagi aruz vaznida g'azal

ijro etuvchi sahna ijodkori bunday ma'lumotlarni bilishi shart.

Markaziy Osiyoda ilk O'rta asr madaniyatining buyuk arboblardan hisoblangan Mahmud Koshg'ariy turkiy tillarni o'rganish sohasida mashhur bo'lgan. U XI asrda Balasog'unda tug'ilgan. Movarounnahrda Samoniylar o'rnini Qoraxoniylar sulolasi egallagan, turkiy adabiy til mintaqada keng urf bo'la boshlagan edi. Hatto, Abbosiylar xalifaligi markazlarida, azaldan arab va boshqa samoniy xalqlar yashab kelgan o'lkalarda turkiy elatlar namoyandalari ko'payib, turkiy tilga e'tibor oshgan edi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, Mahmud Koshg'ariy *"Devonu lug'oti-t-turk"* kitobini o'zining uzoq yillik hayoti davomida o'rttirgan tajribalari asosida hijriy 469-yilda (milodiy 1074–75) yozib tugatgan.

Juda ko'p o'lkalarni kezib tillarni, sheva va lahjalarning xususiyatlarini o'rganib, bir-biri bilan solishtirib, kitob uchun nihoyatda boy material to'plagan Mahmud Koshg'ariy lug'at tuzishda arab tilshunoslari yaratgan an'anadan unumli foydalangan holda ishga ijodiy yondashadi, turkiy til qonuniyatlarini birinchi navbatda inobatga olib, kitobga tartib beradi³.

Mahmud Koshg'ariyning kamtarlik bilan lug'at, deb atagan bu asar yolg'iz bu kungi ma'nodagi lug'atgina emas, balki shu bilan birga, o'sha davr tilining fonetika, morfologiya, leksika va dialektologiyasini mukammal izohlab bergan to'la ma'nodagi filologik asar, bebaho bir qomusdir, deya olimlar tomonidan yuksak baho berilgan. Mahmud Koshg'ariy o'z asarini ko'p yillar yurtma-yurt kezib, xalq og'zidan to'plagan materiallari asosida tuzgan bo'lib, o'sha davr tilidagi butun so'zlarni va har qanday so'z turlarini mukammal qamrab olishga uning bu usuli juda ma'qul edi. Uning to'plagan materiallari o'sha davr tilining har bir sohasiga doir boy namunalar to'plami bo'lib xizmat qildi⁴. Mahmud Koshg'ariy so'z ma'nolarini izohlar ekan, so'zlarning grammatik xususiyatlari va u so'zlarning qaysi qabilaga⁵ mansubligi haqida ham keng ma'lumotlar bergan va umumlashgan qoida tuzgan.

Mahmud Koshg'ariy o'z asarini *"Bismillahir Rohmanir Rohim"* deb boshlaydi. Qariyb X asr muqaddam yozilgan bu asar so'zga, so'z ma'nosiga, leksikasiga, fonetika tarixiga doir juda ko'p ishoratlar berilgan bo'lib, ular chuqur va sermazmundir. Demak, bu asar bizga bir marta tuzilgan yirik lug'at kitobi sifatida emas, shu bilan birga birinchi marta yaratilgan grammatik asar sifatida ham nihoyatda muhim. Muallifning ko'rsatishicha, kitob 8 bo'limdan, muqaddima va xulosadan iborat. *"Devon"*da 7500dan oshiq turkiy so'z va iboralar izohlangan. Adabiy til ham asosiy turkiy shevalarni qamrab olgan bo'lib, undagi adabiy til, sheva unsurlari nisbatan o'rtacha adabiy tildagi 10-12 so'zga, shevaga oid bir so'zga to'g'ri keladi, ya'ni umumturkiy adabiy tilga ayricha ahamiyat ajratilgan.

"Turkiy xalqlar tarixiga oid qadimiy afsona va rivoyatlar, 300ga yaqin maqol va matallar, hikmatli so'zlar, 700 satrdan oshiq she'riy parchalar ko'p qismi turkiy xalqlar og'zaki ijodiga xos to'rtliklardan"

¹ To'ychiyev U. O'zbek poeziyasida aruz sistemasi. – Toshkent: "Fan", 1985-y. 42-b.

² To'ychiyev U. O'zbek poeziyasida aruz sistemasi. –T.: "Fan", 1985-y. 90-b.

³ Bu haqda qarang. Imomnazarov M. Mahmud Koshg'ariy. Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). // To'plovchi va mas'ul muharrir: M.Xayrullayev // To'ldirilgan qayta nashr. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001-y. 124-125-b.

⁴ Bu haqda qarang. Mahmud Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'oti-t-turk). –T.: O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1963-y. 3-4 b. www.ziyouz.com kutubxonasi.

⁵ Mahmud Koshg'ariy. *"Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'oti-t-turk)"* asarida tangutlar, tubutlar, kanjaklar, turkmanlar, yag'molar, qaylar, yamoklar, yaboqular kabi qabilalar haqida izohlar ham keltirilgan.

iborat. Ammo "Devon"da keltirilgan she'riy satrlardan 150 satrga yaqini islom davri she'riyatiga xos bo'lgan "bayt" tipidagi masnaviy, qasida, g'azal, qit'a parchalari bo'lib, ularni Koshg'ariy o'zi ham ko'pincha "bayt" deb ataydi...

**Kelsa qali yig'liq bo'lib yo'nchig' uma,
Kelur aning bo'lmish anig' tutma uma.**

Mazmuni:

Kelsa agar xonang uzra g'arib mehmon,
Bor narsangni oldiga qo'y, bo'l mehribon.

"Devon"dagi she'rlarning badiiy saviyasi yuqori ekanligi, baytlarni yaratgan shoirning o'ta nozik didga egaligi, nafis va chuqur badiiy saviyaga ega ekanligi olimlar tomonidan ko'p ta'kidlangan. Yana bir misol keltirsak:

**Yag'a erur yo'liguqin nangi tavar,
Bilig eri yig'isin nelik sevar,
Tavar yiig'ib suv aqin indi saqin,
Ko'rum kabi izisin ko'di suvar.**

Mazmuni:

**Dushman erur insonga molu tavar,
Olim odam yovini qanday sevar,
Mol yig'ishni sel kelish deb
Mol egasini tosh kabi yumalatar.**

Bu misralar aruz vaznining "munsari" bahriga to'g'ri keladi⁶. Asar bilan tanishish jarayonida kishini ilm o'rganishga chorlaydigan ko'p baytlar borligiga amin bo'lasiz. Bu baytlar insonlarni jaholat, kibru havoga berilish qattiq qoralanadi, saxovat va himmat, mehmondo'stlik esa ulug'lanadi, mol-dunyoga hirs qo'yish, baxillik va ochko'zlik fosh qilinadi, ota-onani hurmat qilish, ularning so'ziga quloq tutishga da'vat etiladi. Ushbu asarda Mahmud Koshg'ariy tabiat hodisalaridan misollar keltirib, insondagi ba'zi dardli holatlarni u bilan taqqoslab bayt yaratadi:

**Sovug' ohi kim chekarman garm o'lub oqmoqqa ashk,
Chashmalarda suv bo'lur ilig' havo bo'lsa sovut.**

Ma'nosi:

Alamli nolaqdan tortayotgan ohim sovuq bo'lib, ko'zimdan oqayotgan yoshning ilqligida qarama-qarshilik yo'q. Bu tabiiy, axir havo soviy boshlagan sari buloq suvlari isiy boshlaydi-da⁷.

Avloddan avlodga yetkazish uchun ushbu asar ustida tadqiqot olib borgan ko'pgina olimlarimizning mehnatlari beqiyos. Ular bugungi kun o'quvchilariga tushunarli tarzda yetkazib bergan izohlari o'quvchida katta qiziqish uyg'otadi. Ta'kidlash joizki, shu paytgacha ushbu asar baytlari aktyorlar nutqida ijro qilinmagan. Chunki o'zbek mumtoz she'riyatidagi aruz

vaznining rivojlanishiga qadar mavjud bo'lgan poetik manbalar dasturlarga ham kiritilmagan, natijada talabalarga bu haqda ma'lumotlar yetkazilmagan.

Koshg'ariy asarida aruzning madid, rajaz, muta'qirib, hazaj, munsari, basit kabi bahrlari bor bo'lgan, biroq devonda razaj bahridan ko'proq foydalangan⁸, degan ma'lumotlar aytiladi, yuqorida qayd etilgan kitobda. Aruzning turkiy xalqlar poeziyasida, shuningdek, o'zbek poeziyasida ham yashab qolishi uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlar bu tillar tabiatida qadimdan mavjud bo'lgan. Buni o'rxun-yenisey yozuvlarida aruz vaznlari borligini ham isbot etadi. Chunki bu manbalar arablar istilyosidan oldin yaratilgan. Movarounnahrni islomga kiritish X asrning o'rtasidan boshlangan⁹.

Arablar O'rta Osiyoga bostirib kelganidan keyin juda ko'p adabiyot namunalari yo'q qilib yuborilgan. Vaholanki, bu hududlarda turkiy xalqlarning poetik meroslari mavjud bo'lgan. Bu haqda Sharqning mashhur tarixchilari ko'p dalillar keltirgan. Shuning uchun turkiy xalqlarda aruz vazni arab poetikasi ta'sirida kelib chiqqan, deb bo'lmaydi. Aksincha, turkiy xalqlar aruzi arab poetikasi ta'sirida rivojlangan, deyish o'rinli.

Ta'kidlab o'tish joizki, Mahmud Koshg'ariyning **"Devonu lug'ati-t-turk"** asarini turkiy xalqlarning noyob yozma yodgorligi sifatida bugungi kun olimlari ham chuqur o'rganib kelmoqdalar. Xususan, 2018-yil 21-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi rahbariyatining taklifiga muvofiq akademiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamkorligida xalqaro konferensiya o'tkazilgan edi. Konferensiya materiallari asosida chop etilgan to'plamda qator tilshunoslar va adabiyotshunoslarning qirqdan ortiq maqolalari jamlangan bo'lib, unda ustoz olimlar qatorida yosh tadqiqotchilar ham "Devon"ga o'z ilmiy nuqtayi nazari va mavzuiy yo'nalishlari bo'yicha yondashgan.

To'plamdan o'rin olgan tilshunos, navoiyshunos olim Boqijon To'xliyevning **"Qadimiyatning mangu sadolari"** nomli maqolasida keltirilgan manbalarda **"Devonu lug'ati-t-turk"** asarida jamlangan badiiy parchalar ancha oldingi davrlarda vujudga kelganligi, ular xalq og'zaki ijodining juda qadimiy namunalari ekanligi, ularda turkiy xalqlarning urf-odatlar, ishonchli e'tiqodlari, marosimlari bilan bog'lanib ketadigan badiiy lavhalar ko'pligi ta'kidlanadi. **"Devonga kirgan adabiy shakllarning asosiy qismini to'rtliklar tashkil qiladi. O'zbek adabiyotida to'rtlik shakliga tayanadigan bir qator she'riy janrlar (to'rtlik, ruboiy, tuyuq, murabba')ning rivojlangani ma'lum. Mahmud Koshg'ariy ularni asosan "qo'shug'" yoki "she'r" deb nomlangan<...> Ishq-muhabbat mavzusidagi lirik qo'shiqlarda yorning go'zalligi, latofati madh etiladi, oshiqlikning sirli kechinmalari tasvirlanadi, ishqiy hayajon, muhabbat shavqi tilga olinadi. Qo'shiqlar orasida mehnat va marosim qo'shiqlari, hunamandchilik, chorvachilik, dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar, lirik qo'shiqlar va boshqalar bor"**¹⁰.

⁶ Imomnazarov M. Mahmud Koshg'ariy. Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). // To'plovchi va mas'ul muharrir: M.Xayrullayev //To'ldirilgan qayta nashr. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001-y. 124–127-b.

⁷ www.ziyouz.com kutubxonasi . Mahmud Koshg'ariy. Devonu lag'ati-t-turk. –T.: O'zfanakadnashr, 1963-y. 21-b.

⁸ To'ychiev Ummat. O'zbek poeziyasida aruz sistemasi. – T.: "Fan", 1985-y. 91-b.

⁹ O'sha manbaga qarang.

¹⁰ To'xliyev B. Qadimiyatning mangu sadolari. // Devonu lug'ati-t-turk – turkiy xalqlarning noyob yozma yodgorligi. II.mat.to'p. – T.: "Fan", 2018-y. 29-30-b.

**Aqtirur ko'zum bulaq
Tushlanur o'rdak, yug'aq.**

Ma'nosi:

(Ko'zim yoshlari bulaq singari oqadi,
Hatto unda o'rdak, oqqush kabi qushlar
yig'iladilar, sho'ng'ishadilar).

**Qaqlar qamur ko'lardi,
Tog'lar boshi ilardi.
Ajun tini yilirdi,
Tutu chechak yerkashur.**

Ma'nosi:

(Suvlar ko'payib, chuqurlar ko'lga aylandi,
Tog' boshlari xayoliy narsa kabi (ko'zga
arang) ilashdi.

Dunyo nafasi ilidi,
Turli chechaklar saf tortdi)¹¹.

Mahmud Koshg'ariyning **"Devonu lug'ati-t-turk"** asari ham, Yusuf Xos Hojibning **"Qutadg'u bilig"** asari ham yozma adabiyotning birdaniga paydo bo'lib qolgan namunalari emas. Bu ikki asar maxsus aruzda yozilmagan, ammo aruzga mos keladi, bunga qadimgi o'zbek (turkiy) she'riyat, "Devon"dagi she'riy parchalar va o'zbek xalq og'zaki poetik ijodining aruzga mos kelgan namunalari kiradi. Keyingisi aruz haqidagi nazariya kelib chiqqandan so'ng, shu ta'limot asosida paydo bo'lgan poeziyadir. U esa Yusuf Xos Hojibning **"Qutadg'u bilig"** dostonidan boshlanadi¹². **"Devonu lug'ati-t-turk"**da keltirilgan qasida va qatralar mazmun jihatdan o'sha davrning turkiyzabon shoiri Yusuf Xos Hojib dostoni mavzulari bilan uyg'undir¹³.

Yusuf Xos Hojibning **"Qutadg'u bilig"** asari ustida dramatik teatr va kino aktyorligi, drama rejissyorligi kabi ta'lim yo'nalishlarida ko'p qo'llanilib kelinadi. Juda ko'p baytlarni o'quv sahnalarida ijro etish orqali talabalarning tafakkuri kengayib borishi, burro, aniq va ravon sahnaviy nutqqa ega bo'lishi, so'zlarning mazmun-mohiyatini tushunish orqali ijro san'atini o'rganishi isbotlangan. Qolaversa, bunday uslublar talabalarda o'zgacha ko'tarinki kayfiyat paydo bo'lishiga, ijodga qiziqishi oshishiga xizmat qilgan.

Gap o'zbek she'riyatida aruz vazni rivojlangunga qadar mavjud bo'lgan poetik meroslar haqda borar ekan, buyuk bobokalon shoirimiz Yusuf Xos Hojib hamda shoir va mutafakkir, tasavvuf tariqatining asoschisi Mavlono Jaloliddin Rumiy ijodini hamda ilmiy merosini o'rganish va bugungi kun sahna ijodkorlariga yetkazish, sahnaviy nutq mahoratini muttasil oshirib, u haqda so'z yuritmoq o'rinlidir.

So'nggi yillarda sahna ijodkorlarini tarbiyalashda, ularning tafakkurini kengaytirish, ravon nutqini

ta'minlash, arxaik so'zlarning tub ma'nosini anglash va uni tomoshabinga yetkazishda ancha muammolar mavjudligi sezilmoqda. Filologiya fanlari doktori Ibrohim Haqqul aytganidek: *"Insonning axloqiy poklanishi, tafakkur balog'ati, bir so'z bilan aytganda, komilligi borasida qadimda ilgari surilgan va asrlar mobaynida o'zlashtirilib, amal etilib kelingan g'oya va tushunchalardan yiroqlashish, uzilish holati u yoxud bu tarzda butun bashariyat turmushida ko'zga tashlanib turibdi. Buning bosh sababi Abu Muin Nasafiy bobomiz ko'rsatgan nuqson – odamiylik ma'nosidan mahrumiyatning keng quloch yozishi erur. Darhaqiqat, o'z ilohiy mohiyatini tushunish va mushohada qilishda insoniyat oldinga emas, ortga odimlagani inkor aylash mushkul bir haqiqat. Moddiy va texnikaviy taraqqiyot bashar nafsida yangi-yangi "o'zan"lar ochdi..."*¹⁴

Haqiqatan ham san'atkor degan ulug' nomga ega bo'la turib, internet tarmoqlarida yoshlarga chuqur mushohadaga undovchi fikrlar aytish o'rniga o'ta saviyasi past va bilimsizligini namoyon qilayotgan, bachkana qiliqlari, uyatsiz so'zlari bilan yoshlarning ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ba'zi san'atkorlar namoyishi bunga yorqin misol bo'la oladi. 2016-yildan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ilmiy anjumanlar qatorida an'anaga aylanib borayotgan "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy merosida san'at va madaniyat masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasining o'tkazilishidan maqsad ham professor-o'qituvchilarning va yoshlarning O'rta Osiyodan chiqqan va dunyoning ilmini rivojlanishiga ta'sirini o'tkazgan buyuk alloma va mutafakkirlarimizning merosini o'rganishdan iboratdir. Xususan, har ikki yilda o'tkaziladigan ushbu konferensiya materiallarining aksariyatida Yusuf Xos Hojibning ilmiy merosi haqida fikr yuritilganligining guvohi bo'lamiz.

1016–1018-yillar orasida Sharqiy Turkiston, Yettisuv o'lkasida dunyoga kelgan Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig", "Qudga, ya'ni baxt-saodatga erishtiruvchi bilim" asarini 1069-yilda yozgan. Shoirning yozishicha, ushbu kitob Koshg'arda tugal qilinib, Mashriq maligi Tavg'achxon dargohiga keltiriladi. Malik uni yorlaqab, ulug'lab o'z (saroyida) Xos Hojiblik (lavozimini) beradi¹⁵. Asarning mazmuni, tili va uslubidan kelib chiqib aytish mumkinki, shoir arab va fors tillarini mukammal bilgan, bu tillardagi diniy, ilmiy, badiiy adabiyot bilan chuqur tanish bo'lgan. Bizgacha yetib kelgan bu yozma yodgorlik jahon adabiyotida ham nodir sanaladi. Asarda eng yaxshi insoniy fazilatlar, xususiyatlar asar qahramonlari sifatida ramziylashtiriladi. Shuning uchun juda katta tajribalarga ega shoir Sa'dulla Ahmadning tarjimalaridan doimiy ravishda sahna ijodkorlarining sahnaviy nutqini takomillashtirishda foydalanib kelinadi.

Dramatik teatr va kino aktyorligi, estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi ta'lim yo'nalishlarida, avvalo, kursdagi talabalarni birlashtirish, bir-birini eshitishga o'rgatish, diqqatni bir joyga to'plash,

¹¹ O'sha manbaga qarang. 28-b.

¹² To'ychiyev U. O'zbek poeziyasida aruz sistemasi. –T.: "Fan", 1985-y. 89-90-b.

¹³ O'sha manbaga qarang.

¹⁴ Ibrohim Haqqul. Hikmat – ko'ngil chirog'i. // Hikmatlar. Mavlono Jaloliddin Rumiy. – T.: "Yangi asr avlodi", 2017-y. 5-b.

¹⁵ Bu haqda qarang. Imomnazarov M. Yusuf Xos Hojib (XI asr) // Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymalar, allomalar, adiblar). To'ldirilgan qayta nashr. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001-y. 118-119-b.

fikrlash, so'zning tub ma'nosini birgalikda topish, unli va undosh tovushlar talaffuzini mukammal o'rganish, so'z va mantiqiy urg'ularni to'g'ri qo'ya olish, ohangdorlikni oshirish, dinamik, musiqiy urg'ularning farqiga borish kabi qator masalalarda aynan O'rta asr Sharq allomalar yaratgan asarlardagi masnaviylar, baytlarni badiiy o'qish orqali tomoshabinga yetkazish maqsadida imtihon dasturlariga kiritish o'z samarasini berayotgani bois Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" she'riy asaridagi kompozitsion yaxlitlik talabalarning tasavvurini to'laqonli ishga solishga ko'maklashadi. So'z qudratini, ona tilining ichki imkoniyatlarini nozik his qilishga o'rgatadi.

"Bahor ta'rifi hamda muhtaram, muzaffar, madadkor, haqiqat tayanchi tavg'och, ulug' Bug'ro Qoraxon Abo Ali Hasan binni Arslonxon sha'nida", "Bashar qadrini bilim bildirgani", "Til fazilati, foyda-zararin so'zlar", "So'z egasining o'zidan uzri", "Yaxshilar suhbatin yaxshiliklari", "Bilim, uquv-idrok farqi, nafi bu turur" kabi boblari o'zbek tilida sof so'zlash, ravon nutq, keng diapazonga ega bo'lishga ega bo'lish bilan birga yoshlarimizni ma'naviy kamolotiga salmoqli hissa qo'shadi. Filologiya fanlari doktori, professor Boqijon To'xliyev ta'kidlaganidek: *"Yusuf Xos Hojib ijodining g'oyaviy-badiiy ildizlari hayotbaxsh shashma – xalq dahosining so'nmas ijodi bilan nihoyatda zich aloqador<...> "Qutadg'u bilig" hozir jahonning ko'plab xalqlari tillarida jaranglamoqda. Bu asar o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz va boshqa turkiy xalqlar tillariga ham tadbil qilingan (moslashtirilgan). Asar rus tiliga, Yevropaning bir qancha tillariga tarjima qilingan<...> Asarning nemis, ingliz tillariga to'liq tarjimasi bor. Shuningdek, ayrim yevropa tillariga qisman parchalar tarzidagi tarjimalari ham mavjud"*¹⁶.

Masalan, "Qutadg'u bilig"dan go'zal baytlarni misol qilib keltiramiz:

***Til arslon misoli yotar qafasda,
Bexabar boshini u yer qafasda.
Tilidan tutilgan ne deyar eshit.
Amal qil bu so'zga, o'zingga esh et.
Balo keltiradi boshga bu tilim.
Boshimni u kesmay, qilayin tilim.
So'zingni tiyib yur, boshing yormasin.
Tilingni tiyib tur, tishing sinmasin.***

Guvohi bo'lganingizdek, bu baytlarga izoh ham, tarjima ham shart emas. Tilga ko'chishi ham, tasavvur qilish ham oson. Sahna ijodkorlarida sahna nutqini

o'qitishda sahna nutqi texnikasi ustida muttasil ishlash va o'zlashtirish natijasi, albatta, she'riyatda tekshiriladi. Bunda ushbu baytlar juda qo'l keladi. Diksiyani yaxshi ishlashida, ovoz ochilishida foydasi ham katta. Eng asosiysi ijrochining tafakkuri kengayadi. So'zlarning go'zalligi, ishonchliligi, hayotiyiligi ohanglar jilosi bilan uyg'unlashadi.

Badiiy so'z ijrochiligidan barcha g'oyalarni yetkazish birgina ijrochi-aktyorning zimmasiga tushadi. Muallifning aytmoqchi bo'lgan fikrini, asarda ilgari surilgan g'oyani, asosiy maqsadini tomoshabinga yetkazishni ham so'z ijrochisining o'zi amalga oshiradi. Bu kelajakda spektaklda rol o'ynash jarayonida rejissyor bilan hamfikir bo'lib asosiy vazifani bajaradi. Badiiy so'zda aktyor faqat va faqat so'zning tub ma'nosi topib gapirish, to'g'ri fikrlash ko'nikmalarini egallaydi. Ilgari surilgan g'oyani his qilishga o'rganadi.

Mavlono Jaloliddin Rumi. 1207–1273-yillarda yashab ijod etgan dunyoning ulug' donishmandlaridan biri Jaloliddin Rumi'dir. Benazir sanalgan shoir asosan fors-tojik tillarida ijod qilgan bo'lib, ko'plab Sharq she'riyati asarlarini yaratgan. Uning ruboiy, g'azal va masnaviylari Sharq she'riyatining gultojiga aylangan. Jaloliddin Rumi nafaqat diniy-huquqiy, balki aniq fanlar sohasida ham yaxshi tahsil olgan, arab, yunon tillarini va "Qur'on"ni, uning tafsirini yaxshi bilgan. Jaloliddin Rumiyning yaratgan asarlari orasida "Masnaviyi ma'naviy" asari inson kamoloti yo'lidagi islomiy ma'naviyat durdonalaridan biri hisoblanadi.

Mavlono Jaloliddin Rumiyning olti jildli "Masnaviyi ma'naviy" nomli kitobiga butun dunyo jamoasi qiziqib kelishi, bu kitob bashariyatning najot, umid kitobiga aylanganligi, so'nggi vaqtlarda Amerika Qo'shma Shtatlarida tez-tez nashr etilib, eng ko'p xarid qilinayotgan kitob "Masnaviy" ekanligini ta'kidlagan edi Ibrohim Haqqul¹⁷. So'nggi yillarda sahna ijodkorlarining nutqini tarbiyalashda Jaloliddin Rumiyning baytlaridan foydalanish ham juda qo'l kelmoqda. Ayniqsa, til haqida, san'at, ilm ahli haqidagi baytlari kishini hayratga soladi. Ayni bugungi kunga ushbu baytlar juda zarur ekanli bilinadi:

***Til temirga, toshga ham o'xshash erur,
Tildan uchgan so'z gahi otash erur.
Urma sen toshni temirga bemahal,
Goh maqol aytib, gohi so'ylab matal.
Ulki zolim qavmlar, ko'z yumdilar,
So'z ila olamni ham yondirdilar.
Bir suxan olamni vayron aylagay,
Tulkini o'rmonda sulton aylagay.***

Darhaqiqat, ilm olish har bir musulmon zimmasidagi eng zarur farz. Har bir musulmon e'tiqod ilmidan Alloh va Uning Rasuliga bo'lgan ishonchini chetki ta'sirdan saqlay oladigan miqdorda ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Ilm o'rganish kim bo'lishidan qat'i nazar musulmonlik da'vosini qilgan har bir erkak va ayolga ibodat kabi eng zarur farzlardan sanaladi, inchunun ibodatlarining eng afzali ilm izlashdir.

Mavlono Rumi o'zidan keyingi avlodlarga beshta muhim va qimmatbaho asar qoldirgani ma'lum. Birinchisi, **"Devoni kabir"**, **"Devoni Shamsi Tabriziy"**, **"Devoni shamsul haqoyiq"** degan

¹¹ O'sha manbaga qarang. 28-b.

¹² To'ychiyev U. O'zbek poeziyasida aruz sistemasi. –T.: "Fan", 1985-y. 89-90-b.

¹³ O'sha manbaga qarang.

¹⁴ Ibrohim Haqqul. Hikmat – ko'ngil chirog'i. // Hikmatlar. Mavlono Jaloliddin Rumi. – T.: "Yangi asr avlodi", 2017-y. 5-b.

¹⁵ Bu haqda qarang. Imomnazarov M. Yusuf Xos Hojib (XI asr) // Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). To'ldirilgan qayta nashr. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001-y. 118-119-b.

¹⁶ To'xliyev B. "Qutadg'u bilig" ("Saodatga boshlovchi bilim") asariga yozilgan so'zboshi. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – T.: "Yulduzcha". 1990-y. 5-b.

¹⁷ Bu haqda qarang. Mavlono Jaloliddin Rumi. Hikmatlar. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2017-y. 9-b.

nomlari bilan mashhur devon. Ikkinchisi, yuqorida tilga olingan “Masnaviyi ma’naviy” – 25 700 baytdan iborat bebaho tasavvufiy-ishqiylar asari. Uchinchisi, “Fiyhi ma fiyhi” (“Ichingdagi ichingdadir”) – Mavlonoʻning suhbatlaridan iborat falsafiy kitob. Toʻrtinchisi, “Mavoizi majolisi sab’al” deb nomlanadi – bu asar Rumiyni yetti oʻgʻit va pand-nasihatlardan iborat. Beshinchisi, “Maktubot” – Mavlonoʻning turli davrlarda zamondoshlariga yozgan maktublaridan tashkil topgan toʻplam.

Hazrat Alisher Navoiy Jaloliddin Rumiyni “Ustozlar ustozlari” deb sharaflagan, Abdurahmon Jomiy esa “U paygʻambar emas, ammo paygʻambarlik kitobi bor” deb ulugʻlagan.

Ahmad Yassaviy. Oʻzbek sheʼriyatida aruz vazni rivojlangunga qadar mavjud boʻlgan poetik meroslardan yana biri Xoja Ahmad Yassaviy ijodiy merosidir. Oʻzbekiston Qahramoni, oʻzbek xalqining sevimli shoiri Abdulla Oripov Yassaviy bobomiz haqida shunday yozgan edi:

**Nafs ila dunyoga dil bergan fosiqlar siz bu kun,
Yassaviy xokipoyidin aylab oling tumorlar**¹⁸.

Darhaqiqat, Ahmad Yassaviy turkiy tasavvuf sheʼriyatining atoqli vakilidir. Yassaviy 1041-yilda Sayramda, Shayx Ibrohim oilasida tugʻilgan. U yoshligida onasidan, soʻng otasidan ajraladi. Uni bobosi tarbiyalab, voyaga yetkazadi. Filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Haqqul buyuk allomalar haqida koʻp ibratli maqolalar yozgan. Olimning ilmiy tadqiqotlari hali-hanuz sanʼatshunoslarga ham dasturlamal boʻlib kelmoqda. Olimning yozishicha: “Yassaviy xalq boshiga koʻp qiyinchiliklar va musibatlar yogʻdirilgan davrlarda yashab, ijod qildi. U turk hukmronlari – qoraxoniylar bilan qoraxitoylar oʻrtasidagi urushlar va ularning dahshatli oqibatlarini koʻrgan, sheʼrlarida bu fojialarga munosabatlarini bildirgan<...>Yassaviy “xudo yoʻli”ni – “nafs ilgi”dan qutilmoq, atrofda toʻlib-toshgan fisqu furujlarga barham bermoqning yoʻlini izlaydi. Agar diqqat bilan mushohada yuritilsa, Yassaviyning diniy-axloqiy falsafasida dunyodan yuz burilmaydi. Yomonlik, nodonlik, jaholat, molparastlik illatlariga rivoj bergan tuban dunyoni yurakdan quvishga daʼvat etgan”¹⁹.

Ahmad Yassaviy “Hikmat” deb nomlangan yirik asar yaratadi. Keyinchalik bu kitob “Yassaviya” tariqatiga aylanib ketadi. Bunda poklik, halollik, toʻgʻrilik, mehr-shafqat, oʻz qoʻl kuchi, peshona teri va halol mehnati

bilan kun kechirish, Alloh taolo visoliga yetishish yoʻlida Insonni botinan va zohiran har tomonlama takomillashtirish kabi ilgʻor umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan²⁰. Yassaviy nafs bandalariga qarata yozgan baytlari haligacha dolzarbligini yoʻqotmagan:

**Nafs yoʻliga kirgan kishi rasvo boʻlur,
Yoʻldin ozib, toyib, toʻzib gumroh boʻlur.
Yotsa, qoʻpsa shayton bila hamroh boʻlur,
Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor.**

Uning “Munojotnoma”si masnaviy yoʻlida yozilgan baytlari ham kishini hayratga soladi:

**Mani hikmatlarim nodon eshitmas,
Vale koʻngli qaro pandimni olmas.
Zabonni hol ila ummone toʻkdim,
Haqiqat soʻz bila johilni soʻkdim.
Agar olim boʻlsa jonim tasadduq,
Duru guhar soʻzumni eshitib uq.
Duru guhar soʻzun olamgʻa sochsa,
Oʻqub uqsa kalomi haqqin ochsa.
Oʻshal olimgʻa jon qurbon qilurmen,
Tamomi xonumon ehson qilurmen**²¹.

Oʻzining maqola va izohlari bilan Yassaviyning baytlarini toʻplab keng ommaga yetkazgan adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul maqolasida ustod Maqsud Shayxzodaning gaplarini keltirib, shunday satrlarni bayon qiladi. “Shubhasizki, Xoja Ahmad Yassaviyning yozib qoldirgan “Hikmat” kitobi keyincha til jihatidan va maʼno tomonidan qanchalik oʻzgartirishlarga duchor boʻlmasin, uning asl vazni avvalgi holicha qolgan. Chunki birovlar ilgari vazni shuncha ildizidan oʻzgartirib, qaytadan ishlashlari amrimahol boʻlar edi. Bu asarning vazni esa muallif avvalida oʻzi oʻylab ishlagan holda saqlanib qolgan”. Demak, vaznga asosanib til va maʼno oʻzgarishlarini tekshirish imkoni bor. Nega bu ishni amalga oshirmaslik kerak? Axir, Sharq poetikasida vazn ilmi mustaqil soha boʻlgan. U garchi aruz vazni qonun-qoidalaridan bahs etsa-da, Yassaviyga oʻxshash shoirlar tajribalaridan tadqiq etishga ham yordam koʻrsatadi²².

**Beshak biling, bu dunyo borcha eldan oʻtaro,
Inonmagil molingga, bir kun qoʻldin ketaro.
Oto-ono, qarindosh, qayon ketti fikr qil,
Toʻrt ayogʻlig choʻpin ot bir kun sango yetaro.**

Yassaviy yozgan sheʼriy misralar nihoyatda xalqqa yaqin tilda bayon qilingan. Ohangdorligi ham oʻzgacha. Shuning uchun ham Yassaviy madaniyatimiz tarixida ilk turkiyzabon mutasavvuf (tariqatga ergashtiruvchi maʼnosda) shoir sifatida mashhur boʻlib ketgan.

Xoja Ahmad Yassaviy Markaziy Osiyodagi ilk tasavvufiy tariqat – “Yassaviya”ning asoschisi, nafaqat Xuroson va Movarounnahr, balki turkiyzabon xalqlarning maʼnaviy tarixida keng maʼlum boʻlgan, donishmand, insonparvar shoir hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida uning yozgan “Munojotnoma”sidagi baytlar kaminani hayratga soldi:

**Meni hikmatlarim olamda doston,
Ruhim kelsa qilur suhbatini boʻston.**

**Meni hikmatlarim koni hadisdur,
Kishi boʻy eltmasa bilgʻil habisdur.**

¹⁸ Haqqul I. Ahmad Yassaviy // Ahmad Yassaviy hikmatlari. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1991-y. 5-b.

¹⁹ Haqqul I. Ahmad Yassaviy. Ahmad Yassaviy hikmatlari (Soʻzboshi). – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1991-y. 8-b.

²⁰ Bu haqda qarang: Usmonov O. Ahmad Yassaviy. // Maʼnaviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). Toʻldirilgan qayta nashr. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001-y. 148-149-b.

²¹ Ahmad Yassaviy hikmatlari. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1991-y. 198-199-b.

²² Bu haqda qarang: Haqqul I. Ahmad Yassaviy // Ahmad Yassaviy hikmatlari. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1991-y. 22-23-b.

***Meni hikmatlarim olamda sulton,
Qilur bir lahzada cho'lni guliston.***

***Meni hikmatlarim shavqi muhabbat,
Ko'zini yoshida qilg'oy tahorat.***

***Meni hikmatlarim oshiqqa ayting,
Dili oynadek sodiqqa ayting.***

***Meni hikmatlarim sarrofga ayting,
Xudoyi bokaram vahhobga ayting.***

***Meni hikmatlarim nodon eshitmas,
Vale ko'ngli qaro pandimni olmas.***

***Xatidin bexabar Oллоhga munkir,
Adabsiz beadab dunyoda bepir.***

Yassaviyning bu ulkan baytlarini chuqur ilmiy tahlil qilishga, balki kuchimiz kamlik qilar, ammo baytlardagi so'zlarning tub ma'nosini anglash va anglatishga intilish barcha pedagogning burchi sanaladi. "Munojotnoma"dan yana quyidagi baytlarni keltirsak:

***Zaboni hol ila ummone to'kdim,
Haqiqat so'z bila johilni so'kdim.***

***Agar olim bo'lsa jonim tasadduq,
Duru guhar so'zumni eshitib uq.***

***Duru guhar so'zun olamg'a sochsa,
O'quv uqsa kalomi haqni ochsa.***

***O'shal olimg'a joi qurbon qilurmen,
Tamomi xonumon ehson qilurmen.***

***Qani olim, qani amal, yoronlar,
Xudodin so'zlasa siz jon beringlar.***

***Chin olim yostug'in toshtin yaratdi,
Nima uqti ani olamg'a aytdi.***

***O'zini bildi ersa haqni bildi,
Xudodin qo'rqdiyu insofga keldi.***

Yassaviyning tasavvufni targ'ib qiluvchi turkiyda yozilgan she'rlari tili nihoyatda xalqqa yaqin, ohangga boy, qalbga tez ta'sir quluvchidir. Uning qimmatbaho hikmatlari aks etgan baytlarini sahna ijodkorlariga o'qitishni ham qarz, ham farz, deb o'ylaymiz.

Ahmad Yugnakiy. Turkiy adabiyotining yana bir namoyandasi Ahmad Yugnakiy Movarounnahr va Xurosonda turkiy elatlar madaniyatini yuksaltirishga katta hissa qo'shgan adibdir. XI–XII asrlarda ijod qilgan Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy kabi buyuk allomalar qatorida Ahmad Yugnakiy nafaqat o'zbek xalqi, balki butun turk olamida, hatto, islom olamida muhim o'rinni egallaydi. Manbalarda keltirilishicha, Ahmad Yugnakiy Yugnak degan joyda XII asrda yashab ijod qilgan. Yugnak degan joy Samarqand atrofida, Farg'ona vodiysi va Sirdaryo bo'ylarida mavjud. Ammo manbalar adibning Samarqandda tug'ilganini keltiradi. Adib onadan ko'zi ojiz bo'lib tug'iladi. U bolaligidan juda qobiliyatli va ziyrak bo'lgan. Salohiyatli shoir keyinchalik 484 misradan iborat **"Hibbat ul-haqoyiq"** ("Haqiqatlar tuhfası") nomli dostonini yaratib, mashhur bo'lgan. Asar yozilgan davrda forsiy va turkiy dostonlar uchun umumiy bo'lgan muayyan she'riy shakl (qofiyalanuvchi masnaviy) mavjud emas edi. Shu sababdan asarning kirish qismi o'sha davr arab adabiyotiga xos bo'lgan qasida janridan ijodiy foydalanib yozilgan²³.

Biz o'zbek she'riyatida aruz vazni rivojlangunga qadar mavjud bo'lgan poetik meroslar haqida to'xtaldik. Sahna nutqi professor-o'qituvchilari yosh avlodga aruz vaznida yozilgan asarlarni o'rgatish yo'lida mehnat qilar ekan, hali dasturlarda qayd etilmagan ushbu merosni, ma'lumotlarni bo'lajak aktyor va rejissyorlarga yetkazsalar, she'riy matnlarni ijro uchun qo'llasalar maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Xulosa o'rnida professor N.Mallayevning fikrini kelirmoqchimiz. "...turkiy aruz **"Qutadg'u bilig"**dan boshlanadi, ammo u turkiy adabiyotda bundan oldin ham mavjud edi; u adabiyotimizda 800 yillik tarixga ega, aruzni inkor qilish boy o'zbek mumtoz poeziyasini inkor qilishdir; dramaning avval qadimgi Gretsiyada paydo bo'lishi uning boshqa xalqlarda ham kelib chiqqani va rivoj topganini rad etmaydi, aruz ham xalqlar uchun mushtarak, ammo u har bir xalqda o'ziga xos"²⁴.

²³ Bu haqda qarang: M.Imomnazarov. Adib Ahmad Yugnakiy. Imomnazarov // Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). To'ldirilgan qayta nashr. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001-y. 150-151-b.

²⁴ To'ychiyev U. O'zbek poeziyasida aruz sistemasi. – T.: "Fan", 1985-y. 24-b.

KO'CHMANCHI VA O'TROQ XALQLAR HAYOTIDA AKKULTURATSIYA HODISASI (Farg'ona vodiysi qirg'izlari misolida)

Annotatsiya. Mazkur maqolada, ko'chmanchi va o'troq xalqlar madaniy hayotida akkulturatziya hodisasining namoyon bo'lishi Farg'ona vodiysi qirg'izlari madaniyati, xususan til xususiyatlari misolida atroflicha tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: etnomadaniyat, akkulturatziya, bag'rikenglik, ko'chmanchi xalq, o'troq xalq, urf-odat, an'ana, til, globallashuv.

ЯВЛЕНИЕ АККУЛЬТУРАЦИИ В ЖИЗНИ КОЧЕВЫХ И ОСЕДЛЫХ НАРОДОВ (На примере киргизов Ферганской долины)

Аннотация. В данной статье подробно проанализировано проявление феномена аккультурации в культурной жизни кочевых и оседлых народов на примере особенностей культуры, в частности языка киргизов Ферганской долины.

Ключевые слова: этнокультура, аккультурация, толерантность, кочевой народ, оседлый народ, обычаи и традиции, язык, глобализация

ACCULTURATION IN THE LIFE OF NOMADIC AND GRAZIER PEOPLES

(In the case of the Fergana Valley Kyrgyz)

Abstract. In this article, the manifestation of the phenomenon of acculturation in the cultural life of nomadic and sedentary peoples was thoroughly analyzed using the example of the culture of the Fergana Valley Kyrgyz, in particular language features.

Key words: ethnomultural, acculturation, tolerance, nomadic people, grassroots, Customs and tradition, language, globalization.

XXI asrda jahonda turli sohalarda ro'y bergan globallashuv, ya'ni siyosiy buhronlar va tabiiy ofatlar tufayli yuzaga kelgan, siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy qiyinchiliklar sabab, emigratsiya va migratsiya jarayoni avj oldi. Mazkur hodisalar natijasida, dunyo xalqlarining etnik xususiyatlarini saqlab qolish va milliy-etnik an'analarni tadqiq etish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bunda YUNESKOning bosh konferensiyasi 28-sessiyasida qabul qilingan "Bag'rikeng (tolerant) lik tamoyillari deklaratsiyasi"da millatlararo milliy munosabatlarda barqarorlik masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5046-sonli farmonining qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasida ham millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Bugungi kunda mamlakatda millatlararo munosabatlarni ilmiy o'rganish va rivojlantirishda madaniyatshunoslik ilmda keng qo'llaniladigan akkulturatziya tushunchasining ahamiyati kattadir.

Ko'chmanchi xalqlar o'rtasida etnomadaniyatning asosiy jihatlaridan biri bu, migratsiya jarayonida

ular bilan uzviy aloqada bo'lgan qo'shni xalqlar yoki etnomadaniyatlar bilan madaniy boylik, g'oya va amaliyotlar almashinuvidir. Bu jarayon til, din, texnologiya, me'morchilik va san'at kabi etnomadaniyatning yangi unsurlarini o'zlashtirishga, shuningdek, mavjud an'ana va urf-odatlarni o'zgartirish yoki moslashtirishga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, akkulturatziya mustamlakachilik, istilo yoki tashqi ta'sirlar natijasi bo'lishi mumkin, bu esa ko'chmanchi xalqlar etnomadaniyatida kuchliroq yoki hukmron madaniyatlar ta'sirida o'zgarishlarga olib keladi. Bu til, din, ijtimoiy tuzilma, iqtisodiy tizim va turmush tarzidagi o'zgarishlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, akkulturatziya har doim ham ko'chmanchi xalqlarning etnomadaniy o'ziga xosligini to'liq yoki tubdan o'zgartirishga olib kelmaydi. Ular o'z an'ana va turmush tarzining muhim jihatlarini saqlab qolgan holda madaniyatning qaysi elementlarini qabul qilish yoki moslashtirishni tanlashlari mumkin.

Shunday qilib, akkulturatziya ko'chmanchi xalqlar hayotida muhim omil sifatida rol o'ynaydi. Ularning madaniy muhiti, tashqi dunyo bilan o'zaro munosabati

va o'zgaruvchan shart-sharoitlarga moslashish usullarini shakllantiradi. Farg'ona vodiysida yashovchi qirg'izlar o'rtasidagi akkulturashtirishning etnomadaniy o'ziga xosligi, an'ana va turmush tarzini shakllantiruvchi muhim hodisadir.

“Akkulturashtirish (lotincha *acculturare* so'zidan “yondashuv” + cultura “ta’lim, taraqqiyot”) madaniyatlarning o'zaro ta'sir qilish jarayoni (madaniy xususiyatlarni almashish), biron-bir xalq yoki boshqa bir xalq madaniyatini to'liq yoki qisman idrok etish jarayonidir. O'ziga xos yoki betakror bir yoki ikkinchi etnoguruhning asl etnomadaniy modellari o'zgartirilishi mumkin” [1.196-b.].

Avvalo, akkulturashtirish va assimilyatsiya jarayonini bir-biridan farqlash kerak, bunda bir xalq boshqa, o'zidan ustunroq bo'lgan xalq bilan yaqin aloqada o'z tili va madaniyatidan butunlay mahrum bo'ladi. Shubhasiz, akkulturashtirish jarayoni to'liq assimilyatsiya qilish uchun birinchi qadam bo'lishi ham mumkin. Antropologlar R.Bils, R.Linton, R.Redfild va M.Xerskovitslar: *“Akkulturashtirish turli madaniyatlarga mansub shaxslar, guruhlar doimiy aloqada bo'lganda, bir yoki ikkinchi asl madaniyat keyingi o'zgarishlar bilan sodir bo'ladi”*, – degan ta'rifni ishlab chiqdi.

Farg'ona vodiysida yashovchi qirg'izlar o'rtasidagi akkulturashtirishning etnomadaniy o'ziga xosligi, an'ana va turmush tarzini shakllantiruvchi muhim hodisadir. Turli etnik guruhlar va madaniy jamoalar yonma-yon yashaydigan bu mintaqada madaniyatlarning o'rtasidagi o'zaro ta'sir va almashishda akkulturashtirish jarayoni asosiy rol o'ynaydi.

Farg'ona vodiysi qirg'izlari o'rtasida akkulturashtirishning muhim jihatlardan biri ularning o'zbek, tojik, uyg'ur, koreys, rus va boshqa etnik guruhlar bilan yaqin aloqada yashaydi. Yaqin aloqada bo'lgan qirg'izlar ushbu guruhlarining tili, dini, milliy taomi, an'ana va urf-odatlarini kabi madaniyat elementlarini o'zlashtirishi hamda moslashishi mumkin. Shuningdek, akkulturashtirish, zamonaviy texnologiya, ommaviy madaniyat va global tendensiyalar kabi jamiyatdan tashqaridagi g'oya, texnologiya va turmush tarzi ta'siridan kelib chiqishi mumkin. Bu esa Farg'ona vodiysi qirg'izlarining turmush tarzi, urf-odat va milliy qadriyatlarining o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, akkulturashtirish jarayoni har doim ham qirg'iz xalqining madaniy o'ziga xosligining to'liq yoki tubdan o'zgarishiga olib kelmaydi. Ular o'z an'ana va turmush tarzining muhim jihatlari saqlab qolgan holda etnomadaniyatning qaysi elementlarini qabul qilish yoki moslashtirishni tanlashlari mumkin.

“Etnik madaniyat xalqning, millatning uzoq ijtimoiy tarixiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari, turmush tarzi, tili, urf-odatlar, tashqi dunyoni o'zlashtirish va o'zgartirish, o'zini, o'zligini idrok etish, anglash usullari, xullas, etnosning, millatning mavjudligini ifoda etuvchi ijtimoiy voqelikdir. Ma'lumki, har qanday ijtimoiy voqelik, ayniqsa, inson va xalq hayotining barcha tomonlariga taalluqli madaniyat ko'p omillilik, komplekslik,

sinkretiklik, universallik, turg'unlik va o'zgaruvchanlik xususiyatlariga ega” [2.11-b.].

Biroq etnik madaniyat jamiyatda muammo va nizolarni keltirib chiqarishi mumkin, ayniqsa, yangi etnomadaniy elementlar an'anaviy qadriyat va urf-odatlarga tahdid sifatida qabul qilinadi. Shu boisdan ham madaniyatlashtirish jarayonini Farg'ona vodiysi qirg'izlarining madaniy merosi hamda o'ziga xosligini saqlash va muhofaza qilish bilan muvozanatlash muhim ahamiyatga egadir.

Umuman olganda, Farg'ona vodiysi o'zbek va qirg'izlari o'rtasidagi akkulturashtirish hodisasi murakkab va dinamik jarayon sifatida o'zida ko'plab omillarni qamrab oladi. Bu o'zbek va qirg'iz madaniyati unsurlari yonma-yon yashab, o'zaro ta'sir qilib, o'zaro bir-birini boyitadi. Farg'ona vodiysi etnik xilma-xilligi boyligini yaratuvchi mintaqaning o'ziga xos etnomadaniy muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Turkiy tilli xalqlar madaniyati, tili va tarixida ko'plab o'xshashliklarga ega bo'lish bilan birga, o'ziga xoslikka ham ega. Qiyosiy tahlil turkiy tilli xalqlarning etnik xilma-xilligi va boyligini yaxshiroq tushunish va baholash imkonini beradi. *“Dunyoda mavjud tillarning deyarli barchasi o'ziga xos ichki shevalardan iborat. Turkiy tillarning har biri bir necha sheva va dialektlardan iboratligi ma'lum. Biroq o'zbek tili turkiy tillar orasida o'zining ko'p sheva, dialektliligi bilan farqlanadi”* [3.112-b.].

Farg'ona vodiysi nafaqat o'ziga xos qulay iqlim sharoiti tufayli, balki mintaq tarixining turli davrlarida ko'plab etnik guruh, etnos va millatlar vakillari kelib o'rnatilgan. Shubhasiz, o'zaro iqtisodiy-siyosiy va madaniy aloqalar faol etnogenez aloqalarni yuzaga keltirdi, natijada, tillararo yaqinlashishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Vodiya yashovchi etnoslararo til munosabatlari qadim o'tmishda yuzaga kelib, ikki jarayonda rivojlandi.

Birinchi, tillararo metizatsiya (qorishuv) va ikkinchi, tillarning gibridlashuv holati faol kechgan etnolingvistik taraqqiyot qirg'iz va uyg'urlar bilan bog'lanuvchi turkiy qipchoq, xunn va usun qabilalari ta'siri yaqqol ko'rinadi. *“Turli millatlarning birikuvidan tarkib topgan Namangan viloyati aholisi uchun azaldan ikki tillilik xos bo'lgan. XIX–XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida o'zbek-tojik, o'zbek-uyg'ur, o'zbek-qirg'iz va o'zbek-qoraqalpoq kabi ikki tillilik hukm surgan. Natijada, ikki tillilik hodisasi va ularning tarqalish ko'lamini vodiya arealda turlicha bo'lib, Namangan viloyatida ham bu ijtimoiy hodisaning sodir bo'lishi etnik muhit bilan bevosita bog'liq bo'lgan”* [4.190–198-b.].

O'zbek tili hudud (viloyat)lar kesimida ko'p sheva (dialekt)lar Farg'ona, Andijon va Namanganning umumiy til xususiyatiga ko'ra qiyosiy tahlil qilindi. Farg'ona vodiysida yonma-yon yashovchi o'zbek va qirg'iz xalqlari tilini qiyosiy tahlil qilish, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlash imkonini beradi. Har ikki til ham turkiy tillar oilasiga mansub, lekin fonetika, morfologiya, sintaksis va leksik xususiyatlarga ega. Namangan qipchoq shevalari o'zbek shevalarining kichik bir bo'lagi hisoblanadi. Sheva vakillari bir

hududda yashashlariga qaramasdan, har bir shoxobcha o'ziga xos fonetik, leksik va morfologik xususiyatlarga ega.

Fonetika va tovush tizimi: O'zbeklar va vodiylar qirg'izlari tilida undosh va unlilar, shuningdek, diftong va boshqa tovush birikmalari, o'xshash tovush tizimiga ega. O'zbek tilida undosh fonemalar umumiy bo'lsa, vodiylar qirg'izlari tilida unlilar tizimi boy.

Morfologiya: Har ikki til ham turli holat, zamon, shaxs va raqamlar bilan boy morfologik tuzilishga ega. Ammo o'zbek tilida ko'proq analitik shakllar qo'llanilgan bo'lsa, Farg'ona vodiysi qirg'izlari tilida esa flektiv qo'shimchalar tizimi ancha rivojlangan.

Sintaksis: O'zbek va Farg'ona vodiysi qirg'izlari tilida sintaktik jihatdan o'xshash tuzilish va so'z tartibi mavjud bo'lib, ular ko'pincha so'z brikmasi sifatida namoyon bo'ladi. Biroq vodiylar qirg'izlari tilining so'zlashuv, og'zaki shaklida erkin so'z tartibini uchratish mumkin. O'zbek tilida esa bu jihat kam uchraydi.

Leksika: O'zbek va Farg'ona vodiysi qirg'izlari tili umumiy ildizi va leksik elementlarga ega bo'lish bilan birga, har bir xalqning tarixi, madaniyati va an'analari aks ettiruvchi ko'plab o'ziga xos so'z va iboralarni o'z ichiga oladi. Farg'ona vodiysi o'zbeklari va qirg'izlarining tarixiy o'zaro ta'siri tufayli bu til o'rtasida so'z va iboralarning o'zlashtirilishi hamda o'tishlarni ham kuzatilishi mumkin.

Til nafaqat madaniyat, balki millat ko'zgusi ham sanaladi. Inson o'z ona tilini yo'qotishi, inson uchun o'zligidan ayrilish demakdir. *“Tilingizni mashq qilishdan oldin, qalbingizni mashq qiling, chunki so'z yurakdan chiqib, so'ng tilga ko'chadi va qalbgaga etib boradi”*, – degan edi Jaloliddin Rumi.

K.Shoniyozov qayd etganidek: *“Farg'ona vodiysida turkiylashish jarayoni miloddan avvalgi I asrda boshlangan. Farg'ona vodiysi aholisi tilining shakllanib borishida qarluq-chigil va qipchoq lahjasi ustuvorlik qilgan. Tarixdan ma'lumki, XVIII asrgacha bo'lgan davrda siyosiy hokimiyat uchun olib borilgan janglarda qirg'iz urug'lari mudofaasi tufayli g'alaba qozondi. Jumladan, Qo'qon xonligida qirg'iz urug'lari siyosiy yetakchilikka ega bo'lib, ushbu davrdan boshlab turkiy tilli elatlar orasida qirg'izlarning nufuzi anchagina yuksalganligiga guvoh bo'lamiz”* [5.464-b.].

Farg'ona vodiysi hududda yashovchi xalqlar qadim davrlardayoq o'zaro siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarda bo'lganlar. Ayniqsa, ushbu hudud xalqlarining urf-odat va an'analari, dini, tili, turmush tarzining o'xshashligi o'zaro yaqinlashuvga ham sabab bo'lgan. Iqtisodiy va siyosiy omillar sababli qirg'izlar Farg'ona vodiysi mintaqasiga ko'chib o'tadilar. O'zbeklar va qirg'izlar umumiy til, diniy va etnik xususiyatlarni o'z ichiga olgan boy madaniy merosga ega. Adabiyot, musiqa, xalq amaliy san'ati kabi madaniy qadriyatlar almashinuvi ular o'rtasidagi o'zaro ta'sirning muhim qismidir.

Akkulturatsiya madaniy elementlarning o'zaro ta'siri va moslashuv jarayoni sifatida ham ko'chmanchi, ham o'troq qirg'iz xalqlari hayotida muhim o'rin

tutadi. Bu jarayon jamiyat xarakteri va turmush tarzini belgilab beruvchi an'anaviy va zamonaviy madaniy elementlarning o'ziga xos uyg'unligini yaratadi. Tarixan qirg'iz xalqi ham ko'chmanchi, ham o'troq turmush tarzini qabul qilgan. Ko'chmanchi qirg'izlar umrini dehqonchilik va chorvachilik jamiyatlarida o'tkazgan, yaylov va suv resurslarini izlab ko'chib kelgan, o'troq qirg'izlar esa qishloq xo'jaligi shahar markazlarida rivojlangan.

Ko'chmanchi qirg'izlar uchun akkulturratsiya zamonaviy texnologiyalar, ta'lim va iqtisodiy tuzilmalarning an'anaviy turmush tarziga integratsiyalashuvida namoyon bo'ladi. Bunda zamonaviy transport vositalaridan foydalanish, turizm va savdoni rivojlantirish, davlat idoralari bilan aloqalarni mustahkamlash kiradi. O'troq qirg'izlar, o'z navbatida, shahar hayotida yangi ijtimoiy va madaniy me'yorlarni o'zlashtirish orqali madaniyatga duch kelishadi. Bu ta'lim, madaniy amaliyot, til va iqtisodiy faoliyatdagi o'zgarishlarni o'z ichiga olishi mumkin. Har ikki turdagi qirg'izlarning madaniyati rivojlanishiga qaramay, ular o'z an'analari, urf-odatlarini va tilini chuqur qadrlaydilar. Bu kundalik hayotda, diniy bayramlarda, an'anaviy musiqa va kiyim-kechaklarda o'z aksini topadi.

Akkulturratsiya hodisasi qirg'iz xalqlari hayotida muhim o'rin tutadi, ularning o'ziga xosligini shakllantiradi va madaniy merosini boyitadi. Bu jarayonni anglash jamiyatning barkamol rivojlanishi, an'analarni saqlash va zamonaviy dunyoning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashish garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Куликова Л.В. Межкультурная коммуникация: теоретические и прикладные аспекты на материале русской и немецкой лингвокультуры. – Красноярск: РИО КГПУ, 2004.
2. Nishonova O. Etnik madaniyat va marosimlar. – Toshkent: TDSI, 2009.
3. To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – T.: 2004.
4. Darvishov I.O'. Namangan qipchoq shevalari va etnoslararo jarayonlar. NamDU ilmiy axborotnomasi. – Namangan: 2019-yil, 12-son.
5. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – T.: “Sharq”, 2001.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПЕРЕВОД КАК ИСКУССТВО

Аннотация. В данной статье рассматривается научная и практическая, а также социальная суть художественного перевода как искусство. С целью глубже осознать своеобразные черты художественного перевода как искусство он теоретически осмыслен, сопоставляя с другими видами перевода. И на этом ключе сделана попытка раскрыть смысл художественного материала, связанного с искусством, который является основой художественного перевода.

Ключевые слова: искусство, художественный, перевод, материал, научный, публицистический, общественный, фактор, практический, своеобразие, знак, смысловой, нейтральный, социально-политический, мировой, народы, язык, бадий материал.

BADIIY TARJIMA SAN'AT SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada san'at sifatidagi badiiy tarjimaning ilmiy va amaliy, shuningdek, ijtimoiy mohiyati ko'rib chiqiladi. San'at sifatidagi badiiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq anglash maqsadida, uni boshqa tarjima turlari bilan qiyoslab nazariy anglashga harakat qilingan. Shu ma'noda badiiy tarjimaning asosi bo'lgan san'at materialini san'at sifatida ochib berishga harakat qilinadi.

Kalit so'zlar: san'at, badiiy, tarjima, material, ilmiy, publitsistik, ijtimoiy, omil, amaliy, o'ziga xoslik, belgi, ma'noli, neytral, rasmiy, siyosiy, dunyoviy, xalqlar, til, badiiy material.

LITERARY TRANSLATION AS AN ART

Abstract. In the present article it is written about the scientific and practical and also the social meaning of artistic translation. In order to understand the specific features of artistic translation it must be practically compared with other types of translation. The meaning of work of art, which is the base of artistic translation, is carefully explained.

Key words: artistic, translation, material, scientific, journalistic, socially, factor, practical, specific, sigh, meaningful, neutrality, socio-political, world, national, belles-letters fiction language, artistic-material.

Художественный перевод как явление искусства считается самым сложным видом перевода. Поэтому необходимо изучать его сопоставляя с другими видами перевода. При этом особое внимание уделяется на переводимый художественный материал, который отличается своими специфическими чертами, которые ставят особые требования к переводу. Сравнение разновидностей перевода поучительно и полезно потому, что оно ведет прежде всего к выявлению различий между ними, характерного своеобразие каждой из них. Это не столько сопоставление, сколько противопоставление как самих типов переводимого материала, так и принципов и методов перевода, обусловленные их внутренними особенностями. Построение общей теории перевода немыслимо без анализа разновидностей перевода, без учета их внутренних особенностей и соотношения их друг с другом.

Именно путем сопоставления и противопоставления могут и должны быть выявлены черты отличия каждой из разновидностей перевода. То, что, например, может быть признано точным и правильным в переводе научного или делового текста, допускающего обороты книжно-письменной речи, легко может оказаться неуместным и

неверным в переводе произведения художественной литературы, где полноценность перевода часто достигается именно отступлений от более дословной передачи, и наоборот.

С точки зрения требуемой "меры точности" переводимый материал рассматривается по трем основным группам текстов – художественных, публицистических и деловых. В качестве критерия точности художественного перевода выдвинута передача разнообразных выразительных средств образности, эмоциональности [Федоров 1983:199].

Различия в составе речевых стилей двух разных языков, естественно, создают известные практические трудности при переводе, но разумеется, отнюдь не означают невозможности найти функциональное соответствие. При этом наряду с задачей практического преодоления отдельных трудностей перевода, обусловленных расхождениями в особенностях речевых стилей разных языков, встает теоретическая задача обобщения особенностей переводческой работы в области разных жанров. Эта теоретическая задача – не абстрактна, и решение ее может принести ту практическую пользу, что наполнит конкретным языковым содержанием вопрос о сте-

пени “точности перевода”, предполагаемой тем или иным видом материала. Попытка же охарактеризовать в интересах теории перевода общие для разных языков специфические особенности стиля различных видов переводимого материала может быть сделана, исходя из понятия о их целенаправленности, о их функциях и на основе сравнения с тем языком, на который делается перевод и по отношению к которому должны быть выявлены как черты сходства, так и черты различия.

В работах о переводе, когда дело не ограничивалось в них вопросом о художественной литературе материал разбивался обычно на три группы:

- 1) тексты газетно-информационные, документальные и специально научные;
- 2) произведения публицистические;
- 3) произведения художественной литературы [Федоров 1983:200].

Общепотребительная лексика представлена, во всех типах литературного, книжно-письменного и устно-речевого материала, ибо она образует тот фон, на котором выделяются, с которым в определенное отношение вступают различные элементы словарного состава языка, представляющие его различные пласты.

Для текстов газетно-информационных, документальных и специальных научных, насыщенных фактическим материалом (конкретными сведениями, указаниями и т.п.), характерно наличие терминов, выделяющихся на фоне слов общеобиходного характера, и наличие некоторых фразеологических комплексов, более частых в данном жанре в связи с его целенаправленностью [Федоров 1958:273].

В научно-популярных текстах эта частотность, разумеется, гораздо ниже по самому характеру задачи, разрешаемой в них. Для всей этой категории материала характерно отсутствие слов, стилистически окрашенных принадлежностью к тому или иному пласту словарного состава языка, за исключением, разумеется, терминов, стилистически характерных именно для данного разряда текстов и поэтому обычных тем в нем. Для литературы по общественным наукам показательно частичное использование идиоматики – некоторых идиом и метафорических устойчивых сочетаний. Для всего этого разряда материала характерно использование слов в их прямых значениях или, в редких случаях, языковых тропов, не играющих специально стилистической роли. Тропы же стилистически действенные, играющие образную роль, встречаются в литературе научно-популярной.

Следующую разновидность материала по искусству с точки зрения особенностей словаря можно выделить из состава литературы по общественным наукам (историческим, экономическим, философским), из литературной критики, газетно-журнальной публицистики, а также из

области ораторской речи. Это те произведения общественно-политического и философского содержания, в которых проявляется пропагандистская или агитационная установка, которые рассчитаны как средство воздействия на широкие читательские массы, касаются вопросов широкого масштаба и сочетают в себе как черты научной речи (терминологию), так и черты языка художественной литературы (образные элементы и эмоциональную окраску).

Язык художественной литературы, являющийся прежде всего искусством, располагает широчайшим диапазоном средств и преломляет в себе различные как книжно-письменные, так и устно-речевые стили, представляя тем самым необыкновенное разнообразие лексических элементов. Отличием его словаря от словаря языка литературы научной является отсутствие или большая редкость терминов, причем в тех случаях, когда они встречаются, они играют не главенствующую роль, в то же время выделяясь на общем фоне [Гачечиладзе 1964:273].

В специальном научном, научно-техническом, документальном и газетно-информационном материале наблюдаются словесные повторения, формально тождественные с теми, какие встречаются в художественной и общественно-политической литературе, в публицистике и ораторской речи. Но здесь эти синтаксические средства или выступают как способ смыслового членения, привлекая внимание читателя к определенным местам текста, логически параллельным, или являются просто случайными.

Во второй группе материала, т.е. в произведениях общественно-политической литературы, в критике, в публицистике, в ораторской речи, в искусстве где наряду с сообщением определенного содержания преследуется цели особого агитационно-пропагандистского воздействия на читателя или слушателя, средства синтаксиса играют гораздо более активную роль. Синтаксические параллелизмы и повторения слов и словосочетаний здесь не являются случайными и служат одновременно целям как логического членения и выделения, так и эмоционального подчеркивания и усиления.

В художественной литературе разнообразие речевых стилей, связанное с многообразием описываемой действительности и богатством индивидуальных оттенков эмоционального отношения к ней, проявляется в исключительной широте синтаксических средств: последние сочетают в себе здесь особенности как книжно-письменной, так и устно-разговорной речи. Устно-разговорная речь, разумеется, принимает разные формы в составе литературного произведения в зависимости от эпохи, страны, идейно-художественного направления и индивидуальной манеры писателя, но во всяком случае всегда играет в нем очень большую роль. Переходы от длинных и сложно построенных предложений к простым

и коротким фразам, чередование тех или других, сочетание литературно-правильных синтаксических форм со всякого рода эллипсами, анаколуфами, оборванными предложениями приобретают здесь значение средства, выражающего весьма сложные оттенки отношения автора или действующих лиц к изображаемой действительности и представлены с исключительным разнообразием. Все это действительно служит задаче построения художественного образа и целям речевой характеристики действующих лиц. Синтаксические параллелизмы и контрасты, словесные построения в пределах как более узких, так и широких отрезков речи служат здесь укреплению смысловых и эмоциональных связей между отдельными отрезками словесной ткани и обогащению смысловых оттенков повторяемых слов (или групп слов). Разумеется, не всегда все обилие синтаксических возможностей проявляется в составе одного произведения, иногда писатель ограничивает себя более однообразным кругом средств, но дело, конечно, не в отдельных индивидуальных случаях, а в закономерной для художественной литературы общей широте средств и богатстве ее путей в целом [Федоров 1958:282].

Здесь рассмотрены лишь основные виды материала, которые могут явиться объектом работы переводчика, рассмотрены по неизбежности бегло, т.е. лишь в главных особенностях и тенденциях. При этом не использовалось понятие “нейтрального” (или “более нейтрального”) стиля и стиля более выразительного, хотя противопоставление текстов газетно-информационных, специально-научных и документальных, с одной стороны, и литературы общественно-политической и художественной, искусствоведче-

ской с другой, казалось бы, и возможно на основе этих понятий. Но дело в том, что понятие некоего “нейтрального” стиля, т.е. стиля сухого, лишенного образности, эмоциональности – понятие очень относительное, ибо самое отсутствие этих свойств составляет отчетливый, хотя и негативный стилистический признак; поскольку же каждый из типов рассмотренного материала обладает вполне определенным стилистическим своеобразием, постольку оказывается налицо и положительный характеризующий признак.

Исходя из этого, можно сказать, что и задача перевода остается стилистической задачей при любой разновидности переводимого материала: она состоит в таком отборе лексики и грамматических возможностей, который определяется, с одной стороны, общей целенаправленностью подлинника и его жанровой принадлежностью и, с другой стороны, соблюдением тех норм, какие существуют для соответствующей разновидности текстов.

С другой стороны перевод, особенно художественный перевод как искусство имеет и социальное значение. Он служит пропаганде литературы и искусства того или иного народа на мировом масштабе, и самое главное, служит фактором обогащения культур народов мира.

Использованная литература:

1. Федоров А.В. Введение в теорию перевода. – М.: Литература на иностранных языках. 1958.
2. Гачечиладзе Г.Р. Вопросы теории художественного перевода. – Тбилиси, 1964.
3. Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – М.: Высшая школа. 1983.

ХУДОЖЕСТВЕННО-ОБРАЗНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПЛАСТИЧЕСКИХ МОТИВОВ, ВИДЫ И ЖАНРЫ ТАНЦЕВАЛЬНЫХ КОМПОЗИЦИЙ В МАССОВЫХ СЦЕНИЧЕСКИХ ТАНЦАХ

Аннотация. В данной статье дается аналитический и сравнительный обзор разнообразных танцевальных композиций – «Кизил карвон», «Ташкентская пиала», «Андижанская полька», «Ферганский-молодежный танец» и танцы народов Закавказья. Также определены виды и жанры танцевальных композиций.

Ключевые слова: композиция, сцена, жанр, образ, пластика, хореографический текст, искусство, хореография.

ОММАВИЙ САҲНА РАҚСЛАРИДА РАҚС КОМПОЗИЦИЯЛАРИНИ ПЛАСТИК МОТИВЛАРИ, ТУРИ ВА ЖАНРЛАРИНИНГ БАДИЙИЙ ОБРАЗЛИ ТАЛҚИНИ

Annotatsiya. Ushbu maqolada turli raqs kompozitsiyalari – “Qizil karvon”, “Toshkent piyolasi”, “Andijon polkasi”, “Farg’ona-yoshlar raqsi” hamda kavkaz xalqi raqslarining tahliliy va qiyosiy ko’rinishiga chizgilar beriladi. Raqs kompozitsiyalarining turlari va janrlari xususida ham so’z ketadi.

Kalit so’zlar: kompozitsiya, sahna, janr, tasvir, plastika, xoreografik lison, san’at, xoreografiya.

ARTISTIC AND IMAGINATIVE INTERPRETATION OF PLASTIC MOTIVES, TYPES AND GENRES OF DANCE COMPOSITIONS IN MASS STAGE DANCES

Abstract. This article provides an analytical and comparative overview of various dance compositions – “Qizil karvon”, “Toshkent piyolasi”, “Andijon polkasi”, “Farg’ona-yoshlar raqsi” and dances of the peoples of Transcaucasia. The types and genres of dance compositions are also defined.

Key words: composition, scene, genre, image, plastic, choreographic text, art, choreography.

В пятидесятые годы М.Тургунбаева стала серьезно осмысливать законы создания сценических танцев, стала фиксировать различные танцевальные элементы, темы танцев, тексты иллюстративных песен, описывать и рисовать детали костюмов, которые встречались во время гастролей по республики. Делала она эти записи в основном для себя, не печатая в публикациях и книгах. В ансамбле «Бахор» была насыщенная программа, где сочетались танцы различных жанров.

Танцы ансамбля «Бахор» четко группируются в два танцевальных вида: народные и классические¹.

Тремя жанрами определяются сценические танцы на народную тему:

- 👉 трудовые танцы, отражающие элементы трудовых действий;
- 👉 праздничные танцы иллюстративно-игровые, эмоционально характерные;
- 👉 сюжетные танцы-сценки.

¹ Хамраева Г. Национальный образ танца (На примере анализа программ 1957 – 1977 гг. ансамбля «Бахор»). // Raqsning milliy qiyofasi (“Bahor” ansambli raqslari misolida 1957–1977-yillar). – Ташкент: Издательство журнала “Санъат”, 2012 г. С.34.

Трудовые танцы составляли меньшую, но и в то же время важную часть программ ансамбля. Танцевальные картины «Пахта» и «Пилла» входили из года в год во все программы концертов ансамбля «Бахор». Из праздничных танцев наиболее популярными были иллюстративно-игровые такие как: «Самаркандская весна», «Наманганские яблочки», «Андижанская полька», «Ташкентская пиала», а эмоционально-характерные – это танец «Бешкарсак».

Постановка М.Тургунбаевой в 1932 году танцевальной композиции «Кизил карвон» обозначила новое направление в узбекском хореографическом искусстве – создание хореографических произведений крупной формы, какими являются массовые танцевальные композиции. Из истории национального хореографического искусства известно, что первые образцы сценического танца шли по пути театрализации фольклора. В основном, содержанием произведений становилась социальная или трудовая тематика, актуальная для того времени. Но в дальнейшем пути развития было определено большое количество жанров самой разнообразной тематики. Танцы создавались в различных формах – массовых, сольных

и ансамблевых; появились и парные танцы, как например знаменитый **«Ферганский молодежный»** И. Акилова.

Дальнейшие творческие поиски балетмейстеров приведут к созданию крупных тематических танцевальных произведений, разнообразных по видам и жанрам. В чём же заключаются художественные особенности танцевальной композиции.

Важнейшим фактором, необходимым для танцевальной композиции, является пространство. Даже хореографический замысел, не воплощенный на сцене, организуется в воображаемом пространстве. Танцевальное пространство, как и физическое, имеет свои границы. Эти границы определяются хореографом и исполнителями или только исполнителями (главным образом, в фольклорном танце). На организацию пространства в танцевальной композиции влияют такие факторы, как замысел, традиционность формы, место исполнения, количество исполнителей, музыка и т. д. Так, пространство на балу организуется законами бальной хореографии, сценическое пространство - законами сценического танца, пространство в фольклоре - законами фольклорного танца².

Танцевальные композиции, созданные Мукаррам Тургунбаевой в исполнении ансамбля «Бахор», можно условно разделить по их тематическому содержанию на следующие виды:

👉 композиции, созданные на основе фольклорных мотивов;

👉 композиции, созданные на основе трудовых процессов;

👉 композиции, созданные на основе бытовых сюжетов.

Каждая из многочисленных постановок «Бахора» содержит свои композиционные особенности. Жанровым и стилистическим прообразом многих танцев становится ферганский цикл **«Катта уйин»**. Как отмечает Л.А.Авдеева, *«строгая пропорциональность пластических фраз, симметричность построений, содержательность пластического тематизма в хореографических композициях М. Тургунбаевой «Катта уйин», «Маком уфори», «Занг» помещают их в одно смысловое поле с величайшими достижениями узбекской многовековой культуры: метрикой поэтического стихосложения «аруз», архитектурной гармонией Регистана, глубокой интонационностью макома»*³.

Еще в 1935 году Тургунбаева знакомится с андижанскими юношескими плясками и парными уйгурскими переплясами, что вдохновляет ее на

создание нового танца и помогает найти особенные художественные штрихи. В конце тридцатых годов XX века Тургунбаева выносит на сцену юношескую пляску, которую в народе называли **«Андижанской полькой»**, развивает этот неприятный пляс в разработанный виртуозный танец. Андижанская полька – танец лихих, энергичных сильных волевых людей, обладающих задором, юмором, а главное обладающих восторженным восприятием жизни.

Этот танец раскрывает тему народного гулянья и является игровой сценкой. Две махалли подбадривают своих представителей возгласами и ударами в ладони – то наступая на соперников, то отступая. В основе картины – перепляс-соревнование в ловкости, выносливости. Танец исполняется резко, темпераментно. Своеобразие этому танцу придает то, что мужские танцевальные движения используются в женском танце. Энергичный ход с небольшим подскоком и «откидыванием» ног назад и вверх (андижанский ход) помогает рождаться движениям корпуса и рук, демонстрирующих ловкость и силу мускулов. Зримый образ веселого гулянья создают контрастные цвета костюмов, сложные перестроения танцовщиц, быстрый ритм пляски.

Девушки одеты в платья из самой распространенной в Ферганской долине ткани – ханатлас; у половины девушек сложный рисунок ткани составлен из красно-белых пятен, у половины – черно-белых. Торс затянут в короткие, чуть ниже талии камзолы без рукавов, расписанные золотым орнаментом; юбки щедро расклешенные, состоят из нескольких клиньев. Широкие рукава до запястья, ворот разрезан мысиком с небольшим отложным воротником; шальвары из ткани платья заужены книзу; на головах вышитые тюбетейки.

В 1943 году М.Тургунбаева создает свою интерпретацию танца «Пилла». Это массовый танец сюжетного развития. Драматургия танца раскрывает трудовой процесс выращивания шелкопряда: получение кокона, его дальнейшую обработку, изготовление шелковых ниток и, наконец, украшение платка вышивкой из этих ниток. В начале девушки, сформировав три группы, изображают кучки шелкопряда. Четыре остальные «проверяют», «кормят» и «ухаживают» за ними. В середине танца ровные ряды танцовщиц рисуют рабочие станки, вдоль которых плывут мастерицы, исправляющие дефекты в нитках. М.Тургунбаева постойла танец «Пилла» из трех частей: вскармливание червячков, приготовление нитей, тканьё шарфа, прихорашивание девушек ткачих, вышивание шарфа-платка. После в 50-е годы Г.Измайлова создала свой вариант танца, назвав его «Вышивальщица», которая вышивала Голубя мира. В последующий вариант своего танца М.Тургунбаева включила и этот мотив.

«Производственных плясок столько, сколько видов ручного труда» – утверждает

² Панферов В.И. Искусство хореографа (Учебное пособие). – Челябинск: Челябинский институт культуры, 2017 г. С.159.

³ Авдеева Л.А. Танцы ансамбля «Бахор». – Т.: Изд-во литературы и искусства им Г.Гуляма, 1977 г. С.115.

⁴ Голейзовский К. Образы русской хореографии. – Москва: 1964 г. С.66.

К.Голейзовский⁴. К нему присоединяются буквально все кто пишет о народном танце. Почему же в узбекской современной хореографии их только две? Правда была популярна тема чабана, пасущего свое стадо, но назвать эти танцы трудовыми, пожалуй нельзя, это скорее юмористические картины. Мнение о том, что трудовые темы отсутствовали в вокально-танцевальном наследии ошибочные. Присутствовали и присутствуют и по сей день в народных игровых песнях, встречаются и в самодеятельных коллективах. И к тому же во многих движениях и танцевальных фигурах «Катта ўйин», если прорисовать, выявляется тема труда.

Обширные фронтальные и фигурные построения, групповые синхронные комбинации массового танца создают свой особенный стилистический строй. Танец выстроен в сюжетной логичности, насыщен действием и превращается в большое театрализованное представление. Цвет костюмов как будто вторит окружающей природе: общий колорит складывается из зеленого и желтого цветов.

Танец «Ташкентская пиала» по общим признакам можно отнести к народно-сценической хореографии.

Танец рассчитан на 25, 30, или 40 исполнителей и четырех солисток. Музыка мелодичная, ритмически – усильная, а также вокально-инструментальная. Песня народная, поют инструменталисты и танцовщицы.

Содержание танца – демонстрация полуфериических сосудов для питья чая – пиал, восхваление их свойств: красоты, прозрачности фарфора, удобства формы и т.д. А также образная форма демонстрации работы гончарного круга, на котором производились пиалы. Рисунки танца определяется условными линиями пиал. До открытия занавеса исполнительницы рассаживаются в форме нескольких полукругов. Занавес открывается, танцовщицы медленно покачивают головами вправо и влево, встав с колена из пяти кругов выстраиваются в три диагонали, как бы приглашая зрителей попробовать чай. Далее рисунки сменяются с диагонали в полукруг, линии, разбиваются в маленькие круги насыщая фигуры движениями, чархами, перебирают пиалы с одной руки в другую, производят руками общую волну. Из движений ног ферганской школы постановщик использует такие движения как: «тўхтаб бриш», «оқсатма», «терма юриш». На вступление дойры, оркестр замолкает, начинается соло солисток. Четыре солистки в быстром темпе исполняют вращения по диагонали, меняются местами как в народном переплясе, но в сценической форме это положение называют «до за до». Сидящие танцовщицы аккомпанируют танцу солисток – взяв пиалы в правую руку, проводят руки вправо, влево; затем затем сидящие рядом берут пиалы слева в левую руку и пристраиваются в ритм двумя пиалами. Тем самым показывая невероят-

ную красоту перебирания пиал через волнообразный вид со стороны зрителя. Поделившись пополам в середине полукруга, и образовав два полукруга исполнители положив пиалы в пол, выстраиваются в общий полукруг. Правая рука у всех поднимается вверх через третье положение ферганской школы и замирает над головой. Танец заканчивается вырисовывая два круга на полу из стоящих на полу пиал. Обзор можно увидеть как со зрительного зала так и сверху.

Условно-иллюстративная тема танца выражается сложными перестроениями и ходами, руки с предметами производят простые движения демонстрации пиал. Танец солисток составлен из непростых вращений. Исполнение их требовало виртуозности. «Чархи», «шене» и «шохи» считаются в узбекском танце движениями-кульминациями. Эти движения сливаются с сюжетом, изображая вертящийся гончарный круг. Танец – народный, но исполнение его таготеет к манере исполнения классического танца. Что в итоге приобщает его к сценическому танцу – обработанному по законам сцены и драматургии.

Иной танец в исполнении пар – это массовый танец ферганского стиля в исполнении девушек и юношей «Ферганский молодежный танец». Этот танец был подготовлен для молодежного фестиваля и в 1956 году впервые исполнен на Всесоюзном фестивале молодежи и студентов в Москве, где получил высокую оценку, как лучший танец фестиваля;

все 12 исполнителей были награждены медалями. Сопровождается танец игрой на трех дойрах. Ритмы («усули») обработаны И. Акиловым. Характер танца – веселый, задорный, жизнерадостный и в полной мере соответствует названию «молодежный».

Танец рассчитан на шесть пар исполнителей (шесть девушек и шесть юношей); количественный состав может быть изменен, но во всех случаях парно. В танцевальных фигурах при движении по кругу, диагонали или по прямой количество тактов музыкального сопровождения (ритмов) может быть увеличено в зависимости от размеров сценической площадки. Сначала юноши выходят на сцену в подтянутом положении демонстрируя зрителю силу характера и смелость. Далее как бы созывая девушку хлопками приглашает на танец. С выходом девушек, пары входят в пляс, исполняя движение «кийин уфори» (сложный переменный шаг) по кругу. Пары движутся друг за другом создавая круг. После задорного прохождения по кругу девушки стремительными вращениями показывают свое мастретство вращения, также и юноши продемонстрировали свою технику владения быстрых вращений по кругу. Далее до конца танца юноши и девушки танцуют вместе, исполняя виртуозные вращения, движения, передвижения. Легкость и задор характера танца проявлялся как в рисунках танца, так в его исполнении. Следует отметить, что уже в середине XX века мас-

терами сценической танца создавались довольно сложные, а главное парные узбекские танцы.

Теперь обратим внимание на создание парных сценических танцев народов Закавказья. Если сравнить парные танцы народов Закавказья с узбекскими парными танцами, то можно увидеть картину простого исполнения в общении мужчины и женщины по отношению друг другу в узбекских танцах. Эти движения и танцевальные фигуры можно встретить и в других танцах, не схожих по тематике, они тоже выражают чувства человека, либо иллюстрируют другие картины жизни, но в армянских и грузинских танцах иной подход к обращению в танцах к женщине. Схожи рисунки, поочередное исполнение танцевальных партий, выстраивание драматургии балетмейстерами, а все потому что, создавались эти танцы в XX веке, во время когда танец получал свое сценическую обработку по общим законам русской и европейской балетной школы.

Рассмотрим грузинские сценические танцы. Они по исполнению сложные и разнообразные. Почти каждый танец имеет свои приёмы и особенности. Танцы в Грузии разделяются на сольные, парные и групповые. Женщины двигаются грациозно, маленькими шажками. Мужчины демонстрируют свою воинственность, которая выражается в быстрых движениях, высоких прыжках и смелых пируэтах. Спина, как у мужчин, так и у женщин, всегда остается прямой и неподвижной. Грузинская танцевальная культура жанрово богата и разнообразна.

Танец «Картули» – наиболее типичный грузинский танец. Танец чрезвычайно напоминает зрителям свадьбу. «Картули» – по-настоящему романтический танец. Он исполняется танцевальной парой и объединяет мягкость и грациозность женщины и гордость и любовь мужчины. Он показывает, что даже будучи влюбленным, мужчина сохраняет уважение и хорошие манеры, не прикасаясь к женщине и держась от нее на определенной дистанции. Взгляд мужчины всегда обращен на женщину-партнершу, как будто она – единственное существо в целом мире. Более того, торс мужчины постоянно остается неподвижным. С другой стороны, взор женщины все время потуплен и она скользит по неровному полу как лебедь по гладкой поверхности озера. Величайшее искусство, необходимое, чтобы танцевать «Картули», создало этому танцу репутацию одного из наиболее сложных. Это один из тех танцев, которые не были созданы для сцены, но танцуются в соответствии с очень четкими правилами законов сцены,

последовательности и взаимоотношений между мужчиной и женщиной. Он состоит из 5 частей: мужчина приглашает женщину присоединиться к нему, они танцуют вместе, затем – сольный танец мужчины, сольный танец женщины и в заключение они танцуют вместе. Танец выражает рыцарское отношение грузинского мужчины к женщине, который проявляет к ней высшую степень уважения.

Если говорить о танцевальной культуре армянских народов, то танец «Исламей» – один из самых красивых и романтических танцев. В нем пара проявляет большее доверие друг к другу и слаженно передвигается по кругу. Все, кто видел этот танец, согласятся, что он настолько невесомый, что складывается впечатление отсутствия гравитации. Ощущение подобное чувству любви, которое и отражает танец. «Исламей» – плавный парный танец с лирическим содержанием, исполняемый в умеренно-убыстренном темпе. Существует версия происхождения адыгейского ислама. В один погожий день молодой пастух по имени Ислам обратил внимание на орла и орлицу, круживших в лазурном небе, которые парили по кругу, как бы любясь друг другом издали, а затем слетались вместе, как бы желая высказать что-то сокровенное. Их полёт напомнил молодому юноше о затаённых чувствах в сердце и взволновал его. Он вспомнил свою любимую, и ему захотелось также полюбоваться ею, высказать ей всё, что накопилось у него за время разлуки, но это не скоро удалось ему, да и не так просто было у адыгов повстречаться со своей избранницей. Однако на одном из свадебных торжеств ему повезло: его пригласили на танец со своей любимой девушкой, здесь он, подражая манере орлов, применил новый танцевальный рисунок – движение по кругу, девушка поняла его замысел, и молодые в своём танце сумели высказать друг другу все свои чувства. С тех пор и зародился этот танец, который получил название «исламый» – «принадлежащий Исламу».

Подводя итоги парных узбекских танцев с танцами закавказского зарубежья нужно обратить внимание на решение балетмейстера темы обращения юноши к девушке аллегорическими образами. Сюжет может разворачиваться в представлениях героя. В узбекском танце задумка более проста. Сюжет разворачивается через бытовые темы. Заполняя танец технически сложными движениями, поворотами и комбинированными движениями ног.



МАМИРОВА Диларам Тавакуловна,
доцент кафедры «Сценическое движение и физическая культура» ГИИКУз

СПЕЦИФИКА ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПРИКЛАДНОГО ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ В ВУЗАХ ИСКУССТВА И КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В данной статье раскрывается интеграция физического воспитания со сценическим движением в подготовке будущих специалистов сферы искусства и культуры. Целью определено привлечение будущих специалистов к приобретению необходимых навыков развивающих профессионально значимые физические и психомоторные качества. Автором анализируется научная литература и сделан вывод о необходимости углубленного внимания преподавателей данной дисциплины к проблеме раскрытия возможностей студентов через обучение определенным профессионально направленным знаниям и умениям.

Ключевые слова: качество, организация, управление, интеграция, подход, искусство, самосовершенствование, концентрация, профессия.

SAN'AT VA MADANIYAT OLIY O'QUV YURTLARIDA TALABALARNI IXTIYORIY – AMALIY JISMONIY TARBIYA XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada san'at va madaniyat sohasida bo'lajak mutaxassislarni sahna nutqini jismoniy tarbiya bilan uyg'unlashtirish masalasi ochib beriladi. Bo'lajak mutaxassislarda jismoniy va psixomotor sifatlarini rivojlantiruvchi zaruriy ko'nikmalarni shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Muallif ilmiy adabiyotlarni tahlil qiladi va talabalarda fan bo'yicha muammolarni ochib berish zarurligi haqidagi xulosaga keladi.

Kalit so'zlar: sifat, tashkil etish, boshqarish, integratsiya, yondashuv, takomillashuv, mutaxassislik.

SPECIFICITY OF PROFESSIONAL APPLIED PHYSICAL EDUCATION OF STUDENTS IN UNIVERSITIES OF ARTS AND CULTURE

Abstract. This article reveals the integration of physical education with stage movement in the training of future specialists in the field of art and culture. The goal is to attract future specialists to the acquisition of necessary skills that develop professionally significant physical and psychomotor qualities. The author analyzes scientific literature and concludes that it is necessary for teachers of this discipline to pay more attention to the problem of revealing students' capabilities through teaching certain professionally oriented knowledge and skills.

Key words: quality, organization, management, integration, approach, art, self-improvement, concentration, profession.

Физическая культура и спорт выполняет ряд социальных функций, основные из которых: образовательная, оздоровительная, прикладная и рекреативная. Обучение студентов по дисциплине в вузах искусства и культуры более сложный процесс, чем в других, и требует от педагога не только качественного спортивного мастерства, но и знаний

профессиональной деятельности студентов, то есть интегрированного подхода. Работа преподавателя в этих учебных заведениях связана, с одной стороны, с тем, чтобы не допустить отрицательных воздействий физических упражнений на профессионализм занимающихся, с другой, оказать положительное влияние на функциональное

состояние организма студентов, дать им теоретические знания и практические навыки в области физической культуры и спорта. Наука о физических упражнениях для специалистов культуры отстает от непосредственного ее практического применения. Очень мало издано периодической литературы по проведению занятий с музыкантами, певцами, режиссерами, актерами, организаторами социально-культурной деятельности.

Поэтому, полагаясь на общеобразовательную вузовскую программу по физической культуре и спорту, кафедры институтов искусства и культуры ставят перед собой задачу определить направленность профессиональной физической подготовки в процессе теоретических и практических занятий. Обучение данной дисциплине должно осуществляться с учетом профессиональных особенностей будущих специалистов.

Цель: привлечение будущих специалистов, сферы искусства и культуры, к приобретению необходимых навыков развивающих профессионально значимые физические и психомоторные качества. Приблизить усилия к объединению науки и мастерства актера, сценического движения и физической культуры.

Профессиональная подготовленность предполагает не только знание своего дела, но и постоянное саморазвитие способностей. Такими способностями в области культуры является комплекс духовных и физических качеств. Каждый студент должен заблаговременно и активно готовиться к избранной профессии, целенаправленно развивать те физические и психические качества, которые определяют психофизическую надежность и успех будущей профессии.

Проблема заблаговременной профессионально направленной психофизической подготовки является наиболее актуальной именно в специальных учебных заведениях. Но, каждая профессия, имеет способность выделять свой уровень развития психофизических качеств, а также перечень профессионально-прикладных умений и навыков.

В теории и практике физической культуры и спорта, такая специальная подготовка получила название профессионально-прикладной физической подготовки. В течении многих веков, в процессе воспитания, нашим народом использовались глубокие, сохранившиеся до нашего времени свою ценность, научные разработки в области физического воспитания: Абу Насра Фараби, Абу Райхан Беруни, Абу Али ибн Сина, Амира Темура, Мирзо Улугбека, Алишера Навоии и многих других. Обобщив данные теоретических исследований многих авторов, можно сделать вывод, что деятельность работников культуры требует большого нервного, психо - эмоционального напряжения, повышенного внимания к состоянию здоровья, физической работоспособности и всегда значительных усилий, и выносливости. В их работе особенно динамичны показатели психомоторных качеств, связанных с зрительно-моторной и слухо-

вой реакциями, им необходимы координационные связи и развитый нервно-мышечный аппарат, выраженной подвижностью нервных процессов.

При классификации по однородности физической подготовки нельзя не учитывать, что работа актера, певца, музыканта, дирижера, библиотекаря и т.п. имеет отрицательные для организма последствия: большое нервно-эмоциональное напряжение в сочетании с гиподинамией способствует возникновению функциональных изменений, выражающихся в ухудшении работы сердца, склеротических изменениях кровеносных сосудов, появлении гипотонии и возникновении неврозов; формирование устойчивой рабочей доминанты, не снимающейся при прекращении работы, способно вызвать перегрузку и истощение нервных центров и клеток, что приводит к потере сна, аппетита, головной боли, плохому настроению, появлению вспышек раздражительности; длительное многочасовое пребывание в положении сидя или стоя вызывает застойные явления сосудов с последующим нарушением двигательной и сердечно-сосудистой функций, понижению мышечного тонуса и ухудшению осанки; постоянное нахождение в среде «книжной» пыли вызывает аллергические реакции и заболевания дыхательной системы.

Основываясь на исследовательских данных о физических и функциональных возможностях будущих работников культуры, можно сделать вывод, что их физическая подготовка должна проходить с учетом классификации специальностей, которые объединяются в однородные группы. Это: музыкальные; театрально-режиссерские; организаторская-управленческая; хореографические; информатика и библиотековедение.

В свою очередь каждое отделение имеет свою специфику и может быть разделено на отдельные группы, которые по физической подготовке отличаются друг от друга. Самым разнообразным при проведении занятий по данному предмету является музыкальный факультет, который целесообразно разделить на две подгруппы:

- *пианисты, струнники, аккордеонисты;*
- *музыканты духовых инструментов, вокалисты хорового пения.*

Физическая подготовка актера и режиссера в корне отличается от физической подготовки вокалиста, хоровика, библиотечного работника, а пианиста – от физической подготовки библиотековедения и дирижеров.

При решении конкретных задач профессионально-прикладной физической подготовки будущих специалистов следует всегда помнить, что такая подготовка осуществляется в тесной связи с общей физической подготовки, которая является основой практического раздела учебной дисциплины «Физическая культура и спорт» в вузе. Однако исследования показали, что только общая физическая подготовка будущих специалистов не может полностью решить задачи специальной

подготовки к определенной профессии. Профессионально-прикладная физическая подготовка должна опираться на хорошую общефизическую подготовленность студентов.

Профессиональная деятельность студентов театрально-режиссерских специальностей принадлежит к числу наиболее сложных, напряженных и ответственных видов человеческой деятельности. В связи с этим профессиональный труд актера и режиссера предъявляет широкий спектр требований к процессу обучения студентов в учебном заведении, самосовершенствованию, самопознанию и саморазвитию качеств личности.

Сочетание сценической, режиссерской науки и физической культуры сейчас находится еще на стадии развития и совершенствования. Идет накопление опыта совместной работы. Дальнейшие поиски направлены на то, чтобы приблизить усилия к объединению науки и мастерства актера, сценического движения и физической культуры.

Физические действия актера или работа режиссера, как и спортсмена, требуют навыков физических упражнений, высокоразвитого нервно-мышечного аппарата, хороших физических качеств, таких как сила, скорость, ловкость, выносливость. Исполнение сценических трюков требует от актера определенной силовой воли и отличительных психологических качеств, особенно ловкости и ритмичности. Психические действия - имеют целью воздействовать на психику (чувство, ум или волю) партнера или самого себя: например, просить, убеждать, упрекать, утешать, требовать, приказывать, хвалить, ругать и т. п.

Студентам театрально-режиссерских специальностей, как и спортсменам, необходимы идеомоторная и аутогенная тренировки, они должны владеть системой восстановительных средств, уметь с их помощью и физических упражнений входить в роль и выйти из нее.

В работе актера, необходимо придавать огромное значение движению. Бытовали суждения театральных специалистов о том, что слишком накаченная мускулатура не дает возможности сыграть хорошо роль и вообще мешает работе в театре. Современный театр и кино показали, что только отличная физическая подготовка и мышечная красота тела делают актера красивым во всех отношениях. Необходимо одновременно тренировать тело актера, его внимание, память и контроль за движениями, силу, скорость, выносливость, ловкость, реакцию, пластичность.

В этой группе обучающихся нет необходимости разграничивать и проводить мелкогрупповое деление по специализациям, так как по физической подготовке они носят общую направленность. Исключением может быть индивидуальное обучение. Это связано с тем, что некоторые студенты специализируются на отделении музыкального театра и им необходимы такие же умения, как актерам и вокалистам. Для них также возможно включение в учебный план физических

упражнений из группы музыкальных специальностей.

Для музыкантов духовых отделений, хора, вокалистов преподавание данного предмета должно проводиться на основе глубоких знаний механизма дыхания, структуры дыхательного аппарата. Многие научные работы музыкантов-педагогов свидетельствуют об особой важности функций внешнего дыхания (вдоха и выдоха) при их исполнительской деятельности. Кроме того, необходимо использовать полученные знания в подборе физических и дыхательных упражнений перед ответственным исполнением той или иной музыкальной партии, учитывая ее эмоциональность.

По-другому складывается работа у струнников, пианистов и аккордеонистов. Здесь, требуется концентрация и устойчивость внимания, регулирование координации движений и расслаблений мышц, в необходимое время. Такие движения можно выработать специальными упражнениями на предмете по физической культуре и спорту. Физические упражнения могут быть использованы как фактор быстрого вхождения в работу, для активного отдыха, снятия утомления, а с другой стороны, система средств физической культуры должна способствовать восстановлению духовных и физических сил.

Особого внимания заслуживает подготовка студентов факультета информатизации в библиотекостроении. Анализ и обобщение литературных источников позволяют отнести студентов данного факультета к одной из самых занятых групп людей, основные характеристики труда которых умственный и преимущественно умственный труд, малоподвижный, требующий большого напряжения нервной системы и психических функций. Методы педагогических наблюдений показали, что работники этих специальностей имеют тенденцию к профессиональным заболеваниям из-за отрицательного воздействия бумажной и книжной пыли на дыхательные органы. Из-за условий малоподвижной работы в закрытых помещениях развивается гиподинамия, от которой возможно избавиться в основном средствами физической культуры, выполняя физические упражнения на свежем воздухе, тренируя дыхательные мышцы, вентилируя дыхательный аппарат, увеличивая кислородное обеспечение организма.

Для решения поставленных задач должны использоваться средства физического воспитания, подобранные в соответствии с профессиональной деятельностью. На первый план должны выноситься упражнения, развивающие общую выносливость. Формирование этого качества обеспечивается длительным выполнением тренировочной нагрузки в режиме, который соответствует работе умеренной и большой мощности. Общая выносливость требует значительного объема работы как во время одного занятия, так и в годичном цикле выполнения физических упражнений. В основе

методов воспитания этого качества лежат методы повторного, переменного и непрерывного движения. Наряду с общей выносливостью необходимо развивать и статическую, а также твердую устойчивость к гиподинамии, для чего необходимо активно использовать специальные динамические упражнения.

Следующая группа: управленческие специальности, которые по физической подготовке очень близки с театральными-режиссерскими. Будущие работники социальной культурной деятельности, должны знать основы физического воспитания и организации физической культуры и спорта, активно внедрять их в систему учреждений культуры, приобретать личные знания специальных физических упражнений и видов спорта, учить других при осуществлении руководства творческими коллективами.

Еще одна специальность в институтах культуры, требующая особого подхода к физическому воспитанию, это хореографическое отделение. Этот контингент обучающихся занимается в классе танцев и принимает участие в спектаклях. Такую физическую нагрузку может выполнить только здоровый человек. В связи с подобной перегрузкой необходим процесс реабилитации нервно-мышечного аппарата, дыхательной системы, кислородного обеспечения организма. Крайне ограниченное пребывание на свежем воздухе и отсутствие в режиме дня систематических закаливающих мероприятий вызывают заболевания сосудистой системы. Слабое здоровье, неуверенность в своих силах способствуют неоправданному медицинскому освобождению от занятий по физической культуре.

У многих людей формируется негативное отношение к физкультуре и спорту, они думают о том, что все это в ущерб будущей профессии. Вышесказанное говорит о необходимости внедрения в быт студентов физических упражнений. Необходимо научить их преодолевать профессиональный недуг, регулярно заниматься профилактикой заболеваний средствами соответствующих физических упражнений. Только сознательная потребность в физических упражнениях, их необходимость помогут овладеть специальностью, улучшат и укрепят состояние здоровья, опорно-двигательный и нервно-мышечный аппарат, мышечную, дыхательную и сердечно-сосудистую системы. Воспитание здорового и всесторонне развитого поколения в Республике Узбекистан является важной и приоритетной задачей, поскольку требует создания великого государства с благородной целью о будущем.

Вывод: Следует заострить внимание преподавателей данной дисциплины к проблеме раскрытия возможностей физической культуры для студентов через обучение определенным профессионально направленным знаниям и умениям. Требуется реализация комплекса программ и научно-методических разработок по проблемам профессионально-прикладной физической подготовки будущих специалистов. При этом одним из важных направлений перестройки физического воспитания в высшей школе является не только увеличение часов обязательных занятий, но и применение реальных путей, побуждающих студентов к самостоятельным занятиям профессионально-прикладной физической культурой.

Обзор литературы, педагогические наблюдения и практический опыт позволили сделать предложение, что постижение искусства сценического движения будет качественнее, если развить необходимые навыки, закрепить приобретенный двигательный стереотип одновременно с их физическим развитием.

Использованная литература:

1. Астахов А.М. Физическая подготовка студентов вузов культуры (Учебный пособие). – Москва: МГИК, 1992 г. 126 с.
2. Балтабаев М.Р., Ахматов М., Ахматова Х.М. «Менеджмент здоровья, формирование и развитие человеческого капитала на основе целостной жизненного цикла национальной системы массовой спортивно-оздоровительной работы». // Журнал «Фан-спортга», 2019 г. №2, 69–76 с.
3. Ильинич В.И. Физическая культура студента (Учебник). – М.: Гордарики, 1999 г. 447 с.
4. Кабачков В.А. Профессиональная физическая культура и формирование личности (Монография). – Оренбург: ОГПУ, 1998 г. 78 с.
5. Do Keon Vu. Upravleniye fizicheskoy kul'turoy v stranah Dal'nevostochnoy Azii [Management of Physical Culture in the Countries of far East Asia. Abstract of thesis]. St. Petersburg, 2000. 36 p.
6. Stewart, G.W. Active Living: The Miracle Medicine for a Long and Healthy Life. Human Kinetics Publishers 2. Geli, JA (2007). p. 129.
7. Кох И.Э. «Основы сценического движения». СПб.: «Лань», 2010 г. 256 с.
8. Станиславский К.С. Работа актёра над собой. – М.: ООО Издательство «Эксмо», 2013 г. 341 с.
9. Ismoilov A.F., Ismoilov D.A. Sahnna harakati va jangi (Darslik). – T.: 2015-y. 117-b.

ОСОБЕННОСТИ ТРАДИЦИИ И СОВРЕМЕННОСТИ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА СЦЕНИЧЕСКОГО ДВИЖЕНИЯ

Аннотация. В данной статье автор рассказывает об особенностях традиции и современности преподавания предмета “Сценическое движение и бой”, различиях педагогических методов профессора Арсена Исмаилова, их роли в преподавании и совершенствовании науки.

Ключевые слова: элемент, образ, традиционность, современность, пространства, сцена, бой, актер, стиль, метод, задача, подход, постановка, персонаж, искусство, сценарий, деятельность, упражнение, процесс, интеграция.

SAHNA HARAKATI FANINI O‘QITISHDA AN‘ANA VA ZAMONAVIYLIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Muallif ushbu maqolasida “Sahna harakati va jang” fanini o‘qitish an‘anasi va zamonaviyligining xususiyatlari, professor Arsen Ismoilovning o‘qitish uslublaridagi farqlar, ularning fanni o‘qitish va takomillashtirishdagi o‘rni haqida so‘z yuritadi.

Kalit so‘zlar: element, obraz, an‘anaviylik, zamonaviylik, makon, sahna, kurash, aktyor, uslub, uslub, vazifa, yondashuv, sahnalashtirish, xarakter, san‘at, ssenariy, faoliyat, mashq, jarayon, integrasiya.

FEATURES OF TRADITION AND MODERNITY IN TEACHING THE SUBJECT OF STAGE MOVEMENT

Abstract. In this article, the author talks about the features of the tradition and modernity of teaching the subject “Stage Movement and Combat”, the differences in the teaching methods of Professor Arsen Ismailov, their role in teaching and improving science.

Key words: element, image, traditionality, modernity, space, stage, fight, actor, style, method, task, approach, staging, character, art, script, activity, exercise, process, integration.

Исмаилов Арсен Файзуллаевич, профессор – выдающаяся фигура в узбекской театральной сфере, профессор и первопроходец в разработке методик преподавания сценического движения, фехтования и актерского мастерства. Его вклад в развитие театрального искусства в Узбекистане невероятно значителен. Благодаря его труду и опыту многие актеры могли обрести навыки и знания, необходимые для успешной карьеры на сцене.

Метод преподавания А. Исмаилова в области сценического движения и фехтования – это классика. Его подход к обучению в этих областях часто называют “старой школой”, потому что он основан на традиционных принципах, передаваемых из поколения в поколение.

Исмаилов разработал систему тренировок, которая объединяет технические навыки сценического движения с элементами сценического фехтования. Его метод подчеркивает гармонию между телом и пространством, а также между актером и ролью. Ученики А.Ф.Исмаилова изучают не только физические аспекты движения и боя, но и эмоциональное выражение и психологию персонажей. Таким образом, контекст о тесте исследует интерес учеников к традиционным методам обучения в области сценического искусства, а имя А.Ф. Исмаилова связывает этот интерес с его

методикой, которая является одной из наиболее уважаемых и признанных в этой области.

Новые методики преподавания по сценическому движению часто базируются на комбинации традиционных и современных подходов.

Вот несколько ключевых различий между старыми и новыми методиками преподавания по сценическому движению:

Устаревшие методики: В старых методиках часто акцент делался на формализованных движениях и стандартных техниках, которые могли ограничивать выразительность и индивидуальность актера. Например, раньше актерам могли научить стандартным блокам движений для передачи определенных эмоций, что создавало риск стереотипности в выступлении.

Новые подходы к импровизации: новых методиках больше внимания уделяется развитию спонтанности и гибкости через импровизацию. Например, студентам могут давать задания на создание собственных сценариев или реакцию на неожиданные ситуации, что помогает им развивать творческий потенциал и умение быстро адаптироваться к изменяющимся обстоятельствам.

Интеграция физических и эмоциональных аспектов: В новых методиках больше внимания уделяется интеграции физических и эмоциональ-

ных аспектов актерского мастерства. Например, студенты могут учиться использовать свое тело для выражения эмоций, а не только следовать предписанным движениям.

Использование современных технологий: Новые методики могут включать в себя использование современных технологий, таких как видеоанализ или виртуальная реальность, для обратной связи и улучшения техники актеров. Эти различия отражают изменения в том, как понимается и преподается сценическое движение с развитием театрального искусства и понимания психологии актерской работы.

Новая методика преподавания по сценическому движению часто связана с современными тенденциями в театре и кинематографе, а также с инновациями в области психологии и физиологии. Она может быть вдохновлена различными источниками и объединять в себе элементы традиционных методов с новыми подходами. Например:

1. *Театральная импровизация – использование техник театральной импровизации для развития спонтанности и творческого мышления на сцене.*

2. *Физическая подготовка и мимика – уделяется больше внимания физическим аспектам актерского мастерства, таким как работа с телом, мимикой и жестами, для создания более выразительных персонажей.*

3. *Интеграция современных технологий – использование современных технологий, таких как видеоанализ или виртуальная реальность, для обучения и развития актеров.*

Эти новые методики часто разрабатываются театральными практиками, педагогами и исследователями, которые стремятся обогатить традиционные подходы современными знаниями и методами. В методике и правилах преподавания по предмету “Сценическое движение и сценическое фехтование” существуют определенные изменения и различия между педагогами 80-х годов и современными педагогами в 2020-х годах.

Вот некоторые из них:

Технические инновации – в современных методиках преподавания могут использоваться новые технические средства, такие как видеоанализ и компьютерные программы для моделирования движений. Это позволяет более детально изучать технику и исправлять ошибки.

Акцент на безопасность – в современных методиках больше внимания уделяется безопасности учащихся при занятиях сценическим фехтованием. Педагоги могут применять специальные защитные средства и учить правилам безопасного поведения на тренировках.

Интердисциплинарность – современные методики чаще всего подразумевают интеграцию различных аспектов сценического искусства, таких как танец, актерское мастерство и мимика.

Это позволяет учащимся развивать комплексный набор навыков.

Использование современных подходов к обучению – современные педагоги могут внедрять методики активного обучения, коллективной работы и индивидуализации обучения, что способствует более эффективному усвоению материала.

Учет разнообразия и включение всех учеников – в современных методиках преподавания уделяется больше внимания инклюзивному обучению и учету разнообразия учеников, в том числе различных уровней физической подготовки и способностей.

Эти изменения отражают эволюцию подходов к обучению и развитию сценического искусства с течением времени, учитывая изменения в общественных ожиданиях, технологическом прогрессе и понимании педагогических методов.

Основные различия между методикой и правилами преподавания сценического движения и сценического фехтования у педагогов 60-х - 80-х годов и современных педагогов в 2020-х годах.

Технические инновации:

👉 в 60-х - 80-х годах: Педагоги использовали преимущественно демонстрации и устные инструкции для объяснения техники движения и фехтования.

👉 в 2020-х годах: Современные педагоги могут использовать видеоанализ для показа правильной техники, например, записывая движения учеников и затем анализируя их вместе с ними. Например, видеоанализ может показать неправильную постановку ног или позу во время фехтования.

Акцент на безопасность:

👉 в 60-х - 80-х годах: Безопасность учеников могла быть менее приоритетной, и тренировки могли быть менее структурированными, что иногда приводило к травмам.

👉 в 2020-х годах: Современные педагоги уделяют большое внимание безопасности учеников. Например, они могут использовать защитные шлемы, перчатки и наколенники при фехтовании, а также обучать учеников правилам безопасного обращения с оружием.

Интердисциплинарность:

👉 в 60-х - 80-х годах: Уроки по сценическому движению и фехтованию могли быть более изолированными, с участием только этого предмета.

👉 в 2020-х годах: Современные педагоги могут интегрировать элементы других видов искусства, таких как танец или актерское мастерство, в уроки по сценическому движению и фехтованию. Например, они могут использовать техники театральной импровизации для развития выразительности и взаимодействия на сцене.

Учет разнообразия и включение всех учеников:

👉 в 60-х - 80-х годах: Учебные программы и методики могли быть менее адаптированы к различным потребностям и способностям учеников.

👉 в 2020-х годах: Современные педагоги стараются учитывать разнообразие учеников и их потребности, например, используя дифференцированный подход к обучению. Например, они могут предложить адаптированные упражнения для учеников с ограниченными физическими возможностями.

Эти примеры иллюстрируют изменения в методиках и подходах к преподаванию сценического движения и фехтования с течением времени и изменением общественных требований и педагогических методов.

Методика А.Ф.Исмаилова в области преподавания имеет глубокие корни и оказывает значительное влияние на современное образование. Ее базовые принципы и подходы к обучению не только оказались эффективными, но и вдохновили многих последователей и учеников. Арсен Файзуллаевич Исмаилов разработал и внедрил целый ряд инновационных методик, которые были сфокусированы на развитии критического мышления, самостоятельности и творческого подхода к обучению.

Основополагающие принципы методики А.Ф.Исмаилова, такие как активное участие студентов в учебном процессе, индивидуализация подхода к каждому ученику, использование современных образовательных технологий и посто-

янное обновление учебных материалов, продолжают оставаться актуальными и востребованными в наше время. Дальнейшие изменения и доработки, которые были внесены в методику преподавания, можно рассматривать как естественное развитие и адаптацию к изменяющимся потребностям обучения.

Однако, основой для этих изменений, часто лежат именно те принципы, которые были заложены А.Ф.Исмаиловым.

Таким образом, его методика остается своеобразным фундаментом, на котором строятся и развиваются современные образовательные подходы. Продолжатели и ученики, ориентируясь на методику А.Ф.Исмаилова, получают не только основательные знания и навыки, но и развивают важные компетенции, которые необходимы в современном мире. Исходя из этого, можно сделать вывод, что методика Арсена Файзуллаевича Исмаилова действительно является базовой и правильной, и ее влияние на образование остается несомненным и значимым.

Использованная литература:

1. Ismoilov A.F. Sahna qilichbozligi. – Toshkent: "Voriz", 2007-y. 95-b.
2. Ismoilov A.F., Ismoilov D., Usmonov Sh. Sahna harakati va jangi (Darslik). "Navro'z", 2015-y.
3. Ismoilov D.A. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal. March 2022. Page: 479–482.
4. Ismoilov D.A. International Multi-disciplinary Journal of Education. Amerika. June 2024. Page: 488–491.

ОСОБЕННОСТИ И ПРОБЛЕМЫ ВОСПИТАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ДВИГАТЕЛЬНЫХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ ОТДЕЛЕНИЯ “АКТЕР ТЕАТРА КУКОЛ”

Аннотация. В данной статье автор ведет речь об особенностях и проблемах воспитания специальных двигательных навыков у студентов отделения “Актер театра кукол”.

Ключевые слова: театр кукол, сценическая пластика, мастерство актера, физиология, культура тела.

“QO‘G‘IRG‘OQ TEATRI AKTYORI” TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARIGA MAXSUS HARAkat KO‘NIKMALARINI BERISH XUSUSIYATLARI VA MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif qo‘g‘irchoq teatri aktyori bo‘limi talabalarida maxsus vosita mahoratini rivojlantirishning xususiyatlari va muammolari haqida so‘z yuritadi.

Kalit so‘zlar: qo‘g‘irchoq teatri, sahna plastikasi, aktyor mahorati, fiziologiya, tana madaniyati.

FEATURES AND PROBLEMS OF DEVELOPING SPECIAL MOTOR SKILLS AMONG STUDENTS OF THE PUPPET THEATER ACTOR DEPARTMENT

Abstract. In this article, the author talks about the problems of developing special motor skills among students of the Puppet Theater Actor department.

Key words: puppet theater, stage plasticity, actor's skill, physiology, body culture.

Уроки ритмики, танца, сценического движения для студентов, обучающихся на отделении «Актер театра кукол» – не только живое взаимодействие музыки и пластики тела, но и необходимое условие формирования главного навыка актера-кукольника – «Чувство куклы». К сожалению, еще существует стереотип, что театр кукол как бы очень примитивный, не требующий особых талантов. Иногда приходится слышать от некоторых «театральных деятелей»: «Не надо усложнять, это же кукольные», или «у тебя не получится, переводись на кукольное отделение» и так далее.

К удивлению общее количество часов, выделенных на ритмику, танец, сценическое движение, фехтование для отделения «Актер театра кукол» существенно уменьшились за последние годы, и разнятся с количеством часов по сравнению с другими отделениями. Хотя кому, как не кукольникам жизненно необходимы все «движенческие» дисциплины. Здесь студенты учатся понимать технологию движения тела, ритмические особенности и стилистику музыкального произведения, получают практические знания и представления о классическом, узбекском и народно-характерном танце, получают навыки сценического боя.

Танец, как никакое другое искусство, способен вызывать яркие, высокой интенсивности эмоции. Чем ярче, эмоциональнее музыка, тем больше она способствует усвоению танцевальных и пла-

стических движений. Хореография – это содержательное искусство, требующее хорошей техники и выразительности тела. В современном театре кукол существует такое понятие как «живой план» и, собственно, сама кукла. Очень часто режиссеры в спектакле совмещают различные системы кукол и «живой план». И это очень непросто. Актер должен уметь моментально переключать свое внимание с куклы, имеющей свою форму – «тело», на себя, движения собственного тела. Необходимы особые биомеханические возможности актера, умение быстрого перераспределения центра тяжести своего тела и тела куклы. Практически во всех спектаклях театра кукол используется танец, как один из самых выразительных средств. Причем как в куклах, так и в «живом плане». Форма (скульптура куклы) есть способ раскрытия содержания.

Танец – скульптура в движении (кукла скульптура тоже), пластика – в динамике. Фридрих Ницше однажды заметил, что «в танце тело становится художественным произведением, а значит, выражает идею, мысль» [1]. Задача педагогов состоит не только в формировании физического аппарата будущего актера, готового выполнять любые задачи режиссера, но и помощь в воспитании активного творческого желания. Примеры последних постановок в театрах кукол Узбекистана говорят о необходимости серьезного

подхода к обучению студентов в области сценического движения, боя и фехтования.

В сентябре 2023 года на сцене Национального театра кукол Узбекистана состоялась премьера спектакля «Гамлет» (режиссер Заслуженный артист Узбекистана Ш.Ю.Юсупов). В этой постановке используются различные приемы театра кукол: планшетные куклы, маски и «живой план». Помимо элементов пантомимы режиссер использует сцену фехтования с эффектами сценического боя. Актеры: Мамашарипов Хусан и Масалимов Ильхом великолепно справились с поставленной задачей. Но это выпускники старой школы, готовы ли современные выпускники выполнить хотя бы элементы этого боя? Очень сомневаюсь. Необходимо готовить психотехнику студента для творческих испытаний, нестандартных актерских и сценических решений. Профессия актера театра кукол предполагает умение анализировать и синтезировать собственные двигательные навыки и применять их в работе с куклой.

«Это профессия «инструменталистов»: с одной стороны, творческим инструментом является сам актер, его психическая и физическая сущность – эмоциональность, внимание. Воля, выносливость, воображения, мысль, рефлексия, ловкость, которые всегда должны находиться в «рабочей» готовности. Инструментом является и сама кукла, которая требует, чтобы ее то держали высоко поднятой вверх, то водили на «нитях», то на трости, но помимо этого играющий должен хорошо уметь «играть» на ней. А для этого нужны техничность, ловкость, познания, тренинг...» [2].

С первых уроков развиваются выразительные и изобразительные возможности тела, пластика и техника рук с помощью различных тренингов, этюдов и упражнений. Рука актера кукольника должна обладать не только способностью действовать, но и талантом изображать. Артистам театра кукол нужно заниматься жонглированием, или различными видами рукоделия и лепки (там, где необходима мелкая моторика рук), ведь иногда сами руки могут стать куклой. Кроме того, работа с куклой требует координации и силы рук, так как иногда куклы бывают достаточно тяжелы и громоздки, сложны в управлении. Будущий актер за время обучения должен овладеть внутренней и внешней актёрской техникой, включающей пластическую выразительность тела, культурой сценической речи, навыками сольного и ансамблевого пения, научиться управлять куклами разных систем: перчаточной, тростевой, планшетной и марионеткой.

Одна из больших проблем в подготовке будущих кукольников, это оторванность физических тренингов от актерских задач. Часто педагоги проводят «разминку», так называемые «экзерсисы» только для общего разогрева тела или дают тренинги по общей физической подготовке. Конечно хорошо, когда у актера развит телесный аппарат. Каждое движение на занятиях по пластике или

танцу должно производиться со сценической задачей (что не отменяет техники и методики исполнения движения). Необходимо постоянно вызывать у студента пластическое воображение, будь то тело актера или тело куклы. *«Кукла должна уметь разговаривать пластикой своего тела, как в балете. Ее жест, поворот головы, походка, все должно быть очень выразительно. Великая русская балерина Екатерина Максимова, говорила, что театр кукол сродни балетному искусству. Поэтому актёр театра кукол обязательно должен красиво двигаться, а для этого нужно заниматься пластикой и изучать танец» [3].*

Профессия актера театра кукол требует знаний, трудолюбия и таланта. Избравший ее должен быть человеком высокой культуры, в совершенстве владеющим основами профессионального мастерства. Должен уметь, понимать, чувствовать и воспроизводить всевозможные движения куклы, жесты, позы, присущие людям самых различных характеров. Сложность обучения актеров кукольников состоит в отсутствии целостности развития актерской психики и физики. Недостаточность двигательных умений существенно ограничивает развитие профессионального мастерства. Актер кукольник на сцене одновременно выполняет несколько видов двигательной деятельности: движения куклы, движения собственного тела, речь, вокал, общение с партнерами.

В процессе оживления куклы хороший актер вынужден автоматизировать часть своих действий, чтобы освободить свое сознание для творческого процесса, импровизации. А это невозможно без грамотной, физической подготовки. Имея правильные навыки движения в различных сферах сценического движения, пластики тела, танца (умение находить центр тяжести куклы и своего тела, координация, чувство ритма, развитое пластическое воображение, скульптурность позы и точность жеста), актер может достичь высокого уровня мастерства в своей профессии.

«Очевидными задачами являются: оснащение актера программой и комплексами упражнений для постоянной работы над собой; воспитание в актере потребности в такой работе; доведение процесса работы над телесным аппаратом «до органического перерождения самой природы» телесности актера» [4].

Использованная литература:

1. Фридрих Ницше «Так говорил Заратустра» <https://arzas.academy/materials/1424>
2. Анастасия Савинова-Семенова «О двигательной культуре актера театра кукол». РОСА. – Москва. 2018 г. С.95.
3. Оксана Колабская. «Чудеса искусства. Подарок великого актера». С.5 <https://booksonline.com.ua/>
4. Дроздин А.Б., профессор Театрального института им. Б.Щукина. «Физический тренинг актера по методике Андрея Дроздина», «Я вхожу в мир искусства». – М.: ВЦХТ, 2004 г. С.11.

UMUMTA'LIM MAKTABLARI MUSIQA DARSLARIDA FOLKLOR QO'SHIQLARINI O'RGATISH ORQALI O'QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH

Annotatsiya. Xalq ta'limi tizimini demokratik tamoyillarga asoslangan, dunyo andozalariga mos keladigan qilib keng isloh qilishda, o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk inson qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida milliy madaniy va musiqiy merosimiz namunalarini hisoblangan "folklor" san'ati va ularda ilgari surilgan g'oyalarning tarbiyaviy jihatlarini hamda shaxs kamolotidagi ahamiyatini dars faoliyati jarayonida keng targ'ib qilish uchun ilmiy pedagogik xususiyatlarini ochib berish muhimdir.

Kalit so'zlar: umumta'lim maktablari, musiqa darslari, multimedia vositalari, folklor qo'shiqlari, pedagogik xususiyatlar.

ВОСПИТАНИЕ СТУДЕНТОВ В ДУХЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ ЧЕРЕЗ ПРЕПОДАВАНИЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ ПЕСНЕЙ В МУЗЫКАЛЬНЫХ КЛАССАХ ВУЗОВСКИХ ШКОЛ

Аннотация. В условиях широкой реформы системы народного образования, основанной на демократических принципах и соответствующей мировым стандартам, важно воспитать из учащихся морально зрелых людей. В связи с этим важно раскрыть научно-педагогические особенности искусства «фольклора», являющегося образцами нашего национального культурно-музыкального наследия, и воспитательные аспекты выдвигаемых в них идей, а также значение развития личности на уроках музыкальной культуры общеобразовательных школ.

Ключевые слова: общеобразовательная школа, уроки музыки, мультимедийные средства, фольклорные песни, педагогические особенности.

EDUCATION OF STUDENTS IN THE SPIRIT OF NATIONAL VALUES THROUGH TEACHING FOLKLORE SONGS IN MUSIC CLASSES OF UNIVERSITY SCHOOLS

Abstract. In the wide reform of the public education system based on democratic principles and conforming to world standards, it is important to educate students to be morally mature people. In this regard, it is important to reveal the scientific and pedagogical features of the art of "folklore", which are examples of our national cultural and musical heritage, and the educational aspects of the ideas put forward in them, as well as the importance of personal development in the music culture lessons of secondary schools.

Key words: general education schools, music lessons, multimedia tools, folklore songs, pedagogical features.

Bugungi kunda yangi O'zbekistonning ta'lim tizimida dunyo andozalariga mos ravishda keng islohatlar amalga oshirilmoqda. Shu ma'noda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, demokratik tamoyillarga asoslanuvchi mazkur islohatlar insonparvar, demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirish sifatida e'tirof etilmoqda. Fuqarolik jamiyatning rivojlanishi, eng avvalo, ushbu jamiyatda yashayotgan barcha fuqarolarning ma'naviy-axloqiy jihatdan mukammal, yuksak darajadagi aqliy

salohiyatga ega ekanligiga bog'liqdir. Ijobiy mazmun kasb etuvchi ijtimoiy-axloqiy me'yorlar, qarashlarning yuzaga kelishida milliy madaniy-musiqiy meroslar o'ziga xos o'rin tutadi.

Milliy madaniy va musiqiy merosimiz namunalarini hisoblangan "folklor" san'ati va ularda ilgari surilgan g'oyalarning ijtimoiy jamiyatda taraqqiyoti hamda shaxs kamolotidagi roliga yuqori baho berar ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil apel oyida Termizda bo'lib o'tgan Xalqaro baxshichilik san'ati festivalida so'zlagan nutqida: *"Folklor san'ati bu – insoniyatning bolalik qo'shig'idir"*¹, – deb aytib o'tgan so'zlarida haqiqatan ham katta ma'no bor. Shu ma'noda musiqa ta'limining

¹ Mirziyoyev Sh.M. Termizda bo'lib o'tgan Xalqaro baxshichilik san'ati festivalida so'zlagan nutqi. 2019-yil, 7-apel. www.gazeta.uz

milliy meros, xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, milliy madaniyat namunalarini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotining o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmat qilishga yo'naltirilgan yangi tarbiya tizimining amalga oshirilishi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash imkonini berdi.

Yetuk va barkamol yosh avlodni tarbiyalash borasidagi muhim vazifalar ta'lim muassasalarining, ayniqsa, umumta'lim maktablari zimmasiga yuklanmoqda. Ana shunday vazifalardan biri – umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida folklor qo'shiqlarini o'rgatish, o'quvchi-yoshlarga milliy musiqiy merosimiz, xususan, milliy musiqiy an'analarimiz, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ularda ilgari surilgan tarbiyaviy g'oyalar to'g'risida nazariy va amaliy ma'lumotlar berish, folklor qo'shiqlarini ijro etish layoqatini va ishtiyoqini hosil qilish, ijrochilik ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida folklor qo'shiqlari vositasida o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash boshqa tarbiya vositalariga qaraganda samaraliroqdir. O'zbek xalq musiqa san'atining boy qadriyatlari hisoblangan folklor qo'shiqlari mazmunida shaxs kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi ma'naviy-axloqiy qarashlar mujassamlashgan bo'lib, muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Chunonchi, folklor qo'shiqlar mazmunida farzandning ota-onalariga hurmatlarini saqlash, qarindosh-urug' hamda qo'ni-qo'shnilar bilan samimiy munosabatda bo'lish, ularga g'amxo'rlik, mehribonlik, mehr-oqibat ko'rsatish, quvonch-u tashvishlariga sherik bo'lish, dillariga ozor yetkazmaslik, ko'ngillarini shod qilish, ona Vatanga muhabbat, yurtni ulug'lash, sadoqat, mehnatsevarlik, insonpararlik kabi g'oyalar ilgari suriladi.

Folklor qo'shiqlari xalqning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi, etnopsixologik xususiyatlari, hayotiy tarixiy tajribasi, urf-odat, milliy an'analari, ijtimoiy qarash, maqsad hamda uni amalga oshirish yo'lida tashkil etiladigan faoliyat yo'nalishlari, shaxsga ta'lim va tarbiya berish an'analari asosida shakllangan bo'lib, asrlar davomida tarixiy vorislik tamoyiliga muvofiq avloddan avlodga o'tib kelmoqda.

Folklor qo'shiqlarida aks etgan o'zaro uyg'unlashgan so'z va ohangning ta'sir kuchi, tarbiyaviy imkoniyati beqiyosdir. Ular yordamida ifoda etilgan o'git, pand-nasihat shaxs tomonidan tez qabul qilinadi. Ushbu holat o'quvchi shaxsining psixologik xususiyatlariga bog'liq holda kechadi. Musiqiy ohangni anglash, musiqiy asarlar mazmunini tushunish, o'quvchi shaxsining estetik his-tuyg'ularini tarbiyalash, ijtimoiy borliqqa nisbatan mas'uliyatli yondashuv ko'nikmalarini hosil qiladi. Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida folklor qo'shiqlarini o'rgatish vositasida o'quvchi-yoshlarni ma'naviy jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonning samarali amalga oshirilishi bir qator omillarning mavjudligini taqozo etadi. Xususan:

- *musiqa o'qituvchilari folklor qo'shiqlarining tub mohiyatini chuqur anglay olishlari;*

- *ijro etiluvchi qo'shiqlardan namuna ko'rsatish asosida ijro etib berish;*

- *ularning ijro etish usullari xususida o'quvchilarga uslubiy yo'l-yo'riq ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.*

Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida folklor qo'shiqlarini o'rgatish musiqiy an'analarining mazmunini chuqur o'rganish, ularning imkoniyatlaridan ta'lim-tarbiya, shu jumladan, o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash jarayonida samarali foydalanish va folklor qo'shiqlarini o'rgatishning ilmiy pedagogik xususiyatlarini ochib berish tadqiq etilishi zarur bo'lgan muammolardan biridir.

Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida folklor qo'shiqlarini o'rgatish vositasida o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda ma'lum vazifalar qo'yadiki, bunda turli xildagi qiyinchiliklarning vujudga kelishi o'z-o'zidan ravshandir. Mamlakatimizda amal qilgan musiqiy-estetik ta'lim tarixining tahlili shuni ko'rsatadiki, folklor qo'shiqlarini to'plash, notaga olish, nashr etish ishlari yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, musiqiy tarbiya yo'nalishi milliy asosga qurilmaganligi natijasida bu bebaho boyliklar tarbiya tizimidan chetlashib qoldi. Yevropa musiqa san'atining ta'siri natijasida vujudga kelgan vokal, xor, opera, balet, estrada, simfonik orkestrlar ijrochiligi bosh yo'nalishda taraqqiy etdi. Tabiiyki, musiqa va estetik tarbiyaga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ham asosan shu yo'nalishda bo'ldi. Bu san'at turlarini kamsitmagan va bu borada yaratilgan tadqiqotlar ahamiyatini pasaytirmagan holda ta'kidlash lozimki, yuqorida sanab o'tilgan san'at turlari bo'yicha bajarilgan tadqiqotlar san'atshunoslik yo'nalishida qilingan bo'lib, o'zbek xalq musiqasi, uning janr xususiyatlari, kuy tuzilishi, ijrochilik usullari, rivojlanish yo'llari, qo'shiqchilik bobida uning ayrim turlarini izchil tadqiq qilinishi bizning ishimizda foydali ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan barcha tarixiy, madaniy, adabiy, san'at yodgorliklari va xalq og'zaki ijodini chuqur o'rganish, tahlil qilish, ulardagi umumbashariy va milliy g'oyalarning zamonga xizmat qildirgan holda o'zbekona, sharqona tafakkurni, g'ururni shakllantirish va kamolga yetkazish doimiy e'tiborda bo'lmoqda. Bu o'z navbatida, xalqimizning tarixiy an'analari, ma'naviy va madaniy merosidan oqilona foydalanish ko'lami va sifatiga ham bog'liqligini ko'rsatmoqda. Chunki xalqimizning tarixiy an'analari, ma'naviy va madaniy merosi millatning, jamiyatning milliy mafkurasini shakllantiruvchi tarbiyaviy quroldir. Bu meroslar tizimida badiiy-musiqiy qadriyatlar ham o'z o'rniga va nufuziga ega.

Ayniqsa, madaniyat va san'at sohasida, musiqa sohasida deyarli barcha o'quv dasturlari, o'quv mashg'ulotlarining repertuarlari, musiqa jamoalari, maktablarning musiqa darsliklaridagi asarlar bugungi kunda o'zbek milliy madaniyati asosida yozilgan namunalar bilan shakllantirilmoqda. Muayyan xalqning milliy ruhi, madaniyati, tarixi, turmush tarzi, urf-odatlar, hayotiy falsafasi va nihoyat, eng muhimi, shu xalqning qalbini o'zida mujassam etuvchi milliy musiqa va qo'shiqlariga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Shu ma'noda, qadimgi ajdodlarimiz milliy madaniyat, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi vositasida komil inson haqida bir butun ma'naviy-axloqiy, estetik talablar majmuasini, zamonaviy til bilan aytganda, sharqona axloq, odob, estetik kodeksini ishlab chiqqanlar.

Shunday ekan, O'zbekiston Oliy, o'rta-maxsus va xalq ta'limi tizimida ma'naviy, axloqiy, estetik tarbiya masalalariga bugungi tamoyillar nuqtayi nazaridan qaralishida komil inson tarbiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi xalq donishmandlarining bebaho manbai hisoblangan xalq og'zaki ijodining folklor janri eng muhim boylik hisoblanadi. Folklor badiiy so'z va musiqa san'ati, shuningdek, madaniyatining eng qadimgi va uzoq tarixga ega bo'lgan sohasidir. Folklorshunoslikda "xalq ijodi" atamasining mazmun-mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari va bu tushunchaning ma'nosi haqida turli xil fikrlar bildirilgan bo'lsa-da, xalq ijodiyotining, jumladan, folklor qo'shiqchilik san'ati va madaniyatining o'ziga xos tabiati va yetakchi xossalari to'la ochib berilmagan. Ongning rivojlana borishi, mehnat jarayonida insonning tajribasini ortib borishi, tabiat va jamiyat haqidagi fikr, tushunchalarni obrazli so'zlar orqali tasvirlashga intilishi og'zaki ijod shaklini paydo bo'lishiga hamda folklor qo'shiqchilik san'ati va madaniyatini yuzaga kelishiga turtki bo'lgan.

Folklor qo'shiqchilik san'ati – mehnatkash xalq ijodi. Xalq badiiy-musiqiy qo'shiqchilik faoliyatining tarkibiy qismi, xalq san'atining boshqa turlari – dramatik teatr, tasviriy va amaliy san'at, raqsdan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan badiiy-musiqiy va ijroviy san'atdir [4]. Folklor qo'shiqlari, shu jumladan, folklor qo'shiqlari xalqning ijodiy mahsuli sifatida shakllanib, avloddan avlodga, davrdan davrga o'tib iste'dodli vakillari ijrosida sayqal topib, o'zbek xalq poetik-musiqiy ijodi ko'rinishini tashkil etgan.

Folklor qo'shiqlari dastlab qanday yaratilgan bo'lsa, o'sha holicha saqlanib qolmagan, albatta. Xalq tomonidan va xalqning iste'dodli qo'shiq ijrochi vakillari tomonidan qayta ishlanib, turli o'zgarishlar kiritilgan. Yangi-yangi ma'lumotlar bilan boyib, tarix sharoitiga, jamiyatga moslashib kelgan hamda so'z, kuy va ijro birligi doimo saqlangan.

Folklor qo'shiqchilik san'ati asoslari uzoq o'tmishda yashab o'tgan xalqimizning estetik tafakkuriga borib taqaladi [7]. O'tmishda sayyohlar va tarixchilarning afsona va rivoyatlar, turli urf-odat va marosimlar haqidagi yozma va og'zaki yodgorliklari folklor qo'shiqchilik san'ati uchun muhimdir. Manbalarda yozilishicha, folklor qo'shiqlarini yozib olishdagi birinchi tajribalar XI asrdan boshlab amalga oshirilgan.

Folklor qo'shiqlari mehnatkash xalq, bolalar hayoti va turmush tarzini aks ettiradi. Xalqning olam haqidagi umumiy tushunchalarini, ijtimoiy-tarixiy, siyosiy, falsafiy va badiiy-estetik hamda musiqiy qarashlarini o'zida mujassamlantirgan. Bularning barchasi folklor qo'shiqlari mazmuni va g'oyasining chuqur xalqchilligini ko'rsatadi. Qo'shiqlardagi xalqchilik asosini uning progressiv mazmun-mohiyati tashkil qiladi.

Folklor qo'shiqlari o'z xususiyatiga ko'ra o'zbek xalqining badiiy-musiqiy ijodi sifatida asrlar davomida

yaratilgan jamoaning ijod mahsulidir. Chunki folklor qo'shiqlari boshqa folklor asarlari kabi bir kishi tomonidan emas, balki butun bir jamoaning ijodiy tajribasi asosida vujudga kelgan va jamoa tomonidan ijro etib kelingan. Ikkinchi tomondan qaralganda esa, folklor qo'shiqlarining ba'zi birlari iste'dodli kishilar tomonidan yaratilib, o'z qabilasi, urug' odatlari, e'tiqodlari, orzu-istaklari, tabiat bilan bo'lgan munosabatlari aks ettirilgan. Qabila va urug' a'zolariga ma'qul tushgan shu xildagi qo'shiqlar og'izdan og'izga o'tib, jamoa ijodiga aylangan. Qo'shiqlar shu tariqa jamoa orasida takomillashib, sayqal topib xalqning folklor mulkiga aylangan. Yakka ijodkor, qo'shiq ijrochisi qanchalik iste'dodli bo'lmasin, jamoa ijodi va ijrosining an'analariga bo'ysungan, xalq hayoti, xalq didi va talabiga moslashishga harakat qilgan [8].

O'zbek folklorshunosligi, jumladan, folklor qo'shiq san'atining bir qator materiallari xususidagi qarashlar, qimmatli ma'lumotlar o'rta asr tarixchilari Hamza al-Isfahoniy, Tabariy, Mas'udiy, Beruniy va boshqalarning asarlarida ko'zga tashlanadi. "Avesto", "Behistun", "Bundaxishi", "Denkard" kabi yozma yodgorliklarda og'zaki adabiyotning ba'zi bir namunalari o'rin olgan. Turkiy xalqlarining xalq og'zaki ijodini avloddan avlodga yetkazishda alohida o'rin tutadigan olimlarimizdan biri, O'rta O'siyo xalqlarining atoqli farzandi Mahmud Qoshg'ariy o'zining mashhur lingvistik asari hisoblangan "Devonu lug'otit turk" asarida qadimgi qo'shiq, lirik she'r va maqollardan turli namunalar beradi. Manbalarda yozilishicha, Mahmud Qoshg'ariy yuqori Chindan boshlab to Movarounnahr, Xorazm, Farg'onaga qadar cho'zilgan hududni birmabir kezib chiqib xalqni yashash tarzi, kasb-kori, urf-odatlar, madaniyati va san'atini o'rgangan. To'plagan manbalarida mehnat qo'shiqlari xususida to'xtalib: mehnat qo'shiqlarida mehnat bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar, kishilarning mehnatga bo'lgan munosabati, mehnat mashaqqatlarini yengillashtirishga, hordiq chiqarishga, yoshlarni mehnatga ko'niktirishga va o'rgatishga yordam berayotganligini ifodalaydi.

Umuman olganda, o'zbek folklor qo'shiqchilik san'ati singari folklor qo'shiqchiligi ham uzoq tarixdan e'tiboran xalq ijodiyotiga kirib kelganligiga guvoh bo'lamiz. O'zbek xalq og'zaki ijodining musiqa san'ati va madaniyati bilan bog'liq bo'lgan afsona va rivoyatlar mashhur tarixiy siymolar Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Ulug'bek, Mashrab va boshqalar nomi bilan yaratiladi. Amir Temur o'z safarlarini baxshilarga doston qilib kuylashni topshirgan, To'xtamish saroyida Kamolzoda va Jahon Mirzo kabi jirovlar bo'lgan xalq dostonlariga yaqin shaklda yozilgan "Abo Muslim" kitobi XII asrda yaratilgan. Doston o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biri bo'lsa-da, kichik shaklidagi folklor qo'shiqlarining yuzaga kelishiga ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shu xildagi holatlar folklor qo'shiq san'atining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib kelgan, deb bilamiz.

Folklor (inglizchadan folk – "xalq", lore – "bilim", "donolik") xalq ijodini ifodalovchi termin. Fanga 1846-yilda ingliz arxeologi Villiam Thoms olib kirgan. 1880–1990-yillarda "folklor" termini ko'plab

mamlakatlarda, jumladan, Rossiyada ham qo'llana boshlagan. O'zbekistonda dastlab, "og'zaki adabiyot", atamaları qo'llangan. "Folklor" termini 30-yillarning o'rtalaridan ishlatila boshlagan. 1939-yilda Hodi Zarifning "O'zbek folklori" xrestomatiyasi nashr etilgach, bu termin o'zbek folklorshunosligida mustahkam o'rin oldi [6].

Agar ijodkor xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuchi va jozibasiga qadim zamonlardan ishongan deb aytadigan bo'lsak, unda xalq o'zining eng noyob folklor janridagi qo'shiqlarini so'z mo'jizasi va musiqaning sehrli ohangi bilan bunyod etgan. Shu xildagi bunyodkorlikning "Mavrigi", "Buxorcha" va bulardan tashqari bolalar, yoshlar folklor qo'shiqlarida ham o'z ifodasini topgan. Ya'ni kattalar ijodkorligi bilan bir qatorda bolalar, yoshlar faoliyatida ham ijodiy ishlar shakllanib, rivojlanib kelgan. bolalar folklori aynan bolalar olami bilan kattalar dunyosining uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlarning butun bir tizimi tarzida tarkib topgan. Bolalar folklor qo'shiqlarini yaratishda kattalar ham bolalar ham birgalikda, baravar hissa qo'shgan. Bolalar folklor qo'shiqlari bolalarda eng yaxshi fazilatlarini – vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, kishilarga ishonch, do'stlarga sadoqat tuyg'ularini kattalar bilan birga tabiatning salbiy hodisalariga qarshi kurashish va ularni yengish malakasini tarbiyalaydi. Kattalar kichik yoshdagi bolalarni erkalash she'rlarini yaratishganki, alla, aytim, olqish, ovutmachiq singari erkalash xususiyatlariga ega bo'lgan bu janrlar onalik folklori tarzida ifodalangan.

Folklor qo'shiqlari namunalarini o'rganish shundan dalolat beradiki, kishilar o'z mehnatlarini, turmushdagi barcha voqealarni qo'shiq bilan bezaganlar. Yuqorida qayd qilib o'tilganidek, folklor ijodiyoti boyliklari ichida kattalardan maktab yoshidagi bolalarga meros qoladigan qo'shiqlarning salmoqli turi mehnat

qo'shiqlaridir. Mehnat qo'shiqlari xalq she'riyatining eng avvalgi turlaridan biri bo'lib, ularning yaratilishi va ijro etilishi kattalarning hamda bolalarning mehnat jarayoni bilan bog'liqdir. Bolalar dehqonlarni, hunarmandlarni ishlab turib qo'shiq aytganlarini ko'rgan, eshitgan, zavqlanib o'zlari ham she'rlar to'qigan va kuyga solib ijro etib yurgan. Qo'shiqning kattalar mehnatlarini yengillatganligi, ayrim so'zlari, undov nidolari ko'pchilikni baravar harakat qilishga da'vat etgan holatlari bolalar folklor qo'shiqlarida ham ko'zga tashlanadi. Shu sababdan ko'p qo'shiqlardagi so'zlar, vazn, qofiya ixcham, aniq bo'lgan. Ayrim so'zlar vaqti-vaqti bilan takrorlanib, hayqiriq, chaqiriq va mamnunlikni bildiruvchi nidolar alohida ohangda aytilib turilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Termizda bo'lib o'tgan Xalqaro baxshichilik san'ati festivalida so'zlagan nutqi. 2019-yil, 7-apel. www.gazeta.uz
2. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2000-y. 245-b.
3. Begmatov S. 6-sinf musiqa madaniyati darsligi – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017-y.
4. Madrimov B.X. Xalq musiqa folklori vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari. Pedagogika fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun Aftoreferat. – T.: 2008-y. 22-b.
5. Ochilov M., Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi (Darslik). – T.: "Aloqachi", 2008-y. 304-b.
6. Umarov E. Estetika (Nafosatshunoslik). Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. – T.: "O'zbekiston", 1995-y. 246-b.
7. O'zbek folklor qo'shiqlari (Ovoz va fortepiano uchun). I qism. – T.: "O'z Davnashr", 1959-y. 65-b.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA SINFDAN TASHQARI MUSIQA MASHG'ULOTLARI ORQALI O'QUVCHILARNI ESTETIK TARBIYALASH

Annotatsiya. Maqolada sinfdan tashqari tarbiyaviy va ta'limiy ishlarning mazmuni, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va ularning ish faoliyatini turli xil faoliyat asosida pedagogik jihatdan tashkil etish mazmuni ochib berilgan. Shu bilan birga o'quvchilarni musiqa to'garaklari mashg'ulotlari orqali estetik tarbiyalashning shakl va metodlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: sinfdan tashqari ishlar, musiqa to'garaklari, shakl, metod, tarbiyaviy ishlar, to'garak rejasi, o'quvchilar, to'garak rahbari, vazifalar.

ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ УРОКИ МУЗЫКИ ВНЕ КЛАССА В ВУЗАХ

Аннотация. В статье раскрывается содержание учебно-воспитательной работы вне урока, осмысленное проведение свободного времени учащихся и педагогическая организация их работы на основе различных видов деятельности. При этом выделены формы и методы эстетического воспитания студентов посредством музыкальных кружков.

Ключевые слова: внеклассная работа, музыкальные кружки, форма, метод, образовательная деятельность, план кружка, обучающиеся, руководитель кружка, задачи.

AESTHETIC EDUCATION OF STUDENTS THROUGH MUSIC LESSONS OUTSIDE THE CLASSROOM IN HIGH SCHOOLS

Abstract. The article reveals the content of educational and educational work outside the classroom, meaningful spending of students' free time and pedagogical organization of their work based on various activities. At the same time, the forms and methods of aesthetic education of students through music clubs are highlighted.

Key words: extracurricular activities, music clubs, form, method, educational activities, club plan, students, club leader, tasks.

Sinfdan tashqari ishlar mazmuni – umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biridir. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni komil inson sifatida shakllanishiga va ularni mustaqil hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratib beradi. Sinfdan tashqari ishlarga o'quvchilar bilan birga olib boriladigan va ularga ta'lim-tarbiya berishga va estetik tarbiyalashga qaratilgan turli yo'nalishdagi mashg'ulotlar tizimi kiradi. Bu mashg'ulotlar pedagogik faoliyat yuritayotgan jamoa, sinf rahbari hamda ma'naviyat boshliqlari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtirib boriladi. Maktabda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda musiqa to'garagi mashg'ulotlari katta yordam beradi [3]. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllariga ommaviy ishlar, tadbirlar, tanlovlar, davra suhbatlari, ko'rgazmalar, kitob taqdimotlari, tabiat qo'yniga sayohat, ochiq eshiklar, muzeylarga sayohat, tarixiy obidalarga ekskursiyaga chiqishlar, to'garak mashg'ulotlari, mustaqil ishlar (o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishi, kolleksiya to'plashi, texnika, musiqa, tasviriy san'at, chizmachilik bilan mustaqil shug'ullanishi)ni kiritish mumkin [1].

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va ularning ish faoliyatini turli xil faoliyat turlari asosida tashkil etishdan iborat. Bu imkoniyatlar quyidagilardan iborat: birinchidan, turli xil o'qishdan tashqari faoliyat o'quvchining individual qobiliyatlarini har tomonlama ochib berishga, o'zlariga ishonchni paydo bo'lishiga imkon yaratadi. Ikkinchidan, o'quvchilarni turli xil sinfdan tashqari ishlarga jalb qilish ularning insoniy fazilatlarini va shaxsiy tajribasini, rang-barang faoliyatini va bilim, ko'nikmalarini boyitib boradi. Uchinchidan, turli xildagi sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarda xilma-xil faoliyat turlariga bo'lgan ishtiyoqi va qiziqishini oshirishga yordam beradi. O'quvchilarda mehnat qilishga qiziqishi shakllangan bo'lsa, ular o'z faoliyatlarini o'zlariga mustaqil ravishda tashkil etishlari mumkin. To'rtinchidan, o'quvchilar turli xil sinfdan tashqari ishlarda ishtirok etish bilan birga o'zlarining individual xususiyatlarini namoyish etishga va boshqalar bilan hamkorlik qilishga, o'z o'rtoqlari haqida qayg'urishga o'rganadilar. Shu bilan birga sinfdan tashqari ishlarning har bir turi ijodiy, bilimga qaratilgan, sport, mehnat, o'yin harakatlarida

bo'lib, o'quvchilarning muayyan yo'nalishidagi o'zaro hamkorlik tajribasini boyitadi. Sinfdan tashqari ishlar bir tomondan o'quv jarayonini rivojlantirishga ishlasa, boshqa tomondan o'quvchilarning tarbiyaviy tomonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifalari. Butun bir ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonning maqsad va vazifalariga o'ziga xos xarakter beradi va ularni amalga oshirish uchun uzviy xizmat qiladi. Masalan, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar faoliyatida ta'lim berish birinchi darajali ahamiyat kasb etmaydi [3]. Sinfdan tashqari ishning ta'lim berish vazifasi ilmiy bilimlar sistemasini o'quv ko'nikma va malakalarini shakllantirishdangina iborat emas, balki o'quvchilarni estetik tarbiyalash va shu bilan birga muayyan xulq-atvor malakalariga jamoaviy hayotiga muayyan ko'nikmalariga o'rgatishdan ham iborat. Sinfdan tashqari ishda uning rivojlantiruvchi vazifasi katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifasi o'quvchilarning individual qobiliyatini rivojlantirishdan ham iborat.

Tarbiyaviy vazifalarni o'rganish. Bu bosqich o'quvchilarning va sinf jamoasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga qaratiladi. Bundan ko'zda tutilgan maqsad pedagogik reallikni obyektiv baholash, undagi ijobiy jihatlarni (o'quvchidagi, jamoadagi eng yaxshi tomonlar)ni hamda nimalarni tuzatish, shakllantirish va eng muhim vazifalarni aniqlashdan iborat. O'rganish ishlari pedagogik tadqiqotlarda ma'lum bo'lgan metodlar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, kuzatish yordamida pedagog har bir bola va umuman jamoa to'g'risida axborot to'playdi. Suhbat axborot to'plovchi metoddir. Bunda suhbat faqat o'quvchi va sinf bilan emas, balki ota-onalar, sinfda ishlovchi boshqa o'qituvchilar bilan ham o'tkaziladi. Individual ishda bolaning faoliyati mahsulotlari: rasmlar, mayda-chuyda buyumlar, she'r, hikoya va hokazolar katta ahamiyatga ega. Jamoani o'rganishda sotsiometriya metodi axborot berish jihatidan ustun turadi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishni modellashtirish shundan iboratki, pedagog o'z xayolida muayyan shakl obrazini yaratadi. Bunda sinfdan tashqari ishning maqsadi, umumiy vazifalari mo'ljallanish sifatida foydalanilishi kerak. Umumiy maqsad – kirishimlilik sifatlarini tarbiyalash bo'lsin. Aniq maqsad – o'z-o'ziga baho berishni oshirish, xavotirlanish holatini yo'qotish, ya'ni ijobiy "Men" konsepsiyasini shakllantirish. Masalan, 1-sinf o'quvchilari xayrixoh, yoqimtoy, lekin bilimga intiluvchan emas. Sinfdan tashqari ishning umumiy maqsadi – bilishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, asosiy vazifa – rivojlantirish, aniq maqsad – o'quvchilarning ong-bilim doirasini kengaytirish, bilish faolligini shakllantirish. Sinfdan tashqari ishning maqsadi, vazifalari sinf va o'quvchilarni o'rganish natijalariga muvofiq ravishda uning mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari tanlanadi. Mazkur bosqich tarbiyaviy vazifalar, ularning mazmuni, shakllariga tuzatishlar kiritish va keyingi sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish uchun juda muhimdir.

Sinfdan tashqari ishlarning shakli va metodlariga to'xtalib o'tamiz.

I. Individual sinfdan tashqari ishlarning shakllari. Individual sinfdan tashqari tarbiyaviy ishning umumiy maqsadi – shaxsning to'laqonli rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish o'quvchida ijobiy "men" konsepsiyasini shakllantirish hamda uning shaxsidagi xilma-xil tomonlarni, individual imkoniyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Individual ishning mohiyati o'quvchilarni umumlashtirish, unda o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini tarbiyalash va estetik tarbiyalash ehtiyojini shakllantirishdan iborat. Individual ishning samaradorligi oldiga qo'yilgan maqsadga muvofiq ish shaklini aniq tanlashgagina emas, balki o'quvchini ma'lum bir faoliyat turiga jalb qilishga ham bog'liq. O'quvchi bilan olib boriladigan individual ish pedagogdan kuzatuvchanlikni, nazoratni, ehtiyotkorlikni, sermulo hazalikni talab etadi [3]. Uning samaradorligida pedagog bilan o'quvchi o'rtasida aloqa o'rnatilishi asosiy shartlardandir. Quyidagi shartlarga rioya qilingandagina bularga erishish mumkin:

1. *O'quvchining tuyg'ulari, kechinmalari, istaklarini to'la qabul qilish. Bundan tashqari, yosh xususiyatlariga g'ayriixtiyoriylik, shaxsiy tajribaning yetishmasligi, irodaning kuchsizligi, his-tuyg'ularning aql-idrokdan ustun kelishiga ko'ra bolaning kechinmalari alohida keskinlik kasb etadi va uning kelgusi taqdiriga muhim ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchining o'quvchini tushunishi va qabul qilishini ko'rsatishi juda muhimdir. Bu o'qituvchi o'quvchining xatti-harakati va ishlarini ma'qullaydi, degan gap emas.*

2. *Tanlash erkinligi. O'qituvchi har qanday yo'llar bilan muayyan natijaga erishishga intilmasligi kerak. O'qituvchi hech qachon o'quvchini majbur qilmasligi lozim. Har qanday tazyiq istisno qilinadi. O'qituvchi shuni yodda tutishi kerakki, o'quvchi shaxsiy qaror qabul qilish uchun to'la haqlidir. Pedagogning vazifasi – o'quvchini o'qituvchi taklif qilgan qarorni qabul qilishga majburlash emas, balki to'g'ri tanlash uchun barcha sharoitlar yaratishdir.*

3. *O'quvchining ichki ruhiyatini tushunish o'qituvchidan o'quvchi yuboradigan noverbal axborotni o'qiy bilishni talab etadi. Mazkur shartlarga rioya qilmaslik pedagog va bolaning muomalasida psixologik to'siqlar paydo bo'lishiga olib keladi.*

II. Sinfdan tashqari ommaviy ishlarning shakllari. Sinfdan tashqari ommaviy ish shakllari pedagogga har bir o'quvchiga jamoa orqali ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Bunday ishlar o'quvchilarni boshqalarni tushunish, jamoa bo'lib ishlashda birgalikda harakat qilishga, tengdoshlari va kattalar bilan hamkorlik qilishga o'rgatadi. Umumiy maqsadga erishish uchun har bir ishtirokchi o'zining hissasini qo'shishi lozim. Hamma bajarayotgan ishning muvaffaqiyati har bir ishtirokchining harakatiga bog'liq.

To'garak ishlarini tashkil etishda to'garak rahbari o'ziga ish rejasini tuzib olishi zarur. To'garak mashg'ulotlari o'quvchilar yoshiga qarab turli guruhlardan iborat bo'ladi. Maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilaridan va yuqori sinf o'quvchilaridan har

xil to'garaklar tuzish mumkin. Bundan tashqari har bir sinfning o'quvchilaridan tuzilgan alohida to'garaklar, musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishiga va qobiliyatiga qarab ham musiqa to'garaklari tashkil etilishi mumkin. To'garak jamoasi o'rtacha 10-16 kishidan iborat bo'ladi. Bu o'z navbatida qaysi to'garak turini tanlashga bog'liq. 10-16dan ortiq kishilik to'garak jamoasini boshqarish uchun rahbar ma'lum darjada mahoratli va tajribali bo'lishi talab qilinadi.

Inson shaxsini har tomonlama uyg'un kamolotini ta'minlashda san'atning, jumladan, musiqaning ahamiyati katta. Zero, san'at asarlari vositasida kishining badiiy dunyosi kengayib, ma'naviyati shakllanadi. Ma'naviyatni shakllantirish esa har bir davrning muhim vazifasi bo'lib, uni hal etish nihoyatda dolzarb. San'at vositasida musiqa madaniyati, estetik tarbiyalashda, bola shaxsining ma'naviyatini shakllantirishni izchil amalga oshirishda umumta'lim maktablarida tashkil etilgan musiqa to'garaklarining roli katta. Iste'dod tufayli respublika maktablarida musiqa ta'lim tarbiyasining yangi, Konstitutsiyasi qabul qilindi [5]. Musiqa dasturlari ishlab chiqildi. Musiqa darslarini milliy musiqa merosimiz ustuvorligida amalga oshirish yuzasidan uslubiy qo'llanma, tavsifanomalar nashriyotlarida chop etilmoqda.

Musiqa tarbiya tizimida asosiy omil hisoblanadi. Biroq musiqa tarbiyasi tizimida dars jarayonlarini to'ldiruvchi va boyituvchi yana bir omil mavjud bo'lib, u sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi tizimidir. Sinf dan tashqari musiqa tarbiyasining ahamiyati: birinchidan, o'quvchilarning badiiy ehtiyojini qondirish bo'lsa, ikkinchidan, sinfda olingan bilim va malakalarni boyitishni kengaytirish, boyitish va amaliy faoliyatga qo'llashdan iborat. Iqtidorli o'quvchilarni musiqiy rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib borishdan iboratdir. Sinf dan tashqari musiqa mashg'ulotlarining samaradorligiga erishish orqaligina o'quvchilar ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyati tarbiyalash maqsadini amalga oshirish ancha samarali bo'ladi.

Musiqa to'garagi rahbari faoliyatini kuzatish, tahlil etish natijalari ularni ixtisoslikning mazkur yo'nalishi sohasida maxsus tayyorgarlikka to'liq ega bo'lishi kerakligidan dalolat beradi. Bu ayniqsa, to'garak rahbarining sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi tizimiga kiradigan tadbirlarning ommaviy va to'garak ko'rinishlarini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarida namayon bo'ladi. Demak, sinfdan tashqari tarbiyaning ommaviy hamda to'garak shakllari mavjud. Ommaviy tadbirlar o'z mohiyatiga ko'ra ko'proq o'quvchilarni jalb qilishni taqozo etadi. Ammo ulardan qandaydir alohida qobiliyati maxsus musiqiy bilim va malakalar talab qilinmaydi. Bu tadbirlarga qo'shiq bayramlari musiqa haftaligi, san'at bayramlari, musiqiy ijodiy uchrashuvlar, ko'rik tanlovlar va boshqalar kiradi. Bu tadbirlar musiqiy tarbiya vazifasini bajarib, o'quvchilarning badiiy qiziqishlarini rivojlanishiga, ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga va o'quvchilarni estetik tarbiyalashga samarali yordam beradi.

Sinf dan tashqari musiqa tarbiyasining yana bir shakli, musiqiy to'garaklar bo'lib u an'anaviy

xarakterga ega. Uning tarkibiga xor, musiqa asboblari chalishni o'rganish, vokal-cholg'u dastasi, cholg'uchilari (dutorchilar, rubobchilar, doirachilar) dastalari kabi to'garaklar kiradi [2]. Musiqa tarbiyasining bu shakli ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. To'garaklarning asosi musiqa darslaridir. Chunki musiqa to'garaklariga layoqatli va musiqa darslariga to'la ko'nikmagan o'quvchilar jalb qilinadi. Dars har bir bolaning layoqati va qiziqishi hisobiga olinib uning xohishi bilan u yoki bu musiqa to'garagiga jalb qilinadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, mashhur san'atkorlar, ajoyib xonandalar ana shunday musiqiy to'garaklardan birida tarbiyalanib kamol topganlar. To'garak faoliyatini faollashtiradigan narsa maktab sahnasidir. Unda to'garakchilar sahnada ijro etish orqali qobiliyati, tomoshabinlarning esa ijrolarni tinglab va kuzatib musiqiy-estetik didlari rivojlanadi.

To'garak ishlari ham maxsus dasturlar va kalendar tematik reja asosida olib boriladi. Maktabdan tashqari musiqiy tarbiya muassasalarida qatnashadigan bolalar ham o'qituvchilar nazoratida bo'lib, maktab musiqa hayotiga ularning faol qatnashishini ta'minlash lozim. Ommaviy tadbirlardan erishilgan yutuqlar diplom yoki shahodatnomalar maktabning umumiy majlislarida ota-onalar ishtirokida e'lon qilinadi. Faol qatnashgan to'garak a'zolari rag'batlantiriladi. Pirovardida hisobot konserti beriladi. Umuman olganda, to'garak faoliyati maktab hayoti bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi. Dars singari xalq ta'limi tizimi tomonidan har bir to'garak turining o'quv dasturi chiqariladi. To'garak rahbari musiqa asarini dasturdan tanlab oladi. E'lon qilingan yangi asarlardan yana qo'shimcha tanlab olinadi va to'garak a'zolari bilan birgalikda repertuar rejasi va uni o'rganish belgilanadi. Shunday qilib, sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy tarbiya tizimlari o'quvchi-yoshlarni musiqiy madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Bu tizimlar muhim pedagogik yo'nalishlar bo'lib, uni takomillashtirish musiqa ta'limining dolzarb muammolaridandir.

Musiqa to'garagi rahbarining qilishi lozim bo'lgan vazifalari talaygina. **Birinchidan**, umumta'lim maktablarida darsdan tashqari musiqa to'garaklarida rahbar musiqa san'atining keng namunalardan foydalanishda ularni bir nechta mezonlar asosida qo'llashi maqsadga muvofiqdir.

1. *Musiqa to'garagi turlari bo'yicha tashkil etilgan musiqa to'garaklari a'zolarining iqtidorini aniqlash, musiqa asarlari repertuarini tanlash va o'quvchilarning qiziqishini va o'zlashtirishlarini hisobga olish;*

2. *Musiqa asarlaridan repertuar tanlashda o'quvchilarning musiqiy qobiliyatini, qiziqishini, ijrochilik imkoniyatlarini inobatga olish;*

3. *Repertuarlardan tanlangan asarlarni o'quvchilarning dunyoqarashi, tafakkurini, natijaviyligi bilan birga estetik tarbiyaviy ta'sirchanligiga ega bo'lish;*

4. *To'garak a'zolarida o'qishga ijodkorlikka, mehnatga, ijodiy izlanish, mustaqil ishlashga va ijtimoiy foydali ishlarga rag'bat uyg'otish;*

5. Musiqa asarlarini o'rganish orqali to'garak mashg'ulotlarida musiqa ta'limining boshqa tarkibiy qismlari (musiqa savodi, musiqa nazariyasi, musiqa adabiyoti, musiqa ijodkorligi)ni o'zlashtirish uchun ahamiyatliligiga e'tibor qaratish.

Ikkinchidan, musiqa asarlaridan ta'lim-tarbiya maqsadlarida va estetik tarbiyalashda foydalanish sinfda, darsda o'tilgan mavzularni mustahkamlashga xizmat qilishiga e'tibor berish;

uchinchidan, o'zbek xalq musiqa ijodiyotiga murojaat qilganda ularning qaysi mahalliy musiqa uslubiga xosligi, janri, ijrodagi musiqiy cholg'ularning ishtiroki, raqs jo'rliqi kabi xususiyatlarga e'tibor berish [4];

to'rtinchidan, umumta'lim maktablari musiqa to'garagi rahbalari har bir mashg'ulotga puxta tayyorgarlik ko'rishlari, musiqa ta'limi va musiqa ijodiyotining nazariy, amaliy bilimlari bilan boyitib borishlari, o'z ustida ishlab bilim, ko'nikma va malakalarini oshirib borishi lozim.

Musiqa to'garaklarining maqsadi: o'quvchilarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni musiqiy ruhda tarbiyalash, musiqiy bilimini, dunyoqarashini, musiqiy qobiliyatini rivojlantirish, o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning urf-odat va an'alaridan mazmunli foydalanish, milliy qadriyatlarga asoslangan tashkiliy pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqish, amaliyotga qo'llashdan iboratdir [6].

Umumta'lim maktablarida sinfdan tashqari musiqa to'garaklari faoliyatini yo'lga qo'yishda quyidagilar tavsiya etiladi:

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etiladigan

to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish bilan bog'liq tashkiliy ishlar bajarilishini ta'minlash;

- musiqa to'garaklari a'zolari ro'yxati, mashg'ulot bo'ladigan kunlar jadvali shakllantiriladi;

- musiqa to'garaklarining o'quv-me'yoriy hujjatlarini va moddiy-texnik ta'minotini yaratish;

- musiqa to'garaklarini samarali tashkil etish, mazmunini boyitish, musiqa to'garagi rahbari ijodiy izlanishlar olib borish;

- to'garak ishtirokchilarini turli tadbirlar, tanlovlar, festival va ommaviy axborot vositalarida chiqishlarini ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida"gi ma'ruzasida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 5 ta muhim tashabbus.


2. Qudratov I., Odilov A. Cholg'u asboblarida ijrochilik ko'nikma va malakalarni shakllantirish (Uslubiy qo'llanma). SamDU, 2015-y.

3. Sharipov Sh.S. Kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilar to'garak ishlarini tashkil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi (Monografiya). – Toshkent: "Fan", 2005-y. 130-b.

4. Madrimov B.X. O'zbek musiqa tarixi. – T.: "Barkamol fayz media", 2018-y.

5. <http://www.istedod.uz> – "Iste'dod" jamg'armasi sayti.

6. <http://www.edunet.uz> – maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti.



Viktor ALIMASOV,

O'zDSMI "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrası professori, falsafa fanlari doktori

ILMIY TADQIQOTLARDA MAVZU TANLASH VA UNING DOLZARBLIGINI ASOSLASH METODLARI

Annotatsiya. Maqolada madaniyat va san'at sohasida tadqiqot olib boruvchi magistrning ilmiy mavzu tanlash va uning dolzarbligini asoslash metodlari muammolari tahlil etiladi. Unda ilmiy ijodning murakkab tomonlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: mavzu, madaniyat, san'at, ijod, ilm-fan, tadqiqot, gnoseologiya, bilim, ijtimoiy taraqqiyot, dinamizm.

МЕТОДЫ ОТБОРА ОБЪЕКТОВ В НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ И ОБОСНОВАНИЕ ЕГО ДЕЙСТВИТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В статье анализируются вопросы выбора и востребованность научной темы диссертационных исследований магистров. В ней раскрываются сложные аспекты научного творчества.

Ключевые слова: тема, культура, искусство, творчество, наука, исследование, гносеология, знание, общественный прогресс, динамизм.

METHODS OF SUBJECT SELECTION IN SCIENTIFIC RESEARCH AND JUSTIFICATION OF ITS VALIDITY

Abstract. The article analyzes the problems of choosing a scientific topic and methods of justifying its relevance for masters conducting research in the field of culture and art. It reveals the complex aspects of scientific creativity.

Key words: subject, culture, art, creativity, science, research, epistemology, knowledge, social development, dynamism.

Madaniyat va san'at sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish murakkab gnoseologik izlanishlardan biri hisoblanadi. Inson bilimlarining immanent xususiyatlarini o'rgangan XII asrning yirik faylasufi, Nobel mukofoti laureati B.Rassel yozganidek: *"Inson ongi, tafakkuri va qiziqishlari bilan bog'liq bilish jarayoni mudom sirli, murakkab va ziddiyatli talqinlar manbai bo'lib kelgan. Ong va tafakkurning negizini topish amrimahol bo'lganidek, bilish negizini topish ham mushkuldir"*[1.547.]. Bu fikr madaniyat va san'at sohasidagi ilmiy tadqiqotlarga ham taalluqlidir. Birinchidan, madaniyat va san'at sohasining o'zi murakkab, polifunksional va universal voqeliklar sirasiga kiradi. Murakkab obyekt murakkab tahlillar va yondashuvlarni taqozo etadi. Ikkinchidan, madaniyat va san'atga ijtimoiy hayotga monand dinamizm, o'zgaruvchanlik va mobillik xos. Dinamizmi esa yangi-yangi metodlar bilan tadqiq etish vojib. Uchinchidan, ilm-fanga novatsiyaga intilish, aqlu idrokni yangiliklar izlashga undash xos.

Ilmiy tadqiqot mavzu izlashdan boshlanadi. Murakkab voqelik bo'lgan madaniyat va san'atga oid ilmiy mavzu topish oson emas. Bir qarashdagina ilmiy mavzu topishdan ham jo'n ish yo'q, istagan bir fikr, yo'nalish yoki artefakt mavzu bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham magistrlar dissertatsiyalarida "Madaniyat va san'atning roli" yoki "ahamiyati" degan biror aniq tasavvur shakllantirmaydigan mavzular ko'plab uchraydi.

Ilmiy mavzu tanlashning uchta ustuni mavjud: birinchisi – mavzu ijtimoiy taraqqiyot talablariga muvofiq bo'lishi; ikkinchisi – mavzu ilm-fan ehtiyojlarini ifoda etishi; uchinchisi – magistrning gnoseologik qiziqishlariga mos kelishi lozim. Mazkur ustunlar nafaqat bir-biriga dialektik bog'liq, ba'zan esa birini biri rad etadi. Masalan, ijtimoiy taraqqiyot talablari bilan tadqiqotchining gnoseologik qiziqishlari mudom biriga biri muvofiq kelavermaydi, ilm-fan ehtiyojlari esa ularning ikkalasini ham e'tiborga olmasligi mumkin. Ilmiy ijodning ushbu ziddiyatlarini

falsafa fanlari doktori, professor Z.Davronov bilish jarayonlarining murakkabliklari nuqtayi nazaridan keng ochib bergan [2.6-7.]. Ushbu murakkablikni falsafa fanlari doktorlari, professorlar V.Alimasov va Sh.Mamadaliyev tadqiqot obyektining real holatidan ideal holatiga yetkazish jarayoni sifatida talqin qiladilar [3.8–10.]. Mavzu tanlash esa obyektning real holatini ideal holatga yetkazishni yuqoridagi uchta ustuni bilan uyg'unlashtirishni talab etadi.

Duch kelgan fikr, artefakt ilmiy tadqiqot mavzusi bo'lolmaydi. Mavzu ijtimoiy taraqqiyotga oid muammo bo'lishi darkor. Masalan, kitob ijtimoiy taraqqiyotga oid artefakt, lekin kitobning o'zi moddiy boylik sifatida darrov ilmiy tadqiqot mavzusi bo'lavermaydi. Bu o'rinda mavzu kitobning moddiy boylik, fakt sifatida borligini tasdiqlashi, konstatatsiya qilishi emas, balki uning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotga ta'sirini, ekzistensial mohiyatini ochib berishga qaratilishi zarur. Kitobning hayotdagi o'rni, ahamiyati haqida aytilmagan fikr deyarli qolmagan, bu borada biror ilmiy yangilikka erishish mushkul. Agar kitobning ijtimoiy ong yangilanishiga ta'siri mavzu qilib olinsa, u ilmiy yangiliklarga olib kelishi mumkin. Yangi davr, ijtimoiy ongdagi yangilanish kitobga yangicha yondashuvni, yangicha fikrlarni keltirib chiqargan bo'lardi. Demak, tadqiqot mavzusi davr, ijtimoiy taraqqiyot talablaridan kelib tanlanadi. Zero, *“Quruq gapdir har qanday g'oya, mangu tirik hayot daraxti”* (Gyote). Ijtimoiy taraqqiyot talablari – “mangu tirik hayot” talablaridir.

Mavzu tanlashda goho ilm-fan sohasining ichki ehtiyojlaridan ham kelib chiqiladi. Bularga ilm-fan sohasining metodologik masalalari, kategorial apparatini shakllantirish, funksiyalarini aniqlashtirish, o'z-o'zini tanqid metodlari va gnoseologik muammolarini o'rganish kabilari kiradi. Har bir ilm-fan sohasining o'ziga xos ichki ehtiyojlari, gnoseologik muammolari bo'ladi, ular alohida mavzu sifatida o'rganilishi kerak, aks holda soha stagnatsiyaga uchraydi.

Ilm-fan sohasi rivojlanishi, yangilanib turishi, davr talablariga javob berishi uchun vaqti-vaqti bilan o'zini o'zi tahlil qilib turishi zarur. Demak, mavzu tanlashda ilm-fan sohasining ichki ehtiyojlaridan ham kelib chiqish mumkin [3.48–51.]. Mustaqillik yillarida milliy madaniyatga, tarixiy-madaniy merosga oid ko'plab tadqiqotlar o'tkazildi. Akademiklar M.Xayrullayev, E.Yusupov, A.Valiyev, S.Shermuhamedov, A.Saidov, J.Bozorboyev, professorlar M.Abdullayev, B.Aliyev, V.Alimasov, E.Bobomuradov, M.Nurmatova, A.Erkayev, O.Nishonova, D.Norqulov, R.Ro'ziyeva, M.Hojiyeva, R.Zohirov kabilarning ilmiy izlanishlarini misol keltirish mumkin. Bizning hisob-kitobimizga ko'ra keyingi yetti yil ichida madaniyat, ma'naviyat va tarixiy-madaniy jarayonlar tahliliga oid birgina falsafa, sotsiologiya va madaniyat tarixi, nazariyasi bo'yicha 21ta doktorlik, 89ta nomzodlik dissertatsiyalari yoqlangan, ularning monografiyalari chop etilgan. Nashr etilgan kitoblarni sanash esa amrimaholdir. Shunga qaramay, respublikamizda Madaniyatshunoslik fanini shakllantirishning ilmiy-

metodologik asoslari shakllantirilmagan. Madaniyat nazariyasi va tarixi bo'yicha chop etilgan asarlarda ko'chirmachilik, siyqa fikrlarni ilmiy yangilik sifatida taqdim etish, noo'rin savodxonlik, hatto mas'uliyatsizlik hukmron.

Mavzu tanlash tadqiqotchining ilmiy qiziqishiga borib taqaladigan ijodiy jarayondir. Mavzuning ijtimoiy taraqqiyot talablari va ilm-fan sohasi ehtiyojlari bilan bog'liqligini tadqiqotchining ilmiy qiziqishlari tasdiqlashi darkor. Agar tadqiqotchi ilmiy qiziqishiga zid mavzu olsa, u o'zidagi intellektual salohiyatni, ijodiy kuchni namoyon qilolmaydi. Tanlangan mavzu magistrning ilmiy qiziqishiga muvofiq kelsa, undagi intilishlarni ifoda etsa, u ilm-fan injiqliklariga, “harfparastlik” talablariga chidaydi. Ilm-fan ko'ngilochar mashg'ulot emas, u shaxsdan butun borlig'ini bag'ishlashni talab qiladi. Ilmiy ijod bilan shug'ullangan yirik olimlarning ko'pchiligi shaxsiy oromi, hatto baxtli, farovon hayotidan ham voz kechishgan. Ular umrini ilmiy ijodga bag'ishlashdan zavq olganlar. Demak, mavzu tanlash tadqiqotchining ilmiy qiziqishiga ham muvofiq kelishi zarur.

Tajriba ko'rsatadiki, ilm-fan sohasiga endi kirib kelayotgan magistr tadqiqot mavzusini yakka o'zi shakllantirolmaydi. Unga ilmiy rahbarning yoki soha mutaxassislarining ilmiy-metodik yordami kerak. Shuning uchun ilmiy tadqiqot mavzusi kafedra va ilmiy kengashlarda muhokama qilinadi, ekspertlar (olimlar, mutaxassislar) taqrizlari, tavsiyalari olinadi. Ular yuqoridagi uchta ustun talablarini ifoda etadi.

Ilmiy mavzu tanlangach, uning dolzarbligini asoslashga kirishiladi. Dolzarblik tadqiqot objekti (predmeti)ning real holati bilan ideal holati o'rtasidagi muammolar va ziddiyatlardan kelib chiqib asoslanadi. Obyektning real holatini bilish mavzu dolzarbligini asoslashning avvalidir. Bu jarayon:

- *obyektning o'rganilmagani yoki kam o'rganilgani;*
- *real holatida funksiyalarini bajarayotgani yoki chala bajarayotgani;*
- *tizimdagi o'rni;*
- *o'zini o'zi boshqarish yoki moddiy ta'minlash imkoniyatlari;*
- *modellashtirish mumkinligi kabilarni o'z ichiga oladi.*

Obyektning real holatini aniqlash uchun magistr uni ilmiy o'rganilganini yoki kam o'rganilganini aniqlashi lozim. Kimlar, qaysi soha vakillari obyektini avval o'rgangan, qanday nazariy-falsafiy yoki epistemologik xulosalarga kelgan? Ulardagi ilmiy yangiliklar nimalardan iborat? Esda tutish kerakki, madaniyat va san'at sohasida mutlaq o'rganilmagan mavzu, muammo yo'q, ular goh o'rganilgan yoki kam o'rganilgan. Agar o'rganilgan bo'lsa, tadqiqotchi ularga yangi talqinlar yoki yangi yondashuvlarni tatbiq etib obyektning real holati haqidagi qarashlar doirasini kengaytiradi. Agar mavzu, muammo kam o'rganilgan bo'lsa, tadqiqotchi buni e'tirof etadi va ilmiy xulosalar bilan bo'shliqni to'ldiradi.

Ijtimoiy borliqdagi har bir obyekt o'zining funksiyalariga ega. U funksiyalarini bajarib, ijtimoiy taraqqiyot uchun zarurligini tasdiqlaydi. Agar u o'z

funksiyalarini chala bajarsa yoki bajarmasa, demak, obyektni modernizatsiyalashga, davr talablariga muvofiqlashtirishga zarurat tug'iladi.

Obyektning real holatini uning tizimdagi o'rni ham ko'rsatadi. Madaniyat va san'at ijtimoiy hayot deb atalgan keng, makrotizmining tarkibiy qismi, atributidir. Demak, madaniyat va san'atning real holati ijtimoiy hayotda tutayotgan o'rni bilan aniqlanadi. Jamiyatning, sotsiumning madaniyat va san'atga munosabati qanday? Davlat ularni qo'llab-quvvatlash uchun qanday dasturlar qabul qilgan? O'z navbatida madaniyat va san'at jamiyat, sotsium taraqqiyoti uchun nimalar qilmoqda? Xalq madaniyat va san'at institutlari faoliyatidan qoniqayaptimi? Shu kabi savollarga javob izlash obyektning real holatini aniqlashga yordam beradi.

O'zini o'zi boshqarish va moddiy ta'minlash madaniyat va san'at sohasini bozor iqtisodiyoti talablariga uyg'unlashtirish shartlaridan biridir. Tadqiqotchi ushbu talabdan kelib chiqib, obyektning real holatini aniqlaydi. Agar bugun madaniyat va san'at muassasalarining bozor iqtisodiyotiga moslashuvini kuzatsak, paradoksal hollarga duch kelamiz. Respublikamizdagi madaniyat va san'at muassasalarining 95-97 foizi markazlashgan davlat va kasaba uyushmalari boshqaruvi qo'lidadir. Hukumatimiz madaniyat va san'at sohasida davlat-sheriklik boshqaruvini qo'llab-quvvatlayapti, biroq bu borada birorta ibratli tajriba uchramaydi. Demak, obyektning real holati shundaki, madaniyat va san'at sohasida davlat monopoliyasi saqlanib qolmoqda, unda bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq keladigan o'zini o'zi boshqarish va moddiy ta'minlash qaror topmagan.

Madaniyat va san'at muassasalari to'la bozor iqtisodiyotiga o'tishi mumkinmi? Mana, tadqiqotchi javob topishi zarur bo'lgan savol, u obyektning real holatini ham ko'rsatadi. Keyingi yillarda madaniyat va san'at sohasiga marketing boshqaruvini joriy etish haqida gapirilmoqda. Bu qanchali asosli? Aholimiz madaniy xizmatlarga haq to'lashga tayyormi? Agar ilg'or davlatlar tajribasiga nazar solsak, AQShda madaniyat va san'at muassasalarining 95 foizi munitsipal boshqaruv, aholi ixtiyoridadir. Davlat prezident va parlamentga qarashli kutubxona va galereyalarga mablag' ajratadi, xolos. Joylardagi madaniyat va san'at o'choqlari o'zini o'zi boshqarish va moddiy ta'minlash prinsipida ishlaydi. Bunday tartibni Fransiya, Shvetsariya, Germaniya, Angliya kabi davlatlarda ham kuzatamiz. Bu prinsipning ishlashiga o'zimizda ham imkoniyatlar mavjud. Masalan, aholimiz to'y qilish uchun 15-20 ming dollarlab pul sarflaydi, ashula va raqs ansambllarini yollaydi. Yoki haj safarini olaylik. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra mustaqillik yillarida hajga borganlar safarga 4 milliarddan ziyod AQSh dollari sarflashgan. Yangi-yangi machitlar ham xalq pullariga qurilmoqda, albatta. Nima uchun aholimiz madaniyat va san'at muassasalari qurishga jalb qilinmaydi? Buni keng xalq harakatiga aylantirish mumkin-ku! Demak, aholi joylardagi madaniyat va san'at muassasalarini

moddiy qo'llab-quvvatlashi mumkin. Madaniyat va san'at muassasalarini bozor iqtisodiyotiga o'tkazish, ularni munitsipal idoralarga berish mumkin.

Obyektning real holatini aniqlashdan uni ideal holatga yetkazish zarurati va metodlari kelib chiqadi. Barcha ilmiy tadqiqotlar obyektning ideal holatini modellashtirishni nazarda tutadi. Modellashtirish xayoliy, gipotetik, eksperimental, laboratoriya, imitatsion, matematik, kibernetik metodlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu metodlar bo'yicha ko'plab adabiyotlar mavjud, shuning uchun ular haqida to'xtalib o'tirishga hojat yo'q. Ammo bir narsani aytib o'tay, modellashtirish metodlari obyekt ideal holatini aynan to'la ifoda etolmaydi, ularning imkoniyatlari ham inson bilimlari kabi nisbiydir. Bu esa metodlarni mutlaqlashtirmaslikka undaydi. Nisbiy bilim ham obyekt ideal holati tomon yo'naltirilgan bilimdir.

Obyektning ideal holati qanday bo'lishi mumkin, degan savolga javob berish oson emas. Ayniqsa, madaniyat va san'at sohasidagi tadqiqotchilar uchun u juda murakkab. Masalan, sirk san'atini 20-yildan keyingi modelini yaratib bo'ladimi? Askiya janrini-chi? Milliy amaliy san'atining kelajakdagi modeli qanday bo'ladi? Teatr san'atining-chi? Xullas, bunday savollarga javobni madaniyat va san'atning immanent xususiyatlaridan izlashga to'g'ri keladi. Model xayolda shakllantiriladigan obraz, tasvir, simvoldir. U realga oshmasligi ham mumkin. Masalan, Platon, undan keyin Abu Nasr Forobiy ideal jamiyat, ideal davlat haqida xayol qilganlar. Mana, 27 asr bo'ldiki, insoniyat ideal jamiyat, ideal davlat barpo etgani yo'q. Ijtimoiy taraqqiyot har bir bosqichida insoniyat oldiga yangi-yangi vazifalarni qo'yimoqdaki, uning xayoliga ba'zan ideal borliq yaratish kelmayapti. Demak, ideal borliq yo'q, biroq kishilar xayolida ideal jamiyat, ideal davlat g'oyasi hamon yashaydi. Madaniyat va san'atda ideal modelga yetish mumkin. Masalan, mashhur xalqustasi, qo'qonlik Mir Haydarovning yog'och o'ymakorligi namunalari takomiliga yetgan asarlar sifatida qabul qilishimiz mumkin. Yoki M.To'ychiyeva ijrosidagi "Munojot" ashulasini ham shunday qabul qilsa bo'ladi. Biroq ushbu asarlarni yanada takomillashtirish imkoni ham mavjud. Kelgusida birorta ijodkor Mir Haydarov, birorta ijrochi M.To'ychiyevadan nimadandir o'zishi mumkin. Madaniyat va san'atga xos dinamizm badiiy ijodga ham uzluksiz rivojlanishga, takomillashib borishga moyil jarayon sifatida qarashga undaydi. Bugungi ideal ertangi idealga yetish bosqichidir. Idealiga intilishi bilan madaniyat va san'at, badiiy asarlar boqiydir. Magistrlar ushbu xususiyatni hisobga olishi, obyektning ideal holatiga yetishning yangi-yangi metodlarini izlashlari dardkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рассел Б. Человеческое познание. – Москва: Институт литературы, 1957.
2. Davranov Z. Ilmiy ijod metodologiyasi. – Toshkent: TMI, 2008.
3. Alesmasov V., Mamadaliyev Sh. Ilmiy tadqiqot: metodologiya, metodika, ijodiyot. – T.: O'zbekiston IIV Akademiyasi, 2016.

MADANIYAT TARAQQIYOTIDA ELEKTRONLASHAYOTGAN QADRIYATLAR VA MEDIAOGOHLIK

Annotatsiya. Maqolada, virtual tarmoqlar O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy faolligini shakllantirish omili ekanligi hamda uning ijobiy xususiyatlari ko'rsatib berilishi bilan bir qatorda bolalar va yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo'lib qolayotganligi, shuningdek, axboriy ifloslanish va kiberxavflardan yoshlarni ehtiyot choralarini ko'rishda mediata'lim, medisavodxonlikning o'rni katta ekanligi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: virtual olam, mediasavodxonlik, mediamadaniyat, mediata'lim, internet, mediaogohlik, kibermakon, kiberxavfsizlik, taraqqiyot, madaniyat, qadriyat, nomofobiya.

ЭЛЕКТРИФИКАЦИЯ ЦЕННОСТЕЙ В РАЗВИТИИ КУЛЬТУРЫ И ОСВЕДОМЛЕННОСТЬ В СМИ

Аннотация. В статье показано то, что виртуальные сети являются фактором формирования социальной активности молодежи Узбекистана и ее положительные особенности, а также то, что дети и молодежь зависимы от социальных сетей, а также важность медиаобразования и медиграмотности в принятии мер предосторожности против информационного загрязнения и киберугроз.

Ключевые слова: виртуальный мир, медиаграмотность, медиакультура, медиаобразование, Интернет, медиаинформированность, киберпространство, кибербезопасность, развитие, культура, ценности, номофобия.

ELECTRIFYING VALUES IN CULTURAL DEVELOPMENT AND MEDIA AWARENESS

Abstract. In the article, the fact that virtual networks are a factor in the formation of social activity of the youth of Uzbekistan and its positive features are shown, as well as the fact that children and young people are dependent on social networks, as well as the importance of media education and media literacy in taking precautionary measures against information pollution and cyber threats.

Key words: virtual world, media literacy, media culture, media education, Internet, media awareness, cyber space, cyber security, development, culture, value, nomophobia.

Har qanday jamiyatda va har doim mamlakat va millat taraqqiyotida madaniyat kabi o'ta murakkab, ayni paytda muhim fenomen hodisa alohida ahamiyatga ega. Yangi O'zbekistonni barpo qilishdek murakkab maqsadlar sari intilayotgan bir paytda, ushbu masalaga e'tibor tobora kuchayib bormoqda. *"Yangi O'zbekistonni barpo etish, – deb ta'kidlaydi mamlakatimiz rahbari, – "bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruratdir"* [1.3-b.]. Mamlakatni yanada rivojlantirish, jamiyatni bundan ham barqarorlashtirish uchun madaniyat, san'atning yaratuvchilik, bunyodkorlik kuchini oshirish davr talabidir.

Bugungi tezkor jarayonda madaniyat va san'atning ijtimoiy funksiyalari jamiyatda yuz berayotgan barcha jarayonlar bilan uyg'unlikda o'zgarib, takomillashib bormoqdaki, bu jarayon ba'zida madaniyat va san'atning bir-biridan farqlashga ham xalaqit bermoqda. Avvallari mazkur sohadan ko'proq aholi bo'sh vaqtini samarali tashkil etish maqsadida foydalanilgan bo'lsa, endi asosiy e'tibor madaniyat sohasining odamlarni tarbiyalash,

mamlakat va jamiyat oldida ko'ndalang bo'lib turgan muammolarni hal etishdagi faoliyatiga qaratilmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, bugun madaniyatning alohida ilm-fan sohasi sifatidagi o'rnini belgilash masalasi ham olimlar oldida muhim muam-molardan biri bo'lib turibdi. Yoshlar va virtual olam munosabatlari madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan muhim masaladir. Bugungi kunda virtual tarmoqlar yoshlar hayotining deyarli barcha sohalariga ta'sir qilib, bu esa ushbu muammoni turli nuqtayi nazardan va turli jihatlardan o'rganishni taqozo qiladi.

Zamonaviy dunyoda axborot oqimi, shiddati misli ko'rilmagan darajada oshib bormoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining o'ziga xos xususiyati ijtimoiy elektron tarmoqlarning tobora ommalashib borayotgani, internet resurslarining cheksizligi va ulardan foydalanish imkoniyati, sun'iy intellekt hayotning barcha jabhalariga kirib borishidan iboratdir. Virtual olamda yashaydiganlar, birinchi navbatda, o'smir yoshlarning yangi avlodi shakllanmoqda. Globallashuv, axborotlashuv, raqamlashuvning insoniyatga ko'rsatayotgan ta'siri chegaralarni pisand qilmay qo'ygani ham rost. Vaziyat shu darajaga yetdiki, axborot maydonida siyosiy, iqtisodiy,

mafkuraviy manfaatlar to'qnashuvi insonlar ong-shuuri uchun kurash jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Natijada axborot kuzatuvchi tarmoqlar soni ortdi, internet hajmi oshdi. Bunda yil sayin internet foydalanuvchilari soni va media iste'moli o'sayotgani katta ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi statistik ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 2022-yil dunyo aholisi jami 12,5 trillion soat vaqtini global tarmoqda o'tkazgan. 2023-yilgi hisob-kitoblarga ko'ra 5,16 milliard kishi internetdan foydalangan. Global tarmoqda 1,7 milliard veb-sayt mavjud bo'lib, har soatda 7 million veb sahifa paydo bo'ladi. Bizning oldimizda turgan eng asosiy masalalardan biri, odamlar diqqat-e'tiborini jalb etish uchun kurash, targ'ibot, tashviqot, manipulyatsiya kabi ta'sir o'tkazish usullaridan keng foydalanish, shov-shuvli yangiliklarni ko'paytirish, reklama uchun sarflanadigan mablag' hajmini oshirish kabi ko'rinishlarda yuz bermoqda.

Hisob-kitoblar, statistik ma'lumotlar o'z yo'lga, biroq bu axboriy shovqinning odamlarga ta'siri nihoyatda og'riqlidir. Mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra, foydalanuvchi kuniga o'rtacha 6 soat vaqtini internetda o'tkazar ekan, bu sog'liqni saqlash, iqtisodiyot, ta'lim, psixologiya, madaniyatshunoslik kabi sohalar oldiga qator muammolarni qo'yimoqdaki, ayniqsa, bu yoshlar muammolari jihatidan muhimdir. Hozirgi yoshlarning, ayniqsa, o'smirlarning qadriyatlari, qarashlari, maqsadlari, xulq-atvor namunalarini shakllantirish bugungi kunda ilgari noma'lum bo'lgan virtual ijtimoiylashuvi agentlarining bevosita ta'siri ostida amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, virtual dunyoda shakllangan o'smirlarning qadriyatlar tizimi an'anaviy qadriyatlarga zid ekanligini tushunish mumkindir. Bu holat mamlakatimiz yoshlarining virtual ijtimoiylashuvi, mazmuni, shakllari va yo'nalishlari muammosini madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish va ilmiy xulosalar berish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi tezkor jarayonda, real dunyomizdagi barcha jarayon: ta'lim, xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish, muloqot, hamyon bilan birga, turli tahdid, xavf-xatar va jinoyatlar ham raqamli olamga ko'chdi. Kiberhujum, kiberjinoyat, kiberta'qib, kriptovalyutalar bo'yicha yashirin faoliyat soxta akkaunt, spam, botlar faoliyati kengayishi kiberxavfsizlik masalasini ham kuntartibiga olib chiqdi. Bizning oldimizda turgan eng asosiy vazifalardan biri, barcha tizim va jarayonlar raqamlash ekan, ularning texnik jihatdan mukammal va bexato ishlashini, xavfsizligini ta'minlash lozimdir. Bugungi tahlikali davr, ya'ni raqamlashtirish sharoitida yoshlar o'zlarining shaxsiy rivojlanish va kognitiv ufqlarini kengaytirish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'lishadi va boshqa tomondan ular tashqi ta'sirning eng zaif obyektiv salohiyati, zaif guruhlardan biriga aylanadi. Yorqin misollar bilan aytadigan bo'lsak, bolalarning global virtual makonga kirib borishi va odatdagi xatti-harakatlarning o'zgarishi oilalar, undagi "otalar – bolalar", "onalar – bolalar" qarama-qarshiligining globallashtirishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, bolalarning yaqinlari bilan iliq so'zlar orqali muloqotlari yo'qolib bormoqda. Bunday o'zgarish, agar u kuchaysa og'ir oqibatlariga olib keladigan "madaniy hayrat"ga sabab bo'lishi mumkin.

Shu ma'noda "internet – yoshlar" tizimida sodir bo'layotgan jarayonlarni ilmiy tushunish samaradorligi yoshlar siyosatining zarur bir shartiga aylanmoqda. Bu esa mamlakat rahbariyatiga bolalar va yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayonlarini bevosita nazorat ostiga olishga imkon beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: *"...barqaror rivojlanishga erishish uchun biz raqamli bilim va axborot texnologiyalarini chuqur o'zlashtirishimiz kerak, bu bizga har tomonlama taraqqiyotga erishishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi"* [2.19-b.]. Raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni tashkil etish bolalar, ota-onalar va o'qituvchilar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning xavfsiz internetdan foydalanish huquqlarini ta'minlash, bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish mexanizmlariga oid takliflar ishlab chiqib, ularni yo'lga qo'yish davr talabi bo'lmoqda. Bu shunchalik kechiktirib bo'lmaydigan masalaki, bu holatni oddiy misol bilan ko'radigan bo'lsak: bu axboriy shovqinning odamlarga ta'siri nihoyatda og'riqlidir. Masalan, media qaramlik insonning jismoniy holati, salomatligiga salbiy ta'siri – ko'rish qobiliyati susayishi, umurtqa pog'onasi qiyshayishi, rivojlanishdan ortda qolish, diqqat yetishmasligi, iroda buzilishi, stress, depressiya, xotira susayishi kabilar axborot ta'sirida o'z tanasiga zarar yetkazish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Bilamizki, ta'lim tizimi axborotni eng ko'p qabul qiluvchi segment, ya'ni bolalar va yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga qaramligi, kompyuter o'yinlariga mukkasidan ketishi, FOMO sapiens, ya'ni global tarmoqda onlayn bo'lmasa, bir narsadan quruq qoladigandek xavotirda yashovchi avlod, fabbing, ya'ni telefonga bog'lanib qolish sababli real hayotdagi muloqotdan qochish, begonalashuv, nomofobiya – telefonsiz qolishdan qo'rquv holatlarga qarshi kurashish kabi muammolar girdobida qolmoqda. Salbiy mazmundagi, qo'rquv, xavotir, ertangi kunga ishonchsizlik keltirib chiqaruvchi axborotlarning ruhiy ta'siri ham ortib bormoqda. Yana shuni ham alohida ta'kidlash mumkinki, axborot oqimining ko'pligi insonning mustaqil fikrlash, o'zini anglash, atrof bilan jonli muloqot olib borishlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Aniqroq aytadigan bo'lsak, bugun tabiat – havo, suv, tuproq ifloslanayotgani axboriy ekologiya musaffoligiga ham putur yetkazmoqda. Axboriy muhitning ifloslanishi, uning turli nomaqbul axborot shakllarining paydo bo'lishi, yolg'on ma'lumotlarning keng tarqalishi ijtimoiy tarmoqlarda adovat va nafrat qo'zg'ovchi muloqot tili qo'llanilishi holatlari ham tez-tez uchrab turibdi. Buzg'unchilik, zo'ravonlik, ekstremizm va terrorizmni targ'ib qiluvchi veb-saytlar ham ko'p xollarda yoshlarni to'g'ri yo'ldan adashtirmoqda.

Mutaxassislarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, internet orqali tarqatilayotgan axborotning 49 foizi sezilarli darajada zo'ravonlikning, 57 foizi axloqsizlikning bevosita va bilvosita targ'ibotiga xizmat qiladi, 25 foiz axborot esa yolg'on to'qima [3.2-b.]. Bu holat yoshlar ong-shuuriga kuchli ta'sir etuvchi buzg'unchi g'oyalar, milliy mentalitetga zid, zararli odat va ko'nikmalar, tekshirilmagan axborotga ham birdek taalluqlidir.

Yana bir aniq ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, "Kiber xavfsizlik markazi "DUK (Davlat unitar korxonasi)ning yillik hisobotida keltirilishicha, 2022-yil holatiga ko'ra iz segmentida 110 mingdan ortiq veb-sayt domeni ulangan bo'lib, shulardan 38 mingdan ortig'i faol. Ularning 14 mingdan ortig'i xavfsiz, ya'ni sertifikat mavjud. Milliy kibermakonda o'tgan yil zararli tarmoq faoliyati bilan bog'liq 65 millionta holat aniqlangan [4.2-b.]. Bu albatta, yomon ko'rsatkich. Bularning barchasi kiber tahdidlar kuchayib borayotganligidan darak beradi.

Mediata'lim kerakmi? Degan savol tug'iladi. Albatta kerak. Chunki mediata'lim axborot odobi, madaniyati, ma'naviyatini shakllantiruvchi, mediamahsulotlarini tafakkur chig'irig'idan o'tkazib, saralab qabul qilish, baho berishda ijtimoiy immunitetni shakllantirish, zarur amaliy ko'nikmalarni yuzaga chiqaruvchi, raqamli olamda xavfsizlik qoidalarini o'rgatuvchi, nomaqbul axborotlarning ta'sirini kamaytiruvchi ta'limdir. O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari doktori Sanobar Jumanovning ta'rificha: *"Mediata'lim – zamonaviy axboriy jamiyatni tushunish kalitidir"*.

Umumiy xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mediaogoh inson shaxsiy ma'lumotlar, elektron hamyon xavfsizligini ta'minlaydi, hisob va karta raqam ma'lumotlarini begonalarga bermaydi. Internetdan foydalanish etiketiga amal qiladi, ishonchli parollardan foydalanadi. Noma'lum odamlardan kelgan xabarlarini ochmaydi. Jamoat joylarida himoyalanmagan resurslardan foydalanmaydi. Mediata'lim insonning sifatli axborot olish huquqini ro'yobga chiqarib, shaxsda hamjihatlik va tinchlik, tolerantlik, boshqalarga hurmat, fikr va axborot erkinligi qadriyatini shakllantiradi. Ko'p millatli Yangi O'zbekiston davlatimiz taraqqiyotida mediata'limga juda katta e'tibor berish zarurki, mediasavodxonlik, ayniqsa, madaniyatlar va dinlararo muloqotda juda muhim.

Bu borada AQShlik taniqli siyosatshunos Samyuel Xantington shunday yozgan edi: *"Fikrimcha, yangi shakllanayotgan dunyoda ixtiloflar manbai mafkura ham, iqtisodiyot ham bo'lmaydi. Insoniyatni ajratib turgan qaltis chegara va asosiy ixtilof manbai*

madaniyat bo'lib qoladi. Milliy davlatlar xalqaro munosabatlarda bosh ishtirokchi maqomida qolsada, global siyosatning eng yirik ixtiloflari turli millat va tamaddunga mansub guruhlar o'rtasida yuz beradi" [4.2-b]. Aynan mana shunday jarayonda mediasavodxon inson dunyoda madaniyatlar turli-tumanligi haqida tasavvur, madaniy tafovvutlarga nisbatan tolerant munosabatda bo'ladi. O'z qadriyatlarini rad etgan holda boshqa madaniyatlarning ustidan hukm chiqarishga yo'l qo'ymaydi. Mediasavodxonlik dinlararo bag'rikenglik, madaniyatlararo hamjihatlik, tenglik, ijtimoiy integratsiya, moslashuvchanlik, tinchlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashga hissa qo'shadi. Ko'p millatli mamlakatimizda tinchlik hamda hamjihatlikni ta'minlash maqsadida mediaogohlik asosida raqamli olamdagi xatarlardan yoshlarimizni himoya qilish va axboriy ifloslanish, kiberxavflar iskanjasidan qutqarish borasida quyidagi holatlarga e'tibor qaratish zarur:

🌱 *taraqqiyot har zamon uchun muhim, ammo uning insonlar farovon yashashiga, yurt tinchligiga xizmat qilishi muhimroqdir. Shu nuqtayi nazardan, ommaviy axborot vositalarining shakli emas, vazifasini sifatli, mazmunli bo'lishiga e'tibor qaratish muhimdir;*

🌱 *O'zbekiston yoshlarini tobora kengayib borayotgan virtual tarmoqlarga jalb qilishning asosiy omillari va yo'nalishlarini ijobiy hamda maqsadli olib borishlariga ko'maklashish;*

🌱 *virtual tarmoqlarning salbiy ta'siri xavf va tahdidlaridan yoshlarni himoya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;*

🌱 *yoshlar ongida ijtimoiy tarmoqlar va umuman internet tarmog'ining salbiy kontentlariga nisbatan kuchli immunitetini oshirish choralari ko'rish;*

🌱 *virtual tarmoqlarning salbiy ta'siriga samarali qarshi turish usullari haqida ilg'or samarali xorij tajribalaridan foydalanib, mediata'lim va mediamadaniyat masalalariga e'tiborni qaratish;*

🌱 *kattalarning aksariyati o'z farzandlarining obunasini, tashrif buyurgan kanallari va kontentini tomosha qilish orqali ularning onlayn faoliyati nazoratini kuchaytirish va boshqalar.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2022-y. 3-b.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2022-y. 19-b.
3. Jumanova S. "Mediaogohlik raqamli olamdagi xatarlardan himoyalaydi". "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2023-yil, 58-son.
4. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston.
5. [https:// en Wikipedia/org/ wiki/](https://en.wikipedia.org/wiki/)

SHARQ TURMUSH MADANIYATI VA URBANISTIKA MODELLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharq turmush madaniyati urbanistik rivojlanishning modeli, diniy-axloqiy imperativlarga amal qilgan holda zamonaviy ilmiy-texnik, shaharsozlik, ta'limning eng yuqori ko'rinishlari bilan uyg'unlashtirishga qurilgan strategik vazifalar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: urbanistika, hudud, infratuzilma, madaniyat, urbanizatsiya, shaharsozlik, estetik belgilar.

ВОСТОЧНАЯ ЖИВАЯ КУЛЬТУРА И УРБАНИСТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ

Аннотация. В данной статье раскрываются стратегические задачи, которые привели к интеграции культуры восточного образа жизни с моделью городского развития, следуя религиозно-нравственным императивам, современному научно-техническому, градостроительному планированию и высшим формам образования.

Ключевые слова: урбанизм, область, инфраструктура, культура, урбанизация, градостроительство, эстетические знаки.

EASTERN LIVING CULTURE AND URBAN MODELS

Abstract. This article reveals the strategic objectives that led to the integration of the culture of the eastern way of life with the model of urban development, following religious and moral imperatives, modern scientific, technical, urban planning and higher forms of education.

Key words: urbanism, region, infrastructure, culture, urbanization, urban planning, esthetician signs.

"Sharq madaniyati", "Sharq davlatchiligi", "sharqona axloq" kabi tushunchalar bilan birga "Sharq turmush madaniyati" va "Sharqona urbanistika" degan kategoriya ham mavjud. Ilmiy kategoriyalar, avvallo, voqelikdan tug'iladi. Uning ijtimoiy, funksional va ichki tizimli xususiyatlarini ifoda etadi. Ba'zan tadqiqotchi u yoki bu kategoriyasi ilm-fanga olib kirishi, hatto, u real obyekt yoki voqelikdan yiroq bo'lishi ham mumkin. Bunday paytda tadqiqotchi diqqatini asosan yangi kategoriyaning gnoseologik-germenevtik mohiyatini ochib berishga, shu tarzda uni ilm-fanga olib kirishga intiladi. Lekin biz ilm-fanda mavjud, ishlatiladigan "sharqona turmush madaniyati" yoki "sharqona urbanistika" kategoriyalaridan foydalanamiz.

Ijtimoiy taraqqiyotning asosiy ko'rsatkichlarini urbanistika bilan bog'lash maxsus Xalqaro tashkilotlarning faoliyati bo'lib keladi. Masalan, BMT boshidagi United Nations Departement of Economic and Social Affairs jahon davlatlarining urbanistik rivojlanishini baholab boradi. 1989-yil tashkil etilgan mazkur Xalqaro tashkilotning 2022-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, urbanizatsiyaning yuqori cho'qqisida Sharq davlatlari turishini bildiradi. Quveyt, Katar, Singapur, Gonkong, Nauru yetakchi, ya'ni 100 foizni egallaydi. Keyingi o'rinlarni Birlashgan Arab Amirli (86, 8 foiz), Oman (85, 4 foiz), Saudiya Arabistoni (84, 1 foiz) egallaydi (Qarang: www.urban.ru).

Quveyt urbanistik taraqqiyoti bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinda turadi. U amirlik bo'lsa-da, aholisining ta'minoti, shahar turmush madaniyatini namunalı tarzda yo'lga qo'ygan davlat hisoblanadi. Hatto, undagi etnomadaniy an'analarga, yuqori darajada tashkil etilgan shahar infratuzilmasini boshqarish tizimiga yetakchi G'arb davlatlari ham havas qiladi. Yer maydoni 17 818 km. kv. bo'lib, aholisi 3,5 millionga yaqin. U 1961-yil mustaqillikka erishgan. O'tgan asr boshlarida dunyodagi qashshoq, qoloq mamlakatlardan biri edi.

Ibratli joyi shundaki, Quveyt hukumati bilim olishga, kasb o'rtirishga qiziqishi bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlaydi, ular maxsus davlat grantlari ajratadi. Agar yoshlar chet ellarda o'qisa, ularni to'bitirib, ishga kelib joylashguncha stipendiya ajratadi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra har yil 300ga yaqin yoshlar AQSh va Yevropa oliygohlariga borib ta'lim oladi. Davlat grantiga o'qigan yosh mamlakatiga qaytib besh yilgacha milliy kompaniyalar yoki neft va gaz korxonalardan birida ishlab beradi. Yangi ish joylari yoki korxonalar ochgan mutaxassislarga iqtisodiy taraqqiyot jamg'armalari kreditlar ajratadi, bu kreditlar, bizdagidek ustamalar bilan qaytarib olinmaydi. Lekin korxona ochgan yosh mutaxassis o'z faoliyati uchun munisipal idoralarga hisob berib, korxonani rivojlantirish rejalarni tasdiqlatib boradi.

Quveyt ta'lim modeli qizlar va o'g'il bolalar uchun alohida-alohida muassasalaridan iborat. Bir qarashda bu diskriminasiya ko'rinadi, quveytliklarning o'zi buni islom an'analarga, din talablariga muvofiq, deb biladi. Chet ellarda borib o'qiyotgan qizlar ham davlat stipendiyasi oladi. Bunday qizlar o'qishni bitirgach, Quveytga qaytib kelishi, faqat arabga turmushga chiqishi shart. Chet el fuqarosi bilan turmush qurish, diniy-axloqiy talablarga muvofiq emas, deb hisoblanadi. Chet ellikning Quveyt fuqarosi bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi, ammo mamlakat aholisining 70 foizdan ziyodini chet elliklar tashkil etadi. Ular rasman Quveyt fuqarosi hisoblanmasada, mavjud xizmatlardan, turmush imkoniyatlaridan to'la foydalanishi, osoyishta yashashi, savdo-sotiq va biznes bilan shug'ullanishi mumkin. Quveytlikning yillik daromadi 52,1ming AQSh dollarini tashkil etadi, bu dunyodagi eng yuqori maoshdir. Ta'lim, tibbiy va madaniy-maishiy xizmatlar bepul, yosh bolalar kiyim-kechak, ertalab nonushta va tushlik bilan ta'minlangan. Maktab o'quvchilari uchun xizmat

mashinalari mavjud, dars qoldirish mutlaq mumkin emas.

Quveytda tibbiy xizmat a'lo darajada yo'lga qo'yilgan, davlat shifoxonalari bilan birga xususiy klinikalar faoliyat yuritadi. Ayollarning umr ko'rishi 83,9 yosh, erkaklarniki esa 79,3 yosh, quveytliklarning umr ko'rishi o'rtacha 81 yoshni tashkil qiladi.

Aholini ijtimoiy himoya qilishga maxsus jamg'armalar aralashib, davlat yordamini yanada samarali qiladi. Agar ayol boquvchisini yo'qotsa, davlat unga, to ishga joylashib ketguncha, oyiga 1,5 ming AQSh dollargacha yordam haqi, pul ajratib turadi. Ba'zan ayollar davlat yordam puliga yashashni ma'qul ko'rishadi, ularda zamonaviy ofislar va korxonalarga joylashib, ishlab ketish ko'nikmasi deyarli yo'q. Shuning uchun Quveyt amirligi xotin-qizlarni ham chet ellarda o'qib kelishini ma'qul ko'radi.

Ishchi, xizmatchi faoliyat yuritishdan to'xtasa yoki salomaligini yo'qotsa, qarisa oyiga 3 ming AQSh dollari miqdorida nafaqa oladi. BMTning inson rivojlanishi indeksi bo'yicha quveytliklarning o'z hayotidan mamnunlik darajasi 0,806ni (dunyoda ikkinchi o'rinni), baxtiyorlik indeksi bo'yicha esa 6,102ni (dunyoda oltinchi o'rinni) egallaydi. Aholining maishiy texnikalardan foydalanishi 90 foizdan oshiq, har ming kishiga 447 tadan xususiy avtomobil to'g'ri keladi. Xotin-qizlarning avtomashinalar haydashiga ruxsat etilgan, biroq musulmon xotin-qizlar erkaklar kuzatuvida ko'chaga, sayrga, ommaviy tomoshalarga boradi (qarang: terrvisor.com/states/life/ku).

Quveyt iqtisodiyoti neft ishlab chiqarish va sotishga qurilgan bo'lsa-da, urbanistik rivojlanish uchun barcha sohalarga e'tibor beriladi. Amir ijtimoiy-madaniy va diniy-axloqiy sohalarni kuzatib, ularga aralashib turadi. Amir oilasi va saroy xizmatchilarining xususiy korxonalari, biznes markazlari bor, bu ularni mamlakat ijtimoiy-madaniy va diniy-axloqiy sohalardan xabardor bo'lib turish imkonini beradi.

Urbanistik rivojlanishning Quveyt modeli, diniy-axloqiy imperativlarga amal qilgan holda zamonaviy ilmiy-texnik, shaharsozlik, ta'limning eng yuqori ko'rinishlari bilan uyg'unlashtirishga qurilgan. Ba'zan unda pragmatizm ko'zga tashlanadi, G'arb biznes markazlari iqtisodiy rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Keng yo'llar, osmono'par binolar, aeroport, savdo markazlari, restoran va klublar, barchasi shahar madaniy hayotini dinamik qiladi.

Xitoy sivilizatsiyasi o'ziga xos taraqqiyot modeli hisoblanadi. Olti ming yillar avval shakllangan bu ijtimoiy-madaniy markaz bugun Gonkong misolida jahonga ibratli urbanistikani bunyod etgan. Gonkong urbanistika modeli:

- ✔ aholisining zichligi;
- ✔ Sharq va G'arb madaniyatining ilg'or tajribalarni o'zida mujassam etgani;
- ✔ ilmiy-texnik kashfiyotlarga qurilgani;
- ✔ ijtimoiy-madaniy xizmatlarning yuqori darajada tashkil etilgani;
- ✔ intellektual sohaga, ta'limga katta e'tibor berayotgani;
- ✔ aholining yuqori daromad olayotgani;

✔ salomatlik va sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlayotgani kabi yutuqlari bilan urbanistik rivojlanish indeksida 100 foiz ko'rsatkich olgan. Gonkong 1997-yil Xitoy yurisdiksiyasiga o'tgan. 2022-yilgi ma'lumotga ko'ra, aholisi 7,5 millionga yaqin bo'lib, 98 foizini xitoyliklar tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish xususiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga undaydi. Shahar madaniyati va urbanistikasini rivojlantirish muammosi paydo bo'ldi. 1996-yil Xitoy hukumati va kompartiyasi bu borada maxsus strategiya qabul qildi va 2020-yillarga davlat rejalarini ishlab chiqdi. Ushbu rejalariga muvofiq qishloq joylaridan 200 million kishi shaharlarga ko'chirildi, agromuhitni modernizatsiyalash orqali urbanistik rivojlanishni ta'minlash borasida davlat dasturlarini amalga oshirdi. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, Xitoy bozorlarini qishloq mahsulotlari bilan ta'minlash uchun qishloq aholisining 100 million bo'lishi yetarli. Hozir esa qishloqlarda 0,5 milliard aholi yashaydi (qarang: vedemosti.ru/opinion/article).

Gonkongda shahar infratuzilmasini va aholiga madaniy xizmatlar ko'rsatishni yaxshilash hukumatning alohida dasturlar qabul qilishga undagan. Masalan, shu maqsadda 2018-yil Lantau Vision Tomorrow davlat dasturi qabul qilingan bo'lib, unga muvofiq 1 ming gektar maydonga 260 ming turar joylari qurish, yangi transport xizmatini ishga tushirish, har bir ko'p qavatli uy yerto'lalari va birinchi qavatini maishiy xizmatlar o'choqlariga ajratish, maktablar qurish kabilar amalga oshiriladi. So'nggi besh yil ichida Gonkongda 600dan ziyod osmono'par, ko'p qavatli binolar tiklandi, ularga taalluqli ijtimoiy-madaniy infratuzilma shakllantirildi (qarang: o'sha joyda).

Xitoy hukumatining ijtimoiy-iqtisodiy siyosati tufayli Gonkongdagi turmush madaniyati mamlakat miqyosida ajralib turadi. Asr boshlarida ishchi-xizmatchi uzog'i bilan 200 AQSh dollari maosh olgan, hozir u to'rt-besh barobar oshgan. Birgina 2019–2021-yillar ichida Xitoy qishloqlaridan 10 million dehqon shaharga ko'chgan, o'zini ish bilan ta'minlagan, shahar turmush tarziga, urbanistikaga moslashgan. Aholi sonida keskin o'sish kutilmoqda, bir farzand ko'rish talabi bekor qilingach, Gonkong aholi soni oshishi tabiiy holdir.

Sivilizatsiya va urbanistik taraqqiyotning sharqona modellari ichida yana bir ibratlisi Singapurdir. U Malayziya janubidagi mashhur shahar-davlat hisoblanadi. Aholisi 6 milliondan ziyod. Xitoyliklar deyarli 75 foizni tashkil etadi. Singapur "singa" so'zidan yasalgan bo'lib, "ajdaho" ma'nosini anglatadi. Ba'zi tadqiqotchilar Singapurni "pjdaho shahar" yoki "ajdaho davlat" deb atashadi. 1990-yildan beri uni dunyodagi madaniyati va urbanistikasi juda rivojlangan Sharq davlati, deb bilishadi.

"Singapur fenomeni"ning sirini bozor iqtisodiyoti, kichik biznes va tadbirkorlik, xalqaro iqtisodiy integratsiyada ko'rishadi. Moliyaviy ochiqlik, savdo-sotiq, bank tizimining rivojlangani ta'lim tizimiga katta investisiyalar kiritilishi natijasida Singapurda ijtimoiy-madaniy taraqqiyot ta'minlagan.

Singapur uchta oroldan iborat. Yer maydoni

bugun 581 km.kv.ga yetgan. Yer, tuproq yetmasligi bois u boshqa davlatlardan tosh, tuproq sotib oladi. Bu mamlakat hududining kengayishini ta'minlagan. Ilgari yer maydoni 581 km.kv bo'lgan. Keyingi o'n-o'n besh yil ichida mamlakat hududini 120 km.kv.ga kengaytirish katta kuchni talab qiladi, albatta. Intellektual salohiyat va ilmiy-texnik imkoniyatlardan samarali foydalanishning samarasi o'laroq Singapur o'z iqtisodi va turmush madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan qator dasturlarni amalga oshirib keladi. Masalan, aholi salomatligini va uzoq umr ko'rishini ta'minlashga qaratilgan 2016–2021-yillaridagi dastur tibbiy xizmatlarni tubdan yaxshilashni nazarda tutgan. Biroq aholining uzoq umr ko'rish darajasi 41,5 (ba'zan 35,6 yosh ko'rsatishadi) yosh bo'lib qolmoqda. Tug'ilish ham jiddiy muammoga aylangan. Masalan, Singapurda 1960-yil tabiiy o'sish 51 565 kishini, 1965-yil 45 462 kishini, 1977-yil 26 409, 2020-yilga kelib esa, 16 536 kishini tashkil qilgan. Ish bilan bandlik 45 foiz atrofidadir (qarang: ru.m/ wikipedia. or/wiki/ Nas).

Singapur tajribasi ko'rsatadiki, davlatning ijtimoiy-madaniy va urbanistik rivojlanish siyosati aholining bandligini hal etishga ta'sir qilmas ekan. Ijtimoiy hayotning farovonlashuvi, turmush madaniyatining yuksalishi esa tug'ilishga, demografiyaga teskari ta'sir ko'rsatadi. Maorif, intellektual o'sish yuqori bo'lishiga qaramay, aholini ish bilan band etish alohida dasturni taqozo etadi. Orollar o'rtasidagi aloqa uzluksiz, yuqori darajada yo'lga qo'yilgan. Tibbiy xizmatlar havas qilgudek, ammo aholining demografik o'sishga intilishi past. Ziyolilar o'rtasida: "o'zing uchun yasha", "intellektual o'sishga intil", "biznes qil", degan da'vatlar uchraydi. Urbanistika va sivilizatsiya yaratgan qulaylik va yengil mehnat singapurlik yoshlar o'rtasida hayotga yengil-yelpi qarashni shakllantirmoqda (qarang: Singapore Datasets / imf.org. Mejdunarodniy valyutniy fond, 2023, 1 noyabrya; Human Devolepent Indeks and indicators 2019/ Programma razvitiya OON, 2019, 29 dekabrya).

Singapur shaharsozlikda milliy va G'arb modern stilini uyg'unlashtirishga intiladi, osmono'par binolar milliy dekorativ elementlarga boy. Mehmonxonalarda basseynlar, dam olish xonalari, trenajyor zallar, sataroshxona, massajxona, muolajaxona, kafe va restoranlar, savdo-sotiq do'konlari, turfirmalar joylashgan. Turxizmatlar Singapur urbanistikasining eng maftunkor tomonlaridan biriga aylangan.

Sharqda yuqori urbanistikaga erishgan davlatlardan biri Katardir. BMT Urban Population Index Xalqaro tashkilotning 2020-yilgi ma'lumotiga ko'ra, uning urbanistik taraqqiyoti 99,3 foiz qilib belgilangan. Katar 1971-yil mustaqillikni qo'lga kiritgan. Neft qazib chiqarish borasidagi innovatsion izlanishlar va ijtimoiy-iqtisodiy o'sish urbanistik taraqqiyotni ta'minlagan. Bugun mamlakat milliy daromadining aholi jon boshiga taqsimi 50 124 AQSh dollarini tashkil qiladi. Rivojlangan Yevropa davlatlarida bu 30–33 ming dollarni tashkil qilganida, ularni qiyoslab, Katar qanday ilgari ketganini ko'ramiz.

Katarda ishsizlik 0,2 foizni tashkil qiladi. Tub aholi asosan biznes bilan shug'ullanadi, ijtimoiy-

iqtisodiy, ayniqsa, neft qazib olish, uni qayta ishlab chiqarish, qurilish, transport-logistika sohaslarida chet ellik immigranlar xizmat qiladi. Turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatida asosiy o'rinni egallaydi. Katarda ekin maydonlari kam, umumiy yer maydonining 5,8 foizini tashkil etadi. Qishloq xo'jaligida ham asosan chet eldan kelgan yollanma ishchilar xizmat qiladi. Qimmatbaho tosh va marvarid izlashni asosiy kasbiga aylantirgan Katar arablarni jahon bozorida neft o'rni oshib borayotganini ko'rib, neft sanoatini rivojlantirishga, unga yangi-yangi texnologiyalar kiritishga intilishadi. Ushbu sohadan keladigan daromad urbanistik va turmush madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatib keladi.

Katar "barqaror rivojlanish" konsepsiyasini qabul qilgan, unda ijtimoiy-iqtisodiy sohani rivojlantirish bilan birga, aholining turmush madaniyatini, salomaligini, intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan strategik vazifalar ham belgilangan. Masalan, tibbiyot va sportni qo'llab-quvvatlash uchun milliy daromadning 10-12 foizi sarflanishi belgilangan. 2008-yildan beri Katar barcha aholi turar joylarida sport maydonchalari va maktablari qurishni amalga oshirib keladi. Jahon sport o'yinlari o'tkazish bo'yicha turli tashabbuslarni ilgari suradi. Intellektual rivojlanishga oid 5 G g'oyasini surgan ham Katardir. Shu paytgacha ilmiy intellekt sohasida 3D va 4D texnologiyasidan foydalanish yo'lga qo'yilgandi, 5 G esa ilmiy-texnik imkoniyatlar doirasini yanada kengaytirib yuboradi.

Mamlakat parlamenti qaroriga muvofiq yoshlarning intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun ularni ilg'or universitetlarga yuborish, ish bilan ta'minlash, oilaviy turmushini yo'lga qo'yish uchun moddiy yordamlar uyushtirish, biznes va tadbirkorlikka oid faolligini ro'yobga chiqarish uchun maxsus jamg'armalar tashkil etish yo'lga qo'yilgan. Ishchi-xizmatchilarning turmush madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi past maosh pog'onasi belgilandi, korxonalar ushbu ko'rsatkichdan past maosh belgilashi mumkin emas. Shuningdek, milliy parlament tomonidan xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi faolligini ta'minlash, ularning mehnat huquqini himoya qilishga qaratilgan hujjatlar qabul qilingan. Ushbu maqsadga muvofiq Katar ijtimoiy-iqtisodiy hayotida mehnat qilayotganlarning uchdan biri xotin-qizlardir. Tibbiyot, ta'lim, madaniy-maishiy xizmatlar sohaslarida ular 60-70 foizni tashkil etadi (qarang: khoema./ ru.atlas/ katar/Ras).

Katarda madaniy-maishiy xizmatlar ko'rsatish mutlaq garblashtirilgan. Masalan, arab davlatlarida boshqaning ichki kiyimlari, choyshab, yostiq, sochiq kabilarni yuvib berish qoralanadi, ammo urbanistika ushbu tartibni rad qiladi. Bunday madaniy-maishiy xizmatlar ko'rsatish tarmoqlari shakllantirilgan. Yoki to'y-tomoshalar yetkazishni olaylik. Islomiy talablarga ko'ra to'y-tomoshalar yaqinlar davrasida, oilada o'tkaziladi. Bugun arablar oilaviy tadbirlar va to'y-tomoshalarni serdabdaba to'yxonalarda, Yevropa restoranlarida, keng davralarda, to'kin-sochinlik bilan o'tkazadi. Moddiy ta'minlanganlik urbanistik xizmatlarni rang-barang va turli-tuman qilmoqda.

YOSHLAR MADANIYATINI OSHIRISHDA IJTIMOIY MUHITNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi tezkor, tahlikali davrda yoshlar tarbiyasi va uning dolzarb muammolari haqida so'z ketib buyuk alloma, mutafakkirlarning purma'no hikmatlaridan foydalaniladi. Shuningdek, Sharq allomalarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari keltiriladi.

Kalit so'zlar: yoshlar tarbiyasi, madaniyat, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy muhit, Sharq allomalari, ma'naviy muhit, ehtiyoj, oila, jamiyat, davlat.

РОЛЬ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ В РАЗВИТИИ МОЛОДЕЖНОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В данной статье приводится мнение об образовании молодежи и его актуальных проблемах в современное стремительно развивающееся время, используются мудрые изречения и уроки великих ученых и мыслителей. В статье также рассматриваются взгляды восточных ученых на процесс образования.

Ключевые слова: воспитание молодежи, культура, воспитание, социальная обстановка, восточные ученые, духовная среда, потребность, семья, общество, государство.

THE ROLE OF THE SOCIAL ENVIRONMENT IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH CULTURE

Abstract. This article provides an opinion on the education of youth and its current problems in modern rapidly developing times, using wise sayings and lessons of great scientists and thinkers. The article also discusses the views of Eastern scientists on the process of education.

Key words: youth education, culture, education, social situation, oriental scientists, spiritual environment, need, family, society, state.

XXI asrda hamon ijtimoiy-madaniy sharoit, inson faoliyat yuritadigan madaniy muhit yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayonida muhim o'rin tutmoqda. Zamonaviy jo'shqin jamiyatda yoshlar o'zining harakatchanligi, axborot olishda erkinligi, ongining moslashuvchanligi tufayli madaniyatning asosiy tanqidchisi, yaratuvchisi, tarqatuvchisi va iste'molchisiga aylanmoqda. Shu ma'noda nemis faylasufi K.Yaspersning *"Hamma biladiki, kim yoshlarni zabt etsa, kelajakka egalik qiladi"*¹, – degan iborasi juda ishonarli yangraydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan: *"Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his*

*etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan. Hozir hammamiz bor aybni maktabga ag'darishga o'rganib qolganmiz. Mahalla, oila, keng jamoatchilik-chi? "Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona" degan maqolning haqiqiy ma'nosini anglaydigan vaqt keldi. Anglab, shu asosda yashaydigan vaqt keldi"*², – deya ta'kidladi.

Darhaqiqat, barcha zamonlarda yoshlar madaniyatini o'stirish, ularni yetuk va mukammal inson etib tarbiyalash jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblangan. *"Janobi Haq insonlarning asl hilqatida. Iste'dod va qobiliyatni, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradurgan qilib yaratmishdir. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkurmak tarbiya ila bo'ladir"*³, – deydi Abdulla Avloniy o'zining *"Turkiy guliston yoxud axloq"* asarida. Alloma ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'minlash muhimligini ta'kidlab: *"Dars ila tarbiya orasida biroz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrimaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabitur"*⁴, – deydi. Demak, har qanday jamiyatda yoshlar madaniyatini o'stirishda ta'lim-tarbiya va ma'rifatning o'rni beqiyosdir.

¹ Ясперс К., Бодрийар Ж. Власть массы. Призрак толпы. – Москва: «Алгоритм», 2008 г. С.99.

² Mirziyoyev Sh.M. "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqid. – Toshkent: 2017. <https://president.uz/uz/lists/view/649>

³ Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: "O'qituvchi", 1992-y. 13-b.

⁴ Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: "O'qituvchi", 1992-y. 16-b.

Shu o'rinda, qadimda jamiyatlar qanday paydo bo'lgan, unda odamlarga qay tarzda ta'lim-tarbiya berilgan? – degan savol tug'iladi. "Kichik jamiyatlarning har biri, – deydi buyuk yunon faylasufi Aflotun (Platon) o'zining *"Qonunlar"* asarida, – oqsoqol rahbarligiga bo'lingan edi va ayrim-ayrim yashash tarzi ostida paydo bo'lgan o'zlarining xos urf-odatlariga ega bo'lganlar. Turlicha qabila boshliqlari va tarbiyalovchilar tufayli ular xudolarga va o'z-o'zlarida bo'lgan turli aqidalarga o'rgatildilar. Diyonatliroq tarbiyalovchilardan yaxshi tartibot va diyonatni, mardlaridan katta mardlikni oldilar va xuddi shu tarzda o'zlari o'zlashtirgan qarashlarni o'z bolalari va nabiralarga singdirdilar. Bir so'z bilan aytganda, ular katta jamiyatlarga har birlari o'z qonunlari bo'lgan holda kirib keladilar"⁵. Ma'lumki, inson yashash uchun kurash jarayonida qanchalik ongli mehnat qilsa, u shuncha muvaffaqiyatlarga erishgan. Kurash va mehnatda erishilgan yutuqlar urf-odat, udum, marosim, an'ana va bayramlarni vujudga keltirgan. Shuningdek, bu davrlarda g'ayritabiiy kuchlarga ishonish orqali ibtidoiy e'tiqod vujudga kelgan bo'lib, totemizm, animizm, sehgargilik, feteshizm, shomonlik kabi turlari ibtidoiy jamoa tuzumi davrida keng tarqalgan.

Qadim zamonlardan yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda e'tiqodning, dinning o'zni juda katta bo'lgan. Nemis faylasufi I.G.Gerder o'zining *"Insoniyat falsafasiga doir g'oyalar"* asarida ta'kidlashicha: *"Xalqlarga fan va madaniyatni faqat din olib kelgan va bu madaniyat va fan dastlab oddiygina diniy an'ana sifatida namoyon bo'lgan"*⁶. Eng qadimgi yakkaxudolik dinlardan bo'lgan yahudiylar dinida bolalarni tarbiyalashning asosiy tamoyili "xesed" (insonparvarlik) bo'lib, unda bolalarga ta'lim-tarbiya berishda tarbiyachining o'zi o'rnak ko'rsatishi muhimligi qayd etilgan. Odatda oilada bolalarga tarbiya berish otaga yuklangan bo'lib, tarbiya jarayonida bolalarga jahl qilish, ularni hammaning oldida urishish mumkin bo'lmagan⁷.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lgan *"Avesto"* (qariyb 3000 yil oldin yozilgan) insoniyatni komillikka da'vat etuvchi, barkamollikka, yetuklikka chaqiruvchi ulkan va noyob qadriyatdir. Bu kitobda insonga xos bo'lgan poklik, ezgu niyat, pokiza tuygu, tuproqni muqaddas bilish, vatanni anglash singari oliyjanob fazilatlar, yuksak axloqiy me'yorlar va tafakkur tarzi orqali ifoda etiladi. Odamlar qalbidagi

ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik tuyg'ularining o'zaro kurashida yaxshilik tantanasi va ezgulik g'olibligini ta'minlashga, odamlarga ma'naviy qudrat, ma'naviy rag'bat, ruhiy da'vatkorlik vazifasini o'taydi. Bu nafaqat zardushtiylikka daxldor bo'lgan odamlarni, balki butun insoniyatni yaxshilik sari burishga, kishilik hayotida yuksak ma'naviyat va madaniyatning kirib kelishiga sabab bo'ladi.

*"Fikr, so'z va amal olamidan ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amalni tanlayman. Men barcha yomon fikr, yomon so'z va yomon amaldan yuz buraman"*⁸. *"Avesto"*da keltirilgan bunday axloqiy da'vat, ma'naviy chaqiriq insonda mehr-shafqat, yaxshilik hislarini uyg'otadi. Inson o'zining hayotini, umrini mana shu ezguliklarga baxshida etib, jamiki yovuz fikr, yovuz xayolot, yovuz orzu-umid, yovuz so'z, yovuz munosabatlar, yovuz amal, yovuz xatti-harakatlar va fe'l-atvorlardan yuz burib, komillikka intiladi.

*"Avesto"*da ta'lim-tarbiya to'g'risida fikr yuritilar ekan: *"Haqiqatda eng ezgu ta'lim rostlik ilmi va din ogohlikdir"*⁹, – deyiladi. Shuningdek, kitobda barcha insonlar bilim, ilm olishga chaqiriladi: *"...U kunning ibtidosi va intihosida, u tunning avvali va oxirida bilim olmog'i, tafakkur va donishga limmo-lim bo'lmog'i, nihoyat ashavanlik yo'lida shunday manzilatga yetmog'i kerakki, ilohlar sha'niga hamdu sanolar aytsin, ularni ezgu kalomlar bilan ardoqlasin. Va shu yo'sinda o'z bilimni ziyoda qilsin.*

*...U kunning o'rtasi va tunning o'rtasida juda rohatlanib, sirli og'ushlarda mast bo'lgancha orom olmog'i, shundan so'ng ilm ortidan shu qadar jiddu jahd etmog'i kerakki, o'tmish donishmandlar qoldirgan hamma narsani jon-dildan o'rganib olsin"*¹⁰. Darhaqiqat, barcha insonlar, ayniqsa yoshlar ilm olishga bo'lgan ishtiyoqi va intilishlari natijasida, komillik tomon qadam tashlaydi va madaniyatlari yuksalishiga zamin yaratadi.

*"Avesto"*da ilmu toliblarga o'zlariga tarbiyachi tanlashda ogoh bo'lishlari uqtiriladi va shunday deyiladi: *"...Ey, ilm olmoq niyatida uzoq-yaqindan kelgan insonlar! Alhol, barchangiz quloq solingiz, mening oshkora so'zlarimni tinglangiz va yodingizda mahkam saqlangiz: "Yomon tarbiyachi hech qachon hayotingizni tubanlashtirmasin, devparast durvandlar avraguvchi til bilan sizlarni gumroh qilmasin"*¹¹. Darhaqiqat, insonlar, ayniqsa yoshlar fikri, so'zi va amali yovuz bo'lgan tarbiyachilardan ogoh bo'lib, darhol ularning tarbiyalaridan voz kechmoqlari lozim.

Qadimgi Xitoyda vujudga kelgan Konfutsiylik ta'limoti insonlar ongu tafakkurining oshishida, yoshlar madaniyatini o'stirishda muhim o'rin tutadi. Bu ta'limotga Konfutsiy (Kun Szi – mil.av. 551–479-yillar) tomonidan asos solingan bo'lib, bu ta'limot mamlakat bo'ylab keng tarqaladi. Konfutsiy huzuriga turli mintaqalardan ilmga chanqoq yoshlar oqib kela boshlaydi. Konfutsiy maktabi qadimgi Xitoyda asta-sekin katta ta'sir doirasiga aylana bordi. Uning ko'plab shogirdlari qadimgi Xitoy podshohliklarida nufuzli mansablarni egalladilar. Konfutsiy yoshlar tarbiyachisi va ustozlari sifatida

⁵ Aflotun. Qonunlar (Tarj. Urfon Otajon). – T.: 2008-y. "Yangi asr avlodi", 78-b.

⁶ Гердер И.Г. Идеи к философии истории человечества. – М.: СПб.: Центр гуманитарных инициатив, 2013 г. С.269.

⁷ Юрковец А.А., Ребенок Е.Д. Традиции воспитания в иудаизме. <https://cyberleninka.ru/article/n/traditsii-vospitaniya-v-iudaizme> Murojaat qilingan sana: 23.06.2024.

⁸ Avesto tarixiy-adabiy yodgorlik (Asqar Mahkam tarjimasi). – T.: "Sharq", 2001-y. 34-b.

⁹ O'sha asar. 14-b.

¹⁰ O'sha asar. 121-b.

¹¹ Avesto tarixiy-adabiy yodgorlik (Asqar Mahkam tarjimasi). – T.: "Sharq", 2001-y. 22-b.

keng shuhrat qozonib, ilk Xitoy ma'rifatparvari nomiga sazovor bo'lgan bo'lsa, u tomonidan taklif qilingan islohotlarning amalga oshirilishida uning aksi bo'ldi. Konfutsiy vafotidan bir necha asr o'tgach, uning o'zi orzu qilganidek, podshohlar dono, amaldorlar fidoyi, xalq esa farovon bo'lgan paytda uning ta'limoti xalq xayotining ajralmas bir qismi bo'lib ulgurdi.

Qadimgi Yunoniston jamiyatida ta'lim-tarbiya jarayonlari haqida fikr yuritganda, ularda "paydeyya" ta'limoti g'oyat muhim o'rin egallaganini bilishimiz mumkin. Nemis olimi Verner Yeger o'zining "Paydeyya. Qadimgi yunoncha tarbiya" asarida Gomerning "Iliada" va "Odissey" dostonlari haqida fikr yuritarkan: "Gomer keyingi davrlar uchun yunon ta'limida hal qiluvchi iz qoldirdi"¹², – deydi. Gomer qadimgi Yunonistonda birinchi tarbiyachi sifatida tarixga kirdi. Yunonlar shoir Gesiodni esa ikkinchi tarbiyachi, deb bilganlar. Yeger fikriga ko'ra: *"Agar Gomer har qanday ta'lim-tarbiyaning manbai inson aristokratik idealining shakllanishi ekanligini hamda u qahramon va hukmron fazilatlarini ongli ravishda tarbiyalashdan kelib chiqishiga asosiy urg'uni bersa, Gesiodda madaniyatning ikkinchi asosiy manbai – mehnat qadri kengroq ochib beriladi"*¹³. Gesiod she'riyatida aristokratik bo'lmagan oddiy muhitda ongli ravishda o'z-o'zini tarbiyalash g'oyasining paydo bo'lishiga asosiy urg'u beriladi. Shuningdek, Esxil, Sofokl va Yevripidlarning tragediya, Aristofanning komediya janrida yozilgan asarlarida ham ta'lim-tarbiya masalasi muhim o'rin tutadi. Shu davrlarda tarbiya, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat maskani bo'lgan teatrga asos solindi.

Buyuk yunon faylasufi Arastu (Aristotel) yoshlar ta'lim-tarbiyasini jamiyat va davlat uchun nihoyatda muhim, deb hisoblaydi. *"Oilada yaxshi (solih, xushxulqli, sofdil, mard, mehnatsevar, pahlavon, oliyjanob) farzandlar ko'p bo'lishi, davlatning ham qudratini tashkil etadi. Chunki mamlakatda yaxshi tarbiya ko'rgan ruhiy, ma'naviy va jismoniy jihatdan ham go'zal, bo'ydor, pahlavon, chaqqon yigitlar ko'p bo'lishi davlatni kuchli qiladi, obro'sini oshiradi. Ma'naviy go'zallikka kelsak, kamtarinlik va mardlik – yigitlarning eng yaxshi fazilatlaridir"*¹⁴, – deydi Arastu. Yana olimning fikricha: davlat uchun ham, ayrim oila boshlig'i uchun ham fozil (fazilatli) yigit va qizlar bo'lishi baxt-saodatdir. Qizlar uchun jismoniy jihatdan go'zal, xushqomat bo'lish, ma'naviy jihatdan kamtarin, mehnatsevar, oliyjanob bo'lish eng yaxshi fazilatlaridir. Arastuning ta'kidlashicha: *"Tarbiya ko'rgan odamlar bu ilm-ma'rifat olgan insonlardir"*¹⁵.

Miloddan avvalgi 340-yillarda Arastu Makedoniya poytaxti Pellaga Filipp II tomonidan taklif etilib, 13 yoshli Iskandar (Aleksandr Makedonskiy)ga murabbiy etib tayinlanadi. Arastu Iskandarni Gomerning "Iliada" dostonida kuylangan qahramonliklar ruhida tarbiyalaydi. Keyinchalik Iskandar: *"Men Arastuni otam qatori hurmatlayman, chunki otam menga hayot berdi, Arastu hayot qadriyatlarini berdi"*¹⁶, – degan ekan. Darhaqiqat, Iskandar o'z ustozlaridan "paydeyya" ta'limoti asosida ta'lim-tarbiya olganligi natijasida eng buyuk shaxslardan biri sifatida insoniyat tarixida muhim o'rin egalladi.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi yunon jamiyatida ta'lim-tarbiya, madaniyat, jismoniy tarbiya, ilm-fan va san'atga bo'lgan yuksak e'tibor buyuk sivilizatsiya vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

¹² Йегер В. Пайдейя. Воспитание античного грека (Том 1., Пер. А.И.Луибжина). – М.: 2001 г. С.88.

¹³ O'sha asar. 88-b.

¹⁴ Апасу. "Поэтика", "Ахлоқи кабир", "Риторика". – Т.: "Yangi asr avlodi", 2015-y. 240-241-b.

¹⁵ O'sha asar. 256-b.

¹⁶ O'sha asar. 6-b.



ISXAKOV Mirsaat Mirsultanovich,
O'zDSMI "Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrasining katta o'qituvchisi

BADIIY ADABIYOTNI TARG'IB QILISHDA BIBLIOTERAPIYA USULLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, o'quvchi shaxsini shakllantirish va rivojlantirish, kutubxonalarda badiiy asarlarni o'qish va o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish hamda biblioterapevtik usullar, uslublardan foydalangan holda kitob o'qishga jalb qilish asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: biblioterapiya, identifikatsiya, interfaol usul, empatiya, katarsis, ijodkorlik terapiyasi, pragmatik.

МЕТОДЫ БИБЛИОТЕРАПИИ В ПРОПАГАНДЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. В данной статье обосновано формирование и развитие личности школьника, повышение его увлеченности чтением и изучением произведений искусства в библиотеках, привлечение его к чтению книг с использованием методов и приемов библиотерапии.

Ключевые слова: библиотерапия, идентификация, интерактивный метод, эмпатия, катарсис, терапия творчеством.

METHODS OF BIBLIOTHERAPY IN THE PROMOTION OF FICTION

Abstract. This article substantiates the formation and development of a schoolchild's personality, increasing his passion for reading and studying works of art in libraries, and involving him in reading books using methods and techniques of bibliotherapy.

Key words: bibliotherapy, identification, interactive method, empathy, catharsis, art therapy.

Bugungi kunda kutubxonachilar, san'atkorlar, o'qituvchilar, psixologlar va ta'lim-tarbiya muammolari bilan bog'liq bo'lgan har bir kishi bolalar va o'smirlar kitob o'qimayotganligi, ularning ruhiyati o'zgargan, degan xulosaga kelishadi. Ularning ongi, tafakkuri, idroki, nutqi o'zgargan. Bu tushunarli: zamonaviy bola tug'ilgandan boshlab axborot olamida o'sadi, axborot texnologiyalarini erta o'zlashtiradi. Bu shubhasiz, uning ruhiyatiga ta'sir qiladi va dunyoga bo'lgan nuqtayi nazarini o'zgartiradi. Ular ko'pincha boshqa odamlarning his-tuyg'ulariga yetarli darajada javob bera olmaydilar, o'zlarining his-tuyg'ularini tushunmaydilar va ular bunga javobni kitoblardan olish mumkinligini bilishmaydi. Bolalar kamroq romantik va pragmatik (yun. pragma, pragmatos – ish, harakat: o'qish-kuzatish) bo'lib, ma'naviy qadriyatlarni afzal ko'rishdi.

Biblioterapiya so'zi lotincha bo'lib, "biblio" – kitob, "terapiya" – davolash, ya'ni kitob orqali davolash degan ma'noni anglatadi. Bu so'z azaldan kutubxonachilik sohasida ishlatilgan. Yunon tarixchisi Diodor Sikluning

so'zlariga ko'ra, kutubxonachilikda ishlatilgan eng qadimgi shior qadimgi Misr shohi Ramzes II kitoblari saqlangan uyning old tomoniga "Qalbni davolovchi uy", deb yozib qo'ygan. Milodiy II asrda yashagan taniqli yunon faylasufi Galen tibbiy kutubxona tashkil etadi. Bu dunyodagi terapevtik shifobaxsh suvlari bilan tanilgan Rimdagi birinchi kasalxona edi. Galen Rimning Mark Avreli hukmdorligi davridagi g'ayrioddiy faylasufi va shifokori, milodning birinchi asrida tibbiyot kutubxonasi faoliyatini olib borgan, nafaqat o'zi tomonidan, balki davolovchi shifobaxsh suvlari bilan mashhur bo'lgan Rim kurorti Asklepion sanatoriyasi xodimlari tomonidan ham foydalanilgan. Dunyodagi birinchi kasalxona markazlarida 1272-yildayoq Qohiradagi Al-Mansur kasalxonasida davolanish uchun Qur'on o'qish buyurilgan edi. Bu o'sha paytdayoq kitobning qadr-qimmatiga tushunib yetganliklarini ko'rsatadi.

Biblioterapiya usuli bilan davolash qadimgi Misr va Yunonistonda ham boshlanadi. Bu paytlarda odamlar yozma matnning shifobaxsh kuchiga ishonishgan.



Masalan, Suqrotning so'zlariga ko'ra, terapiya ma'naviy uyg'unlikni keltirib chiqaradi. She'riy terapiyaning asoschisi deb tan olingan Aristotel nutqdagi qofiya insonning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aniqladi.

Biblioterapiya umuman stimol sifatida, shuningdek, pedagogik-terapevtik yoki "psixologik" jarayon sifatida o'rganiladi. Psixoterapiyani bemorlarni davolashning oxirgi chorasi – qayta tarbiyalash deb ham atash mumkin. Psixoterapiya – bu axborot terapiyasi bo'lib, uning ta'siri ma'lumot olish qobiliyatining kuchiga bog'liq. Bu yerda ovozda ohanglar, hissiy fonlar va musiqaning uyg'unligi kabi psixologik jihatlar ham juda muhim o'rin tutadi.

Qadim zamonlardan beri so'zning davolovchi xususiyatlarga ega ekanligi va musiqaning barcha tirik mavjudotlarga, shuningdek, odamlarning kayfiyati va hissiyotlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'lgan. Masalan, Gippokrat kasallarga maxsus musiqa kurslarini o'tishni tayinlagan ekan. Yana bir taniqli qadimgi yunon olimi Pifagor musiqaning ta'siri haqida shunday degan: "Musika aqlidan ozgan odamlarni davolaydi". Abu Ali ibn Sinoning ta'kidlashicha, musiqa melanxoliyadan aziyat chekayotganlarning qalbini ochadi, chunki yaxshi ohang og'riqni kamaytiradi, chalg'itadi va uxlashga yordam beradi.

O'quvchi turli holatlarni boshdan kechirish va turli xil hayotiy vaziyatlarni boshdan kechirish imkoniyatiga ega. *"O'quvchi adabiy qahramon rolida harakat qilib, o'z ongidan yangi fikr va tuyg'ular dunyosini chiqaradi. Boshqacha aytganda, kitobni va undagi boshqa shaxsni ochib, tafakkur qiluvchi kitobxon bir vaqtning o'zida o'zini kashf etadi"*.

Bu haqda professor Ergash Yuldoshev shunday yozgan edi: *"Foydalanuvchi o'zinikini o'zganikida tanimagunicha, o'zinikini o'ziga emas, boshqalarga bo'layotgan voqeaning dalili sifatida qarasa, toki uni*

*kuydirmaguncha. Uni qoplashdan shu paytgacha o'z-o'zidan ishlab chiqarish yo'q, bunga ehtiyoj ham yo'q"*¹.

O'qishga ijobiy munosabat, uning fikricha, bola o'zini yozuvchi tasvirlagan voqealarning ishtirokchisi sifatida his qilgan paytdan, u o'qiyotgan narsasida shaxsiy ma'noni kashf qilgan paytdan, kitob uning oldida bo'sh joy sifatida paydo bo'lgan paytdan boshlanadi. O'z ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish identifikatsiyaning ikki tomoni bor: tashqi va ichki. Agar o'quvchi o'zini qahramonlar bilan jinsi, millati, ijtimoiy mavqei, kasbi va qiziqishlariga ko'ra birlashtirsa, o'zgalarning shaxsiy ishtirokidagi ichki dunyosini boyitish mumkin.

Insonning kitobxonlik madaniyati qanchalik baland bo'lsa, uning uchun ichki tomoni – qahramonlar va mualliflar bilan ma'naviy aloqasi shunchalik muhim bo'ladi.

Psixologlarning fikriga ko'ra, ichki identifikatsiya qilish qobiliyati ko'proq balog'at yoshida, "identifikatsiya inqirozi" deb ataladigan hodisa ko'pincha sodir bo'lganda, bolaning dunyoga va o'ziga bo'lgan barcha oldingi munosabatlari buzilgan va qayta tiklanganda va jarayonlar sodir bo'lganda namoyon bo'ladi. O'z-o'zini bilish va o'z taqdirini o'zi belgilash rivojlanadi.

Identifikatsiya bir qancha refleksiv texnika va usullarni bildiradi. Refleksiya (reflectere – orqaga qaytish, aks ettirish) – bu tahlil qilish, o'z fikrlari va tajribalarini baholash, o'z his-tuyg'ulariga e'tibor berishdir. "Tuyg'ular sizning muammolaringizni hal qilishning yo'lidir. Adabiyot insonning ichki dunyosini tasvirlashda, uning his-tuyg'ularini, fikrlarini aks ettirishda chinakam noyob imkoniyatlarga ega.

Refleksiv jarayonlarning o'ziga xosligi insonning ma'naviy dunyosi, uning o'z tajribasini tushunish yoki qayta ko'rib chiqish qobiliyati, o'zi haqidagi bilimlari, his-tuyg'ulari, baholari, fikrlari, munosabatlari va boshqalar bilan belgilanadi. Bunday aks ettirish, subyektning o'zini o'zi o'rganishi bilan bog'liq. Bu o'ziga nisbatan tashqi pozitsiyani egallashga majbur qiladigan shaxsiy fikrlashdir. Bu o'z tajribasining stereotiplarini qayta ko'rib chiqish yo'lidir. Y.A.Ponomarevning fikricha, ijodkorlikning asosiy xususiyatlaridan biridir. Inson o'zi uchun o'zini o'zi rivojlantirishning asosiy vositasi, shaxsiy o'sish sharti va usuliga aylanadi².

Empatiya g'oyasi badiiy asarni idrok etish va o'qish jarayonida ushbu mexanizmni yangilash uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi. Uslubiy nuqtayi nazardan buni qilish oson emas, chunki bolani eshitgan yoki o'qigan narsalariga hamdard bo'lishga majburlash mumkin emas. Bolada empatiya rivojlanishi uchun badiiy asar shaxsan uning uchun ahamiyatli bo'lishi va hozirgi paytda dolzarb bo'lgan masalalarni ko'tarishi muhimdir. Bunday holda *"ko'pincha odam o'ziga tegishli bo'lgan hodisalarni yanada kuchliroq his qiladi, idrok etadi va shuning uchun empatiya jarayonida faolroq ishtirok etadi"*³.

Empatiyani ifodalashning tashqi usullari va usullarini o'zlashtirish (qahramonning dardida,

¹ Yuldoshev E. Kutubxonada bolalar o'qishiga rahbarlik qilish (o'quv qo'llanma). – Toshkent: "O'zbekiston", 2002-y. 128-b.

² O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000–2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.

³ Роджерс К.Р. Эмпатия // Психология эмоций. – Москва: Изд-во МГУ, 1984 г. С.234–238.

muallifning qayg'usida) chuqur shaxsiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan juda kuchli vosita bo'lishi mumkin. Ehtimol, agar bola *"bu kashfiyot bilan yondirilgan"* bo'lsa, u kitobni o'zi o'qish yoki qayta o'qish istagi paydo bo'ladi"⁴.

E.Yuldoshev "kitobni qayta o'qish hodisasini insonning yana his-hayajonni boshdan kechirishga bo'lgan ehtiyoji haqida yozadi: "Bunday holda biz katarsis kabi tushunchaga duch kelamiz. Katarsis (yunoncha: katharsis – poklanish) – hissiy yengil tortish; ruhning hissiy va jismoniy tozalanishi. Aristotel "Poetika" asarida bu terminni ishlatib, fojining maqsadi sifatida "azoblanish va achinish" yordamida ruhning tozalanishini tushungan. Demak, katarsis – bu ruhiy yuksalish sifatida boshdan kechirilgan poklanish. Aristotelning fikricha, fojia qo'rquv, g'azab, rahm-shafqatni keltirib chiqaradi, tomoshabinni hissiy hayajonga soladi, shu orqali uning ruhini poklaydi, uni yuksaltiradi va tarbiyalaydi"⁵.

Biblioterapiyada samarali usullardan biri ijodiy terapiyadir. U *"bolaning ahvolini yaxshilash, shaxsiy rivojlanish darajasini oshirish, ijtimoiy va axloqiy faoliyat nuqtayi nazaridan insonning yashirin zaxiralarini ochish va bu insonning ijodkorlik orqali o'ziga va boshqalarga nisbatan yangi munosabatni shakllantirishini ta'minlashdir"*⁶.

O'qish faoliyati asosida o'smirning o'z-o'zini anglash darajasi kengayadi, boshqa odamlar, atrof olam haqidagi bilimlari chuqurlashadi. Psixik rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadi. Bilim o'rganish ehtiyojlari asosida asta-sekinlik bilan o'quv fanlariga nisbatan qat'iy ijobiy munosabat shakllanadi. Bu davrda o'qishning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu motivlar o'smirning, hayotiy rejalari, kelajak kasbi va ideali bilan bog'liq bo'lgan holda bilish jarayonlari rivojlanish xarakteriga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Aynan o'smirlik davridan boshlab bolalar hayotiy, ilmiy, badiiy bilimlarni kengaytirishga alohida ehtiyoj sezadilar va bunga harakat qiladilar.

Xulosa qilib aytsak, Biblioterapiya umuman stimol sifatida, shuningdek, pedagogik-terapevtik yoki "psixologik" jarayon sifatida o'rganiladi. Psixoterapiyani bemorlarni davolashning oxirgi chorasi – qayta tarbiyalash, deb ham atash mumkin. Psixoterapiya – bu axborot terapiyasi bo'lib, uning ta'siri ma'lumot olish qobiliyatining kuchiga bog'liq. Bu yerda ovozdagi ohanglar, hissiy fonlar va musiqaning uyg'unligi kabi psixologik jihatlar ham juda muhim o'rin tutadi.

⁴ G'oziyev E. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: 1997-y. 156-b.

⁵ Yuldoshev E. Kutubxona va yosh kitobxon. – T.: "O'zbekiston", 2003-y. 201-b.

⁶ O'sha manba.

ФОРМИРОВАНИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ БИБЛИОТЕЧНЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию процесса формирования читательской компетенции у будущих библиотечных специалистов. Рассматриваются основные понятия и методы, способствующие развитию критических и аналитических навыков работы с текстами. Особое внимание уделено роли высшего библиотечного образования в развитии читательской культуры, применению современных технологий и практической подготовки, студентов. В статье предложены методы преподавания и организации учебного процесса, направленные на повышение компетентности будущих библиотекарей в области читательской деятельности.

Ключевые слова: читательская компетенция, библиотечное образование, библиотечно-информационная деятельность, читательская культура, цифровые технологии, библиотекарь, высшее образование, методы преподавания.

KELAJAKDAGI KUTUBXONACHI MUTAXASSISLARING O'QUV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada, kelajakdagi kutubxonachi mutaxassislarining o'quv kompetensiyasini shakllantirish jarayonini o'rganishga bag'ishlangan. Matnlar bilan ishlashda tanqidiy va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan asosiy tushunchalar va usullar ko'rib chiqiladi. Kutubxona madaniyatini rivojlantirishda oliy kutubxona ta'limining roli, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va talabalarni amaliy tayyorlashga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada kelajakdagi kutubxonachilarning o'quv faoliyatidagi kompetentligini oshirishga qaratilgan o'qitish va o'quv jarayonini tashkil etish usullari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: o'quv kompetensiyasi, kutubxona ta'limi, kutubxona va axborot faoliyati, o'quv madaniyati, raqamli texnologiyalar, kutubxonachi, oliy ta'lim, o'qitish usullari.

FORMATION OF READING COMPETENCE IN FUTURE LIBRARY SPECIALISTS

Abstract. The article is devoted to the study of the process of forming reading competence in future library specialists. It examines key concepts and methods that contribute to the development of critical and analytical skills in working with texts. Special attention is paid to the role of higher library education in the development of reading culture, the application of modern technologies, and the practical training of students. The article proposes teaching methods and approaches to organizing the educational process aimed at enhancing the competence of future librarians in the field of reading activities.

Key words: reading competence, library education, library and information activities, reading culture, digital technologies, librarian, higher education, teaching methods.

В условиях развития информационного общества роль библиотек и библиотечных специалистов претерпевает значительные изменения. Важной задачей библиотекаря становится не только управление фондами и информационными ресурсами, но и помощь пользователям в развитии их читательской компетенции. Современные библиотекари должны обладать способностями к работе с разными источниками информации и обучать этому своих читателей. В данной статье рассматриваются основные аспекты формирования читательской компетенции у будущих библиотечных специалистов.

Прежде всего необходимо разобраться в понятии читательской компетенции – что же это такое? Читательская компетенция включает способность к эффективному восприятию, анализу и интерпретации текстов. В контексте библиотечного образо-

вания это означает не только умение самостоятельно работать с источниками информации, но и способность передавать эти навыки другим. Будущие библиотекари должны уметь:

- ✔ критически оценивать информационные ресурсы;
- ✔ развивать читательскую культуру среди различных категорий пользователей;
- ✔ организовывать мероприятия, направленные на продвижение чтения.

В формировании читательской компетенции будущих библиотечных специалистов огромную роль играет библиотечно-информационное образование. Именно высшее библиотечное образование, способствует формированию читательской компетенции у будущих специалистов.

Образовательные программы факультета «Библиотечно-информационная деятельность» вклю-

чают курсы, направленные на развитие аналитических, критических и творческих навыков у студентов. Это достигается через: преподавание теории и методологии чтения; практику работы с разными категориями пользователей, включая детей, подростков и взрослых; применение активных методов обучения, таких как проектные работы и интерактивные семинары.

Эффективное формирование читательской компетенции невозможно без использования разнообразных методов обучения. Выбор методов в процессе формирования читательской компетенции у студентов играет важную роль. Среди наиболее эффективных следует отметить:

✔ *анализ литературных текстов, который включает обучение студентов методам критического анализа различных типов текстов, от научной литературы до художественных произведений.*

✔ *читательские клубы и семинары основанные на проведении обсуждений книг и информационных материалов, что помогает студентам не только обмениваться мнениями, но и развивать свои аналитические способности.*

✔ *проектная работа, которая помогает будущим специалистам разрабатывать программы по продвижению чтения среди разных групп населения, что в свою очередь способствует развитию их творческих и организационных навыков.*

Важную роль в формировании читательской компетенции будущих библиотечных специалистов играют цифровые технологии и цифровые ресурсы. Именно они становятся неотъемлемой частью процесса обучения. Будущие библиотекари должны уметь использовать электронные ресурсы для продвижения чтения, а также обучать пользователей работе с этими ресурсами. Использование электронных библиотек, цифровых архи-

вов и баз данных способствует развитию информационной грамотности у студентов и помогает им стать компетентными специалистами.

Необходимо подчеркнуть, что особое значение в формировании читательской компетенции имеет практическая подготовка. Студенты библиотечных факультетов должны иметь возможность применять теоретические знания на практике через стажировки и учебные практики в библиотеках. Это позволяет им погружаться в профессиональную среду, работать с читателями и организовывать мероприятия, направленные на популяризацию чтения.

Формирование читательской компетенции является важной составляющей подготовки будущих библиотечных специалистов. Оно требует как теоретической, так и практической подготовки, включающей использование современных образовательных методов и цифровых технологий. Библиотекари нового поколения должны быть готовы к тому, чтобы не только самостоятельно осваивать новые информационные ресурсы, но и эффективно передавать эти знания пользователям информационно-библиотечных учреждений.

Использованная литература:

1. Андреева Т.В. Читательская компетенция: современные подходы к формированию. // Библиотекосведение. 2020 г. № 2. С.30–37.
2. Приходченко Е.И. Формирование читательской компетентности будущих специалистов. // Е.И.Приходченко, О.В.Кулькова // Дидактика математики: проблемы и исследования: международный сборник научных работ. 2021. №54. С.41–47.
3. Орлова Э.А. Рекомендации по повышению уровня читательской компетентности в рамках Национальной программы поддержки и развития чтения. – Москва: МЦБС, 2008 г. С.72.

KUTUBXONA-AXBOROT MUASSASALARIDA AMALGA OSHIRILADIGAN VIRTUAL MULOQOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ilmiy maqolada, axborotlashgan jamiyatning rivojlanish sharoitida kutubxona-axborot muassasalarining mazmun-mohiyatini anglab yetish, kutubxonachi va uning foydalanuvchilari o'rtasidagi bevosita muloqot o'rnatilishini nazarda tutish, turli axborot texnologiyalari inson shaxsiyatini asta-sekin chetga surib borayotgan bir sharoitda muloqotning muhim ahamiyat kasb etishi, yuzma-yuz muloqot, virtual muloqot hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: axborot, axborotlashgan jamiyat, muloqot, virtual muloqot, virtual axborot, elektron pochta, virtual kutubxona.

ВИРТУАЛЬНАЯ КОММУНИКАЦИЯ РЕАЛИЗУЕМАЯ В БИБЛИОТЕЧНО-ИНФОРМАЦИОННЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ И ЕГО ОСОБЕННОСТИ

Аннотация. В научной статье, понимая сущность библиотечно-информационного учреждения в условиях развития информационного общества, предполагая установление прямой связи между библиотекарем и его пользователями, важность общения в ситуации, когда различные информационные технологии постепенно оттесняют человеческую личность, выделяются общение лицом к лицу, виртуальное общение и их специфические особенности.

Ключевые слова: информация, информационное общество, общение, виртуальное общение, виртуальная информация, электронная почта, виртуальная библиотека.

VIRTUAL COMMUNICATION IMPLEMENTED IN LIBRARY AND INFORMATION INSTITUTIONS AND ITS FEATURES

Abstract. In the scientific state, understanding the importance of the library and information organization and the conditions for the development of the information society, presupposing the establishment of a direct relationship between librarians and their users, the importance of the community and the situation where different information technologies gradually reduce the human capacity, the public library, the virtual public and its specific features.

Key words: information, information society, society, virtual society, virtual information, e-mail, virtual library.

Axborotlashgan jamiyatning rivojlanishi hamda kutubxonaning mazmun-mohiyatini anglab yetish borasidagi o'zgarishlar ma'lumot berish ishining tabiatiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, mazkur sohaning aksariyat jihatlari o'zgarmasdan qolmoqda. Avvalo shuni ta'qidlash zarurki, mazkur xizmat hali-hanuz kutubxonachi va uning foydalanuvchilari o'rtasidagi bevosita muloqot o'rnatilishini nazarda tutadi. Shaxsiy xizmat ko'rsatishning bu darajasi XXI asrda turli axborot texnologiyalari inson shaxsiyatini asta-sekin chetga surib borayotgan bir zamonda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Odatdagi ma'lumot yetkazish xizmati foydalanuvchilar orasida hamon yuqori darajada qadrlanayotgan bo'lsa-da, xizmat ko'rsatishning yangi turlari ham ommalashib bormoqda. Shuning uchun ham kutubxona xodimlari kelib tushishi mumkin bo'lgan so'rovlarning miqyosini yaxshi tushunishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu ularga so'rovning qanday ko'rinishida bo'lishidan qat'i nazar, unga to'liq javob berish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanuvchilar tomonidan berilishi mumkin bo'lgan savollarning xilma-xilligidan kelib chiqadigan bo'lsa, ularga javob berish ancha mushkul tuyulishi mumkin. Ma'lumki, axborot yetkazish xizmatlarining eng qiyin jihati – izlanayotgan axborot yoki berilayotgan savolning keng qamrovli ekanligi borasidagi noaniqlikdir.

Shuning uchun ham ma'lumot qidirish jarayonida berilayotgan savollarning turlari bo'yicha ajratib chiqish kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini oladi. Axborot xizmati jarayonida duch kelinadigan savollarni uchta asosiy turga ajratish mumkin:

1. *Aniq ma'lumot olishga qaratilgan savollar.*
2. *Tadqiqot mazmunidagi savollar.*
3. *Bibliografik tasdiqlash mazmunidagi savollar.*

Aniq ma'lumot olishga qaratilgan savollar masalan, "Ibn Sino qayerda tug'ilgan?" "Mikroskopni kim ixtiro qilgan?" va hokazo savollarga bir yoki ikkita umumiy turdagi ma'lumot manbalaridan foydalangan holda javob berilishi mumkin. Kutubxona xodimi bu kabi savollarga hech qanday manbalarga murojaat

qilmagan holda javob berishi ham mumkin, lekin aniq ma'lumot olishga qaratilgan savollarning javobi oddiy ko'rinsa-da, ular o'zida ayrim tarbiyaviy jihatlarni ham aks ettiradi. Shuning uchun ham shunday savollar kelib tushganida, kutubxona xodimlari foydalanuvchilarga tayyor javobni berib qo'ymasdan, ularning o'zini ham axborot izlash jarayonida ishtirok etishini ta'minlash lozim.

Foydalanuvchilarga aniq ma'lumotli savollarga javoblarni muntazam ravishda o'tkazib turuvchi kutubxona xodimlari ba'zida "o'ziga xos tayyor javoblar" bo'linmasini yaratib oladi. Masalan, eng ko'p ishlatiladigan manbalarning bosma ko'rinishi yoki kutubxona veb-saytida joylangan, oson va eng ko'p uchraydigan savollarning javoblaridan iborat bo'lishi mumkin. Bu kabi bo'linmalar, umumiy ensiklopediyalar, lug'atlar, almanaxlar ma'lumotnomalardan tashkil topadi va ularni doimiy tarzda yangilab borish alohida ahamiyatga egadir. Shuningdek, bu turdagi ma'lumotlarga asosiy o'rin ajratib, foydalanuvchilarning kutubxonadagi boshqa manbalarni nazardan qochirmasligini ta'minlash ham zarurdir. Yangi turdagi (masalan Google singari) axborot portallari paydo bo'lgach, kutubxona xodimlarida aniq ma'lumot olishga qaratilgan savollarning soni birmuncha kamaydi, chunki hozirgi paytda foydalanuvchilar ularning javoblarini o'zlari internet tarmog'i orqali topish imkoniyatiga egadir.

Shunga qaramasdan, mazkur turdagi savollar axborot xizmatlarining eng muhim bo'g'inlaridan biri sifatida saqlanib qolmoqda va kutubxona xodimlari bu kabi savollarning javobini topishga doimo tayyor bo'lishlari lozim.

Tadqiqot mazmunidagi savollar birmuncha mushkul bo'lib, ularga javob berish uchun ko'proq vaqt va axborot manbalari talab qilinishi mumkin. Bu turdagi savollar foydalanuvchilarni turli manbalarni o'rganishga va xulosaga kelishi uchun turtki beradi. Ba'zida javobi birmuncha oson ko'ringan savollarning yechimi ancha mushkul bo'lib, savolning ichidagi yangi jihatlar uning yechimini topish uchun jiddiy izlanishni talab etadi. Agar foydalanuvchi o'ziga zarur bo'lgan ma'lumotning qanday bo'lishi kerakligini bilmasa, kutubxonachi undan qo'shimcha savollarni so'rab izlanayotgan ma'lumotlarning parametrlarini aniqlab olishi zarurdir.

Kutubxona-axborot muassasasi xizmatidan foydalanuvchilar bibliografik tasdiq mazmunidagi axborotni izlash jarayonida qatnashishi ham mumkin. Bu holat foydalanuvchi o'ziga zarur bo'lgan axborotni topgach, uning aynan o'sha manbalardan olinganini tasdiqlashi kerak bo'lganida yuzaga keladi.

Kutubxona-axborot xizmatining bu turi ba'zan faktlarni tekshirishda, ayrim holda esa foydalanuvchilar o'z tadqiqotini tugatgan, lekin ulardan ko'chirmalar olishda qo'l kelishi mumkin. Foydalanuvchilar ma'lumot olishda asosan elektron ko'rinishda axborot bazalaridan foydalanishi inobatga olinadigan bo'lsa, bibliografik ko'chirmalarni tuzish birmuncha osonlashadi. Veb-sahifalarda topilgan materialni

tasdiqlash va undan ko'chirma olish muayyan murakkablikka ega bo'lgan jarayon hisoblanadi. Chunki ko'chirma olish kerak bo'lgan axborot manbai har doim ham osonlik bilan topilavermaydi.

Foydalanuvchiga maslahat berish xizmati ba'zan axborot xizmatining bir turi sifatida qaralib, kerakli manbani o'z o'quvchisiga yetkazib berishdagi say-harakatdan iboratdir. Hozirgi paytda kutubxonachilar, "menga yaxshi kitob topishda yordam bera olasizmi?" degan savolga ko'prok duch kelmoqdalar. Garchi hech narsa shaxsiy bilim va tajribaning o'rnini bosa olmasa-da, yangi texnologiyalar foydalanuvchilarga maslahat berish xizmatining ishini avvalgidan ko'ra birmuncha osonlashtirmoqda. Lekin unutmashlik zarurki, foydalanuvchilarga maslahat berish xizmati kutubxonachi va foydalanuvchi o'rtasida muloqot asosida qurilib, to'g'ri savollar berish, foydalanuvchining savollarini diqqat bilan eshitish va samarali yordam ko'rsatish yuqori darajadagi xizmat ko'rsatishning asosiy vazifasidir.

Foydalanuvchilarga maslahat berish xizmatidan odatda ko'proq badiiy kitoblarni axtarayotgan foydalanuvchilar foydalanishadi. Ilm-fan vakillari ham ushbu xizmatdan foydalanishlari mumkin bo'lib, ular asosan muayyan soha bo'yicha o'z bilimlarini oshirish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni topishda yordamga muhtoj bo'ladi. Yuqori malakali kutubxonachilar foydalanuvchilarga maslahat berish jarayonida turli savollar berish orqali ularning bilim va tafakkur darajasini bilib olish imkoniyatiga ham egadir. Ularning badiiy va hujjatli adabiyotning turli janrlari bilan tanish bo'lishi hamda kutubxona fondida qanday asarlar borligi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi ham talab qilinadi. Shu bilan birga ular kutubxonachilik sohasiga oid bilimlarni do'stona va muloyim tarzda yetkazib bera olishi ham muhim ahamiyatga egadir.

Axborot xizmatlarining taklif qilinish usullari ham o'zgarib borayotganli tufayli ma'lumot berish xizmati elektron aloqa vositalariga tobora kengroq asoslanishini inobatga olmaslik mumkin emas.

Garchi bosma nashrlar o'z ahamiyatini yo'qotmasa ham mazkur jarayonda elektron manbalarga bo'lgan urg'u sezilarli darajada kuchayib boradi.

Foydalanuvchilar kutubxonaga kelib yoki masofadan turib (telefon, elektron pochta, chat va hokazo) kutubxonachi bilan muloqotga kirishganida tabiiyki ularga yordam berishga tayyor bo'lgan suhbatlashishga ehtiyoj sezadilar.

Muloqotga kirishish jarayonini osonlashtirish uchun kutubxonachilar verbal yoki nonverbal usullar orqali yordam berishga tayyor ekanliklarini bildirishlari darkor. Ba'zi tadqiqotchilar, foydalanuvchilar bilan ilk muloqotga kirishilayotgan paytda jilmayish, uning ko'zlariga tik boqish, muloyim munosabatda bo'lish, muloqotning ijobiy va qulay bo'lishini ta'minlaydi, degan fikrni bildirishadi. Foydalanuvchini tan olmaslik, u yaqinlashib kelayotgan paytda o'rnidan qimirlamaslik, qo'llarini qovushtirib o'tirish, o'zini mutolaaga berilgandek ko'rsatish kabilar muloqot o'rnatishga to'sqinlik qiluvchi omillardir. Bundan



tashqari foydalanuvchining u yoki bu kutubxonachiga murojaat qilishini belgilab beruvchi quyidagi omillar mavjuddir:

1. *Aloqa o'rnatish. Ko'z kontakti, tanani moslashtirish, foydalanuvchi tomon harakatlanish, verbal aloqaga o'tish kutubxonachi muloqoti boshlanishining noverbal signallaridir.*

2. *Aloqaga to'la tayyorgarlik. Kutubxonachining foydalanuvchi tomon yuz burishi, u tomon harakatlanishi, ko'z kontaktini ushlab turishi, foydalanuvchiga bo'lgan e'tiborini verbal va noverbal signallar bilan tasdiqlashi.*

3. *Masofa. Foydalanuvchi qaysi kutubxonachiga murojaat qilishni uning uzoq yoki yaqin turganiga qarab hal qiladi.*

4. *Tanishlik. Foydalanuvchi avvalroq biron kutubxonachi bilan muloqotda bo'lganligiga qarab, yana shu kutubxonachiga murojaat qilishi mumkin.*

5. *Jins. Foydalanuvchilar ayol kutubxonachiga murojaat qilishni afsal ko'radilar.*

Telefon, elektron pochta yoki chat xizmati orqali murojaat qilgan foydalanuvchi bilan aloqa o'rnatish uchun kutubxonachi uni muloyim tarzda qutlashi (ya'ni, Assalomu alaykum, bizga qanday xizmatlar bor?) va foydalanuvchi tomonidan berilgan savolga javob qaytarishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, foydalanuvchi kasal bo'lib qolgani yoki uydan chiqa olmasligi sababli, virtual tarzda murojaat qilayotganini ma'lum qilishi mumkin. Kutubxonachi bunday vaziyatdan kelib chiqqan holda javob berishi va *"tezroq tuzalib keting"*, deb ehtirom bilan xayrlashishi mumkin.

Eng muhimi, har qanday holatda ham foydalanuvchi kutubxona xodimi uning savoliga qiziqish bildirayotganligini his qilishga erishishdir. Muloqot virtual tarzda kechgan holatlarda *"savolingiz meni ham qiziqtirib qoldi, albatta, topishga harakat qilamiz"*, jumllarini yozish orqali o'z qiziqishini namoyish etishi mumkin.

Kutubxona xodimi telefon orqali yordam berish jarayonida muloyim va ijobiy ohangda muloqot olib borishi lozim. Shundagina foydalanuvchi kutubxonaga ikkilanmasdan qayta-qayta murojaat qilishi mumkin. Foydalanuvchining savollari mazmuniga chuqur tushunib yetish, aniqlashtiruvchi savollar orqali izlanayotgan ma'lumotlarning butun mohiyatini anglab yetish muhim ahamiyatga egadir. Masofadan turib amalga oshiriladigan muloqot chog'ida foydalanuvchini izlash jarayonidan xabardor qilib turish va sukut saqlanuvchi vaqt miqdorini imkon qadar kamaytirish ham muhim hisoblanadi. Izlanayotgan ma'lumot topilganidan so'ng qo'shimcha savollar orqali foydalanuvchining ehtiyoji qondirilganiga ishonch hosil qilish, javob topilgan manbani foydalanuvchiga yetkazish lozim.

Har qanday muloqot paytida bo'lgani kabi foydalanuvchiga qo'shimcha ma'lumot kerak bo'lgan taqdirda bimalol qo'ng'iroq qilishi va iloji bo'lsa kutubxonaga kelishi mumkinligini ta'qiqlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Demak, ma'lumot berish uchun elektron vositalardan foydalanish aksariyat kutubxonalar faoliyatining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Savollarga elektron pochta, chat yoki SMS orqali javob berish yuzmayuz javob berishdan unchalik farq qilmaydi. Lekin uning kamchiligi shundan iboratki, virtual muloqot paytida kutubxonachi foydalanuvchining ehtiyojini qay darajada qondirayotganligini to'liq his qila olmaydi. Ya'ni, foydalanuvchining ovozi, yuz va tana harakatlari kutubxonachiga ma'lum emas. Ushbu jihat bir tarafdin kamchilik bo'lsa, ikkinchi tomondan, uydin chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan, yuzmayuz muloqotda xijolat chekishi mumkin bo'lgan foydalanuvchilar uchun qulaylik va afzallikdir.

Elektron pochta orqali ma'lumot berish rivojlangan mamlakatlar kutubxonalarida 1990-yillardan boshlangan. Elektron pochta orqali amalga oshiriluvchi intervyuni shunday tuzish kerakki, u izlanayotgan

ma'lumot haqidagi eng zarur axborotni yuzaga chiqara olishi lozim. Kerakli ma'lumotni olishning muhimligi shundaki, elektron pochta orqali o'tkaziluvchi intervyuda qo'shimcha aniqlashtiruvchi savollar berish mushkul hisoblanadi. Elektron pochta orqali ma'lumot olish uchun to'ldirilishi lozim bo'lgan savolnomalar ko'pchilik kutubxonachilarning veb-saytlarida joylashtirilgan bo'lib, ularning eng qulayi internet ijtimoiy kutubxonasi (www.LPL.org) savolnomasidir.

Elektron pochta orqali ma'lumot berish jarayoni biroz sekinroq kechsa-da, bu usul kutubxonachiga muayyan tadqiqot o'tkazish va foydalanuvchiga ko'proq javob qaytarish imkonini beradi. Elektron pochta orqali olingan javob foydalanuvchini ko'proq axborot olish uchun yana murojat qilish yoki bu xizmatdan yana foydalanishga undaydi.

Chat, bir zumda xabar almashish, SMS orqali muloqotni amalga oshirish virtual usulda axborot yetkazishning istiqbolli usullaridan bo'lib, ularning afzalligi muloqot real vaqt davomida amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Chat orqali ma'lumot berish usulidan savollarga shu zahoti javob qaytarishni maqsad qilgan kutubxonalar foydalanadi. Bu usulning afzalligi shundaki uni foydalanuvchi bilan savol-javob ko'rinishida o'tkazish mumkin bo'lib, unga kelajakda qo'llanilishi mumkin bo'lgan yo'l-yo'riqlarni ham ko'rsatish mumkin. Chat orqali ma'lumot berish paytida kutubxonachi foydalanuvchining vaqti chegaranganligini va uzoq vaqt davomida savol javob qilishga imkoni bo'lmasligini hisobga olishi darkor.

Foydalanuvchi kutubxonachining nima bilan mashg'ul ekanligini ko'rishga imkoniyati yo'qligi sababli, unga berayotgan ishi haqida axborot berib borish tavsiya qilinadi.

Chat usuli orqali ma'lumot berishning eng katta afzalligi kutubxonachi keyinchalik muloqot jarayonini bir boshdan ko'rib chiqishi mumkinligidadir. Virtual kutubxona xodimlari foydalanuvchilar bilan aloqa qilish jarayonida matn terar ekan, yordam berishga tayyor turganligini namoyish qila olishi muhim ahamiyatga egadir. Yuzma-yuz intervyuda bo'lganligi singari kutubxonachi foydalanuvchining o'zini noqulay his qilmasligi uchun sharoit yaratib, uning keyinchalik ham kutubxona xizmatlaridan muntazam foydalanishi uchun zaminni saqlab qolishi kerak.

Yana shu holatni ta'kidlab o'tish zarurki, virtual usulda ma'lumot beruvchi kutubxonachilar o'z hamkasblarining faoliyatini kuzatish tizimlarini ham yaratishi mumkin bo'lib, shu orqali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashda bir-birlariga yordam berishlari mumkin. Foydalanuvchilar bilan olib borilgan yozishmalarning transkripsiyalari muntazam tarzda

o'rganilishi va shu orqali ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati qanday ekanligini aniqlab borish ham muhim ahamiyatga egadir.

Kutubxona-axborot xizmatida muvaffaqiyatga erishishni maqsad qilgan kutubxonachi foydalanuvchi bilan muloqotga kirishishga yuqori darajada qiziqishi mavjud ekanligini namoyon qila bilishi kerak. Har bir so'rov ham yuqori darajadagi intellektual vazifani nazarda tutmasa-da, kutubxonachi har bir foydalanuvchining axborotga bo'lgan ehtiyojiga qiziqish bildirishi va eng samarali yordam ko'rsatishga doimo tayyor turishi kerak bo'ladi. Foydalanuvchini qanday ma'lumot qiziqtirishini aniqlashga qaratilgan savol-javob ma'lumot yetkazish jarayonining asosini tashkil etib, uning muvaffaqiyatini belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumot izlash jarayoni muloqotning tarkibiy qismi bo'lib, unda xatti-harakat va aniqlik omillari kesishishi sodir bo'ladi. Ya'ni, izlashning samarali usulini qo'llamasdan turib kerakli ma'lumotni topish oson kechmaydi.

Foydalanuvchi bilan kutubxona xodimi o'rtasidagi muloqot foydalanuvchining kutubxonani tark etishi bilan nihoyasiga yetmaydi. Kutubxona xodimining asosiy vazifasi foydalanuvchining topilgan ma'lumotdan qanchalik qoniqish hosil qilganligiga ishonch paydo qila bilishdadir. Foydalanuvchining qiziqishini diqqat bilan samimiy tinglash, axborot manbalarini foydalanuvchi bilan birga izlash, axborot manbalari bilan ta'minlash, foydalanuvchining savoliga javobdan qoniqqanligi yoki qoniqmaganligini aniqlash, foydalanuvchiga qo'shimcha ma'lumot kerak bo'lgan taqdirda bemalol murojaat qilish mumkinligini ta'kidlash orqali aniqlashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi (uchinchi nashri) – Toshkent: "O'zbekiston", 2022.
2. Maxmudov M. Axborot kutubxona xizmati: Nazariyasi va metodikasi (darslik). – T.: 2007-y. 125-b.
3. Мелентьева Ю.П. Общая теория чтения. – Москва: «Наука», 2015 г. С.230.
4. Езова. С.А. Грани библиотечного общения. – М.: «Наука», 2017 г. С.246.
5. Дворкина М.Я. Библиочно-информационное обслуживание. – М.: «Наука», 2017 г. С.356.
6. <http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/120/html/102993/13.mavzu.Muloqot.htm/>
7. <https://peskiadmin.ru/uz/ponyatie-kultury-obshcheniya-kulturnoe-obshchenie-chto-eto-i-pravila-etiketa.html/>
8. <https://iiv.uz/news/muloqot-psixologiyasi-va-muomala-madaniyati/>

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ДОСТУПА К ИНФОРМАЦИИ – НЕОБХОДИМОЕ УСЛОВИЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БИБЛИОТЕЧНО-ИНФОРМАЦИОННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация. В данной статье, раскрываются основные проблемы организации доступа к информации в библиотечно-информационных учреждениях, развитие электронной доставки документов.

Ключевые слова: информация, библиотеки, документы, информационные ресурсы, электронная доставка документов.

AXBOROTGA KIRISHNI TA'MINLASH KUTUBXONA VA AXBOROT MUASSASALARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZARUR SHARTIDIR

Annotatsiya. Ushbu maqolada, kutubxona va axborot muassasalarida ma'lumotlarga kirishni tashkil etish hamda hujjatlarni elektron etkazib berishni rivojlantirish muammolari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: axborot, kutubxonalar, hujjatlar, axborot resurslari, elektron hujjatlarni yetkazib berish.

ENSURING ACCESS TO INFORMATION IS A NECESSARY CONDITION FOR IMPROVING THE ACTIVITIES OF LIBRARY AND INFORMATION INSTITUTIONS

Abstract. The main problems of organizing access to information in library and information institutions, the development of electronic document delivery are revealed.

Key words: information, libraries, documents, information resources, electronic document delivery.

Учитывая реалии современного мира, характеризующиеся все возрастающими потребностями в информационных ресурсах, в нашей стране реализуются положения постановления Президента Узбекистана «О дальнейшем совершенствовании информационно-библиотечного обслуживания населения Республики Узбекистан» от 7 июня 2019 года, направленные на совершенствование системы библиотечно-информационных учреждений и расширение сотрудничества с Интернет-ресурсами, специализирующимися на распространении электронных книг для повышения эффективности работы библиотек и оперативности обслуживания пользователей [1]. Именно они призваны обеспечить население Узбекистана различной информацией для развития не только интеллектуальной жизни, но и дать толчок прогрессу во всех сферах деятельности человека.

Документы, сосредоточенные в фондах библиотек, особенно научных, безусловно, разнообразны и уникальны по своему содержанию, но сегодня невозможно обойтись только информацией локального характера, важно оперативно и качественно обеспечить доступ потребителю к мировым информационным ресурсам. В этом направлении предприняты первые шаги – созданы электронные каталоги, раскрывающие состав документных ресурсов крупнейших библиотек (хотя еще не в полном объеме, предстоит большая работа по ретро-спективной конверсии каталогов), ИПЦ и ИБЦ и

других, все они доступны в онлайн-режиме. Следующим шагом должно быть объединение всех имеющихся библиографических ресурсов в единую базу, и здесь на главную позицию должен выступить центр корпоративной каталогизации, который помимо обработки всех новых изданий, будет обеспечивать поиск необходимой информации. Интересен в этом отношении опыт зарубежных стран, когда уже на стадии подготовки документа к изданию идет взаимообмен библиографическими данными между издателями и организациями, осуществляющими обработку документа (создание библиографической записи, определение индексов УДК, предметных рубрик и т.п.), это не обязательно библиотеки, часто специализированные коммерческие фирмы. В результате в электронном каталоге пользователь может познакомиться с так называемой «предварительной библиографической записью» документа еще до его поступления в библиотеку. Данная запись содержит гиперссылку, позволяющую напрямую выйти на издателя и оформить заказ, что очень удобно для библиотек, к тому же в записи указывается и предполагаемая цена.

Помимо библиографической информации пользователь заинтересован в получении полного текста, отражающего его потребности в той или иной области. Данное требование имеет возможность удовлетворить активно развивающаяся в последнее время электронная доставка докумен-

тов, которая пришла на смену межбиблиотечному абонементу.

В зарубежной печати отмечаются значительные изменения в МБА и ДД в последние годы, которые происходят под влиянием следующих факторов: широкое распространение электронных технологий в публикации и предоставлении материалов; увеличение цен на книги и журналы; сокращение финансирования библиотек; обострение противоречий между библиотеками и издателями, а также другими коммерческими организациями, занятыми распространением публикаций. Соответственно вносятся уточнения в терминологию межбиблиотечный абонемент (МБА) и доставка документов (ДД). Так, Р.Берар (Франция) считает, что термин «МБА», используемый применительно к сети, неточен: скорее это доставка документов, т.к. именно она позволяет библиотекам, входящим в сеть, создавать и получать запросы на предоставление документов [2]. М.Мак-Грэт, предлагает расширительно толковать общепринятое определение ДД как «процесса получения материала, не доступного на месте (locally)»: читатель может находиться дома в Сингапуре, получать доступ к материалам на сервере в Голландии и через канал связи в университете, находящемся в любом месте мира [3].

Одной из главных новаций в области МБА/ДД стала электронная доставка документов (ЭДД), которая расширяется по мере роста числа электронных публикаций.

Первые эксперименты по электронной доставке документов начались в середине 60-х гг. В 1967 г. в Университете шт. Калифорния был реализован экспериментальный проект по доставке документов с помощью факсов, в котором приняли участие более 100 библиотек. Работы по передаче копий по факсимильной связи продолжались и далее. В основном в них участвовали университетские библиотеки США. Относительно недавно стала доступна технология передачи полных текстов, что позволило транспортировать файлы большого размера. С начала 1990-х гг. начался невероятно быстрый прогресс в этой области, что привело к широкому распространению сети Интернет, включая доставку документов пользователю, находящемуся вне стен библиотеки. В это же время разрабатывались другие технологии. Появление оптических компакт-дисков и DVD, позволило записывать и хранить огромные по объему тексты, которые можно тиражировать, что дало толчок развитию компьютерной обработки полнотекстовых документов, таких как: электронные журналы и книги на компакт-дисках. Появление иных методов создания текстов с применением новых технологий способствовало решению проблем, связанных с электронной доставкой документов (ЭДД).

Достижения в области информационных технологий, касающиеся обработки, хранения и передачи полнотекстовых материалов, способствовали появлению такой информационной услуги

как предоставление электронных копий документов удаленным пользователям, что в свою очередь повлияло на формирование службы доставки документов. В этой сфере кроме библиотек, давно занимающихся предоставлением информации своим читателям, и приступивших к подготовке и передаче электронных копий, стали работать и специализированные коммерческие фирмы. В первую очередь это были библиотеки и информационные фирмы, которые имели высокую техническую оснащенность.

Преимущества для библиотек ЭДД стали очевидными по тем причинам, что форма хранения документа (оптические диски или какой-либо другой электронный формат) позволяют усовершенствовать обеспечение документами потребителей. Существует несколько вариантов доставки. Так как документы не обязательно распечатывать, имеющуюся электронную копию можно распространять, не ограничиваясь территориально, т.е. нет ни технических, ни экономических проблем, вследствие того, что электронная информация может свободно пересекать границы. Предоставляемая услуга во многом зависит от скорости ее выполнения, а для этого необходимо использование высокотехнологичного оборудования.

Службы ЭДД, которые создаются в библиотеках, как правило, выполняют заказы других библиотек, обеспечивая копиями документов своих читателей. Специализированные фирмы предоставляют услуги отдельным пользователям, как юридическим, так и физическим.

Организация службы ЭДД в библиотеках базируется в основном на собственных документных ресурсах. Фирмы же (подписные агентства, издатели научных журналов) работают преимущественно на основе полнотекстовых БД, обеспечивая доступ к пользующимся спросом новым материалам. Одна из основных проблем, возникающих в их деятельности, связана со строгим соблюдением авторских прав, так как использование современных документов без выполнения этого условия недопустимо. Библиотеки имеют возможность выполнять запросы на все виды документов, сосредоточенных в их фондах.

В системе межбиблиотечного абонемента и доставки документов государств-участников СНГ реализуется актуализация документов, обсуждаемых Межгосударственным советом по сотрудничеству в научно-технической и инновационной сферах государств-участников СНГ (МС НТИ), где была представлена работа секции по межбиблиотечному абонементу и доставке документов стран Содружества. В частности, запланирована работа по редактированию «Положения о системе межбиблиотечного абонемента и доставки документов государств-участников Содружества Независимых Государств», «Правил функционирования системы МБА и ДД государств участников СНГ» и «Инструкции по оформлению и использованию бланка-заказа по МБА и ДД в системе МБА и ДД

государств-участников СНГ». В настоящее время подавляющее большинство заказов поступает и обрабатывается электронным способом по каналам информационно-телекоммуникационных сетей, поэтому предлагаемые изменения и дополнения в основном касаются оформления заказа электронным способом [4].

Для информирования пользователей библиотеки обеспечивают доступ к своим электронным каталогам и БД. Национальные библиотеки и информационные центры, как основные депозитарии документов, традиционно обеспечивают доступ к информационным ресурсам. Национальные библиотеки в большинстве зарубежных стран играют ведущую роль в системах МБА/ДД страны.

Показательна в этом отношении и деятельность Национальной библиотеки Узбекистана имени Алишера Навои, которая осуществляет доступ к информационным ресурсам, как собственным, так и удаленным, используя новые информационные технологии. В настоящее время библиотека имеет 19 ресурсов лицензионного доступа, предоставленные читателям в локальной сети библиотеки: EBSCO Host, East View, Library.ru, JSTOR, Library Press Display, ProQuest, Springer Link и др.; 30 ресурсов открытого доступа, предоставленные читателям в сети библиотеки, это: IQlib.ru, Oxford Dictionaries.com, OECD iLibrary, Chronicling America, DOAB (Directory of Open Access Books) и др.

Глобализация служб МБА/ДД на основе интеграции уже существующих систем – такова актуальная тенденция нынешнего времени. Успешно действуют международные объединения библиотек, такие как Консорциум VDX (Virtual Document eXchange), охватывающий сотни библиотек Европы, Северной Америки и Азии; система SUBITO, членами которой являются библиотеки Германии, Австрии и Швейцарии; Nordinfo, объединяющий системы ДД государств бассейна Северного моря и многие другие.

По инициативе IFLA, реализована инициатива, стартовавшая в 2020 году как RSCVD, теперь известная как «Обмен ресурсами для совместной и добровольной доставки документов». Совместная и добровольная доставка документов в рамках RSCVD – это предоставление высококачественного обмена ресурсами по всему миру, чтобы помочь библиотекарям обеспечить всеобщий и равный доступ к информации. Последние технологические разработки произвели революцию в области библиотечного дела, как и в любой другой области. Исследования показывают, что искусственный интеллект может улучшить многие библиотечные услуги, такие как справочные услуги, распространение документов и совместное использование ресурсов. Еще в августе 2014 года Лионская декларация о доступе к информации и развитию объединила голоса библиотечных и информационных работников из более чем 600 организаций и учреждений на всех континентах, а также заинтере-

ресованных сторон в смежных областях доступа к информации, медиа и цифровых прав. Вместе они подтвердили этот момент в контексте переговоров по Повестке дня ООН на период до 2030 года. Это стало справочным документом и руководством для последующей работы IFLA по повышению понимания и поддержки роли информации в обеспечении устойчивого развития. Брисбенская декларация 2024 года [5] 10 лет спустя подчеркивает, что поддержка библиотек должна осуществляться в рамках целостной структуры для активного продвижения осмысленного и инклюзивного доступа к информации как основы для устойчивого развития и реализации прав человека.

В современном мире библиотечно-информационные учреждения, даже самые крупные, признают, что не имеют возможности собрать в своих фондах все информационные ресурсы (в какой бы форме они не были представлены). Поэтому развитие ЭДД, когда библиотеки либо предоставляют копии, либо являются посредниками между потребителями и другими держателями документов, становится одним из важнейших направлений в их деятельности.

Использованная литература:

1. О дальнейшем совершенствовании информационно-библиотечного обслуживания населения Республики Узбекистан [Электронный ресурс]: постановление Президента Республики Узбекистан ПП №4354 от 7 июня 2019 года – Электрон. дан. – Ташкент: 2019. Режим доступа: // <https://mf.uz/ru/press/library/2019/06/19488/>
2. Bérard R. ABES – the Bibliographic Agency for Higher Education: its role in the resource sharing of documents in French universities and in document supply // *Interlending and document supply*. 2008, Vol. 36. № 1. P.4–10.
3. Patterson A. Resource sharing for the future: building – blocks to success. A report of the 10th Interlending and document supply conference, National library Singapore 29–31 october 2007. // *Interlending and document supply*. 2008, Vol.36. № 2. P.120–122.
4. Устинова Т.А. Система межбиблиотечного абонементов и доставки документов государств-участников СНГ актуализация документов // *Вестник БАЕ*. 2017. С.20-21. Режим доступа: https://www.elibrary.az/docs/jurnal/jrn2017_686.pdf
5. Брисбенская декларация. – Режим доступа: <https://2024.ifla.org/brisbane-declaration-lanched/>
6. Барышева О.В. Роль служб электронной доставки документов в создании электронных библиотек России. // *Управление электронными ресурсами библиотек: материалы. междунар. конф., – Москва: 17–19 апреля 2000 г.*
7. Лаврик О.Л. Организация электронной доставки документов в библиотеке // О.Л.Лаврик., В.А.Глухов. – Новосибирск: НГОНБ, 2000 г. С.26.

VII BO'LIM

YOSH TADQIQOTCHI

Kamoliddin UMAROV,
O'zDSMI tayanch doktoranti

XALQARO INTEGRATSION JARAYONLARNING O'ZBEK TEATRI RIVOJIDAGI O'RNI

Annotatsiya. Mamlakatimizda ijtimoiy-madaniy jarayonlarning rivojlanishi, xalqaro integratsion jarayonlarda faol qatnashishi, dunyo hamjamiyatida o'z o'rne va maqomini topishida madaniyat va san'atning o'rne beqiyosdir. Maqolada xalqaro integratsion jarayonlarning o'zbek teatri rivojidagi ahamiyati xususida tahliliy fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Xalqaro madaniy aloqalar, o'zbek teatri, integratsiya, ijtimoiylashuv, festival, teatr-studiyalari, spektakl, ma'naviyat, tafakkur.

РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ ИНТЕГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В РАЗВИТИИ УЗБЕКСКОГО ТЕАТРА

Аннотация. Роль культуры и искусства в развитии социокультурных процессов в нашей стране, активном участии в международных интеграционных процессах, поиске своего места и статуса в мировом сообществе несравненна. В статье рассматривается значение международных интеграционных процессов в развитии узбекского театра.

Ключевые слова: Международные культурные связи, узбекский театр, интеграция, социализация, фестиваль, театральные студии, спектакль, духовность, мышление.

THE ROLE OF INTERNATIONAL INTEGRATION PROCESSES IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK THEATER

Abstract. The role of culture and art in the development of sociocultural processes in our country, active participation in international integration processes, and the search for one's place and status in the world community is incomparable. The article examines the importance of international integration processes in the development of the uzbek theater.

Key words: International cultural relations, uzbek theater, integration, socialization, festival, theater studios, performance, spirituality, thinking.

Inson va jamiyat hayotida, xalqning ma'naviy dunyosini, ongu tafakkurini yuksaltirishda teatr san'atining o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Shavkat MIRZIYOYEV

Mamlakatimizning ijtimoiy-madaniy jihatdan yuksalishi, xalqaro integratsion jarayonlarda faol qatnashishi, dunyo hamjamiyatida o'z o'rne va maqomini topishida madaniyat va san'at, xususan, teatrning alohida o'rne bor. "Bugun har bir ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va xalqaro o'zgarish, islohotlar umuminsoniy madaniyatga nima beradi, degan savol

*nuqtayi nazaridan baholanmoqda. Global taraqqiyot milliy madaniyatlarni inkor etmaydi, balki ularni yanada rivojlantirishni, imkoniyatlardan foydalanib jahon hamjamiyatini mustahkamlashni nazarda tutadi*¹. Shu ma'noda, bugungi globalashuv davrida milliy san'atimizning barcha turlarini asrab-avaylash, rivojlantirish, xalqaro miqyosda targ'ib qilish va umumbashariy madaniyatning ajralmas qismiga aylantirish g'oyat zarur ahamiyat kasb etmoqda.

Istiqlol yillari O'zbekiston teatrlarining xalqaro festivallari, forumlari, kongresslari, ijodiy ko'rik-tanlovlarda muntazam ishtirok etgani, xorij mamlakatlaridagi safarlaridabo'lgani, yurtimizda nufuzli xalqaro festivallarning tashkil etilgani, jahon teatrlarining tashrifi va boshqa madaniy hodisalar mamlakatimizni ijtimoiy-madaniy taraqqiyotiga,

¹ Nishonova O. Madaniy integratsiya – umuminsoniylikni rivojlantirish omili. // Глобальное партнерство как условие и гарантия стабильного развития. Материал конференции Культурология, Образование и образовательные исследования. – С.362.

dunyo davlatlari bilan mustahkam aloqalar o'rnatishiga xizmat qildi. Shuningdek, bu jarayon millatlar o'rtasida milliy va umuminsoniy g'oyalar, do'stlik-birodarlik, tinchlik-totuvlik, baynalmilal qadriyatlarni targ'ib qilish va rivojlantirishga ko'mak berdi. Professor N.Sayfullayev qayd etganidek: *"Mustaqillikka erishgan O'zbekiston teatrlari demokratiya, istiqloq nafasidan bahramand bo'lib, nafaqat yurtimizda, balki bir qator nufuzli xalqaro festivallarda qatnasha boshladi. Bu o'zaro san'atlar integratsiyasi san'atkorlarimiz uchun bir-biridan o'rganish, zamonaviy teatr jarayonlaridan boxabar bo'lish imkonini berdi. Teatrning mahsuloti bo'lgan sahna asarini nafaqat o'z xalqi tomoshabinlariga, balki chet ellarga chiqib namoyish etish imkoniyati faqat istiqloq tufayli yaratib berildi"*².

Mustaqillikning ilk yillari o'zbek teatrining xalqaro darajaga chiqishi va e'tirof etilishida O'rta Osiyo mamlakatlari o'rtasida tashkil etilgan "Navro'z" mintaqaviy festivali muhim o'rin tutdi. Sobiq Sovet imperiyasi parchalangach, o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan mintaqalar mamlakatlari o'rtasida do'stona birlik, qo'shnichilik va o'zaro hamjihatlikni mustahkamlashda bu kabi madaniy tadbirlarga ehtiyoj katta edi. Festival ilk bor O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston teatr arboblari uyushmasi tomonidan 1989-yilda tashkil etildi. 1988-yil Olmaota shahrida, 1989-yil Bishkekda, 1991-yil Dushanbeda, 1992-yil Toshkentda, 1993-yil Ashxobod shaharlarida yuqori saviyada tashkil etildi. Mazkur festivallarda O'zbekiston teatrlari ham munosib ishtirok etib, yurtimiz sahna san'atini xalqaro miqyosda targ'ib qilishga salmoqli hissa qo'shishdi. Xususan, 1989-yil Bishkek shahrida o'tkazilgan festivalda Farg'ona viloyati musiqali drama teatrining *"Temir xotin"* (Sh.Boshbekov asari, rejissyor O.Salimov) spektakli "Gran-pri"ga sazovor bo'ldi.

1992-yil "Navro'z" festivaliga poytaxtimiz Toshkent mezbonlik qildi. Ta'kidlash o'rinliki, festivalda qatnashgan barcha mamlakatlar teatrlari tarixiy mavzudagi spektakllar bilan ishtirok etishdi. Bu ham bejiz emas edi. Sababi, sovet tuzumidan keyin ko'pgina qo'shni davlatlarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash jarayoni dolzarb ahamiyat kasb etayotgan bo'lib, bu vazifani amalga oshirishda shubhasiz, teatr san'ati zarur edi. Festivalda mamlakatimiz nomidan ishtirok etgan Y.Shakarjonov nomidagi Farg'ona viloyati musiqali drama teatrining *"Toshkentga sayohat"* (Hamza asari, rejissyor O.Salimov) spektakli xalqaro teatr uyushmalari konfederatsiyasining maxsus sovrini bilan mukofotlangan bo'lsa, A.Hidoyatov nomidagi O'zbek davlat drama teatrining *"Iskandar"* (Alisher Navoiy asari, rejissyor B.Yo'ldoshev) spektakli

"Rejissuradagi yangi uslub va shakl izlanishlari uchun" nominatsiyasi bilan taqdirlandi.

1993-yildan e'tiboran "Navro'z" festivalining qamrovi, doirasi yanada kengaydi. Festivalda Turkiya, Eron, Ozarbayjon, Tatariston va boshqa mamlakatlarning teatrlari 23ta spektaklni namoyish etishdi. E'tiborlisi, bu galgi festivalda mamlakatimiz nomidan ilk bora Berdaq nomidagi Qoralpoq davlat musiqali teatrining "Shahriyor" spektakli qatnashdi. Aynan shu yil YUNESKO bilan hamkorlikda Toshkentda ilk marotaba "Teatr: Sharq va G'arb" xalqaro festivali o'tkazildi. Festivalda Yaponiya, Gonkong, Angliya, Shvedsiya kabi 18ta davlatdan kelgan teatrlar rang-barang mavzu va janrdagi sahna asarlari bilan ishtirok etdi. *"Ushbu festival O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingandan keyingi dastlabki eng yirik madaniy tadbir bo'ldi, desak mubolag'a emas. O'tmishda shu kabi tadbirlarni o'tkazishda talab qilinadigan mafkuraviy bo'yoqlardan mutlaqo xoli bo'lgan ushbu teatr forumi, bir tomondan milliy ma'naviy qadriyatlarni tiklashga, ikkinchi tomondan jahonning ilg'or madaniy jarayonlarini e'tirof etishga qaratilgan chinakam oqilona madaniy siyosatni namoyish qildi"*³.

Istiqloq yillari O'zbekiston teatrlari Germaniya, Fransiya, Belgiya, Slovakiya, Isroil, Hindiston, Qozog'iston, AQSh, Rossiya, Misr, Tojikiston, Janubiy Koreya, Ukraina, Qirg'iziston singari o'nlab mamlakatlarda o'tkazilgan turli festivallarda va gastrol safarlarida ishtirok etdi. Ushbu jarayon o'zbek teatrining xalqaro nufuzini oshirdi, dunyo hamjamiyati bilan ijtimoiy-madaniy aloqalarni mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Qayd etish lozimki, mustaqillik yillari O'zbekiston teatrlarining jahonga chiqishi, xalqaro madaniy jarayonlarda faol ishtirok etishida teatr-studiyalarining faoliyati muhim o'rin tutdi. Xususan, Toshkentda tashkil etilgan "Ilhom", "Dard", Andijondagi "Istiqbol", Qarshidagi "Muloqot", "Eski machit" teatr-studiyalarida sahnalashtirilgan spektakllar turli xalqaro teatr festivallarida munosib qatnashdi. M.Vayl, N.Abdurahmonov, M.Hamidov, A.Abdunazarov singari mahoratli rejissyorlar bu jarayonda faollik ko'rsatishdi. Aynan ularning ijodiy izlanishlari, turli eksperimentlarga dadil qo'l urishi natijasida milliy teatrimizning ijodiy imkoniyatlari kengaydi, jahon teatr ijodkorlari bilan aloqalar o'rnatildi.

Ana shunday teatr-studiyalardan biri – Qarshi shahridagi "Eski-machit" studiyasi bo'lib, yurtimiz teatr san'atining dunyoga chiqishi, xalqaro madaniy integratsion jarayonlarga kirishishiga salmoqli hissa qo'shdi. Studiya 1992-yil "Muloqot" teatr-studiyasidan ajralib chiqqan bo'lib, o'zining ilk asari – *"Mehribonginam"* (Sh.Shomanadze asari) spektaklidayoq davrning dolzarb ijtimoiy muammosini o'ziga xos talqinda, yangicha, kutilmagan va yorqin sahnaviy ifoda vositalari ila aks ettirdi. Spektakl 1995-yil o'tkazilgan "Navro'z-95" festivalida birinchi o'rinni qo'lga kiritadi. Aynan shu yil rejissyor Farruh Qosimov Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr", Alisher

² Sayfullayev N. Yangi davr O'zbekiston teatri: rivojlanish muammolari va izlanish jarayonlari. – Toshkent: "Mumtoz so'z", 2011-y. 158-b.

³ To'laxo'jayeva M. "Teatr madaniyatlari mushtarakligi: Sharq va G'arb". "Jahon adabiyoti" jurnali, 2016-yil, 6-son. 132-bet.

Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonlari asosida **“Shayx San'on”** va **“Tarso duxtar”** singari spektakllarni sahnalashtiradi. Studiya spektakllarida yangicha shakl va ifodalar izlash, turli tajribalarni sinab ko'rish, novatorlik topilmalaridan foydalanish tendensiyasi ustuvorlik qildi. 1998-yil Ukrainaning Xarkov shahrida o'tkazilgan “Sharq ekspressi” xalqaro teatr festivalida **“Ayol alvasti yoki haroratli ayiq”** spektakli birinchi o'ringa sazovor bo'ladi. 1999-yilda esa Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” asari asosida sahnalashtirilgan “Nayman ona nidosi” spektakli “Navro'z-99” festivalida maxsus sovrinni, Bishkek shahrida o'tkazilgan “Chingiz Aytmatov va teatr” xalqaro festivalida oliy sovrin – Gran-prini qo'lga kiritadi. Shuningdek, studiya ijodkorlari tomonidan sahnalashtirilgan **“Qobil ila Hobil”** (J.Bayronning “Kain” asari, rej.A.Xo'jaquliyev), “Raqsu samo” (Alisher Navoiyning “Sab'ai sayyor” dostoni, rej.A.Xo'jaquliyev) kabi spektakllar ham turli xalqaro festivallarda muvaffaqiyatli qatnashib, milliy teatrimizni jahonga tanitishga xizmat qildi. Teatrshunos I.Muxtarov yozganidek: *“Eski-machit” teatrining vujudga kelishi va ijodiy rivojlanishi teatr tafakkurining rivojlanishi natijasidir. Teatrning yangiligi uning tashkiliy modelida va sahna ifodasining zamonaviy vositalari tizimiga yo'naltirilganligida o'z aksini topdi*⁴.

O'zbek teatrini xalqaro maydonga chiqishida O'zbekiston Yoshlari teatri va uning badiiy rahbari, O'zbekiston san'at arbobi Nabi Abdurahmonovning xizmatlari ham beqiyos bo'ldi. Rejissyor o'z tashabbusi va sa'y-harakati bilan Yoshlar teatrini nufuzli xalqaro festivallarda ishtirok etishini ta'minladi, qolaversa, xalqaro teatr uyushmalari, tashkilotlari bilan faol aloqalar o'rnatib, xorij teatr ijodkorlarining yurtimizda gastrol safarlari va mahorat darslarini tashkillashtirishda jonbozlik ko'rsatdi. Albatta, bu jarayon teatr taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan birga, xalqlar o'rtasida ijtimoiy-madaniy aloqalar va do'stona munosabatlarni mustahkamlashga ham yordam berdi.

N.Abdurahmonov 1998-yilda **“Umar Hayyom yulduzlari”** (T.Zulfiqorov asari) spektakli bilan Moskvada o'tgan A.P.Chexov nomidagi III festivalda muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Shuningdek, rejissyorning G.X.Andersenni **“Qiz bola va gugurtcha”** hikoyasi

asosida sahnalashtirgan spektakli ham aynan shu festivalda ishtirok etib, teatr mutaxassislari va muxlislarida ijobiy taassurot qoldirdi. L.N.Tolstoy qissasi asosida sahnalashtirilgan **“Xolstomer”** spektakli esa Kuznetsk, Samara va Rostov-Don shaharlarida bo'lib o'tgan xalqaro festivalda qatnashib, o'zbek teatrining dovrug'ini jahonga tanitishga xizmat qildi.

Rejissyor teatr arbobi sifatida jamoat ishlarida ham faol ishtirok etdi, xalqaro teatr tashkilotlari bilan faol aloqalar o'rnatish, ijtimoiy-madaniy sohalarida hamkorlikni yo'lga qo'yishga sezilarli hissa qo'shdi. Xususan, mamlakatimizda ilk bora o'tkazilgan “Humo” Xalqaro yoshlar teatrlari festivalini tashkil etishda alohida faollik ko'rsatdi, mazkur festivalda ko'plab iste'dodli yoshlarning kashf etilishiga sababchi bo'ldi. Ilk festivalda 32ta spektakl namoyish etildi. 2000-yilga kelib esa festival ikki bosqichda o'tkazildi. Xalqaro teatr kuni arafasida tashkil etilgan birinchi bosqichning ilk kuni Yaponiyaning “Toyota siti balet” truppasi Alisher Navoiy teatri sahnasida “Qarsildoq” (P.Chaykovskiy) baletini namoyish etdi. Ikkinchi bosqichda Rossiyaning Yaroslavl shahar yosh tomoshabinlar teatri **“Irkit o'rdakcha”** (G.X.Andersen), uchinchi bosqichda Gruziyaning Poti shahridan tashrif buyurgan Guniya nomidagi davlat drama teatri **“Jonsiz qush”** (I.Solmonashvili), keyingi bosqichlarda esa “Eski machit” teatr-studiyasi “Qobil va Hobil”, Yosh tomoshabinlar teatri **“Boz masxaraboz”** spektakllarini namoyish etdi. Ko'rinib turibdiki, “Humo” festivalida dunyoning turli mamlakatlaridan tashrif buyurgan teatr ijodkorlari ishtirok etdi. Bu esa, O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi ijtimoiy-madaniy aloqalarini kengayishi, dunyo madaniy jamoatchiligi bilan integratsiyaga kirishishida alohida ahamiyat kasb etdi.

Nabi Abdurahmonov rahbarligidagi O'zbekiston Yoshlari teatri jahon teatr ijodkorlari bilan muntazam hamkorlik qilib keladi. Jumladan, O'zbekiston va Germaniya teatrlari o'rtasidagi ijodiy hamkorlik xususida alohida to'xtalish lozim. Xususan, Gyote instituti va Germaniyaning O'zbekistondagi elchixonasi ko'magi bilan yosh nemis rejissyori Yuliya Xyolsher tomonidan sahnalashtirilgan “Creeps” spektakli O'zbekiston Yoshlari teatri repertuaridan munosib o'rin oldi.

⁴ Q Мухтаров И. Узбекский театр. Страницы истории и современности. – Т.: Изд. журнала “San'at”, 2014 г. С.140.

O'ZBEK QO'G'IRCHOQ TEATRI SAN'ATIDA AN'ANA VA ZAMONAVIYLIK

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada, o'zbek qo'g'irchoq teatri san'atining boy tarixi, rivojlanish bosqichlari va bugungi kunda O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri sifatidagi ijodiy faoliyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: teatr, qo'g'irchoq teatri, tomosha, spektakl, qo'g'irchoq obrazlari, zamonaviy sahnalashtirish usullari.

ТРАДИЦИИ И СОВРЕМЕННОСТЬ В ИСКУССТВЕ УЗБЕКСКОГО КУКОЛЬНОГО ТЕАТРА

Аннотация. В данной научной статье рассказывается о богатой истории искусства узбекского театра кукол, этапах его развития и современной творческой деятельности как Узбекского национального театра кукол.

Ключевые слова: театр, кукольный театр, спектакль, спектакль, кукольные персонажи, современные методы постановки.

TRADITION AND MODERNITY IN THE ART OF UZBEK PUPPET THEATER

Abstract. This scientific article tells about the rich history of the art of the Uzbek puppet theater, the stages of its development and today's creative activity as the Uzbek National Puppet Theater.

Key words: theater, puppet theater, performance, performance, puppet characters, modern production methods.

O'zbek qo'g'irchoq teatri tomoshalari asrlar davomida o'z xalqining dunyoqarashi, intilishlari va yashash tarzi bilan hamohang yashab keldi. Xalqning manfaatlarini ustun bilib, o'z tomoshalarida xalqini himoya qildi. Qo'g'irchoq teatri san'ati hech qachon bir yerda to'xtab qolmadi. Asrdan asrga yangi tajriba, yangi an'ana va yangi izlanishlar bilan o'tib, rivojlanib keldi.

Turkistonda mustabid sovet rejimining o'rnatilishi qo'g'irchoq teatri san'atiga ham ta'sir etmay qolmadi. Bu davrda qo'g'irchoqbozlar o'z an'anasiga sodiq qolgan holda keyingi tomoshalarini yangi zamon ruhida hamohang sahnalashtirib bordi. Ayniqsa, yosh murabbiylar bolalar tarbiyasida qo'g'irchoq san'ati muhim ahamiyat kasb eta olishini anglab yetgach, Xalq maorifi komissarligi dastlabki qo'g'irchoq teatrlarining tashkilotchisiga aylandi.

Avvallari qo'g'irchoq tomoshalari bozorlarda, gavjum yerlarda tomoshabin tanlamagan holda o'z tomoshalari bilan yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan ommani o'z bag'riga sig'dirib kelar edi. Ammo yangi tashkil etilgan qo'g'irchoq teatri faqatgina jajji tomoshabinlar uchun asar yaratadigan, ularning komil inson bo'lib voyaga yetkazishda o'zining beminnat hissasini qo'shadigan mo'jizali dargohga aylandi. Yosh bolajonlarning estetik didini oshirish, ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy dunyoqarashini o'stirish teatrlarining asosiy vazifasiga aylangan edi.

Qo'g'irchoq o'yinlarining qahramonlari o'tkir masxaraboz, dovyurak Polvon kachal, uning

hamrohi yengiltak, xipchabel Bichexonim, tolmas va hozirjabov Yasovul, maymun o'rgatuvchi hamda xalq og'zaki ijodida uchraydigan turli personajlar bo'lib, ular o'sha davr jamiyatida mavjud bo'lgan nuqsonlar ustidan kulib, aldangan va xo'rlangan insonlarni mardona himoya qilishgan. Qo'g'irchoqbozlar o'z tomoshalarida achchiq hazil, kesatiq gaplarni o'z o'rnida ustalik bilan ishlata bilgan, shuning uchun ham "o'yinlari" doimo jonli va ta'sirli bo'lgan.

"Qo'g'irchoq tomosha – O'zbekistonda eng qadimiy teatr turlaridandir. Mashhur qo'g'irchoq qahramoni Polvon kachal shahar va qishloqlarda, sayillarda minglarcha tomoshabinlarni to'plar edi. Uning zaharli tili ochko'z sudxo'rga, ahmoq jandarmaga, qizg'anchiq mullaga, johil boyga ko'pgina noqulayliklar keltirardi. Ko'pincha ayrim qo'g'irchoqlar tarixiy shaxsga o'xshatib yasalardi. Masalan, Qo'qon xoni Xudoyorxonga o'xshagan qo'g'irchoq ham bo'lgan", – deya yozadi D.Glinberg o'zining 1959-yil "O'zbekiston" gazetasida chop etilgan "Tirik qo'g'irchoqlar" nomli maqolasida. Bu qadimiy san'at davrlar, zamonlar to'fonlariga dosh berib, charxlanib, boy tajribaga ega bo'lib yuqori professional an'analari bilan o'z aksini 1939-yil Toshkent shahrida tashkil etilgan Respublika qo'g'irchoq teatrida topdi.

Aslida 1939-yil rasmiy sana hisoblanib, amalda esa qo'g'irchoq teatri o'z faoliyatini 1928-yil boshlagan. Ayni joriy yilda tashkil topgan rus yosh tomoshabinlar teatrida Semyon Eten

boshchiligidagi bir guruh aktyorlar Bicher Stouning "Tom tog'aning kulbasi" kitobi asosida bolajonlar uchun spektakl sahnalashtiradilar. Bolajonlar uchun sahnalashtirilgan rus tilidagi spektakl yosh tomoshabinlarga manzur bo'ladi. Oradan ko'p o'tmay jamoa tarkibida yana bir truppa tashkil etiladi. Truppaning birinchi aktyorlari xalq qo'g'irchoqbozlaridan Po'latjon Doniyorov va yosh san'atchi Nurxon Eshmuhammedov, Hamidulla Abdullayev, M.Soliyevlar va Olim Xolimtoyevlar bo'lgan. Mana shu dastlabki qo'g'irchoq truppa qiyin sharoitda ishlagan bo'lsa-da, o'zining quvnoq san'ati bilan ko'pchilikning e'tiborini qozongan.

Darhaqiqat, Po'latjon Doniyorov o'zining masxaraboz qo'g'irchoq'i bilan qo'g'irchoq estradasiga, konsert dasturiga asos soldi. Odatda ustaning konkret nomerlari bir-biri bilan mazmunan ulangan, baqamti bo'lgan. Bunda ustiga olachipor yaktak, boshiga masxara qalpoq, cho'ziqroq yuzli, qisqasi, o'zining tashqi ko'rinishi bilan Polvon kachalni eslatib turuvchi haligi masxaraboz amaki katta xizmat qilgan. U navbatdagi nomerlarni e'lon qilish, qo'g'irchoq artistlarni tanishtirishdan tashqari chiqishlarni bir-biriga bog'lab borgan, ora-chora o'zi ham shingil qiziqchilik qilib, konsert quvnoqligi va tomoshaviyligini kuchaytirib turgan¹.

1947-yil "Lenin uchquni" gazetasida Sh.Shonazar tomonidan **"Bolalarning do'sti"** nomi ostida P.Doniyorov haqida maqola chop etiladi. Mazkur maqolada Po'latjon Doniyorov bolalarning eng sevimli insoni, deya ta'kidlanadi. Mashhur qo'g'irchoqboz o'z qo'g'irchoqlarini jonli va ishonchli chiqishi uchun bog'cha va maktablarga tez-tez borib turar va bolajonlar bilan uzoq suhbatlashar edi. *"Toshpo'lat Doniyorovni tanimaydigan birorta bola yo'q. Uni O'zbekistonning hamma yerida bolalardan tortib kattalargacha biladilar, hurmat qiladilar. Doniyorov borib o'z qo'g'irchoqlarini o'ynatib bermagan birorta maktab, bolalar uyi, lager, kolxoz, sovxoz va boqchalar kam topiladi"*².

Urushdan keyingi yillarda teatr jamoasiga yangi talablar, ijodiy vazifalar qo'yildi. Teatr repertuaridan rus, jahon mumtoz asarlari o'rin oldi. A.S.Pushkin, G.X.Andersen, Sh.Perro, aka-uka Grimlar va ko'plab bolalar yozuvchi-shoirlarining asarlari yosh tomoshabinlarga havola etildi. Shu davrga kelib ijodiy jamoa o'z milliy dramaturgiyasini yaratish yo'lida ham tinmay ish olib bordi. A.Navoiyning **"Farhod va Shirin"**, H.Olimjonning **"Semurg"**, **"Oygul va Baxtiyor"** dostonlari inssenirovka qilindi. N.Habibullayevning **"Fotimaning sarguzashtlari"**, A.Qobulovning **"Rahm va qo'ng'iz"**, R.Farhodiyning **"O'tkir shoxli buqacha"**, **"Kim oyni o'g'irladi?"** kabi sahna asarlari dunyoga keldi.

Chorak asr davomida teatrdan O'zbekiston Respublikasi san'at arboblari I.R.Yaqubov hamda

V.G.Akudinlar ijodiy hamkorlikda eng sara asarlarni sahnalashtirib, uning obro'sini yuksaklarga ko'tardilar. Teatr ko'p yillik ijodiy faoliyati mobaynida Respublika miqyosidagi va Xalqaro festivallarda ishtirok etdi. O'zbekiston davlat qo'g'irchoq teatri Rossiya, Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston, Birma, Afg'oniston, Hindiston, Bolgariya, Fransiya, Germaniya, Misr, Janubiy Koreya, Turkiya, AQSh davlatlarida ijodiy safarlarda bo'lib o'zbek milliy qo'g'irchoq san'atini dunyoga tanitdi.

Mustaqillikning dastlabki davrida rejissyorlar, musavvirlar, bastakor va aktyorlar o'z kuchlarini katta ishtiyoq bilan teatr sahnasida sinab ko'rdilar. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artistlar M.Igamnazarova, F.Xodjayev, K.Jabborovalar, aktyorlardan A.Mirzagiyaev, Sh.Jabbarov, Y.Shibkov, rejissyorlardan O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Sh.Yusupov, D.Yuldasheva, E.Aripova, X.Axunov, rassomlardan M.Ro'zmetova, N.Faxrutdinova, bastakorlardan O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi A.Ikramov, A.Kim, L.Ugay va M.Tiora samarali ijod qildilar. Teatrdan nafaqat bolalar uchun, balki katta yoshdagi tomoshabinlar uchun ham asarlar sahnalashtirilmogda. Rejissyor Sh.Yusupovning **"Yurt tumori To'maris"**, **"Bahrom va Dilorom"**, **"Shiroq"**, D.Yuldashevaning **"Yana Andersen"**, **"Qarsildoq"**, **"Yulduzli bola"**, **"Oh, bu Xo'ja Nasriddin"**, **"Soya"** spektakllari fikrimiz dalilidir.

2020-yilning 26-may sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Unga ko'ra boy tarixi, O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri maktabining shakllanishi va rivojlanishidagi beqiyos hissasini inobatga olib, O'zbekiston Davlat qo'g'irchoq teatriga – O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri nomi berildi.

2021-yilda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist, teatrning bosh rejissyori Sh.Yusupov tomonidan "Xamsa" asarining **"Sab'ai sayyor"** dostoni asosidagi **"Bahrom va Dilorom"**, **"Shiroq afsonasi"** spektakllari sahnalashtirildi. 2022-yil O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri Respublika qo'g'irchoq teatrlarining an'anaviy XIII ko'rik-festivalida mazkur **"Bahrom va Dilorom"** spektakli birinchi darajali diplom bilan taqdirlandi. 2023-yil Sh.Yusupov tomonidan katta yoshdagi tomoshabinlar uchun jahon dramaturgiyasining durdona asari sanalmish U.Shekspirning "Hamlet" asari sahnalashtirildi.

2024-yil **"Alvon gul yoki Sohibjamol va maxluq"** nomi ostida O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatrida sahna yuzini ko'rdi. Teatrning bosh rejissyori, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Shomurod Yusupov kuchli ijodiy jamoa bilan birgalikda bu asarni sahnalashtirar ekan, o'z atrofiga iqtidorli ijodkorlarni jalb qildi. Dinara Yuldasheva rejissyor yordamchisi sifatida spektakl ustida sahnalashtiruvchi rejissyor bilan yelkama-yelka ish olib bordi. Rassom, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori Mo'tabar Ro'zmetova asar qahramonlarining

¹ Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. – Toshkent: 2006-y. 114-b.

² Shonazar Sh. "Bolalarning do'sti". "Lenin uchquni" gazetasi, 1947-yil.

tashqi qiyofasini yaratdi. Bastakor Mixail Tiora spektakl uchun maxsus kuylarni bastaladi. Xoreograf Olga Ostanina esa spektakldagi go'zal raqslar va harakatlarga mualliflik qildi. Spektaklda aktyorlardan Y.Tiora, O.Isakov, Sh.Ishmuhamedova, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist M.Igamnazarova, G.Sabirova, S.Ruzikulov, S.Jo'rayev, A.Mirzagiyazov, Sh.Jabborovlar o'zlaridagi bor mahoratni qo'g'irchoqlarda namoyon etdilar.

Parda ochilishi bilan sahnada jonli planda rus madaniyatini o'zida aks ettiruvchi, rus xalq libosida ikki boshlovchi qiz spektaklga yo'l boshchilik qilishadi. Voqealarni so'zlab berish davomida ularning jonli ijrodagi, go'zal ovozda, rus xalq musiqasi asosida kuylangan qo'shiqlari spektaklga o'zgacha ruh va kayfiyat bag'ishlaydi. Spektakl uchun viqorli, yorqin ranglarda va o'zgacha liboslarda yaratilgan, mukammal ishlangan qo'g'irchoqlar spektakl davomida jonli aktyorlardek harakat qilishadi. Mahoratli aktyorlar qo'g'irchoqlarni boshqarish

davomida ularni jonlantirish bilan birga xarakter ham bera oldilar.

Ssenografiya yaratish davomida rejissyor zamonaviy texnologiyalardan o'z o'rnida foydalana oldi. Voqealar joyini gavdalantirish va ba'zi joylarda sahnaviy effektni oshirish maqsadida projector yordamida video namoyishlaridan foydalanildi. Bu ham spektaklni yorqin bo'yoqlar bilan bezab bordi. Spektaklda foydalanilgan har bir detal, musiqa, chiroq, video namoyishlari – spektaklning tomoshaviyligini oshirishga xizmat qildi.

Mazkur spektakl 27-mart kuni Madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari Avaxon Tadjixanov boshchiligida teatr san'ati oldida turgan masalalar va ularning yechimlari, soha vakillari zimmasidagi dolzarb vazifalar tahliliga bag'ishlangan yig'ilishda, teatr san'atidagi innovatsiyalar: noyob va hayajonli teatr asarlarini yaratish uchun yangi texnologiyalar, interfaol formatlar va multimedia yechimlaridan foydalanish kabi belgilab berilgan vazifalarning ijrosi bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

² Искусство Советского Узбекистана. – Москва: 1917-1972. CX, 1976 г. 608 с.

AMALIY SAN'AT GENEZISI VA TURLI DAVRLARDAGI RIVOJI

Annotatsiya. Mazkur maqolada san'at (amaliy san'at)ning paydo bo'lishi, turli davrlarda uning rivojlanish bosqichlari, inson hayotida tutgan o'rni hamda asrlar mobaynida bosqichma-bosqich takomillasha borishi, shuningdek, Markaziy Osiyo amaliy san'atining ilk ko'rinishlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: san'at, amaliy san'at, kulolchilik, zargarlik, gilamdo'zlik, chitgarlik, asr, davr, takomillashuv, estetika, jamiyat, badiiy qiymat, bezak, qadimgi, ijod, ijodkor, zavq, kashfiyot, buyum, taraqqiyot, maqsad, natija.

ГЕНЕЗИС И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА

Аннотация. В данной статье рассказывается о возникновении искусства (прикладного искусства), этапах его развития в разные периоды, его роли в жизни человека и постепенном совершенствовании на протяжении веков, а также о первых проявлениях практического искусства Центральной Азии.

Ключевые слова: искусство, прикладное искусство, керамика, ювелирные изделия, ковры, отделка, век, эпоха, улучшение, эстетика, общество, художественная ценность, украшение, древность, творчество, создатель, удовольствие, открытие, предмет, прогресс, цель, результат.

GENESIS AND STAGES OF DEVELOPMENT OF APPLIED ARTS

Abstract. This article talks about the interdisciplinary analysis and research of the psychological security technologies of young people and the characteristics of the socio-demographic group of young people in the age of global information.

Key words: Art, applied art, pottery, jewelry, tapestry, chitgery, century, period, refinement, aesthetics, society, artistic value, decoration, ancient, creation, creator, pleasure, discovery, item, progress, purpose, result.

Tajriba yolg'iz kishining bilimi, san'at – jamiyatning bilimi.

ARASTU

Sa'nat borki, insonga estetik zavq, shuningdek, borliq va hayotning rang-barang tomonlarini o'z nigohida ko'rsatib beradigan tirik jarayon. Aslan san'atlarning barcha turi dunyoda go'zal yashash san'atiga xizmat qiladi. San'atning yagona qoidasi uni tushunmoq emas, balki his qilmoqlikdir. Shu haqdakim, san'atning katta bir yo'nalishi borki, bu amaliy san'atdir.

Amaliy san'at dizayn va bezakni estetik jihatdan yoqimli qilish uchun kundalik va mohiyatan amaliy narsalarga tatbiq etadigan barcha san'atlardir. Bu mavjud san'at turini amaliyotda aks ettirgan holda yagona maqsadi chiroyli bo'lish yoki aqlni qandaydir tarzda rag'batlantirishdir. Amaliy san'at asosan dekorativ san'at bilan bir-biriga mos keladi va zamonaviy amaliy san'at odatda dizayn, deb ataladi.

Amaliy bezak san'ati – bezak san'ati sohasi; ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari (asbob-anjomlar, mebel, mato, mehnat qurollari, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar, o'yinchoqlar va boshqalar)ni badiiy ishlash bilan bog'liq ijodiy mehnat sohalarini o'z ichiga oladi. Amaliy san'at asarlari ko'z bilan ko'rish, his etish va anglashga mo'ljallanganligi bilan boshqa san'at turlaridan farq qiladi. Amaliy san'at asarlari va buyumlari insonning moddiy muhitini go'zallashtirishga, estetik boyitishga

xizmat qiladi, ayni paytda o'zining ko'rinishi, tuzilishi, xususiyatlari bilan insonning ruhiy holati, kayfiyatiga ta'sir etadi. Bezatilgan narsalar hayotda foydalanilishidan tashqari badiiy qimmatini bo'lgani uchun ham qadrlanadi. Shuning uchun xomashyoning go'zalligi va nafis xususiyatlarini namoyish etish, unga ishlov berish mahorati va usullarining ko'pligi amaliy san'atda estetik ta'sirni oshiruvchi ahamiyatga ega faol vositalardir. Amaliy san'atda narsalarning nafisligiga ikki usul bilan erishiladi:

- *shakli oddiy, jo'n buyumlarga bezak ishlab badiiy qimmatini oshiriladi;*

- *shakli chiroyli qilib ishlanadi.*

Narsalarning tuzilishi badiiy buyumlarning mujassamida muhim rol o'ynaydi. Xomashyoning go'zalligi, qismlarning mutanosibligi, tuzilishining maromi buyumning ta'sirchan umumlashma qiyofasini ifodalovchi yagona vositalardir. Ta'sirchan, mazmunli shakllar ko'pincha taqlidan yaratilganda mazmuni ortadi. Buyumda hosil bo'layotgan bezak uning obraz tuzilishiga ham sezilarli ta'sir etadi. Bezagi tufayli buyum amaliy san'at asariga aylanadi [1].

Amaliy san'at esa quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga olgan katta sohadir: kulolchilik, kashtachilik, kandakorlik, zargarlik, ganch o'ymakorligi, yog'och naqqoshligi, yog'och o'ymakorligi, chitgarlik, gazlamachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, charmdo'zlik va shu kabilardir.

Amaliy san'atda bezak yaratishda naqsh bilan tasviriy san'at (haykaltaroshlik, rangtasvir, ayrim hollarda grafika) qismlari (alohida yoki turlicha

birikuvlari) keng qo'llaniladi. Ba'zan naqsh yoki tasvir buyumlarni shakllantiruvchi asosga aylanadi (panjara guli, to'r, gilam, mato gullari va hokazo). Amaliy san'at asarining uyg'unligi, avvalo, badiiy buyumning badiiy va amaliy vazifasining yagonaligida, shakl va bezakning o'zaro birikuvida, tasvir va buyum tuzilishida namoyon bo'ladi. Bezakning shakl, tasvirning buyum ko'lamiga va xususiyatiga, uning amaliy va badiiy vazifasi bilan uyg'unlashtirishning zarurligi tasviriy bo'laklarni o'zgarishiga, talqinda shartlilikka va narsa qismlarini o'xshatib yaratishga olib keladi. XIX asrning ikkinchi yarmidan ilmiy adabiyotlarda amaliy san'at asarlari foydalanilgan xomashyosi (yog'och, sopol, ganch, tosh, metall, suyak va boshqalar) va ijro usuli (bo'yash, o'yib-kesib ishlash, quyish, kashta tikish, to'qish va boshqalar)ga qarab farqlana boshlandi. Bu esa o'z navbatida buyumlarga ishlov berishni loyihalash (dizayn) va uni ishlab chiqarish bilan bog'lanishi (badiiy sanoat)ga zamin yaratdi. Amaliy san'at asarlari yaratilgan davrining maishiy qatlamiga mos mahalliy va milliy xususiyatlarni, ijtimoiy guruhlar bilan yaqin munosabatda bo'lgan uning moddiy madaniyatini ifoda etadi. Asrlar mobaynida xalq ijodiyotining sohasi sifatida amaliy bezak san'ati yuzaga kelgan. Uning rivojida xalq yashagan joyning geografik sharoiti, xalqning mashg'uloti, etnik va milliy jihatlari, turmush tarzi, madaniy darajasi, qo'shni xalqlar bilan aloqalari va boshqa muhim rol o'ynagan. Kulollikka yaraydigan tuproq mavjud joylarda kulollik, chorvachilik rivoj topgan yerlarda jundan mato to'qish, mo'ynado'zlik, kigiz bosish, gilamchilik va shu kabi tarmoqlar rivojlangan.

Amaliy san'at kelib chiqishi (genezesi) inson paydo bo'lgan davrlardan boshlab shakllana boshlagan. Uning qadimiy o'chog'i esa qadimgi Rim va Gretsiya, Yunoniston, Misr, Mesopotamiya, Xitoy, Hindiston shu bilan bir qatorda Markaziy Osiyoda vujudga kelgani tarixdan ma'lum. Bu amaliy san'atning o'sha davrda aloqalarning asosiy axborot almashish nuqtalaridan biri bo'lganidan darak beradi. San'at davrlar osha yangicha yo'nalishlar va ko'rinishlarga ajrala boshladi, davr vaziyatiga qarab o'rta asrlarga kelib ilm-fan tarraqqiyoti, geografik kashfiyotlar, yangi qit'alar, dengiz yo'llari xalqlarning o'zaro aloqasi jadallashuviga imkoniyat yaratdi. Jahon xalqlarining ijtimoiy hayoti faollashdi. Yevropa mamlakatlarida taraqqiyot birmuncha tezlashdi. Ular ko'pgina o'lkalarni bosib olib, o'z hukmronligini o'rnatdilar. Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Angliya, Gollandiya va boshqa Yevropa mamlakatlari uchun arzon xomashyo, ishchi kuchi va yangi bozorlar ochilib, ular tez rivojlana boshlandi. Bu davrda Osiyo, Afrika, Amerika, Avstraliya qit'alarida ham qator ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, Sharq mamlakatlarida an'anaviy san'at va madaniyat turlari bilan bir qatorda, san'atning yangi tur va janrlari yuzaga keldi. Amaliy bezak san'atiga yangi davr texnologiyasi joriy qilina boshladi. G'arb va Sharq san'ati an'analari uyg'unligida yangi san'at yo'nalishlari shakllandi.

Jahon ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida ro'y

bergan bu o'zgarishlarda Yevropa muhim o'rin tutadi. Chunki Sharq va G'arbningsan'atsohasidagi yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan Yevropa qit'asida feodal jamiyati qoloqligiga, ijtimoiy hayotda dinning hukmron bo'lib qolishiga qarshi chiqish boshlandi. Bu esa yangi munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Xususan, Niderlandiya va Angliyada bo'lib o'tgan xalq g'alayonlari o'rta asr tartibi va diniy cherkov hukmronligiga zarba berdi [2]. Gollandiya Yevropa namunali kapitalistik davlat tarzida rivojlana boshladi. Lekin feodalizm Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida o'z hukmronligini saqlab qolaverdi. Jumladan, Fransiya va Ispaniyada markazlashgan absolyut monarxiyalar vujudga keldi. Italiya va Germaniyada feodal tarqoqlik hukm surdi. Xalq absolyut monarxiya zulmiga norozilik bildirib, bosh ko'tardi. Ilg'or ziyolilar, ma'rifatparvarlar bu kurashlarni qo'llab-quvvatladilar. Ular feodalizm qoloqligini qoraladilar, fikr erkinligi rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi kuchlarga qarshi chiqdilar. Italiya, Fransiya, Ispaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarida eski tuzumga qarshi noroziliklar, xalq g'alayonlari kuchaydi. Bu XVIII asr oxiriga kelib, feodalizmning uzil-kesil inqiroziga sabab bo'ldi. Ijtimoiy munosabatlar o'zgardi, uning yangi shakllari yuzaga kela boshladi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy kurashning kuchayishi san'at va madaniyatning ijtimoiy hayotda mavqeini oshirdi. Dvoryanlar va cherkov san'at, amaliy san'atning va madaniyatni o'z manfaatlariga bo'ysundirishga harakat qildilar. Lekin jamiyat taraqqiyotini orqaga burish mumkin emas edi. Ziddiyat yanada keskinlashib bordi. Shular zahirida san'at va amaliy san'atning mafkuraviy kurashdagi roli ortib, uning uslubiy rang-barangligi kengayib bordi [3].

Aynan o'rta asrlardagi hukmron va oddiy tabaqa o'rtasidagi ixtiloflar san'atda o'z izini ko'rsatmay qolmadi. Ya'ni san'at va amaliy san'atda san'at sintezi masalasi birmuncha susaydi. Haykaltaroshlik va rangtasvirning mahobatli shakllari o'rnini dastgoh san'ati egallay boshladi.

Amaliy va dekorativ san'at buyumlariga ehtiyoj oshdi. XVIII asrga kelib, milliy maktablar ham ko'paya boshladi. Ular orasida Fransiya badiiy maktabi Yevropa san'atida yetakchi o'ringa chiqdi. Angliyada san'at rivojlandi, Italiyada Venetsiya badiiy maktabi, Germaniyada o'ziga xos nemis san'ati ravnaq topib, ular jahon madaniyati taraqqiyotida o'z o'rniga ega bo'ldi.

Rossiya ham bu davrga kelib madaniy taraqqiyotning yangi bosqichiga kirdi. Bu amaliy san'at buyumlarida ham o'z aksini ko'rsata boshladi. XVIII asrning ikkinchi yarmida Rossiyadagi iqtisodiy rivojlanish, savdo-sotiqning o'sishi, fan va madaniyatdagi yutuqlar rus badiiy san'ati rivojlanishiga ijobiy ta'sir qildi. Xalq amaliy va dekorativ san'ati ham ravnaq topdi. Bu davrda rus san'ati dastlab me'morchilikda shakllangan klassitsizm uslubiga xos fazilat – shakl aniqligi, kompozitsiya soddaligi va simmetriyaga e'tibor berdi. Antik san'atga qiziqish va uning shakllaridan ijodiy foydalanishga intilish rus amaliy san'atida ko'proq rangli toshlarni o'yish, mebel, chinni va shishalardan

yasalgan buyumlar yasash san'atida seziladi. Xalq amaliy san'ati shu davrga kelib, yangi motiv va shakllar bilan boyidi va o'zida davr ruhini ifoda etdi. Yog'och o'ymakorligi, rang naqqoshligi, kulolchilik, o'yinchoqlar, tikish-bichish nafis yodgorliklari shu davrning boy rang-barang badiiy hayotidan dalolat beradi.

San'at, xususan, amaliy san'atning davrlar mobaynida rivojlanuv genezisi XIX asr o'rtasi XX asr boshida o'zgacha bir ruhda ahamiyat kasb etdi. Bu davr tarixdan ma'lumki, yevropaliklarning yangi qit'alarga kirib borishi u yerlarda nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va madaniy hayotda ham o'zgarishlar ro'y berishiga sabab bo'lganligi o'tgan asrlardagi o'zgarish va rivojlanishlarni o'zgacha talqinlarida ham namoyon edi. Aynan rivojlanish jarayoni keskin tarzda XIX asrga kelib yanada tezlashdi [4]. Xalqlarning va millatlarning o'zaro yaqinlashish jarayoni san'at, amaliy san'at va madaniyat yo'nalishlariga kuchli ta'sir etdi. Jumladan, insoniyat madaniyatning markazlaridan biri bo'lgan Sharqda ham jiddiy siljishlar ham ro'y berdi. Sharq mamlakatlarida milliy burjuaziyaning shakllanishi, mahalliy ziyolilarning milliy ozodlik uchun kurashi mavjud an'anaviy san'at mazmuni va mavzusini o'zgartirib ozodlik, ma'rifat, tenglik, birodarlik g'oyalarini targ'ib eta boshladi. Ular o'z xalqlari hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, ularning orzu-istak va kayfiyatlarini tasvirlashga intildilar. Ular Sharq va G'arb san'at uyg'unligida davr ruhiga mos asar va amaliy san'at buyumlari yaratishga harakat qildilar. Bu yangi o'ziga xos san'at yo'nalishlari paydo bo'lishiga olib keldi. Bu o'zgarishlar me'morchilikda ham, amaliy bezak san'atida ham namoyon bo'ldi.

Tadqiqotchi olim N.Abdullayevning "San'at tarixi" kitobining ikkinchi jildida olim "XIX asr o'rtalari va ikkinchi yarmida Yevropa san'atida realistik yo'nalish yetakchi bo'la boshlaganini, uning rivojlanishi esa bevosita burjua demokratik inqilobi va milliy ozodlik harakatining kuchayishi bilan bog'lanib ketganligi" bilan izohlaydi [5]. Darhaqiqat, bu jarayonda ko'pgina ijodkorlar faol qatnashdilar, ko'rgan voqealarni o'zining san'at va amaliy san'atga doir ijodlarida haqiqatga yaqin qilib ishlashga intildilar. Natijada, boshqa san'at turlari qatorida amaliy san'atda ham tanqidiy yo'nalish kuchaydi. Yaratilgan asarlarda ijtimoiy nohaqlik, kishilarning turmushini ko'rsatish, hukmdor sinf kirdikorlarini ochib tashlash asarlarning mazmunini tashkil etdi. Misol uchun, o'sha davrlardagi ham Sharq, ham Yevropa bozorlaridagi sayyor aktyor truppalari foydalangan amaliy san'atga doir spektakl qo'g'irchoqlaridir. Bu qo'g'irchoqlarning voqeyi syujetidan tashqari uning mazlum va adolatsiz hukmdor qatlamlarining ko'rinishlari tanqidiy yondashgan holda yaratilgan va ommaga taqdim qilinishi oddiy tomoshabin, xalqqa ham ma'lum edi. Aynan o'sha davr dehqon, ishchi va hunarmandlar amaliy san'at namunalari bosh qahramon bo'lib qoldi.

Ijodkorlar san'at odamlarga tevarak-atrofni tushunishga xizmat qilishi, buning uchun esa har qanday ideallashtirishdan voz kechishi lozim, degan

tushunchada bo'ldilar. Buyuk nemis haykaltaroshi Ernst Rietschel aytganidek: "San'atni rostgo'ylik bezaydi, lekin barcha rostgo'ylik san'at emas" [6]. Aynan shuning uchun bu davr san'atiga xos realizmda hayot haqiqati yetakchi o'rinni egalladi. Me'morlik va monumental-dekorativ hamda amaliy dekorativ san'atda inqiroz belgilari namoyon bo'la boshladi. Bu davrda san'at sintezida ham turg'unlik yuz berdi. Me'morlik va amaliy bezak san'atida yangi estetika shakllanishi kuzatildi. Hozirgi kunda esa o'tgan davr mobaynida foydalanib kashf etilgan yo'nalishlar qaytadan tadbiq etilib, ijodkorlar tomonidan o'z asarlarida keng foydalanilmoqda. Umuman olganda, san'at va amaliy san'at doimiy jamiyat bilan o'sib teng rivojlana borgan tirik jarayon bo'lgan. Turli davrlardagi hukmron siyosat qisman san'atga o'z ta'sirini ko'rsatsa-da, haqiqiy san'at o'zining realligi bilan sof va badiiyligicha qoldi. Bu haqda Nobel mukofoti sovrindori, amerika yozuvchisi Ernest Xeminguey o'zining mashhur asarlarining birida: "Haqiqiy san'atni siyosat o'zgartira olmaydi, san'atning maktabi, sinfi, yorlig'i, eski yoki yangi usuli yo'q. U barcha davrlarda ham jonlantirib, maftun qilib, ovuntirib, rom qilib qo'yilgan, go'zal va oliyjanob mo'jizadir", – deydi.

O'zbekiston hududida qadimiy ibtidoiy madaniyat tosh asrining ilk bosqichi milloddan avval 700–600 ming yillikdan 100 minginchi yillargacha bo'lgan davrga borib taqaladi va bu madaniyat oddiy mehnat qurollari – toshdan ishlangan chopqichlar sifatida paydo bo'lgan [7]. Shunday qurollar So'x vohasining Selung'ur g'oridan, Ohangaron daryosi yaqinida Ko'lbuloq manzili, Boysun tog'lari va Zarafshon etaklaridan topilgan. Bu topilgan mehnat qurollarining ilk namunalari asosan ikki tomoniga ishlov berilgan chopqichlar bo'lib, uning bir tomoni uchli va o'tkir bo'lishiga e'tibor berilgan. Tosh asrining so'nggi bosqichiga kelib, hozirgi zamon odam qiyofasi shakllandi. Odamlar tabiiy g'orlarni o'zlashtira boshladilar. Ular endilikda toshdan tashqari suyak, yog'ochdan o'zlari uchun kerakli buyumlarni yarata boshladilar, bigizlar paydo bo'ldi. Bu davrga kelib, olovni ixtiro etilishi odamlar jamoasini yaxlitlashiga olib keldi. Odamlar yashaydigan joylarda esa mehnat qurollari yasaydigan ustaxonalar paydo bo'la boshladi. Rassomlik, haykaltaroshlik, me'morlikning dastlabki ko'rinishlari shakllandi. Ibtidoiy odamlar o'z mehnat va ov qurollariga, kundalik turmushda ishlatadigan buyumlariga turli belgi va chiziqlar chizib ularning go'zalligini ortira boshladilar, o'zlari uchun bezak-taqinchoqlar yaratishga harakat qildilar.

O'rta tosh asri (mezolit, miloddan avvalgi 12–7 ming yillik)ni o'z ichiga oladi. Bu asrga kelib odamlar katta bo'lmagan jamoalarga birlashib katta maydonlarni egallay boshladilar. Suv havzalari yaqinlarida, tog'yonbag'irlaridagi yerlarda, daryolar oralig'idagi orolchalarda yashaydigan manzillar paydo bo'ldi. Ovchilik, baliqchilik va termachilik bilan shug'ullanish rivojlandi. Bu davrga kelib toshga ishlov berish ham murakkablashdi. Hayvonlarni xonakilashtirish kengayib bordi. Inson hayotidagi bunday o'zgarishlar uning ma'naviy olamida ham

o'z ifodasini topa boshladi. Uning tevarak-atrofga munosabati ham o'zgardi. Fikr yuritish, o'zini anglash va hislariga e'tibor berish rivojlanib bordi. Ruh, o'zga olam tushunchalari murakkablashdi. Bu o'zgarishlar uning yaratgan buyumlari, ishlagan rasmlarida o'z ifodasini topdi. Shu davrdan san'at rivojlanishiga xos xususiyatlar sezilarli darajada o'sdi.

Bir qarashda sodda, oddiy bo'lgan ana shu ibtidoiy san'at asarining davr mohiyati, inson tafakkuri rivojini bilishda ahamiyati katta. Zarautsoy rasmlari paleolitning so'nggi bosqichida ishlangan bo'lib, murakkab kompozitsiyalar esa biroz keyinroq, mezolitning boshlariga to'g'ri kelishini olimlar e'tirof etishgan. Jizzax viloyatining Taqatosh, Farg'ona vodiysining Soymolitosh manzillaridan topilgan ibtidoiy rasmlar hamda amaliy san'atga doir buyumlar ham murakkab kompozitsion yechimi bilan ajralib, ijtimoiy hayotning yangi-yangi qirralari – ovchilarning jamoa bo'lib, ovga chiqishlarini ishonarli talqin etadi [8].

Yangi tosh asri (neolit, miloddan avvalgi 6–4 ming yillik)ga kelib inson tabiat in'om etgan mahsulotlarni iste'mol qilish bilan birga o'zi ham iste'mol mollarini ishlab chiqarish, moddiy boyliklarni ko'paytirishga o'ta boshladi. Chorvachilik va dehqonchilik yanada rivojlana boshladi. Davrning muhim yutuqlaridan biri bu oddiy loydan mustahkam sopol buyumlar yasash bo'ldi. Yangi tosh asri – neolit davrini sopol asri, deb yuritilishi ham shunda. Bundan ko'rinib turibdiki, inson endilikda kundalikda foydalanadigan buyumlarning nafaqat qulayligi, balki nafisligi uchun ham alohida e'tibor bera boshladi. Dastlabki sopol buyumlar dastgohsiz qo'lda yasalgan, ularning yuzasiga turli chiziqlar bilan bezak berilgan. Toshni kesish, ularga pardozi berish san'ati ham davr kishilarining estetik qarashlarining rivoji edi. Yangi tosh asrining xarakterli tomoni, yangiligi bu mayda haykaltaroshlikni hayotga kirib kelishi bo'ldi. Ular sodda ko'rinishda bo'lishiga qaramay, davr uchun muhimdir. Bu davrda qurilish san'ati – me'morlik paydo bo'la boshladi. Odamlar loydan yer ustida o'zlari uchun uy-joy qurishga kirishdilar. Bu davrda amaliy san'atning yangi turlari paydo bo'ldi. To'qimachilik, terini qayta ishlash sohasida muvafaqqiyatlarga erishila boshlandi. Hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlandi. Neolit davri ibtidoiy amaliy san'atning rivojidadagi katta poydevor bo'lgan asrdir.

Hozirgi Xorazm va Buxoro hududida paydo bo'lgan Kaltaminor madaniyatida kulolchilik rivojlangan. Ularning shakllari rang-barang. Turli xil sopol idishlar – ko'za, kosa va cho'michga o'xshash idishlarning yuzasiga turlicha yo'nalgan siniq chiziqlar naqsh hosil qilish vositasi sifatida keng ishlatilgan [9]. Bu madaniyatga oid sopol buyumlar yuzasi o'yma va chizma naqshlar bilan bezatilgan. Shu madaniyatda haykaltaroshlik ham rivojlanganligi topilgan ashyoviy dalillarda ko'rinadi. Albatta, bu haykallarning ishlanishi sodda, hatto, biroz qo'pol, lekin shu mavzuda haykallarning yaratilishi muhim. Kaltaminor madaniyatida tosh qurollar ham keng uchraydi. Bu davrda naqsh san'ati keng rivoj topdi. Ular ko'proq to'g'ri chiziq, parallel chiziqlardan tashkil topgan.

Eneolit va bronza asri. Bu asr iste'molchilikdan ishlab chiqarishga o'tish va dastlabki shahar madaniyatining shakllanish yillari san'ati bilan boshqa ibtidoiy asrlardan farq qiladi. Milloddan avvalgi III ming yillikda O'zbekiston hududida mis ishlatila boshlangan, tosh qurollarning ko'pi yo'qola borgan [10]. Eneolit (mistosh) asri sopol idishlari shakli o'zgardi. Ular yuzasida murakkab naqshlar paydo bo'la boshladi, idishlarning tag tomoni yassi qilib ishlana boshlandi. Amudaryo va Zarafshon etaklaridan topilgan misdan yasalgan munchoq, bilakuzuk va boshqa zebziynat buyumlari bu davrda amaliy bezak san'ati rivojlanganligini ko'rsatadi.

Ibtidoiy davr haykaltaroshligi o'zining rang-barangligi bilan xarakterlanadi va u dumaloq va bo'rtma tasvir relyef tarzida namoyon bo'ladi. Haykallar loydan yasash va uni olovda kuydirib terrakotaga aylantirish, yog'och, suyakdan yo'nish, tosh, marmarga ishlov berish hamda metall bronza, oltindan haykallar quyish uslublarida bajarilgan. Ayniqsa, quyma haykallar yaratish borasidagi ishlar jez (bronza) davrida yuksaklikka erishdi. Farg'ona quyma topilmalari ichida amaliy bezak buyumlari keng o'rin egallaydi. Farg'ona vodiysining Haq qishlog'idan 1899-yil bir qancha bronza va kumushdan ishlangan buyumlar – mehnat va ov qurollari topilgan edi [11]. Shular ichida sigir sog'ayotgan ayol haykali ishlangan to'g'nag'ich bezagi xarakterlidir. Unda o'z buzoqchasiga engashib qarab turgan sigir va uni sog'ayotgan ayol tasvirlangan. Haykaltarosh oddiy mana shu kompozitsiyada hayotiy voqeani aks ettiradi. Shu davrga oid ov va mehnat qurollari ham o'zining bejirim shakli, topilgan o'lcham nisbatlari bilan yaxshi taassurot qoldiradi. Ibtidoiy jamoa davrining so'nggi bosqichlarida toshga ishlov berish, tosh, marmardan haykal yasash san'atini ibtidoiy haykaltarosh mukammal o'zlashtirib oldi. Farg'ona vodiysidan topilgan ikki boshli ilon tasviri miloddan avvalgi II ming yilliklarda ishlangan. Unda tosh sathiga yaxshi ishlov berilgan, silliq ilon tanasida oq chuqurchalar bo'lib, ularga oqish gips to'ldirilgan, ko'z va tishlari inkrustatsiya uslubida ishlangan va qimmatbaho toshlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Marmardan ishlangan "Qayiqdagi buqa", "Toshbaqa" haykali, toshdan yasalgan "Erkak boshi" haykali davr haykaltaroshlik namunasi sifatida e'tiborga loyiq.

Mirshodi manzilidan topilgan qora toshdan ishlangan "Erkak boshi" haykalida qattiq materialga ishlov berib katta shakllarda odam boshi xususiyatlarini ko'rsatishga muvassar bo'lgan. Bu davr sopol haykaltaroshligi – terrakotada betakror haykallar ishlandi. Bu haykallar mavzusi rang-barang. Odam, hayvon, qushlar, turli hayotiy voqealar shu haykallarda o'z aksini topgan. Haykaltaroshlikdan buyumlarni bezash ishlarida ham keng foydalanilgan. Turli ko'za, xum kabi buyumlarning band va ayrim bo'limlari hayvonlar, masalan qo'y, sher va boshqa hayvonlar shakliga o'xshatib yasalgan.

Ibtidoiy jamoa davri amaliy bezak san'ati ham boy va rang-barang. Bu san'at kishilar kundalik ehtiyojining ajralmas qismi bo'lib, u odamzodning birinchi bor qo'lga yog'och olib undan foydalanganida, tosh

bilan toshni maydalaganida shakllana boshlagan edi. Amaliy san'at rivojlanishining yangi bosqichi sopolning ixtiro etilishi kulolchilikning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Sopolning ixtiro etilishi ijtimoiy hayotda katta o'zgarishlar yasadi. Sopol pishirish texnologiyasining rivojlanib borishi yaratilgan buyumlarning shakli va ko'rinishida ham aks etdi. Dastlabki sopol buyumlar qo'lda, dastgohsiz bajarilgan. Asta idishlar shakliga e'tibor ortib ularni turli chiziqli, rangli va chizma naqshlar bilan bezash san'ati rivojlandi. Sopol buyum yuzalariga to'lqinsimon, katak, uchburchak, to'g'ri chiziqli naqshlar chizma, bosma uslublarda ishlangan.

Zarafshon vohasidan topilgan sopol buyumlar yuzasi shunday to'lqinsimon naqshlar bilan bezatilgan. Xorazmning Kaltaminor qishlog'i yonidagi Jonbosqal'adan topilgan sopol idishlar ichi tuxumsimon va ikki chekkasi qayiq uchiga o'xshagan sopol tovoq idishlar O'zbekiston hududidan topilgan eng qadimiy sopol namunasi hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, san'at, xususan, amaliy san'at har davrda ham insonning qay tarzda yashaganidan, qay darajada intellekt va nozik didga ega bo'lganini o'z asarlari orqali namoyon qilgan tirik va o'lmaydigan jarayon. Buyuk olmon faylasufi Artur Shopengauer o'zining ilmiy ishlarini birida: "Har qanday buyuk, ilmiy yoki san'at asari uni yaratgan kishining aqli va qobiliyatini aks ettiradi", – degan fikri bilan tasdiqlashimiz mumkin. Hech qaysi san'at turi yomonlikka xizmat qilmay, uni maqsadi yagona, bu ham bo'lsa hayotni chuqur bilish va sevishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev N. San'at tarixi 2/1. 2001.
2. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati.– Toshkent: 1991.
3. Pritsa "Toshkent ganchkorligi".
4. Badiiy adabiyotlar nashriyoti. 1960.
5. Bulatov S. O'zbekiston san'ati tarixi. – T.: 1991.
6. Abdullayev T. XIX–XX asrlarda O'zbekiston kandakorlik san'ati. – T.: 1994.
7. Xasanov V. Amaliy bezak san'ati metodikasi. – T.: 2003.
8. Aql ensiklopediyasi. 2016.
9. O'zbekiston xalq amaliy san'ati (2 jildli). – T.: 2004.
10. Asqarov A. Eng qadimgi shahar. – T.: 2001.
11. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: 1994.
12. Логофет Д.И. Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – СПб.:1912.
13. Махмудов Н. Земледелие и аграрные отношения в Средней Азии в XIV–XV вв. – Душанбе:1966.
14. Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX начало XIII вв. – T.: 1996 г. С.102.
15. www.tdpu.uz
16. www.pedagog.uz
17. www.Ziyonet.uz

АНАЛИЗ ОБРАЗА СЕМЬИ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ УЗБЕКИСТАНА (ИСТОРИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ)

Аннотация. Искусство называют «душой нации», и в узбекском искусстве мы можем видеть этот красочный, задумчивый, пытливый дух, тянущийся к нам через века. Чутко, смешивая древнее и современность, почитая прошлое и принимая будущее, здешние художники сумели создать уникальную и увлекательную школу. В данной статье представлена информация об истории и этапах развития образа семьи и изобразительного искусства в Узбекистане. В нем также представлена подробная информация о развитии изобразительного искусства и его создателях.

Ключевые слова: изобразительное искусство, семья, цвет, этапы развития, период развития, виды искусства, классовое общество, творчество, произведения искусства.

O'ZBEKISTON TASVIRIY SAN'ATIDA OILA OBRAZI TAHLILI (TARIXIY NUQTAYI NAZARDAN)

Annotatsiya. San'at "millat ruhi" deb nomlanadi va o'zbek san'atida biz asrlar davomida bizga etib kelgan bu rang-barang, o'ychan, qiziquvchan ruhni ko'rishimiz mumkin. Qadimgi va zamonaviylikni aralashtirib, o'tmishni hurmat qilib, kelajakni qabul qilib, mahalliy rassomlar noyob va qiziqarli maktab yaratishga muvaffaq bo'lishdi. Ushbu maqolada, O'zbekistonda oila va tasviriy san'at obrazining tarixi va rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, u tasviriy san'atning rivojlanishi va uning yaratuvchilari haqida batafsil ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, oila, rang, rivojlanish bosqichlari, rivojlanish davri, san'at turlari, sinf jamiyati, ijodkorlik, san'at asarlari.

ANALYSIS OF THE IMAGE OF THE FAMILY IN THE FINE ARTS OF UZBEKISTAN (HISTORICAL ASPECTS)

Abstract. Art is called the "soul of the nation", and in Uzbek art we can see this colorful, thoughtful, inquisitive spirit reaching out to us through the centuries. Sensitively, mixing ancient and modern, honoring the past and accepting the future, the local artists have managed to create a unique and fascinating school. This article provides information about the history and stages of development of the image of the family and fine arts in Uzbekistan. It also provides detailed information about the development of fine arts and its creators.

Key words: fine arts, family, color, stages of development, period of development, types of art, class society, creativity, works of art.

Введение

Искусство возникло в глубокой древности, в результате развития процесса труда, в процессе труда созрела человеческая психика, обострилось чувство прекрасного, расширилось представление о красоте в действительности. С возникновением классового общества произошли большие изменения в общественном развитии. От труда физического стал отделяться умственный труд, сыгравший важную роль в развитии науки и искусства. В этот период появилось профессиональное искусство и художники. Искусство же стало мощным идеологическим инструментом пропаганды идеологии господствующего класса, демонстрации его самобытности и классовой принадлежности. Тем не менее талантливые художники, выросшие в массах, создали произведения, выражающие стремления трудящихся, их представления о красоте и эгоизме, благородство и человечность. В их произведениях нашли отражение жизнь, поведение и нравы, достижения и поражения народа. Такое искусство, существовавшее во все

века, изображало красоты жизни, развивало в людях высокие качества и добродетели, побуждало их стремиться к светлому будущему равенства, свободы, братства [2].

Ведь культурные ценности, созданные человечеством, являются не просто обычным богатством, но и отражением человеческого разума, представлений о жизни, обучения истории мирового искусства, понимания закономерностей его развития, знакомство с редкими памятниками, изучение чувств, жизненного опыта людей прошлого означает познание формирования мировоззренческих и эстетических взглядов. Несомненно, это помогает людям обогатить свой жизненный опыт, более широко и всесторонне подходить к жизни. К видам изобразительного искусства относятся живопись, архитектура, графика, скульптура [3].

Основная часть

В XIX веке в Средней Азии появилось изобразительное искусство, миниатюра Ташкента, Самарканда, Бухары и Коканда. Известно, что просветитель XIX века, поэт, философ, оратор, астроном

Ахмад Дониш (1827–1897) был также художником. Его сохранившиеся картины включают миниатюру рукописи Абдукадира Бедиля «Четыре элемента», «Поэт и художник» и сатирическую миниатюру с изображением городской стражи. Миниатюры, которые он рисует, доведены до совершенства готовыми картинами, замененными красками, четкими контурными линиями и его графическим дизайном. Ахмад Халик Махмуд, ученик Ахмада Дониша, также известен как художник, искусно изображающий насекомых и цветы.



Работа для проекта «Туркестанский ремейк»

Одним из самых известных, но и загадочных художников-миниатюристов этого региона является Камал ад-дин Бехзад (1450–1535), полупоэтический персонаж, возглавлявший царские мастерские в Герате и Тебризе в позднети-муридский период. Известный своим умением изящно улавливать нюансы человеческого движения, Бехзад создал множество изысканных работ, возможно, самой известной из них является «Соблазнение Юсуфа и Зулейхи», которая в настоящее время хранится в Национальной библиотеке и архиве Египта в Каире. Выполненная в 1488 году и имеющая размеры всего 30 см x 21 см, она представляет собой потрясающе богато украшенное изображение известной истории о том, как Иосиф ускользнул от жены Потифара. Используя яркие, контрастные цвета, чередующиеся перспективы и смелые геометрические формы, Бехзад ведет зрителя из комнаты в комнату, пока Иосиф (Юсеф) убегает от преследователя (Зулейхи).[4]



К.Бехзад «Соблазнение Юсуфа и Зулейхи». Часть Юсуф убегающий от Зулейхи»

Великое искусство всегда находится в поиске новых идей, новых способов осмысления и изображения окружающего мира, поэтому встреча европейских и среднеазиатских художников дала отличные результаты. Европейские художественные традиции пришли в Среднюю Азию в конце XIX века, когда царская Россия отправила экспедиции для изучения культуры и быта соседнего Туркестана. Первым русским художником, принесшим миру глубину и экзотику нашего края, был Василий Верещагин. Примечательно, что русские художники познакомили своих узбекских коллег со станковой живописью, ранее неизвестной в регионе, и начался период интенсивного творчества.

Всего за несколько коротких десятилетий (1910–1940) кубизм, экспрессионизм, футуризм и импрессионизм нашли здесь благодатную почву, и возникла уникальная среднеазиатская форма авангарда, поскольку местные художники добавили яркий колорит средневековой культуры и дисциплины декоративное искусство.

Уникальные обычаи и традиции в семье, сохраняющие многовековой быт, вызывающие воспоминания пейзажи и природа, персонажи, похожие на библейских пророков, народное творчество с его многослойным смыслом и символикой – все это стало источником нового художественного языка как для коренных узбеков, так и для поселившихся русских здесь. Таким образом, классическое наследие Запада, традиции русской иконописи и экспериментальность русского авангарда соединились с декоративным орнаментализмом среднеазиатского искусства и вместе породили уникальное художественное мировоззрение. [1]

Еще один художник, полюбивший Среднюю Азию, Усто-Мумин (Александр Николаев). Вдохновленный пейзажем, а также образом жизни, особенно процветающими ремеслами, Усто-Мумин писал жанровые композиции на тему «Семья», а также пейзажи и портреты. Как и многие современные художники, он изучал творчество средневековых миниатюристов и умело сочетал традиции западноевропейского авангарда с восточным миниатюризмом.

Таким образом, в течение нескольких десятилетий Узбекистан возвращал международный центр авангарда. Однако все резко изменилось в 1934 году. Это была эпоха социалистического реализма, когда искусство подвергалось жесткой цензуре и

должно было соответствовать строгим правилам как с точки зрения содержания, так и стиля. Авангардное движение обвиняли в «формализме», и многие узбекские художники подверглись резкой критике. Другие приспособливали свои работы к требованиям времени, создавая плакатные портреты «образцовых рабочих» или сцены счастливых сборщиков хлопка, трудящихся в поле [2].



Ч.Ахмаров «Традиционная семья»

Тем не менее мастера начала XX века вдохновили и воспитали новое поколение художников, так родилась узбекская школа. Одним из первых появившихся корифеев был Абдулхак Абдуллаев. Очарованный человеческой природой и считающий каждого человека абсолютно уникальным, Абдуллаев в своих захватывающих портретах вывел социалистический реализм на совершенно новый уровень. Его современник Рахим Ахмедов исследовал другую тему, вдохновившись родным Узбекистаном – жарким солнцем, быстрыми реками и щедрыми садами. Тем временем Чингиз Ахмаров искал источник своего творчества в древних корнях Узбекистана. Его пейзажи напоминают восточные миниатюры, сопровождающие лирические стихи великого Алишера Навои.

Ахмаров также известен своими огромными фресками, многие из которых до сих пор можно увидеть в общественных зданиях или даже в метро. Даже здесь его чувственные портреты отражают застенчивое, но чарующее очарование вос-

точных красавиц и дерзкую гордость его отважных героев. Жена Ахмарова, Шамсрой Хасанова, была первой известной женщиной-художницей в Узбекистане, и ее работы исследуют духовную свободу женщин Центральной Азии. Она стремилась уловить сущность выдающихся женщин, обращаясь к собственному опыту и сочувствию для своих чувственных портретов [1].

Выводы

1970-е годы принесли Узбекистану новую волну творческого развития. Многие узбекские художники шли вразрез с официальной идеологией и использовали искусство, чтобы бросить вызов правящим элитам, настойчиво идя своим путем в поисках художественного самовыражения. Такие художники, как Шухрат Адурашидов, Масхуд Тухтаев, Шухрат Тимуров, Хайдар Санаев и многие другие, вдохновили и следующее поколение на собственные творческие поиски. Такие художники, как Орифджон Муйнов, развили авангардную традицию, используя своего рода код или символы для общения со своей аудиторией.

Таким образом, история изобразительного искусства Узбекистана является неотъемлемой частью истории мирового изобразительного искусства. Узбекское искусство имеет богатое наследие. Сегодня наши художники и скульпторы известны во всем мире. А наше декоративно-прикладное искусство издавна забавляло людей. Работы наших мастеров имеют репутацию не только в независимом Узбекистане, но и в других странах.

Использованная литература:

1. Абдиев В.И. История Древнего Востока. – Ташкент: 1965 г. С.4–18.
2. Абдуллаев Н.Ю. История искусств (Тема 1). – Т.: «Учитель», 1986 г. С.5–19.
3. Айдинов Н. Из истории изобразительного искусства. – Т.: «Учитель», 1997.
4. Axmedov M.B., Xasanova M.Z. Qalamtasvir. – Т.: «IJOD-PRINT», 2021 g. S.188.
5. Bulatov S.S., Soipova M.S. Badiiy tahlil tamoyillari. – Т.: «Fan va texnologiya», 2016-y. 260-b.
6. Ахмедова Н. «Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог» – Т.: 2004 г.
7. Пугаченкова Г.А., Ремпел Л.И. «История искусства Узбекистана», –Т.: 1984 г. С.7–14.

VIII BO'LIM

E'TIROF

RUSTAMOV Vahobjon Kiyamovich,
O'zDSMI professori v.b.

XAYRULLA INOG'OMOV – ISTE'DODLI IJODKOR VA FIDOYI RAHBAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatrida bir necha yillardan beri faoliyat olib borayotgan fidoyi, taniqli ijodkor, aktyor, direktor o'rinbosari Xayrulla Inog'omovning ijodiy faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: aktyor, rejissyor, marketing, tomoshabin, estetik ehtiyoj, ma'naviy muhit.

ХАЙРУЛЛА ИНАГАМОВ – ТАЛАНТЛИВЫЙ ТВОРЕЦ И ПРЕДАННЫЙ РУКОВОДИТЕЛЬ

Аннотация. В данной статье дан информация о творческой деятельности самоотверженного, известного творческого актера, заместителя директора Государственного музыкального театра Узбекистана имени Мукими Хайруллы Инагамова.

Ключевые слова: актер, режиссер, маркетинг, аудитория, эстетическая потребность, духовная атмосфера.

XAYRULLA INAGAMOV – A TALENTED ENTREPRENEUR AND A DEDICATED LEADER

Abstract. The article provides information about the creative activities of Xayrulla Inog'omov, a renowned artist, actor, director, and artistic director who has been actively involved in the Uzbekistan State Musical Theater named after Mukimi for several years.

Key words: actor, director, marketing, consultant, aesthetic needs, and spiritual environment.

“Demokratik jamiyatni barpo etish, kelajak poydevorini qurish, hech shubhasiz har birimizdan qat’iyatli va omilkor bo’lishni, yangicha fikr yuritishni, yangicha ishlashni talab etmoqda”.

Sh.MIRZIYOYEV

Yangilanayotgan O'zbekiston bugungi kunga kelib, jahonda o'zining munosib o'rnini egallash yo'lida ulkan qadamlarni tashlab, aniq, strategik maqsadlarni ko'zlagan holda taraqqiy etib bormoqda. Aholining iqtisodiy, axloqiy, moddiy, ma'naviy va estetik ehtiyojlarini qondirish, ularning ijtimoiy turmush tarzini yaxshilash, o'z hayotidan rozi bo'lib yashash, kelajakka ishonch, baxtli hayot kechirishlari uchun davlatimiz tomonidan juda ko'p qaror, farmon va boshqa hujjatlar ishlab chiqilmoqda-ki, bu xalq farovonligini oshirish, mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, shu yurtda yashayotgan insonlarni

yaxshi yashashlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilmoqda.

Bugungi qahramonimiz ham teatr san'atiga butun faoliyatini bog'lagan, teatrni o'z uyi o'rnida ko'rgan, xalqimiz ardoqlagan, sevgan mashhur aktyor va rejissyorlar duosini olgan iste'dodli aktyor, Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatr direktor o'rinbosari Xayrulla Inog'omovdir.

Har safar talabalarimizni Muqimiy nomidagi musiqali drama teatriga olib borganimda birinchi navbatda Xayrulla Inog'omov bilan uchrashtiraman. Xayrulla aka talabalarimizga madaniyat va san'at muassasalarining eng yaqqol namunasi bo'lmish teatrlarimizning faoliyati, vazifalari, aktyorlar, rejissyorlar, gastrol safarlari haqida so'zlaganida, talabalarning sohaga qiziqishi ortganini sezaman. “Sizlar, mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni targ'ibotchilarisiz, siz zamon bilan hamnafas bo'lishingiz, qilinayotgan islohotlar, Yangi O'zbekistonning, Uchinchi Renessansning poydevorini yaratishda siz yoshlarning tashabbuskorligingiz, bilimingiz muhimdir. Shuning uchun siz

¹ Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: 2021-y. 8-b.



aktyor yoki rejissyor bo'lmangiz ham shu sohaga oid bilimlardan xabardor bo'lishingiz kerak. Sahna nutqi, boshlovchilik mahorati, tadbirlar dramaturgiyasi, ssenariylar yozish, uni sahnalashtirish qonun-qoidalarini bilishingiz kerak"², – deydi ustoz san'atkor talabalarga.

X.Inog'omov faqat teatrdan emas, balki O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining turli kanallarida efirga ketayotgan telenovellalarda rollar ijro etib, tomoshabinlarning e'tiborini qozonib kelmoqda. Ayni damda ijodkorimiz "Madaniyat va ma'rifat" kanalida "Sinf dan tashqari" deb nomlangan yangi ko'rsatuv ustida ish olib bormoqda. Shuningdek, radioda ham samarali faoliyat yuritib kelmoqda. "Yaxshi kayfiyat", "Tungi oqshom" va boshqa eshittirishlardagi chiqishlari tinglovchilarga manzur bo'lmoqda.

X.Inog'omov Respublika miqyosida o'tkaziladigan Navro'z, Mustaqillik, Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan tadbirlar va boshqa bayramlarni tashkil etishda tadbir tashkilotchilariga tashkiliy va ijodiy ishlarda katta yordam berib keladi. Shuningdek, xalqaro festivallar, konsertlar va boshqa ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda teatr aktyorlarini jalb qilish, kostyumlar bilan ta'minlash, sahnalarni bezash va boshqa ishlarda yaqindan ko'mak berib kelmoqda.

Muqimiy teatri umumiy masalalar bo'yicha direktor o'rinbosari Xayrulla Vahobov Xayrulla Inog'omov haqida shunday deydi: "Xayrulla aka *"tirik ensiklopediya"*. Ustozdan xohlagan mavzu, ayniqsa teatr san'atiga tegishli savollarga to'liq va aniq javob olasiz. Masalan, biron-bir spektakl haqida so'rab qolsangiz, asar muallifi, qachon sahnalashtirilgan, kim sahnalashtirgan, qanday sahnalashtirilgan, kimlar qaysi rollarni qanday ijro etishgan, kostyumlari qanday bo'lgan, dekoratsiyani kim tayyorlagan va boshqa savollarga to'liq javob olishingiz mumkin. Agar biron aktyor haqida so'rasangiz, uning ism-sharifi, qanday rollar ijro etgan, kimlar bilan dublyor bo'lgan, xullas, hamma savollaringizga to'liq javob olasiz. Ko'p teatrlarda tomoshabinlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari, degan lavozim yo'q. Masalan, O'zbek Milliy akademik drama teatrida bunday shtat yo'q. Chunki bu teatrga tomoshabin oqimi yaxshi. Shukur, bizning Muqimiy teatrimizning zali ham kundan kunga tomoshabinlar bilan gavjum bo'lib bormoqda. Bunda Xayrulla ustozning hissasi katta. Ustoz tashkilotchilik qobiliyatiga ega".

Suhbat chog'ida Xayrulla Inog'omov quyidagilarni so'zladi: "Darhaqiqat, teatrimizga tomoshabin tashrifi ko'paydi. Respublika Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar, Milliy xavfsizlik, turli ta'lim muassasalari va boshqa soha xodimlari bizdan chipta sotib olib, spektakllarni tomosha qilib ketmoqdalar. Teatrga rahbarlarning tashrifi shuning uchun muhimki, birinchidan, rahbar spektakl ko'rish uchun yolg'iz o'zi kelmaydi. Oilasi yoki xodimlari bilan keladi. Ikkinchidan, u boshqacha fikrlay boshlaydi, ma'naviy dunyoqarashi o'zgaradi".

Men teatrga talabalar bilan birga tez-tez tashrif buyuraman. Talabalar Xayrulla akaning suhbatiga oshiqadilar. Ustoz san'atkor talabalarning savollariga erinmasdan, astoydil javob beradi. Suhbatdagi samimiyluk barchamizni ustoz bilan yana suhbatlashishga chorlaydi.

Mazkur yilning 27-iyul kuni Xayrulla Inog'omov 60 yoshni qarshiladi. Ustozning tashkiliy va ijodiy ishlariga ulkan zafarlar tilaymiz. Oilaviy tinchlik, mustahkam sog'lik, baxt, omad hamisha hamrohingiz bo'lsin!

² O'zDSMI talabalarining X.Inog'omov bilan bo'lgan suhbatidan.

O'ZBEK TEATRI AKTYORLARINING KINO VA DUBLYAJ SAN'ATIGA QO'SHGAN HISSASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy teatrimizning darg'a san'atkorlari, yetakchi aktyorlar va pedogog-rejissyorlar ijodi haqida so'z boradi. Shuningdek, ularning ijodi davomida kino va dublyaj sohasidagi ibratli faoliyati va an'anasini saqlab qolish uchun taklif bildiriladi.

Kalit so'zlar: spektakl, sahna, ekran, dublyaj, partnyor, nutq, ovoz, nafas, uslub, personaj.

ВКЛАД АКТЕРОВ УЗБЕКСКОГО ТЕАТРА В ИСКУССТВО КИНО И ДУБЛЯЖА

Аннотация. В этой статье говорится о творчестве великих, ведущих актеров и режиссёров-педагогов национального театра. Также мы рекомендуем сохранить национальные традиции их деятельности в сфере кино и дубляжа.

Ключевые слова: спектакль сцена, экран, дубляж, партнер, речь, голос, дыхание, стиль, персонаж.

THE CONTRIBUTION OF ACTORS OF THE UZBEK THEATER TO THE ART OF CINEMA AND DUBBLING

Abstract. This article will talk about the creativity of Dargah artists, leading actors and pedogogog-directors of our national theater. Also during their work, an invitation is expressed to preserve their instructive activities and tradition in the field of cinema and dubbing.

Key words: performance, stage, screen, dubbing, partner, speech, voice, breath, style, character.

Dramaturg fikriniizhor qiladigan ham, rejissyor talqiniga jon kiritadigan ham, tomoshabin bilan yuzma-yuz muloqotda bo'lib, unga zavq-shavq bag'ishlaydigan, o'ylashga, fikr yuritishga majbur qiladigan ham aktyordir. Darhaqiqat, sahna qiroli hisoblangan aktyorlar zimmasiga ulkan vazifa yuklangan. Tabiatning gultoji bo'lmish inson uning ezgu orzulari, baxt va erk yo'lidagi tinimsiz mehnatlari, izlanishlarida uning hayotiy haqiqatga aylanishlarida adabiyot va san'atning o'rni beqiyosdir. Sahnaviy haqiqatni hayotiy haqiqatga aylantira bilishlik murakkab ekanligi bizga ma'lum. Shuning uchun spektakl tomosha qilish mobaynida ijro etilgan qahramonlarning ta'sirchan so'zi, dialog, monologlar orqali, ba'zan so'zsiz holatlar ham bo'ladiki, buni eng mahoratli aktyorlarning butun ruhiyati va jismi orqali bo'layotgan voqealarni rivojlantirib, tomoshabinni yetaklaydi. Sukutli sahnalarda ham tomoshabin voqeadan birzum ham uzila olmay, qarsak chalib yuboradi, yig'laydi, kuladi, o'yga cho'madi. Mana shu holatlar teatr san'atining qudratini, asar muallifi, rejissyorning maqsad-muddaolarini to'la-to'kis ado etayotgan aktyor orqali yetkaziladi. Teatr san'ati nazariyasi va amaliyoti mutaxassisi K.S. Stanislavskiy "Sahnaning yagona shohi va hukmroni iste'dodli aktyordir!" deb ta'kidlagani ham bejiz emas.

Har bir sahna asari ulkan mehnat evaziga yuzaga keladi. Dramaturg aytmoqchi bo'lgan so'z, rejissyor olib chiqayotgan g'oya, aktyorlar ijrosi,

teatr rassomining dekoratsiyadagi sahnaviy yechimi, chiroq va musiqa bezaklari, grim va liboslar spektakl mavzu va g'oyasini ochib berishda muhim vosita sanaladi. Shuningdek, pyesa uslub va janr borasidagi tanlov spektakl asosini tashkil qiladi. Har bitta yangi spektakl namoyishi aktyorlar uchun tomoshabinlar oldidagi katta imtihondir.

O'zbek teatrining tarixi uzoq o'tmishga ega. U qadimiy teatr, an'anaviy qiziqchi va masxarabozlarning tomosha san'ati va XX asrning boshlaridan shakllanish jarayonini o'tab, professional davlat teatri darajasiga ko'tarilgan milliy madaniyatimizni o'z ichiga oladi¹. O'zbek milliy teatrining jahonga dovrug'i ketgan spektakllaridagi zabardast, sahna san'atining darg'alari yaratgan obrazlari hali-hanuz xalqimiz e'tirofida. Teatr tarixi bo'yicha san'atshunos olimlarning ilmiy tadqiqot meroslaridan bizga ma'lumki, o'zbek dramaturgiyasining asoschisi, shoir, tarjimon, bastakor hamda aktyor sifatida nom qozongan, Hamza Hakimzoda Niyoziy boshchilik "O'lka sayyor truppasi" deb atalar edi.

Keyinchalik truppga aktyor va rejissyor, o'zbek adabiy tili va shevachiligining katta bilimdoni Mannon Uyg'ur jalb etiladi. O'lkamizdagi teatrlik harakatining ilk qaldirg'ochi Hamza bo'lsa, u asos solgan teatr ijodiy faoliyatining keyingi bosqichlarida truppani shakllantirish, repertuar ustida jiddiy ishlash, aktyorlar mahoratining charxlanishi hamda teatrning professional darajasi yanada takomillashuvida rejissyorlar Mannon Uyg'ur va Yetim Bobojonovlarning hissasi beqiyos ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

¹ Турсунов.Т XX аср ўзбек театри тарихи (Дарслик-монография). – Toshkent: "ART PRESS" Co.Ltd, 2010-y. 568-b.

Shunisi diqqatga sazovorki, keyinchalik yirik teatr aktyorlaridan A.Hidoyatov, O.Jalilov, F.Umarov, L.Nazrullayev, S.Olimov, S.Tabibullayev, M.Qoriyeva, S.Eshonto'rayeva, Z.Hidoyatova, T.Sultonova, Z.Sadriyeva, Sh.Mag'zumova, X.Islomov, Sh.Qayumov, G'.Isomov, H.Latipov, M.Miroqilov, M.Kuznetsova, X.Xo'jayeva, Sh.Burhonov, O.Xo'jayev, N.Rahimov, A.Turdiyevlar truppaning o'ttizinchi-elliginchi yillardagi yetakchi ijrochilari bo'lib qoladilar. Bu borada teatrdagi ko'plab spektakllar sahnalashtirilishi o'zbek teatrlarining rivojlanishiga hissa qo'shib keldi.

Milliy teatrimiz darg'alarining ijod maktabi, so'zlash mahorati kabi namunali an'analari haqida so'z borganda, Muqimiy nomidagi O'zbekiston musiqali drama teatri vakillariga mansub Mannon Uyg'ur, Yetim Bobojonov, Toshxo'ja Xo'jayev kabi rejissyorlarning aktyorlik mahorati va sahna nutqi ustida ishlash maktabidan xabardor bo'lgan, ular bilan ma'lum muddatlarda ijodiy hamkorlikda bo'lgan Lutfixonim Sarimsoqova, Razzoq Hamroyev, Abdurauf Boltayev, Farog'at Rahmatova, Mashrabjon Yunusov, Hamza Umarov, Fayzulla Ahmedov, Farziddin Fayozov singari aktyorlar ijodini ham yodga olish maqsadga muvofiqdir.

Razzoq Hamroyev sahnadagi partnyorining qalbiga ta'sir o'tkazish uchun aktyorning, eng avvalo, nutqi mantiqan to'g'ri va ishonarli tarzda yo'lga qo'yilishi zarurligini, har bir so'zdagi tovushlar talaffuzi meyorda bo'lishi lozimligini juda yaxshi his etardi. Shu bois sahnada uning baland ovozda gapirishi ham muayyan vaziyat taqozosiga ko'ra past, pichirlash darajasidagi so'zlari partnyori uchun ham, tomoshabinlar uchun ham birdek tushunarli va ta'sirchan bo'lgan.

Mannon Uyg'ur va Yetim Bobojonovlarning sahna maktabida toblangan, ularning ish uslublarini o'zbek teatr san'atiga kiritgan, nazariy va amaliy yangilik, topilmalarini olib kirgan Toshxo'ja Xo'jayev ham o'zining ko'p vaqtini yoshlar tarbiyasiga bag'ishlagan. Teatr san'ati institutida talabalarga aktyorlik va rejissyorlik mahoratidan saboq berish ijodiy faoliyatining muhim bir sohasi hisoblangan. Shu bois o'zi tahsil bergan talabalarni bitirish arafasida Hamza nomidagi O'zbek davlat akademik drama teatri (hozirgi Milliy teatr)ga olib keladi. Turg'un Azizov, To'ti Yusupova, Turg'un Xonto'rayev, Zebo Soliyeva, Abror Qosimov, Dilbar Qosimova kabi yosh aktyorlar ijodiy yo'lini ana shu teatrdagi boshlash baxtiga muyassar bo'ladilar. Shogirdlaridan Turg'un Azizovning ijro uslubi, aktyorlik mahoratiga alohida ahamiyat qaratadi. Unga ishonch bildirib, bosh qahramonlar ijrosini topshiradi. Turg'un Azizov yaratgan G'ofir, Yo'lchi, Monserro, Eydzi, Ferdinand singari qator obrazlar rejissura san'atining ustasi hamda ustoziga sadoqatli shogirdning yelkama-yelka izlanishlari mahsuli sifatida yuzaga keladi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston xalq artisti Turg'un Azizov ham ustoz Toshxo'ja Xo'jayev yaratgan sahna ijrochiligi maktabining peshqadam vakili sifatida samarali izlanishlar olib borib, ko'p yillar mobaynida teatr san'ati institutida talabalarga dars berdi. Ham aktyor, ham rejissyor sifatida ijro etgan salmoqli rollari hamda sahnalashtirgan spektakllari

bilan tomoshabinlar qalbidan joy olgan. Ustozi kabi shogirdlaridan bir qanchasini Milliy teatrga olib kelgan. Bugungi kunda ular samarali ijod qilib kelishmoqda.

O'zbek sahna va ekran san'atining betakror ayasi Lutfixon Sarimsoqova ijro jarayonida sahnaviy nutq, ovoz va nafas tizimlarini idora qilishning havosini olgan usta san'atkor bo'lib, o'zining sodda va tabiiy ijrosida so'z va jumlar qatidagi kinoya, qochirim, uchiriq, kesatq unsurlarini og'ishmay, tomoshabinga yetkazishda ayni shu omillardan foydalangan. Bunga misol qilib, u ijrosidagi Alisher Navoiyning **"Farhod va Shirin"** dostoni asosida sahnalashtirilgan spektakldagi Zoli Makkora (Yosuman), **"Mahallada duv-duv gap"** filmidagi ona obrazlari o'zining betakrorligi bilan xalqimiz qalbiga muhrlangan.

O'zbekiston xalq artisti Hamza Umarov esa milliy teatr va kino san'atida mutlaq o'ziga xos betakror ovozi bilan san'atsevar xalqimiz e'tirofiga sazovor bo'lgan. "Shum bola" filmidagi o'g'riboshining so'zlarini eslasak, uning qabih ishlardan qaytmaydigan bir kazzob personaj xatti-harakati, yurish-turishi, ruhiy va jismoniy holat uyg'unligida ekanligini ko'ramiz. Uning shu "hunar" orqali hech bir kami bo'lmasligini, yaxshi yashashini ikki yosh bolalarga ishonch bilan aytishida o'z yo'li to'g'ri ekanligi bir so'z bilan yoki mo'ylovini ora-sira siypab qo'yishida yaqqol ko'rinadi.

"Mahallada duv-duv gap" filmidagi "ichimdagini top" qabilidagi og'ir, bosiq, "onaning chizgan chizig'idan chiqmaydigan" o'g'il rolda esa holati ham, qarashlari ham, yana qo'rqqoligiga mos sal titroq ovoz tanlash mahorati bu aktyor uchun noyob topilma hisoblanadi. Shu ko'nikmasining mahsuli dublyajdagi jahon filmlaridagi turli millat vakillarining, takrorlanmas obraz qahramonlariga ovoz berishda qo'l keladi. San'atkor ovozi tinglovchi diqqatini darhol o'ziga qaratish, o'tkir va keskiriligi bilan ajralib turadi. Aktyor har bir so'zni lo'nda, har bir jumlaning kesib gapiradi. Hamza Umarovning ovozi evrilish (o'zgarish, boshqacha tus olish) kuchiga egaligi bilan ham jiddiy ahamiyat kasb etardi. Shuni aytish kerakki, Hamza Umarovning ovozi har bir vaziyatga moslasha olar, obraz holatiga mos ravishda tusini darrov o'zgartirib, o'sha holatga mos badiha qilishga, shu yo'l bilan vaziyatning mazmun-mohiyatini ochib berishga moyil va qodir edi. Shu bois ham so'z san'ati ilm va amaliyotini obdon o'zlashtirgan Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrlarining Razzoq Hamroyev, Hamza Umarov, Abdurauf Boltayev, Farziddin Fayozov, Fayzulla Ahmedov, Sobirjon Rahimjonov kabi aktyorlar qatori Mukambar Rahimova, Rimma Ahmedova, O'ktam Luqmonova, O'zbekiston xalq artistlari Yoqub Ahmedov, Obid Yunusov, To'lqin Tojiyev, Arsen Ismoilov, Dilbar Ismoilova, Hojiakbar Nurmatovlar butun faoliyatlari mobaynida teatr, kino bilan bir qatorda dublyaj san'atining ham eng faol ishtirokchisi bo'lib, o'zbek dublyaj san'ati maktabiga asos solgan san'atkorlar sifatida milliy san'atimiz va madaniyatimiz tarixida muqim joy oldilar.

Bugungi kunga kelib, zamonaning eng tezkor va samarali texnika jihozlari bilan ko'plab filmlarni dublyaj qilish, kino ekrani hamda televideniye, ijtimoiy

tarmoqlar uchun ham jahon filmlarini dublyaj qilish ishlari davom etmoqda. Ibratli maktab sanalgan dublyaj san'ati an'anasini endi davlat va nodavlat kanallarini to'ldirish uchun har bir kanalning o'zi dublyaj qilish ishlari boshlanganiga ham 15-20 yillar bo'ldi. Avvalo dublyaj mutaxassislarining televideniye ko'chirilib, telefilm binosida ham xalqimizga manzur bo'lgan **“Mahobhorat”** nomli Hindiston tarixiy seriali, **“Kusto komandasining suv osti sarguzashtlari”** deb nomlangan ilmiy-ommabop filmi va yana bir qancha multfilmlarning juda samarali, ta'sirchan qilib dublyaj qilinganligi ham tahsiga sazovordir.

Bu borada dublyaj rejissyorlari va mutaxassislari Bahodir Abdullayev, Yo'ldosh Abdukarimov, Kamoliddin Usmonovlarning nomlarini alohida aytish lozim. Dublyajning keyingi avlod vakillari Elyor Nosirov, Sanjar Sa'dullayev, Farhod Aminov, G'aybullah Hojiyev, Afzal Rafiqov, Oybarchin Bakirova, Mahmud Ismoilov, Hojiakbar Komilov, Zulxumor Mo'minova, Bekzod Muhammadkarimov, Madina Muxtorova, Fatxulla Mas'udov, Lola Eltoyeva, Faxriddin Shamsimatovlar ishlagan davrlarda ham klassik dublyaj maktabi an'anasini saqlanib turdi.

Ushbu davrda ham teatr aktyorlarining xizmatlari katta bo'ldi, deb ayta olamiz. Endi aktyorlar soni biroz qisqartirildi. Ya'ni bitta aktyorning o'zi 3 yoki 4 personajga ovoz berish ishlari boshlandi. Bu uslub ham qiziqarli jarayonlarni berdi. Endi aktyor zimmasida boshqa xarakterli, boshqa ovozli personajga ovoz berish mas'uliyati bor edi. Mahoratli aktyorlarimiz bu jarayonni ham uddalay oldilar. Masalan, O'zbekiston xalq artistlari Afzal Rafiqov, Dilbar Ismoilovlar **“Esmeralda”** ko'p qismli filmida 3-4 personajlarga ovoz berishdi. Bu albatta, aktyordan ovoz tallaffuzi, nutqiy xarakter va ijro mahorati kabi sahna nutqining eng zaruriy elementlari bilan bir qatorda eng kichik unsurlarini ham o'rganishni va uni to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirdi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, milliy teatr va kino san'ati tarixi O'zDSMI'da nazariy va amaliy tarzda teatr san'ati, kino, TV va kino san'ati yo'nalishi talabalariga malakali pedagoglar, taniqli aktyor va rejissyorlarni jalb qilgan holda o'qitilmoqda. Jumladan, **“Kino, televideniye va radio rejissyorligi”** kafedrasida **“dublyaj asoslari”** tanlov fanlarda, **“Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati”** kafedrasida 3 va 4-semestrda **“Badiiy asarlarni ovozlashtirish”** deb nomlangan fan ham tanlov fanlarida, shuningdek, ikki yildan buyon yangi fan tarzida o'tilayotgan **“Filmida ovoz yozish amaliyoti”** fani birinchi kursdan boshlab asosiy fan sifatida o'qitilmoqda. Lekin uning ijodiy amaliyoti ba'zan institut ovoz yozish xonasida, aksariyat tashqaridagi xususiy pullik studiyalarda

o'kaziladi. Bu talabaga ham mablag', ham vaqt masalasida birmuncha noqulaylik keltirishi aniq.

Buning uchun bizda rejissyorlik guruhlarini turlari bo'yicha, aktyorlik yo'nalishi ham turlari bo'yicha o'qitilishi hammamizga ma'lum. Yana shuni aytish kerakki ularga ham **“Aktyorlik mahorati”**, **“Sahna nutqi”** fani o'tiladi. Demak, talaba-rejissyor ham aktyorlik san'atidan xabardor. Institutdagi amaliyotni o'tash davrida kafedralar tomonidan talabalarning o'zlari mustaqil bir film dublyajini amalga oshirishlari mumkin. Buning uchun, albatta, texnik uskuna bazalar yetarli bo'lishi lozim. Amaliyot davrining mahsulini baholash shu yo'nalish kafedrasida professor-o'qituvchilari tomonidan muhokama etilib amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Keyinchalik ijodiy mahsulot tijoratlashtirilsa, moliyaviy tomoni ham ma'lum bo'lardi. Professional dublyaj rejissyorlarining film dublyaji va vaqt masalasi tig'izligi bois yosh, tajribasi yetarli bo'lmagan aktyordan ko'ra tajribali aktyor bilan ishlashlarining sababiga yechim topilar edi. Bu borada o'quv dasturlariga ham sohani o'rganish uchun qo'shimchalar kiritish kerak. Takliflarimiz amalga oshirilib inobatga olinsa, institutni bitirib, professional yo'lga chiqqan mutaxassisning bilim va ko'nikmasi amaliyotda charxlanganligi, milliy san'atimiz namoyandalari an'analari davom ettirishdek xayrli ishlarda namoyon bo'lishiga ishonamiz.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, milliy san'atimizning mustahkam poydevori sanalgan ustoz-shogird an'anasini mavjud. Uni saqlash, teatr va kino san'ati yo'nalishi talaba-yoshlarining nazariy va amaliy bilimlarni o'quv va professional teatr sahnalarida, kino va televideniye ekranlarida namoyish qilish, shuningdek, dublyaj san'ati maktabi, uni qunt bilan o'rganishlari har bir pedagog-ustoz uchun mas'uliyat talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizov. T. Mening rejissyorlik ishlarim (So'zboshi). – Toshkent: “Akademnashr”, 2010.
2. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. – T.: “Badiiy adabiyot”, 1965.
3. Ikromov. H. Davr va teatr. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, –T.: 2009.
4. Tursunov T. Sahna va zamon. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2007.
5. O'zbekiston xalq artisti Turg'un Azizov bilan suhbat. 2008-yil.
6. Dublyaj rejissyorlari Mirg'iyos Soatov, Yo'ldosh Abdukarimov, Kamoliddin Usmonovlar bilan suhbat. 2008–2010-yillar.

USTOZLARNING ILMIY MEROSINI O'RGANIB...

Annotatsiya. Ushbu maqolada, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Sahna nutqi" kafedrasida turli yillar mobaynida faoliyat yuritgan ustozlarning ilmiy va ijodiy merosi haqida so'z ketadi.

Kalit so'zlar: emotsional nutq, adabiy-badiiy talaffuz, dramaturgiya, til me'yorlari, milliy xarakter, repetitsiya, madaniyat, adabiy til.

ИЗУЧЕНИЕ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ

Аннотация. С помощью данной статьи мы рассмотрим научное наследие профессоров, работавших на кафедре «Сценическая речь» в разные годы и оставивших след своими научными источниками и созданием литературы.

Ключевые слова. эмоциональная речь, литературно-художественное произношение, драматургия, языковые нормы, национальный характер, репетиция, культура, литературный язык.

STUDYING THE SCIENTIFIC HERITAGE OF TEACHERS

Abstract. With the help of this article, we will view at the scientific heritage of professors who worked at the Department of Stage Speech in different years and left their mark with their scientific sources and the creation of literature.

Key words. emotional speech, literary and artistic pronunciation, drama, language norms, national character, rehearsal, culture, literary language.

So'z san'ati o'zining bor hikmati teatr, kino, radio, televideniye, shuningdek, estrada san'atining ta'sirchan vositalar yetakchisi bo'lib kelmoqda. Komil inson tarbiyasida nutqiy ifoda va uning ma'naviy tarbiyaviy tizimlarini ishlab chiqish, ezgu maqsadga erishish va buni yoshlar orasida keng targ'ib qilish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

"So'z – tafakkur xazinasining ko'zgusi bo'lib, sahnada aktyor uchun faqat fikrni ifodalash vositasigina bo'lib qolmay, balki qahramonning dunyosini faol ifoda qiladigan asosiy omildir", – deb yozgan edi Inoyatullo Po'latov o'zining "Sahna nutqi" o'quv qo'llanmasida [1].

So'z san'atining ilmiy jihatlarini ko'plab kitoblarga joylagan Inoyatullo ustoz 1962-yilda Hamza nomidagi san'atshunoslik institutining aspiranturasiga o'qishga kirgan. 1969-yilda Ozarbayjon fanlar akademiyasi, ijtimoiy fanlar bo'limining kengashida "O'zbek sahna nutqining shakllanish va rivojlanish masalalari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Inoyatullo Po'latov "Sahna nutqi" o'quv qo'llanmasida aktyorning muayyan bir siymodagi nutqini tahlil qilish uchun, bizningcha, transkripsiya belgilari qo'llangan maqsadini ifodalashda o'zlik qiladi. Uni to'la ifodalab bo'lmasligining 5ta asosiy sabablari bo'lib, 5 jihatni pedagog bilmog'i muhimdir, deb izohlaydi. I. Po'latov o'tkazgan nazariy-amaliy mashg'ulotlarda talabalarni milliy insoniy e'tiqod, ulardagi ma'naviy tarbiyaga ham jonkuyarlik bilan yondashib, o'zbek sahna nutqi maktabining nazariy va amaliy asoslari rivojiga salmoqli hissa qo'shgan olimdir.

Aktyorlik mahoratining qon tomiri hisoblangan "Sahna nutqi" fanining yana bir jonkuyari o'zbek kino va teatr san'atkorlarining onajon ustozlari sanalagan Roziya Usmonova, "Sahna nutqi" kafedrasida

uzoq yillar ishlab, ko'plab ilmiy konferensiya va seminarlarda ma'ruzalar bilan qatnashgan. Ustoz pedagogik faoliyati davomida nutq texnikasiga asosiy e'tiborni qaratgan. "Nutq san'atida tez aytishni ahamiyati" o'quv qo'llanmasini hamon yosh pedagoglar dastruilamal qilib qo'llaydilar. Tez aytish ustida ishlashga oid metodik tavsiyalarni darslarida tatbiq etishadi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ko'p yillar davomida aktyorlar, rejissyorlar tayyorlashga xizmat qilib, hozirda keksalik gashtini surayotgan ustozlarning ilmiy, ijodiy hamda metodik tajribalarini doimiy o'rganib borish, shuningdek, bu tajribalarni o'z faoliyatida qo'llash muhim masaladir [2].

"Avvalo o'qituvchining o'zi ko'tarinki ruhda dars mashg'ulotlarini olib borishi kerak. Bu talabalarning darsga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. Agar o'qituvchi imillagan, bo'lar-bo'lmas narsalarni yoki o'z o'tmishini gapirib berish bilan darsni olib boradigan bo'lsa, talaba ham o'qituvchidan, ham darsdan zerikadi. Talabani texnik mashqlar va ijodiy fantaziyalar bilan qiziqtirib, ijod qilishga ko'mib tashlash kerakki, talaba faqat ijod qilish bilan band bo'lsin. Shundagina natijaga erishish mumkin".

Ushbu so'zlar umrini "Sahna nutqi" kafedrası bilan bog'lab, o'zidan keyin ko'plab shogirdlarni qoldirgan, ilmiy ishlanmalari bilan soha rivojiga munosib hissa qo'shgan dotsent O'ktam Nurmuxammedovaga tegishli. Ustoz uzoq yillik pedagogik faoliyati davomida o'zbek, rus kurslaridan tashqari qoraqalpoq, turkman, qozoq guruhlarida ularning ona tilida dars berdi. O'Nurmuxammedovaning ilmiy faoliyati e'tiborga molikdir. Teatr san'atining ko'p qirralarini yorituvchi "Teatr" jurnali va ilmiy to'plamlarda, sahna nutqining turli muammolari, yetakchi ustozlar va san'atkorlar

faoliyatiga bag'ishlangan 10dan ortiq ilmiy maqolalar e'lon qilgan. 2008-yilda "Qo'g'irchoq aktyorligi" va rejissyorlar guruhi uchun "Sahna nutqi" o'quv qo'llanmasini yaratdi. Ustozning mehnatlari samarasi o'laroq, dotsent ilmiy unvoniga loyiq topildi. 2005-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi Yuqori Kengashi prezidiumining qarori bilan Qoraqalpog'istonda xizmat qo'rsatgan madaniyat xodimi davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Ustoz yaratgan maktab, ta'lim berish metodikasi hali-hamon shogirdlar mehnati faoliyatida o'z natijasini bermogda [3].

1972-yil O'zbekiston Fanlar akademiyasidagi fonetika tajriba laboratoriyasi bilan hamkorlikda o'zbek fonemalarini eksperimental tahlili va sahna nutqida qo'llash ustida ish olib borgan yana bir ustoz Ahmadjon To'laganovning ilmiy ishlariga to'xtalamiz. A.To'laganov talabalarga dars berish bilan birga nutq bilan bog'liq respublika miqyosida o'tkazilgan anjumanlarda ma'ruzalar va ilmiy maqolalar bilan chiqishlar qilgan. 1974-yil Qozog'istonning Olmaota shahrida bo'lib o'tgan xalqaro turkologlar ilmiy anjumanida ishtirok etib, "Unli tovushlarni eksperimental tahliliga oid natijalar" mavzusida ma'ruza qilgan. A.To'laganov fanga oid hamkasbi dotsent Z.Olimjonova bilan hammualliflikda "Sahna nutqi", "She'riy asarlar ijro mahorati" o'quv qo'llanmasini, shuningdek "Sahna nutqi" darsligini chop etgan bo'lib, hozirda institut va madaniyat kollejlari darslik sifatida foydalanilib kelinmogda. Ushbu o'quv adabiyoti 2011-yil respublika o'quv adabiyotlari ko'rik tanlovida eng yaxshi darslik nominatsiyasida birinchi o'rinni egallagani ham fanning rivoji uchun yaratilgan kitoblar hanz yosh avlodni o'qitishda kerakli manba bo'lib xizmat qilayotganini bildiradi [4].

A.To'laganov bilan bir vaqtda "Sahna nutqi" kafedrasiga o'qituvchi lavozimiga ishga qabul qilingan Keldivoy Umrzoqovning pedagogik faoliyati ham tahsinga sazovordir. Kafedraning zabardast ustozlari professorlar N.Aliyeva, L.Xo'jayeva, M.Isroilovlar bilan bir safda mehnat qilgan Keldivoy domla professor Muhsin Qodirov bilan «Проблемы сценической речи в узбекской музыкальной драме» mavzusida ilmiy tadqiqod olib boradi va 1986-yil san'atshunoslik yo'nalishi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Ushbu dissertatsiya «Становление жанра и проблема сценической речи» va «Проблемы речи в развитии музыкальной драме» mavzulari bo'yicha bo'limlarga ajratilib, musiqali dramada sahna nutqining qo'llanilishi bo'yicha katta ilmiy izlanish olib borganligini ko'rsatadi va bu dissertatsiya ishi musiqali drama yo'nalishi bo'yicha ilk bor himoya qilingan ilmiy ish bo'lib qoladi. Bundan tashqari K.Umrzokov ko'plab ilmiy to'plamlarda o'z maqolalari bilan ishtirok etgan. 1982-yil "Sahnada zamonaviylik talqini" nomli qo'llanmani keng kitobxon e'tiboriga havola qiladi. Dotsent Keldivoy Umrzoqov tarbiya qilgan talabalar hozirgi kunda republikamizda faoliyat yuritayotgan san'at va madaniyat sohalarida mehnat qilib kelmogda [5].

So'z san'atining mohir va malakali, yuksak tajribali professor o'qituvchilari bugungi kunda

o'z tajribasini, an'anaviy o'qitish metodikasini izdoshlariga, izlanuvchan shogirdlariga beminnat o'rgatib kelmogda. Shunday ustozlardan biri dotsent Isoqtoy Jumanovdir. I.Jumanov nafaqat "Sahna nutqi" kafedrasini, balki institut rivojiga katta hissa qo'shgan fidoyi insondir. Qolaversa, ustozlar merosini avaylab kelayotgan kamtarin, xokisor, samimiy, sodda, ishonuvchan murabbiy sifatida qadrlidir. Ustozning pedagogik faoliyatidagi ijodiy rang-barang topilmalari, ya'ni murakkab va nutqni charxlaydigan, turli tovushli birikmalari, so'z tug'ilishi, matn mazmun-mohiyatini ochishdagi interfaol metodlardan foydalanishlari har qanday talabaning fanga bo'lgan mehrini oshiradi. Uzoq yillik pedagogik faoliyati davomida I.Jumanov shu vaqtgacha qator o'quv dasturlar, o'quv-uslubiy majmualar, jumladan, "Qo'g'irchoqlar so'zlaydi", "Sahna nutqi", "Badiiy so'z mahorati" o'quv qo'llanmalarini yaratdi. Magistratura bo'limi talabalari uchun yozgan "Badiiy so'z mahorati" o'quv qo'llanmasi 2016-yil Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rag'batlantiruvchi mukofoti bilan taqdirlangan. "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvon va ko'krak nishoni bilan taqdirlangan I.Jumanov: *"Yetuk ijodkor bo'lishning asosiy shartlaridan biri – ijodiy fantaziyaning boy, betakror namunalari bo'lmish jahon adabiyotining durdona asarlarini, tasviriy san'at, musiqa, teatr, televideniye, kinoda yaratilgan eng yetuk sara ijod namunalarni chuqur o'rganishdir. Yosh ijodkorlarning talaffuz mahorati, tasavvur olami takomillashishi uchun ko'plab turli xil murakkablashtirilgan mashqlar bilan muntazam shug'ullanishi talab qiladi"*, – degan so'zlari pedagogning shoriga aylangan [5].

Soha ilmiga o'zining munosib hissasini qo'shgan ustozlardan yana biri dotsent Sodiqjon Nosirov bo'ladi. Ustoz uzoq yillar mobaynida olib borgan ilmiy tadqiqoti natijasida "O'zbek xalq ijodida ijodkorlik va ijrochilik mahorati" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. San'atshunos va folklorshunos olim sifatida turli yillarda juda ko'plab ilmiy va ommabop "Do'mbra tilga kirganda", "Qo'shiq, kulgi hamisha hamroh", "Do'stlik ekspeditsiyasi", "Ijod durdonalarini izlab", "Kulgi bayrami", "Oltoygacha safar", "Oltoy bo'ylab" maqolalarini chop etgan. Ilmiy ekspeditsiyalarda uzoq tog'li Oltoy o'lkasida Oltoy millatining, Moldaviyaning Bessarabiya o'lkasida yashovchi turkiy avlodlar "Gagauzlarning" qadim tarixi, udumi, urf-odatlarini, og'zaki ijodiy madaniy va ma'naviy hayoti haqida hamda "Alpomish" dostonining ming yilligiga bag'ishlab, dostonni qiyoslash bo'yicha ilmiy ma'lumotlar jamlagan. O'zbekiston Fanlar akademiyasida o'tkazilgan ilmiy konferensiyalarda xalq ijodiyoti bilan bog'liq ko'plab maqolalar bilan ishtirok etgan. Bundan tashqari Koreyaning Seul va Kannam shaharlarida bo'lib o'tgan ilmiy konferensiyasida ilmiy ma'ruzalari ishtirok etib, maqola ham o'zbek, ham koreys tillarida chop etilgan. S.Nosirov o'zining kamtarligi, irodasi, mehnatservarligi, izlanuvchanligi bilan hamkasblari orasida e'tibor qozongan insondir [6].

"Sahna nutqi" kafedrasini ustozlarining ilmiy va ijodiy faoliyati kasbiy pedagogik mahoratini kuzatib, ularning

ta'lim va tarbiyasi bilan bugungi kunda o'z faoliyatini mazmunli olib borayotgan ustozlardan yana biri Xatira Juldiqorayevadir. X.Juldiqorayeva ustozlardan o'rgangan bilim va tajribalarni avlodlarga ma'naviy meros sifatida qoldirish maqsadida, professor Lola Xo'jayevaga bag'ishlab "Sahna nutqi bilimdoni" qo'llanmasini yozib qoldirdi. Pedagogik faoliyati davomida X.Juldiqorayeva "Sahna nutqi", «Сценическая речь» o'quv qo'llanmalarini yaratib, unda nutqiy nuqsonlar va ularni bartaraf etish borasida mashq va topshiriqlarga to'liq to'xtalib o'tgan. Rus va koreys guruhlarda dars berib, bugungi kunda yetuk ustoz sifatida kafedra yoshlariga bilim ulashmoqda. Sahna nutqi poydevori ustozlar tomonidan mustahkam yaratilganligini X.Juldiqorayeva kabi pedagogning kasbga bo'lgan mehr-muhabbati orqali anglash mumkin. U har doim yosh pedagoglarni sohani muntazam olib borishga, kasbiy va badiiy kitoblarni doimiy ravishda mutolaa qilishga undaydi. Ustoz yaratgan o'quv qo'llanmalarda nutqni rivojlantirish uchun ko'plab innovatsion mashqlar berilganki, ushbu mashqlarni nafaqat aktyorlar, balki nutqini tuzatish, rivojlantirish va omma oldida chiqish qiladigan barcha mutaxassislar foydalanishlari mumkin. Dotsent X.Juldiqorayeva tomonidan yaratilgan o'quv adabiyotlari ana shunisi bilan ham ahamiyatlidir [7].

"Sahna nutqi" kafedrasida uzoq yillar mobaynida o'qituvchi, katta o'qituvchi va dotsent lavozimlarida ishlagan, hozirgi kunda nafaqa yoshda bo'la turib, yosh avlodning nutqiy bilimlarini oshirish yo'lida tinmay ijod qilayotgan ustoz Bashorat Bobonazarovaning ilmiy ishlariga nazar tashlaymiz. O'z ish faoliyatini va hayotini "Sahna nutqi" kafedrasida bilan bog'lagan B.Bobonazarova juda ko'plab ilmiy maqolalar muallifidir. Shuningdek "Sahna nutqi" fanida o'z metodikasiga ega bo'lgan ustoz hamdir. Uning "Sahna nutqi" o'quv qo'llanmasidan tortib, turli yillarda chop etilgan ilmiy jurnallardagi tahliliy maqolalarda,

sohaning qirralarini o'ta sinchkovlik bilan ochganlariga guvoh bo'lamiz.

Ustoz she'riyat olami, maqol va matallar ustida ishlash bo'yicha juda ko'p tavsiyalar bergan. Bo'lg'usi aktyorlarning nutqiy kamchiliklarini bartaraf qilish uchun esa, nutq texnikasida ishlatiladigan mashqlarning innovatsion tizimini yaratgan. Ushbu metodik yo'nalish va tavsiyalar kelgusida ham bo'lg'usi aktyorlarga yordam beradi, degan umiddamiz. Yoshlarga saboq berish, fanning mohiyatini chuqur o'rganib tahlil qilish, uni yosh avlodga o'rgatish, shogirdlarni yutuqlarida zavqlanish bu Bashorat Bobonazarovaga xos xislatidir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Yangi O'zbekistonning bugungi taraqqiyotida so'z san'atining o'zni, ahamiyati, qudrati va hikmati beqiyosdir. Zero, milliy g'oyamizning ma'anaviy-ma'rifiy ziyosi, jonli hayotbaxsh so'z bilan qalb-qalbimizga singadi va o'zining umidbaxsh samarasini beradi. O'z umrini sohaga bag'ishlagan, soha rivojiga hissa qo'shgan, so'zning qudratini ilm orqali yoqlagan ustozlar merosi har doim ham dolzarb bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djumanov I. Ilmiy amaliy seminar to'plami. 2024-yil, 26–33-b.
2. Bobonazarova B. "Teatr jurnali", 2001-yil, 2-son, 37-38-b.
3. M.Xodjimatovala. "Oreantal Art and Culture" Scientific Methodical Journal. 2024-y, 340–349-b.
4. Djumanova D. "O'zDSMI xabarlarlari" jurnali, 2024/1 //115–117-bet.
5. Qurbonov Sh. "Teatr" jurnali, 2003-y, 6-son, 26-27-bet.
6. Djumanova D. "O'zDSMI xabarlarlari" jurnali, 2021-yil, 76-77-bet.
7. Yusupov Sh. Ilmiy-amaliy seminarlar to'plami. 2024-yil, 67–72 bet.

YUNUS RAJABIY NOMIDAGI MAQOM ANSAMBLI: I.VAHOBV HAMDA A.ISMOILOVLAR IJODI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansamblining rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shgan ustozlar Isroiljon Vahobov hamda Abduhoshim Ismoilovlarning fidokorona mehnatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ansambl, maqom, xonanda, sozanda, so'z, ashula.

МАКОМНЫЙ АНСАМБЛЬ ИМЕНИ ЮНУСА РАДЖАБИ: И.ВАХОВОВ, ПРОИЗВЕДЕНИЯ А.ИСМАИЛОВА

Аннотация. В данной статье рассказывается об ансамбле макамов имени Юнуса Раджаби и о самоотверженной работе, проделанной для ансамбля макама преподавателями Исраильджаном Вахобовым, внесшим вклад в развитие этого ансамбля, и педагогом Абдухошимом Исмаиловым, который до сих пор работает в ансамбле макама.

Ключевые слова: ансамбль, маком, певец, музыкант, слово, песня.

MAKOM ENSEMBLE NAMED AFTER YUNUS RAJABI: I.VAHABOV, A.ISMAILOV'S WORK

Abstract. This article talks about the maqom ensemble named after Yunus Rajabi and the selfless work done for the maqom ensemble by teachers Israiljan Vahobov, who contributed to the development of this ensemble, and teacher Abduhoshim Ismailov, who is still working for the maqom ensemble.

Key words: ensemble, makom, singer, musician, word, song.

Maqomlarni ijro etishga ixtisoslashgan xonanda va sozandalar guruhiga maqom ansambli, deb yuritiladi. Maqom ansambllarining shakllanish davri o'tmishga borib taqaladi. O'tmishda maqom ansambllari tomonidan maqomlar yaxlit turkum holda yoki ularning alohida-alohida cholg'u qismlari ijro etilgan. Bunda, jumladan, Shashmaqomdan Talqin, Nasr, Savt kabi shobalarini aytishga ixtisoslashgan hofizlar talqinxon, nasrchi, savtxon deb yuritilgan.

Maqom haqida so'z ketar ekan, beixtiyor maqomdon, akademik, ustoz Yunus Rajabiyning o'zbek musiqa san'ati uchun qilgan beqiyos xizmatlari yodimizga tushadi. Yunus Rajabiy olib borgan izchil faoliyat hamda mehnatlari natijasida maqom ansambli tashkil topdi, gullab yashnadi. Ansambllar haqida fikr yuritilganda, Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansamblini tilga olmaslikning iloji yo'q.

Ustoz Yunus Rajabiy tomonidan nashr etilgan "Musiqa merosimizga bir nazar" kitobi har tomonlama ushbu mezonga ibratdir. Yunus Rajabiy rahbarligida o'zbek mumtoz musiqa merosi ijrochiligi XX asrning 1920-yillaridan boshlab amaliy faoliyat olib borgan. Ayniqsa, 1950-yillarning ikkinchi yarmidan, maqom ansambli rasman tashkil etilgan davrdan zamonasining eng mashhur maqom ijrochilarining maqomlar ijrochiligi amaliyotida o'ziga xos ijodiy munosabat yuzaga kelgan va bu jarayon keyingi yillarda O.Alimaxsumov, G'.Toshmatov, Sh.Mirzayev, I.Vahobov va A.Ismoilovlar kabi davrining maqomdon ustozlari rahnamoliklarida davom etib kelmoqda.

Maqom ansambliga akademik Yunus Rajabiy nomi beriladi va hozirgacha ushbu ansambl o'z faoliyatini Yunus Rajabiy nomi bilan olib bormoqda.

1966-yilning noyabr oyidan boshlab maqom ansambliga Isroiljon Vahobov rahbar etib tayinlanadi. Isroiljon Vahobov ham Orif Alimaxsumov singari ansamblni azaliy an'analar negizida, ustozlardan o'rgangani kabi boshqaradi. Jamoada ijro etilgan namunalar va unutilib borayotgan ijro yo'llarini tiklashga harakat qiladi. Asarlarni asl holida tiklash va asl holida ijro qilish uchun ko'p izlanishda bo'ladi. Olib borgan izlanishlari natijasida ansambl xonandalari va sozandalari bilan birgalikda Buzruk maqomidan – "**Savti ushshoq talqinchasi**", "**Talqini ushshoq**", "**Soqinomai savti ushshoq**", "**Daromadi ushshoq**", "**Ufari savti ushshoq**", Navo maqomidan, Dugoh maqomidan, Segoh maqomidan, Iroq maqomidan va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan anchagina namunalarini radio fondiga yozib qoldirishga muvassar bo'ldi. Isroiljon Vahobov rahbarligidagi maqom ansambli vatanimizda har yil bo'lib o'tadigan "Mustaqillik" va "Navro'z" bayramlarida, festivallar va qator davlat tadbirlarida muntazam ishtirok etib kelganlar.

Ansamblning fidoyi san'atkorlari Temur Mahmudov, Ahmadjon Dadayev, Matluba Dadaboyeva, Nabijon Ziyoyev, Nasiba Sattorova, Gulbahor Erqulova, Mahmudjon Tojiboyev, Rahmatilla Samadov, Malika Ziyoyeva (dutor), Mahmudjon Yo'ldoshev, Abdulahad Abdurashidov va Ismoiljon Vahobovlar bilan birgalikda AQSh, Fransiya, Angliya, Olmoniya,



Yaponiya, Italiya, Portugaliya, Afg'oniston, Hindiston, Pokiston, Eron kabi bir qator xorijiy mamlakatlarda ijodiy safarlarda bo'lib, durdona maqom namunalarini chet ellarda targ'ib qildilar. Alisher Navoiy nomidagi katta opera va balet teatrida, "Xalqlar do'stligi" va "Turkiston" san'at saroylarida "Nazm va navo", "Maqom kechasi", "Rajabiyxonlik" mavzularida konsertlar berilishini ham o'sha davrdagi maqom ansamblining sharaflari va qizg'in ishlari, desak mubolag'a bo'lmaydi. Maqom ansamblining unutilmas yana tahsinga sazovor ishlaridan biri shu bo'ldiki, ansamblning 40 yillik yubileyiga atalgan "Jahon kezar mumtoz navolar" deb nomlangan, "Telefilm" ijodkorlari tomonidan video tasvirga olingan film-konsertini tilga olish muhimdir. Bu film-konsert Buxoro-Samarqand shaharlarida tasvirga olingan bo'lib, unda maqom jamoasining eng yaxshi ijro namunalari o'rin olgan 45 daqiqali film-konsert barcha muxlislar va maqom ixlosmandlariga juda ma'qul bo'lganligini ham eslatib o'tish kerak. "Maqom jamoasiga rahbarlik davrimda Eson Lutfullayev, Mahmudjon Yo'ldoshev, Mahmudjon Tojiboyev, Ahmadjon Dadayev, Gulbahor Erqulova, Tohirjon Turg'unov, Malika Ziyoyeva, kabi fidoyi san'atkorlarimiz "O'zbekiston xalq hofizi" va "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist", – unvonlariga sazovor bo'lishdi. Radio va televideniye fondi uchun yozilgan maqom jamoasi xonandalari va sozandalari ijrosida magnit tasmlariga tushirilgan asarlarning yangrash vaqti 1996-yil noyabrdan to 1999-yilgacha 64 soatdan oshiqroq ijroni tashkil etdi.

Isroiljon Vahobovdan so'ng maqom ansamblini boshqarish Abduhoshim Ismoilov zimmasiga yuklandi. Abduhoshim Ismoilov 1975-yil Respublika davlat teleradiokompaniyasi qoshidagi "Maqomchilar ansambli"ga ishga taklif etiladi. Uning ansamblga taklif etilishi doimo uning orzusi edi. Buning sababi esa maqom ijrochiligini puxta egallash, ustozlar qo'l

ostida o'zlashtirish, maqomlarning nazariy va amaliy tomonlarini chuqur idrok etib, amaliyotda o'zini sinash edi. Maqom ansamblida u milliy musiqamiz darg'alaridan bo'lmish benazir sozanda va xonanda Faxriddin Sodiqov, Mahmudjon Muhammedov, Orif Alimaxsumov va Turg'un Alimatov kabi ustoz maqomdonlardan maqom sirlarini o'rganadi. Abduhoshim Ismoilovning ijrochilik va bastakorlik mahoratining rivojlanishida aynan maqom ansambli muhiti sabab bo'ldi, desak to'g'ri bo'ladi.

Abduhoshim Ismoilovning 1973-yildan boshlangan ijodiy faoliyati jarayonida ko'proq qo'shiq va ashula janrlarida asarlar yaratib kelayotganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. U qaysi bir she'rga murojaat qilmasin, avvalo, uning matni muhim ahamiyat kasb etgan. Abduhoshim Ismoilov so'z va kuyni teran uyg'unlashtirishga doimo harakat qilib keldi.

Abduhoshim Ismoilov 1999-yilda "Maqom ansambli" rahbari etib tayinlanadi. Ma'lumki, Yunus Rajabiy tomonidan 1959-yilda asos solingan maqomchilar ansambliga turli davrlarda ustoz san'atkorlar rahbarlik qilganlar. Mohir sozanda va bastakor Faxriddin Sodiqov, hofiz Orif Alimaxsumov, hofiz Isroiljon Vahobov kabi maqom bilimdonlari Yunus Rajabiy maktabining davomchilari sifatida qaraladi. Bu ijodkorlardan Abduhoshim Ismoilovning farqi shundaki, u birinchilardan bo'lib Shashmaqom ijrochiligiga yangicha ijodiy qarashlari bilan yondashdi. 1987-yildan maqom ansambli bilan birga Shashmaqomni yangi zamonaviy stereo formatidagi ovoz yozuvini boshlab, bu ish jarayonida yutuqlarga ham erishdi. Cholg'u ansambli tarkibini kengaytirib, ansamblga yangi sozlarni kiritdi. Musiqashunos olim Otanazar Matyoqubov o'zining "Maqomot" nomli kitobida shunday deb yozadi: *"Yunus Rajabiydan so'ng Shashmaqom ijrochiligiga yangilik kiritishga jur'at etgan rahbar Abduhoshim Ismoilov bo'ldi"*¹.

Haqiqatan ham so'nggi yillarda Abduhoshim Ismoilov rahbarligida Shashmaqomning ijrosida bir

¹ Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent: "Musiq", 2004-y. 105-b.

qator yangiliklar kuzatilmoqda. Ulardan biri cholg'u ansamblining tarkib masalasi bo'lib, ijodkor uning sadosini boyitish maqsadida qo'biz bass, klarnet, nog'ora, "katta" doyra sintezator va turli urma cholg'ularni kiritdi. Ansambl tarkibi kengaydi va Abduhoshim Ismoilovning ijodida rivojlanayotgan ko'povozlik yaqqol o'zini ko'rsata boshladi. Ya'ni cholg'ular avvalgiday asarning boshidan oxirigacha jo'rlik qilmay, o'ziga ajratilgan bo'laklarinigina ijro eta boshlashdi. Shu bilan birga ansambl ijrosida asarning avj nuqtasiga ham ko'proq e'tiborini qaratdi. 2000ga yaqin cholg'u va aytim asarlari muallifi bo'lgan Abduhoshim Ismoilov so'nggi yillarda mumtoz an'analarga, yangi maqomlarning aytim va cholg'u yo'llari, katta ashula va sunray yo'llari xususiyatlarini chuqur idroklab, ularga ijodiy yondashuv orqali tayanib Alisher Navoiy, Bobur, Gadoiy, Hofiz, Haziniy kabi klassik shoirlarning g'azallariga murojaat qilib, bir qator ashulalar bastaladi. **"Vasl topsang", "Tarahhum qilmadi", "Nasib bo'lg'ay", "Hamroz qil", "Ey do'st", "Munavvar qil", "Yor emas"** shular jumlasidandir. Sozanda va bastakor Abduhoshim Ismoilov 1999-yildan hozirga qadar Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambliga rahbarlik qilib kelmoqda.

Shu yillari Abduhoshim Ismoilovning bastakorlik ijodi, ijrochilik va targ'ibotchilik faoliyati yuqori baholanib, uning bir qator unvonlar sohibi bo'lishiga sabab bo'ldi. Abduhoshim Ismoilov ko'pgina maqom negizida zamonaviy ruhdagi asarlar yaratib kelmoqda. Shu bilan birgalikda Abduhoshim Ismoilov ansamblida asosiy diqqat-e'tiborni ayollar ijrosiga qaratdi. Ustoz Yunus Rajabiy davrida maqom ansamblida asar ayol va erkaklarga mos holda taqsimlangan bo'lsa, Abduhoshim Ismoilov rahbarligidagi ansamblida asosan ayollar ijrosiga ko'proq e'tibor berilmoqda.

Bu esa ansamblning ham yutuq, ham kamchiligi deb o'ylayman. Chunki asarning avj qismida ayollarning yuqori pardalarda kuylab, haddan ortiq chinqirishi ko'proq zamonaviy ijrochilik mezonlariga yaqinroq, desak to'g'ri bo'ladi.

1959-yil Maqom ansamblidagi xonandalarning ijrosi o'zining jozibadorligi bilan, kamtarin ruhdagi ijrosi bilan keyingi avlodga o'rnak bo'luvchi ijrodir. Ansamblning yetakchi ayol xonandalari bo'lmish Berta Davidova, Barno Isoqova, Kommuna Ismoilovalar o'zlarining go'zal nola-yu, shirin nafasleri bilan, mohirona ijro uslublari bilan o'z yo'lini, o'z maktabini yaratib ketgan hofizalardir. Ushbu hofizalarning ijrolari ijrochilik mezonlariga to'la javob bergan va bundan keyin ham ayol ijrochilar uchun eng mukammal namuna bo'lib qoladi. Ma'lumki ijrochilik san'atining ham o'ziga xos talablari mavjud va ular quyidagilardan iborat: ovoz, xotira, nafas, so'z talaffuzi, an'anaviylik, badihago'ylik va shu bilan birga musiqa va ijrochilik bilimi, iste'dod va ma'lum darajadagi ta'lim mezonlari ham muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent: "Musiq", 2004-y. 105-b.
2. Rajabiy Y. Musiq merosimizga bir nazar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.
3. Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansamblining 60 yillik ijodiy va amaliy faoliyatiga bag'ishlangan maqolalar to'plami. – T.: "Navro'z", 2019.
4. Yunusov R. Faxriddin Sodiqov. – T.: 2005.
5. G'ofurbekov T. XX asr o'zbek musiqasi va Yunus Rajabiy. // Musiq ijodiyoti masalalari. – T.: "Qatortol-Kamolot", 1997.

KOMEDIYA ORQALI AXLOQIY FAZILATLARNI TARG'IB ETGAN REJISSYOR

Annotatsiya. Maqola O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor Munavvara Abdullayevaning rejissyorlik faoliyati, sahnalashtirgan komediya asarlari va ular talqinida ilgari surgan g'oyalar mohiyatiga bag'ishlanadi. Rejissyorning O'zbek Milliy akademik drama teatrida sahnalashtirgan "Chimildiq", "Qirmizi olma", "Andishali kelinchak", "Dadajon demasman", "Bevalar" kabi o'zbek dramaturglarining asarlari va O'zbek davlat drama teatrida sahnalashtirgan ingliz dramaturgi Uilyam Shekspirning "Qiyiq qizning quyulishi" komediyalari misolida tomoshabinlarga axloqiy fazilatlarni targ'ib etishdagi mahorati yoritiladi.

Kalit so'zlar: komediya, rejissyor, axloqiy fazilat, umuminsoniy g'oya, o'zbek teatri, milliy xarakter, urf-odat, monolog, qahramon, rejissorlik talqini, sahna nutqi.

РЕЖИССЕР, ПРОПАГАНДИРУЮЩИЙ МОРАЛЬНЫЕ ДОБРОДЕТЕЛИ ЧЕРЕЗ КОМЕДИЮ

Аннотация. В статье раскрываются режиссерской решение в комедийных спектаклях поставленных заслуженным наставником молодежи Узбекистана, профессором Мунавварой Абдуллаевой. В постановках режиссера на сцене Узбекского Национального академического драматического театра пьесах узбекских драматургов таких как, «Чимилдык», «Пурпурное яблоко», «Застенчивая невестка», «Не назову отец», «Вдовы» и поставленный на сцене Узбекском государственном драматическом театре английского драматурга Уильяма Шекспира «Укрошение строптивой» раскрываются нравственные и воспитательные качества героев.

Ключевые слова: комедия, режиссёр, нравственные качества, общечеловеческая идея, узбекский театр, национальный характер, традиция, монолог, герой, режиссёрская интерпретация, сценическая речь.

A DIRECTOR WHO PROMOTED MORAL VIRTUES THROUGH COMEDY

Abstract. The article is devoted to the directorial activity of the honored youth coach of Uzbekistan, professor Munavvara Abdullayeva, the comedy works she staged and the ideas she put forward in their interpretation. The works of Uzbek playwrights such as "Chimildiq", "Red Apple", "Andishali Kelinchak", "Dadajon Demasman", "Widows" staged by the director at the Uzbek National Academic Drama Theater, and by the English playwright William Shakespeare staged at the Uzbek State Drama Theater The example of the comedies "The casting of a sly girl" highlights the skill of promoting moral qualities to the audience.

Key words: comedy, director, moral virtue, universal idea, Uzbek theater, national character, tradition, monologue, hero, director's interpretation, stage speech.



1975-yil Toshkent davlat san'at oliygohining (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti) aktyorlik yo'nalishini tamomlagan Munavvara Abdullayeva keyinchalik ustozlari Turg'un Azizov,

Oleg Tabakov, Vladimir Andreyev, Andrey Goncharov kabi rejissyorlar maktabida toblanadi. Rejissyorlik ta'limotidan olgan bilimlari natijasida o'zbek xalqi uchun qimmatli bo'lgan qator spektakllarni sahnalashtiradi.



Ular orasida “Chimildiq” (E.Xushvaqtoʻv, 1996-y.), “Qirmizi olma” (E.Xushvaqtoʻv, 2003-y.), “Andishali kelinchak” (E.Xushvaqtoʻv, 2005-y.), “Dadajon demasman” (S.Imomov, 2006-y.), “Bevalar” (Z.Soliyeva, 2007-y.), “Qiyiq qizning quyulishi” (Uilyam Shekspir, 2008-y.) singari komediyalar ham bor.

Mustaqillikning dastlabki yillarida sahnalashtirilgan milliy komediyalar orasida “Chimildiq” spektakli oʻzining tomoshaviyligi, tarbiyaviyligi, sahnadagi voqelikning va undagi kuy-qoʻshiqlarning xalqimizga yaqinligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Rejissyorlar Turgʻun Azizov va Munavvara Abdullayeva tomonidan sahnalashtirilgan mazkur spektaklda ilgari surilgan gʻoya oʻtish davri uchun qanchalik dolzarb hisoblangan boʻlsa, bugungi globallashuv zamonimizda ham shunchalik muhimdir. Yaʼni spektaklda koʻtarilgan muammo jiddiy boʻlib, chimildiqning, oilaviy munosabatlarning muqaddasligi haqida soʻz ketadi.

Bilamizki, chimildiq – erkak va ayolning bir oila sifatida boshlagan hayotidagi ilk uchrashuv joyidir. Birgalikda butun umrga ahdlashadigan muqaddas dargohdir. Bunday muqaddas, bunday sirli dargohda kechadigan jarayonga bagʻishlangan dramaturgning ijod mahsuli boʻlgan oʻzbek folklor-etnografik pyesasi rejissyorlar tomonidan belgilangan “tomosha ichida tomosha”, urf-odatlarimiz hisoblangan “yor-yor”ning prolog, “kelin salom”ning epilog oʻrnida foydalanishi bilan oʻzining sahnaviy talqinini topgan. Spektaklda jaranglagan yor-yor, qoʻshiq, matal, latifa, rivoyat, hayotiy hikoyalar, dialog va monologlarda aktyorlarning nutqiy xarakter ustida izlangani yuzaga chiqqan. Hayotiy haqiqatning badiiy haqiqatga aylanishida milliy xarakterimizni ochib bergan Momo (D.Ismoilova) va Oʻlanchi ayol (S.Rametova)ni alohida eʼtirof etsa arziydi.

Munavvara Abdullayeva 2003-yil sahnalashtirgan “Qirmizi olma” spektaklida yumorga boy sahnalar bilan tomoshabinga sof kulgi taqdim etib, uning

zamidagi halollik, diyonat, imon, vaʼdaga vafo kabi axloqiy fazilatlarni, insoniy sifatlarni singdirishga urinadi. Dramaturg Erkin Xushvaqtoʻv asarni rivoyat asosiga qurgan. Rivoyatga koʻra, sobit hazratlari erta tongda suvdan oqib kelayotgan olmaning taʼmini totib koʻradi va luqma tomogʻidan oʻtishi bilan oq hushyor tortadi. *“Birovning olmasini ruxsatsiz yedim, luqmani halollash uchun egasini topishim zarur”*, deb yoʻlga tushadi. Olmaning egasini topib, undan luqmani halollab berishini soʻraydi. Olma egasi momo bir shart bilan rozi boʻlishini aytadi. Shartga koʻra, momoning kar, koʻr, soqov, choʻloq qiziga uylanishi kerak edi. Bir tishlam luqmani halollash uchun rozi boʻlgan sobit hazratlari chimildiqda ne koʻz bilan koʻrsinki, qarshisida toʻrt muchasi sogʻ, goʻzal qiz turardi. Momo: *“Qizimni kar deganim – yomon soʻzlarni eshitmagan, koʻzini koʻr deganim – xunuk joylarni koʻrmagan, soqov deganim – xunuk soʻzlar aytmagan, choʻloq deganim – yomon joylarga bormagan”*, – deb hayratlangan sobit hazratlariga izoh beradi. Spektakl talqinida rejissyor Munavvara Abdullayeva komediya orqali tomoshabinni poklikka chaqiradi, halollikning ortida ulugʻ mukofot borligini uqtiradi.

M.Abdullayeva 2005-yil sahnalashtirgan “Andishali kelinchak” komediyasida yosh kelinchakning yangi xonadonga moslashuv jarayonidagi turli vaziyatlar, tushunmovchiliklardan kelib chiqadigan kulgili holatlar orqali tomoshabinlarga quvnoq kayfiyat ulashadi. Spektaklda rejissyor kelinning mana shu yangi xonadonda yashab ketishi uchun, avvalo, qaynonani onam deb bilishi, har qanday holatda ham aql bilan ish tutishi, oilaning har bir aʼzosini hurmat qilishi kerakligini uqtiradi. Oʻz navbatida qaynona ham kelinga, qizim, deb qarashi, kechirimli va bilmaganni oʻrgatish kabi sifatlarga ega boʻlishi muhimligini ilgari suradi. Spektaklda rejissyor oilaning oila boʻlib shakllanishiga taʼsir etuvchi muhim jihatlarga tomoshabinning diqqatini tortadi.

2006-yil sahnalashtirilgan “Dadajon demasman” spektaklida rejissyor M.Abdullayeva halol insonning hayoti misolida tomoshabinga niyatni to'g'ri qilish, faqatgina to'g'ri yo'l orqali boylik va ilm orttirish kerakligini anglatadi. Rejissyor tomoshabinga yomon ishlar hamda aldov, yolg'on bilan maqsadga erishib bo'lmashligini ko'rsatadi. Spektaklda bosh qahramon G'ayrat (U.Tillayev) ayoli Dilbar (N.Mahmudova) ning birov yozib bergan dissertatsiya bilan ilmiy ish himoyasiga chiqishiga rozilik bermaydi. Ayoliga ilmiy ish izlanuvchining tadqiqotlari asosida yozilishi va unda tajribalar natijasida sinovdan o'tgan yangiliklar qayd etilishi, ilmiy ishda dissertantning o'z xulosalari bo'lishi kerakligini uqtiradi. Ayoli esa unga qarshi fikr bildiradi. Ya'ni Dilbar otasining obro'sidan foydalanib dissertatsiyani himoya qilib olish payida ekanini va bu yo'lda otasining shogirdi “konveyer” yordam berishi, ish tez va oson bitishi haqida tushuntiradi. Hamma narsaga halol yo'l bilan erishib o'rgangan er buni qabul qilolmaydi. O'rtada nizo chiqadi. Qaynota ham bunga aralashadi. Umrida harom ishga qo'l urmagan G'ayrat qaynotasining harakatlarini ochiqdan ochiq ayblaydi. Spektakl orqali rejissyor M.Abdullayeva aynan G'ayrat kabi pokdomon, halol insonlar jamiyatning taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shishini ochib beradi.

2007-yil M.Abdullayeva “Bevalar” spektaklining bosh qahramoni Ra'noxon (R.Yarasheva) orqali beva ayollarning taqdirini yoritadi. Unda yolg'izlik, ayniqsa, yolg'iz ayolning qismati achchiq bo'lishini komedik holatlarda ifoda etadi. Spektaklda inson o'z yaqinlarini yolg'iz tashlab qo'ymasligi, qo'ni-qo'shnichilik aloqalarini bardavom qilishi, qarindoshlar o'rtasidagi oqibatni mustahkamlashi, bir-biriga mehr-oqibatli bo'lish kabi axloqiy qarashlarni targ'ib etadi.

Ma'lumki, jahon teatri sahnalarini ingliz dramaturgi Uilyam Shekspir asarlarisiz tasavvur qilish qiyin. Xorijiy dramaturglarning komediyalari orqali tomoshabinga axloqiy fazilatlarini singdirishga uringan rejissyor M.Abdullayeva ingliz dramaturgi Uilyam Shekspirning “Qiyiq qizning quyulishi” asariga 2008-yil murojaat etadi. Komediyaning “Yoshlar yili”ga bag'ishlab, O'zbek davlat drama teatrida O'zbekiston xalq shoiri Turob To'la tarjimai bilan sahnaga olib chiqadi. “Qiyiq qizning quyulishi” komediyasi zamonamiz yigit-qizlari o'rtasidagi munosabatlarning badiiy ifodasi sifatida hozirgi kunda ham dolzarbdir. Rejissyor asarda oila va uning barpo etilishidagi ilk jarayonlar, ziddiyatlar, munosabatlar qurilishidagi muammolar haqida hikoya qiladi.

Komediya bosh qahramon Katarina obrazini Feruza Meliboyevaga topshiradi. Aktrisaga jiddiylilik va asabiylik o'rtasidagi holatda, nutqida psixologik pauzalarga tayangan holda ijro qilishni buyuradi. Aktrisa qahramon ruhiyati va uning xarakteridagi qaysarlik sifatlariga jiddiy yondashganini ko'rish mumkin. Spektaklning janrini ochishda aynan Katarinaning nutqi muhim ahamiyat kasb etgan. Zero, “Dramatik asarning mazmuni faqat uning matnidagina

emas, balki matn zahirida, personajlarning xatti-harakati, to'qnashuvlari, voqealarning rivojlanishida ham mujassamlashadi. Aktyor esa obrazning ichki hayotidagi ana shu jarayonni “namoyon qiladi”, uni to'ldiradi va so'z zahiridagi ma'noni ro'yobga chiqaradi”¹.

Spektaklning beshinchi sahnasida nomzod kuyov Petruchcho (Ilhom Ro'ziyev) Katarinani kutar pallada reja tuzadi. Rejaga ko'ra, Petruchcho Katarinaning qaysarligi va qo'polligiga parvo qilmaydi, har qanday vaziyatda ham Katarina unga juda samimiy va ochiqyuzlik bilan munosabatda bo'layotgandek o'zini tutadi. Petruchchoning bu rejasi ish beradi. Katarina nihoyat qat'iyatli, kirishimli, hazilni ajoyib his qiluvchi insonni uchratadi. Tabiiyki, qiz o'zini yo'qotib qo'yadi va rozi bo'ladi. Kuyov to'yni keyingi yakshanbaga belgilab, kelin uyidan chiqib ketadi. Rejissyor bu sahnani ishlashda Petruchcho obrazini gavdalantirgan aktyor Ilhom Ro'ziyevning improvizatsion ijrosiga tayangan. Petruchcho Katarinaning (F.Meliboyeva) qaysarligidan, betgachoparligidan g'azablanadi. Buni ifodalashda aktyor ichki va tashqi ifoda vositalaridan foydalanadi. Ijroda aktyorning yuzidagi qizarish, ko'zlarining kattalashishi, qoshlarining bir-biriga yaqinlashishi kabi mimikalar orqali qaysar qizning qay darajada Petruchchoni g'azabga solganini sezish mumkin. Bu voqeadan keyin Petruchcho va Katarina munosabatlari yanada keskinlashadi.

Oltinchi sahnada yakshanba kuniga belgilangan to'yga Petruchchoning kechikishi uni kelinlik libosida kutayotgan Katarinaning o'z yaqinlari oldida noqulay vaziyatga tushishiga sabab bo'ladi. Uning ustiga Petruchcho kir-chir, mast-alast holda kirib kelib, Katarinani odamlar oldida sharmanda qiladi. Shundan keyin ham kuyov Petruchcho o'ziga e'tibor bermaydi. “*Nikohni shunday o'tkazaman yoki umuman uylanmayman*”, – deydi. Katarina noiloj ko'nadi. Marosimda kuyov o'zini ahmoqlarcha tutadi. Butun shaharga kulgi bo'lmaslik uchun kelin yana jim bo'ladi. To'ydan so'ng, Petruchcho ziyofatda qololmasligini va zudlik bilan ketishi, xotini esa unga ergashishi kerakligini aytadi. Rejissyor bu sahnalarni qurishda Petruchchoning xulqini eng yomon tarzda namoyon qiladi.

Yettinchi sahnada Petruchcho qaysar kelinni uyiga olib keladi. Hech narsa tanovul qilmagan Katarina yo'lda charchagan va juda och qolganini aytadi. Ammo Petruchcho unga kechki ovqat bermaslik chorasini topadi. Ya'ni taom bekaga mos idish-tovoqlarga suzilmaganidan ayb topadi, bunday idishda taomlanishni xotiniga ravo ko'rmasligini aytib, xizmatkorlarga tanbeh beradi. Boshqa idishda taom keltirishganda, “*Go'sht maromiga yetkazib pishirilmagan*”, – deb ayb topib, taomni uloqtiradi. Keyin yotoqxonaga kirishadi. Petruchcho u yerda ham Katarina uchun maxsus joy tayyorlamasligini, yostiqning yumshoq emasligini aytib janjal qiladi va hech kimga uyqu bermaydi. Petruchchoning xatti-harakatlaridan Katarina tushunadiki, bunday o'jarlik va qaysarlik, gap qaytarish va sharoitga moslashmaslik bilan tinch yasholmaydi. Natijada, o'zining qarashlarini

¹ Umarov E. Teatrda badiiy obraz yaratishning estetik tamoyillari. – Toshkent: “Star poligraf”, 2011-y. 120-b.

o'zgartirishga majbur bo'ladi va bo'ysunadi. Sharoitga va vaziyatga qarab harakatlanadi.

Rejissyor M.Abdullayeva bu sahnalarda tomoshabin e'tiborini Katarinaning bo'layotgan voqeliklarni fikrlab, ongli ravishda o'zgarib borishiga qaratadi. Aktrisa F.Meliboyeva ham qahramonning teran aql bilan mushohada yuritishini va o'zgarib borishini ichki bezovtalik, qilmishlarini anglagan nigoh orqali ifoda etgan. Ayniqsa, xizmatkor Grumio bilan taom borasidagi dialogdan so'ng, chuqur o'yga toladi va sukut saqlagan holda tomoshabinga yuzlanadi. Shu oniy lahzada tomoshabin ham voqelikni birga kechinadi. Spektakl haqida rejissyorning o'zi shunday eslaydi: *"Odobni odobsizdan o'rgan deyishadi-ku, shuning uchun ham bu asarni sahnalashtirishga qo'l urganman. Odatda, xalqimizda qiz bolani bo'yi yetgunga qadar Katarinadagi kabi qusurlardan xoli qilib tarbiyalashga urinishadi. Ya'ni qiz bola turmush qurish yoshiga yetar ekan, qaysar emas ko'nikuvchan, o'jar emas kelishuvchan, betgachopar emas xushmuomala, bir so'z bilan aytganda iffatli qilib tarbiyalanadi. Afsuski, guruch kurmaksiz bo'lmaydi, deganlaridek ba'zi Katarina kabi xarakterli qizlar ham topiladi. Mazkur spektakl qizlarimizga: "Ayol eriga itoat etgandagina haqiqiy ayollik baxtini topishini singdiradi. Spektaklda aynan Katarinaning sinish jarayoniga urg'u berilgan. Bunchalik qaysar qizni Petruchcho qanday qilib sindira oldi? Spektakl shu haqida"*².

"Qiyiq qizning quyulishi" komediyasi rejissyor M.Abdullayeva talqinida aktyorlarning psixologik holatlari bilan esda qoladi. Spektaklda aktyorlarning nutqi, tuyg'ulari, xatti-harakatlari jiddiy ifoda etiladi va kuchli dramatism seziladi. Komediya esa qahramonlarning

noqulay vaziyatga tushib qolishidan kelib chiqadi. Bosh qahramon Katarina sahnadan sahnaga baholashlar orqali ongli ravishda o'zgarib boradi.

"Qiyiq qizning quyulishi" komediyasi va uning bugungi kun uchun ahamiyati haqida Bahodir Yo'ldoshev shunday deydi: *"Hozirgi zamon yigit-qizlarining munosabat qurishida qalbga, ko'ngilga quloq solinmayapti. Manfaatlar ustunlik qilyapti. Boylikni ko'zlab, soxta muhabbat asosiga taqdirlar bog'lanyapti. Oqibatda, oilaviy muammolar kelib chiqyapti. Spektaklda ham Petruchcho, avval, moddiy manfaatni ko'zlaydi, ammo Katarinaning qalbini anglagach, sof muhabbat rishtasini bog'laydi. Petruchcho tushunadiki, Katarina qaysarligi bilan qalbini asraydi. Yoshlarimizga ibrat bo'ladigan bunday jahon klassik asarlarini bugun ko'proq sahnalashtirish kerak"*³.

Insonning axloqiy yaxshilanishining jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini teran anglagan ijodkor M.Abdullayeva o'zining qariyb 50 yillik pedagogik faoliyatida ham faqat ezgulikni singdirishga, yaxshilikni kuylashga harakat qiladi. Dars jarayonlarida butun diqqat-e'tiborini talabalarning dunyoqarashi va fikrlash doirasini kengaytirishga, kasb sirlarining nozik jihatlarini o'rgatishga qaratadi. Respublika teatrlarida komediyalar orqali tomoshabinlarga axloqiy fazilatlarni targ'ib etib kelayotgan M.Abdullayeva hozirda 75 yoshga qadam qo'ymoqdava hamon ijod bilan, insonparvarlik g'oyalarining sahnaviy targ'iboti bilan shug'ullanib kelmoqda. Axloqiy fazilatlar kuychisi, professor, rejissyor-pedagog Munavvara Abdullayeva ustozimizga uzoq umr, sog'lik tilaymiz, yana ijodiy hayratlarni taqdim etishini kutib qolamiz.

² O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori, pedagog-rejissyor Munavvara Abdullayeva bilan suhbat. 18.03.2024.

³ O'zbekiston san'at arbobi, O'zbekiston xalq artisti Bahodir Yo'ldoshev bilan suhbat. 18.10.2018

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI XABARLARI

Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi

Nashrga tayyorlovchi:
Ozoda Shobilolova

Sahifalovchi-dizayner:
Abdug'ani Sodiqov



Bosishga ruxsat etildi: 30.08.2024-yil
Ofset bosma usulda bosildi.
“Arial” garniturası. Bichimi 60×841/8.
Shartli bosma tabog'i 12,25.
Buyurtma raqami №. Adadi: 100 nusxa.

Manzilimiz: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och dahasi, 127-a uy. Tel.: 230-28-02, 230-28-03, 230-28-13